

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI***

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

ZIYAVUDDINOVA M.

***MUMTOZ ARAB ADABIYOTI
(o‘quv qo‘llanma)***

5120100 -Filologiya va tillarni o‘qitish (Sharq tillari)

ta‘lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun

Annotatsiya: Mazkur o‘quv qo‘llanma mumtoz arab adabiyoti bo‘yicha o‘zbek tilida tayyorlangan ilk qo‘llanmadir. Uning mazmuni O‘quv rejadagi fan dasturiga to‘liq mos keladi va talabalarga zaruriy manba’ sifatida xizmat qiladi.

Toshkent – 2012

Mazkur o`quv qo`llanma mumtoz arab adabiyoti bo`yicha o`zbek tilida ilk bor yaratilgan kitob bo`lib, u Toshkent davlat sharqshunoslik instituti bakalavriat talabalari va mumtoz arab adabiyoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo`ljallangan.

Uning mazmunida arab adabiyoti taraqqiyot bosqichlarining eng asosiy davrlari, shu davrlarda ijod etgan taniqli shoir va yozuvchilar ijodi, turli adabiy oqim va yo`nalishlar va ular vakillarining dunyoqarashi, asarlaridan parchalar o`rin olgan.

Mas`ul muharrir: f.f.n., dotsent Sotiboldieva S.

Taqrizchilar: f.f.d., professor Xodjaeva R.U.
O`zMU dotsenti Alimbekov A.

Ushbu o`quv qo`llanma ToshDSHI O`quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (bayonnoma №)

SO'Z BOSHI

Vatanimiz Mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin barcha fanlar qatori ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qiluvchi adabiyot faniga ham e'tibor berib kelinmoqda. Zero "Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi", – deb ta'kidlanadi Prezident I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarlarida. Haqiqatda ham adabiyotga oshno bo'lish, odobiy-ahloqiy bilimlarni oshirish demakdir. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotining bir qismi bo'lgan qadimgi arab adabiyoti ham kishi ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p manbalarga ega.

E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu o'quv qo'llanma mumtoz arab adabiyotiga oid bo'lib, u V – XVIII asrlarni o'z ichiga oladi. Biroq shu vaqtgacha mumtoz arab adabiyoti bo'yicha o'zbek tilida o'quv qo'llanma yaratilmagan. Mazkur davrlar ichida yashab ijod etgan shoirlar, adiblar hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni arab va mumtoz guruhi talabalariga o'z ona tilimizda etkazib berishni maqsad qilib qo'ydik. Mumtoz arab adabiyotining qadimgi davrlaridan kech o'rta asrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida yashab ijod etgan shoirlar, adiblar ijodi, o'sha davrlardagi turfa janrlar bilan talabalarni tanishtirish oldimizga qo'ygan vazifalardandir.

Mumtoz arab adabiyotini qator davrlarga bo'lib, talabalar e'tiboriga havola qilinadi. O'quv qo'llanmada dastlab qadimgi arab adabiyotiga oid mavzular bo'lib, u V – VII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu islomdan oldingi Johiliya hamda Ilk islom davri bo'lib, o'sha davrlarda ijod etgan shoirlar hayoti va ijodi bilan talabalar tanishtiriladi.

So'ngra Ilk o'rta asr adabiyoti (661-750 yillar) mavzulari joy oladi, unda Hijoz muhabbat she'riyati, umaviylar davri adabiyoti, hamda Ilk islom davri she'riyati, Qur'on va hadislar ham o'rin olgan.

O'rta asr adabiyoti uch bosqichga bo'lib o'rganiladi. Dastlab yangilanish davri shoirlari va adiblari xususida so'z boradi.

Keyingi bosqich Qadimiyatga qaytish deb nomlanib, bunda shoirlar ijodi bilan bir qatorda adabiy jarayon rivojiga barakali hissa qo'shgan adib va olimlar haqida ma'lumot beriladi.

Uchinchi bosqich o'rta asr arab adabiyotining taraqqiy etgan davri haqidadir. Mazkur davrda yashab, ijod etgan faylasuf va sufiy shoirlar xususida gapiriladi.

Andaluziya (arab-ispan) adabiyoti VIII – XIV asrlarni o'z ichiga olib, uch davrga bo'linadi. Taqlid davri (VIII – X shoirlari ijodi) haqidadir. Yangilanish davri (X - XIII) adabiyoti xususida hamda tanazzul davri (XIII – XIV asrlar) she'riyati va shoirlari haqida so'z boradi.

Kech o'rta asr (XIV - XVII) she'riyati va nasri vakillari haqidadir. Har bir davr bir necha fasllardan iborat bo'lib, unda o'sha davr shoirlari, adiblari va o'ziga xos janrlari xususida so'z boradi.

Har bir fasl yakunida nazorat uchun savollar, mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlar o'rin olgan. Qo'llanma oxirida atamalarning izohli lug'ati, test, adabiyotlar ro'yxati berilgan.

KIRISH

Oʻrta asrlarda koʻp yillar davomida kuchli madaniy yuksalish yuz bergan, xalifalik shaharlarida savdo-sotiq rivojlanib, dorilfunun va kutubxonalarga asos solingan. Fan va madaniyat gullab-yashnagan davrda arablar katta maʼnaviy qadriyatlarni yaratganlar. Ular orasida arab mumtoz adabiyoti, shubhasiz, dastlabki oʻrinlardan birini egallaydi.

Sharq va Oʻrta yer dengizi xalqlarining koʻp asrlik madaniy anʼanalarini oʻzlashtirgan ushbu adabiyotning Yevropa adabiyotiga taʼsiri juda katta boʻlgan. Muhabbat sheʼriyati, mardlar romani, hayvonlar haqidagi didaktik hikoyalar – bular Yevropada arab adabiyoti taʼsirida rivojlangan janrlarning ayrimlari, xolos. Hatto Yevropa sheʼriyatining tuzilishiga ham Sharq taʼsiri seziladi.

Hozirgi davrda arab tilida soʻzlashuvchi, tarixiy taqdiri bir boʻlgan, tarixiy-madaniy anʼanalar bilan bogʻlangan hamda Atlantika ummonidan Eron chegaralarigacha, Oʻrta yer dengizi sohillaridan boshlab Nil daryosining boshlanishigacha choʻzilgan ulkan makonda yashovchi bir qator Osiyo va Afrika xalqlari arablar deb ataladi. Hozirgi zamon arab adabiyoti deganda, garchi yagona oʻrta asrlar anʼanalari zaminida shakllangan va koʻpgina oʻxshash jihatlarga ega boʻlgan, ammo ijtimoiy va badiiy jihatdan mustaqil hodisa boʻlgan arab xalqlari adabiyotlarining majmui tushuniladi.

Biroq, «arablar» soʻzi turli tarixiy davrlarda har xil mazmun anglatgan. Shu bois oʻrta asr, yoki mumtoz arab adabiyoti haqida soʻz yuritishdan avval aynan kimni ushbu adabiyotning yaratuvchilari va egalari deb atashimizni, yoki, oddiyroq qilib aytganda, oʻrta asrlarda kimlar arablar deb atalganligini aniqlab olishimiz zarur.

VII–VIII asrlargacha arablar deganda Arabiston yarimorolining koʻchmanchi, oʻtroq aholisi tushunilgan.

Mil. av. 1-ming yillikdayoq arab qabilalari ushbu yarim orolga chegaradosh viloyatlarga kira boshlaganlar. VII–VIII asrlarda gʻarbda Fransiya chegaralaridan boshlab sharqda Xitoy chegaralarigacha boʻlgan ulkan hududlar arab koʻchmanchilarining hukmronligiga oʻtgan. Arabistonning baʼzi qabilalari zabt

etilgan mamlakatlar hududiga (asosan Suriya, Ikki daryo oralig'i, Janubiy Eron, Misr, Shimoliy Afrikaga) ko'chib o'tganlar.

Arab istilolarining zabt etilgan xalqlar taqdiriga ta'siri hamma joyda ham bir xil bo'lmagan. Mustamlaka viloyatlarning ba'zi xalqlari bir necha asrlar o'tgach batamom arablashganlar, ya'ni zobitlarning tili va dinini o'zlashtirganlar. Ushbu jarayon aholisi istilo bo'lishdan avval ham somiy guruhidagi tillarda so'zlashgan viloyatlar (Iroq, Suriya, qisman Misr)da hammadan ko'ra muvaffaqiyatliroq kechgan. Istilo qilingan xalqlarning boshqalari (Eron aholisi, O'rta Osiyo va Kavkazortining turkiy xalqlari), arablarning dinini qabul qilganlar. Nihoyat, uchinchi toifadagi xalqlar (armanlar, gruzinlar va h.k.) arablashtirish siyosatiga qarshi tura olganlar hamda o'z madaniyati, dini va tilini saqlab qolganlar.

Arablar istilosidan keyin, aniqrog'i – ular mahalliy aholi ichida asta-sekin singib ketganlaridan so'ng nafaqat ko'chmanchi bosqinchilar, balki arab tili va islom dinini qabul qilgan mustamlaka hududlarining aholisi ham arablar deb ataladigan bo'ldi. Istilo qilingan viloyatlarning arablashgan aholisi hamda arablar birgalikda hozirgi arab xalqlari hosil bo'lishida etnik asos bo'ldi.

Barcha mustamlaka viloyatlarda yozma tilni yagona arab adabiy tili tashkil qila boshladi. Bu tilda butun o'rta asr arab adabiyoti ham yaratila boshlandi. Xalifalikning deyarli barcha ma'lumotli kishilari, millati va diniy mansubligidan qat'i nazar, yozma arab tilida so'zlashganlar va yozganlar. Ushbu til Yaqin va O'rta Sharq xalqlari uchun yagona xalqaro til edi.

Mazkur yozma til qadimgi arab tili hamda Arabiston qabilalarining shevalari asosida shakllandi. Og'zaki nutqda xalifalikning arab viloyatlaridagi aholisi shevalardan foydalanganlar. Ular o'rtasidagi farq, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, juda katta edi.

Qadimgi arab tilining yozma yodgorliklari milodning I asriga borib taqaladigan Arabiston va Suriya janubidagi qoyatoshlardagi yozuvlarda ifodalangan. Ilk mumtoz arab tilida islom dinidan avvalgi (V–VII asrlar) she'riyat asarlari yaratilgan. Ushbu asarlar og'zaki ravishda tildan-tilga o'tib kelgan bo'lib,

arab tilshunoslari faqat VIII–X asrlardagina ularni yozma shaklga keltirganlar. IX–X asrlarda mumtoz davr adabiy tili uzil-kesil shakllangan.

Mumtoz arab tilida nihoyatda boy ilmiy va badiiy adabiyot mavjud. Uni yaratishda nafaqat arablar, balki fath qilingan mamlakatlarning aholisi ham ishtirok etgan.

Hozirgi vaqtda arab tili – somiy guruhiga kiruvchi eng ko‘p tarqalgan tildir.

Arab davlati eng qudratli bo‘lgan VIII–X asrlar tarixga arab madaniyati va adabiyoti gullab-yashnagan davr sifatida kirgan.

Ulkan siyosiy tashkilot bo‘lmish xalifalik mustahkam chiqmadi. IX asrdayoq boshlangan va XI asrga kelib yakunlangan uning parchalanishi madaniyatning ham tanazzuliga olib keldi. Mo‘g‘ullar XIII asrning o‘rtalarida xalifalikning sharqiy arab viloyatlariga dahshatli zarba berdilar. XVI asr boshida mo‘g‘ul istilochilari o‘rnini usmoniy turklar egalladilar. XVIII asrdan boshlab esa, arab mamlakatlari Yevropadagi qudratli mamlakatlarning mustamlaka ob‘ektiga aylandilar. Siyosiy tarqoqlik arab viloyatlarining madaniy jihatdan ajralib ketishiga sharoit yaratdi.

Usmonli turklar Arabistonning sharqida hukmronlik qilgan davrda Usmon imperiyasining arab viloyatlaridagi barcha rasmiy va ish bilan bog‘liq yozishmalar turk tilida yuritildi; arab adabiy tili ko‘p darajada unutildi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng miqyosli aksilfeodal va milliy ozodlik harakatlari asosida arab madaniyati va adabiyoti tiklana boshladi. Ushbu davrda hozirgi zamon arab adabiyoti avvalo alohida arab mamlakatlarining milliy adabiyoti sifatida shakllana boshlagan.

Mazkur kitobimiz bag‘ishlangan o‘rta asr arab og‘zaki va yozma adabiyotida quyidagi davrlarni ajratish mumkin – qadimgi arab og‘zaki adabiyoti (V–VII asrlar) va o‘rta asr arab adabiyoti (VIII–XVIII asrlar).

Qadimgi arab she‘riyati og‘zaki bo‘lgan. U Arabistonning ko‘chmanchi va o‘troq qabilalarida urug‘chilik tuzumi sharoitida kelib chiqqan va o‘z xarakteriga ko‘ra asosan VIII asr o‘rtalarigacha qabilaviy va badaviy she‘riyat sifatida saqlanib qolgan. Bizgacha yetib kelgan qadimgi arab nasri (afsonalari, masallari,

maqollari, notiqlik san'ati asarlari) ham, shuningdek keyingi davrlardagi yozuvlarda aks etgan qadimgi arab she'riyati ham og'zaki bo'lgan. Doimo muallifiga ega bo'lgan qadimgi arab she'riyatidan farqli ravishda, qadimgi arab nasriga oid asarlar ko'pincha folklor xususiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi arab adabiyoti arablar va forslarning o'rta asrlar adabiyotlari tarixida umumiy «antiklik» sifatida baholanishi mumkin.

VIII asrdan boshlab arab yozma adabiyoti rivojlana boshlagan. Unda feodal jamiyatning turli qatlamlariga xos qarashlar, arab istilochilari zabt etgan xalqlarning manfaatlari, turli bid'at ta'limotlar borgan sari ko'proq aks etgan. Arab adabiyotini yaratishda mustamlaka hududlarning islom diniga kirgan va arab tilini qabul qilgan aholisi faol ishtirok etgan.

Arablarning o'rta asr adabiyotida uchta davrni ajratish mumkin:

- ilk o'rta asr adabiyoti (VII asr oxiri – VIII asr o'rtalari);
- mumtoz adabiyotning gullab yashnagan davri (VIII asr o'rtalari – XII asr);
- kech o'rta asr adabiyoti (XIII–XVII asrlar).

O'rta asr arab she'riyati saroy, madhiya xususiyatiga egaligiga qaramay, unda qabilaviy she'riy an'analar hali juda kuchli bo'lgan. Bu davrdagi nasr, xuddi qadimgi arab nasri singari, hamon og'zaki, «notiqlik» xususiyatiga ega. Mumtoz arab adabiyotining gullab-yashnagan davri – xalifalikning ko'p sonli xalqlari arab madaniyatini yaratish jarayonida keng ishtirok etgan davr. Bu davrga nasr va nazmning barcha janrlari – ishqiy va falsafiy lirika, madhiya she'riyati, qisqa hikoyalar va shu kabilarning gullab-yashnaganligi xosdir. Nihoyat, kech o'rta asrlardagi arab adabiyotiga saroy she'riyatining tanazzuli hamda sufiylik she'riyatii, shahar hikoyanavisligi va xalq romanchiligining yuksalishi xosdir. VIII–XV asrlardagi arab-istan (andaluziya) adabiyoti o'rta asr arab adabiyotining alohida tarmog'idir.

Arab mumtoz adabiyotini o'rganish arab mamlakatlarining o'zlarida ham, sobiq Ittifoq davri va G'arb mamlakatlarida ham katta an'anaga ega. O'rta asr arab olimlari (antologiyalar tuzuvchilari, sharhlovchilar va adabiyot

nazariyachilari) hamda hozirgi zamon arab adabiyotshunoslari – Jo'rji Zaydon, Muhammad Kurd Ali, Anis al-Maqdisiy, Taxa Husayn, Shavqi Dayf, Fuad al-Bo'stoniy, Marun Abbud va boshqalar arab adabiyoti tarixining ayrim masalalarini tadqiq etish uchun ham, butun adabiy jarayonning manzarasini tiklash uchun ham ko'p ishlar qildilar.

Arab adabiyoti tarixini o'rganishga rus tadqiqotchilari V. R. Rozen, I. Yu. Krachkovskiy, A. Ye. Krimskiy ham katta hissa qo'shganlar. Arab adabiyoti tarixida I. Yu. Krachkovskiy o'z kitobi, maqolasi yoki qisqa xotirasini bag'ishlamagan taniqli shoir yoki yozuvchisini topish qiyin. Afsuski, taniqli rus olimining umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lgan rejalashtirgan asarini tamomlashiga ko'pgina sabablar xalal bergan. U rejalashtirgan jamoaviy asar haqida faqat uning xomaki rejasiga qarabgina xulosa chiqarishimiz mumkin. G'arbiy Yevropa olimlaridan Silvestr de Sasi, Xammer, T. Neldeke, F. Vyustenfeld, Ye. Levi-Provansal, A. Peres, I. Goldsier, K. Brokelmann, R. A. Nikolson, X. A. R. Gibb, R. Blasher, J. Gabrieli ham arab mumtoz adabiyotini tadqiq etish borasida ko'p mehnat qildilar. Arab, rus va G'arbiy Yevropa olimlarining ishlari natijasida arabshunoslik hozirgi zamon sharqshunosligining eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi.

I BOB. QADIMGI ARAB ADABIYOTI

(V–VII asrlar)

1.1. QADIMGI ARAB SHE'RIYATI

Darsning maqsadi: talabalarni islomdan avvalgi davrda ijod etgan shoirlar hayoti va ijoda bilan tanishtirish.

Tayanch so'zlar va iboralar: *«al-Mu'allaqat», qasida, hijo, riso, faxr, hamriyot, tardiyot, roviy, vasf, nasib.*

Markaziy va Shimoliy Arabistonning tepaliklar hamda qurib qolgan daryolarning o'zanlari kesib o'tgan cho'llarida qadimdan badaviy chorvadorlar ibtidoiy urug'chilik tuzumi sharoitida ko'chmanchi hayot kechirganlar.

Arabistonning nisbatan zich joylashgan aholisi (ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi sharoitida) hamda yaylovlar va suv manbalarining yetishmasligi, ularning urug' va qabilaga mansubligi doimo qabilalar o'rtasida qonli urushlar keltirib chiqargan.

VI–VII asrlarga kelib Arabistonning markaziy va shimoliy viloyatlarida ibtidoiy urug'chilik tuzumining parchalanish jarayoni ancha chuqurlashib ketgan edi. Deyarli barcha qabilalarda jamoa yaylovlarini, podalar va suv havzalarini egallab olgan imtiyozli oilalar va qabila zodagonlari ajralib chiqqan edi. Eski qabila ichidagi birlik qabilaning oddiy a'zolari bilan ajralib chiqqan yuqori tabaqa o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli parchalanib borardi. Qabila ichidagi nizolarning qurboni bo'lgan ko'plab quvg'inlar qaroqchilar guruhlarini tashkil qilar hamda o'troq qishloqlarga va, hattoki, qadimgi urug'-qabila qonunlarini buzgan holda o'z qabiladoshlariga hujum qilardilar. Ijtimoiy nizolar va qabilalararo urushlarning keskinlashuvi vaqti-vaqti bilan arab ko'chmanchilarini yarimorol hududini tashlab ketishga majbur qilardi.

Rim imperiyasi, keyinchalik Vizantiya va Eron o'z chegara hududlarini badaviylar hujumlaridan saqlashga urinib, Suriya va Ikki daryo oralig'iga chegaradosh cho'llarda ko'chib yurgan arab qabilalarini o'z xizmatlariga qabul qilar, ulardan chegara qo'shinini tashkil etardilar. Masalan, Falastin va Suriya cho'li chegaralarida – V asr oxiriga kelib poytaxti Jillic shahrida joylashgan kichikroq Hasaniylar podsholigi, Ikki daryo oralig'i va Suriya cho'li chegarasida esa – IV asr boshiga kelib markazi Xira shahrida joylashgan Laxmiylar podsholigi shakllandi. Xira (Eronga tayangan) va Jillic (Vizantiya vassallari) hukmdorlari o'zaro uzluksiz urush olib borardilar. Bu urush islom dini qaror topishi bilangina yakunlangan. Ushbu kurash davomida ikkala taraf ham Shimoliy va Markaziy Arabistonning badaviy qabilalaridan foydalanishga urinardilar.

Urug'-qabilachilik munosabatlari johiliya she'riyatining yorqin va o'ziga xos, shu kunlarga o'zining hissiy ta'sirini saqlab qolgan she'riyat sifatida shakllanishiga tarixiy zamin bo'ldi.

Bizga ma'lum eng qadimgi arab shoirlarining ijodi V asr oxirlariga to'g'ri keladi. Taxminan shu paytdan e'tiboran va VII asr o'rtalarigacha Shimoliy

Arabistonda obrazlar boyligi va shaklining nihoyatda mukammalligi bilan ajralib turuvchi she'riyat gullab-yashnadi.

O'rta asr arablari o'zlarining qadimgi shoirlari iste'dodini yuksak qadrlaganlar. Arab tilshunoslari eng mashhur badaviy shoirlarning asarlarini to'plaganda namoyon etgan g'amxo'rlik ham ana shundan dalolat beradi. Ular ushbu asarlardan antologiyalar tuzganlar va ularga sharhlar yozganlar.

Xalifalikning katta shaharlarida istiqomat qilgan va sahrodagi hayot haqida ko'pincha birovlardan eshitgan o'rta asr arab saroy shoirlari islomgacha bo'lgan «qahramonona» davrni har tomonlama ideallashtirar va o'zlarining she'riy asarlarida Johiliya davri shoirlari asarlarining mazmun-mohiyati va badiiy usullariga ergashdilar.

Qadimgi arab shoirlarining ijodi og'zaki bo'lgan: odatda ular she'riy badihago'ylik iste'dodi bilan shuhrat qozonganlar. Badaviy jangchida she'r yozish mahorati jasurlikdan kam qadrlanmagan. She'r yozish san'ati avloddan avlodga o'tib kelgan. Ba'zi oilalar va urug'lar doimo o'z oralaridan ajoyib shoirlarni ko'tarib chiqqanlar. Shoir jamiyatda yuksak maqomga ega bo'lgan, chunki u qabilaning qahramonona an'analari kuychisi va saqllovchisi bo'lgan; qabila dono so'z bilan o'z sha'nini himoya qila oladigan va o'tkir hajv bilan dushmanga tashlana oladigan shoirni qadrlagan. Chegaradosh arab podsholiklarining hukmdorlari o'z mavqeini mustahkamlash uchun ularni o'z poytaxtlariga jalb etishga harakat qilganlar.

Islomgacha bo'lgan she'riy asarlar shakliy jihatdan mukammalligi bilan farq qilib turgan, bu esa she'riy tilning uzoq vaqt mobaynida rivojlanganidan dalolat beradi. Turli shoirlarning asarlari sheva xususiyatlariga ega bo'lishiga qaramay, islomgacha bo'lgan she'riyat tili yagonadir. Ushbu VI–VII asrlar she'riy tilining umumiyliги ko'chmanchilarning yarimorol bo'ylab doimiy ravishda ko'chib yurishi hamda keng miqyosdagi qabilalararo madaniy ayirboshlashning natijasi bo'lgan.

Johiliya davri she'riy asarlari bizgacha kech yozilgan yozuvlarda yetib kelgan. Ularni ko'p avlodlar davomida minglab she'rlarni yod biluvchi roviylar

ogʻzaki berib kelganlar. VIII asr oʻrtalaridan boshlabgina oʻsha davr lisoniy va badiiy mezonlari nuqtai nazaridan eng noyob shoirlarning asarlari yozib olina boshlangan. Albatta, tildan-tilga oʻtish jarayonida sheʼrlar jiddiy ravishda oʻzgargan. Biroq qadimgi arab sheʼriyatining sheʼriy shaklidagi qatʼiy anʼanaviylik saqlab qolingan. Qadimgi arab shoirlari asarlarining juda katta qismi mutlaqo yoʻqolib ketgan.

Qadimgi arab sheʼriyatining eng koʻp shuhrat qozongan asarlari boʻlmish Muʼallaqalar islomgacha boʻlgan eng mashhur shoirlar (Imru-l-Qays, Tarafa, Zuxayr, al-Xaris ibn Xilliza, Amr ibn Kulsum, Antara, Labid)ga mansub boʻlib, VIII asrda Xammad ismli roviy tomonidan «Muʼallaqat» nomli alohida toʻplamga jamlangan. («al-Muʼallaqat», soʻzma-soʻz tarjimasi «durlar misoli ipga tizilgan») Ikkinchidan “Muʼallaqat” tilshunos al-Mufaddal ad-Dabbiy (VIII asrning ikkinchi yarmi) tomonidan toʻplamda toʻplangan IX asr shoirlari Abu Tammom va al-Buxturiylar toʻplagan toʻplamlari bir xil nomga ega boʻlib, «Jasorat haqidagi sheʼrlar toʻplami» («Devon al-Xamosa») deb atalgan. Islomgacha boʻlgan shoirlar asarlarining kattagina qismi va ularning parchalari tilshunoslar Ibn Qutayba (828–889) tomonidan «Sheʼr va shoirlar kitobi» nomli biografik lugʻatga hamda Abul Faraj al-Isfaxoniy (897–967) tomonidan «Qoʻshiqlar kitobi» (“Kitab al-Agʻaniy”) antologiyasiga kiritilgan.

Aynan islomgacha boʻlgan davrda arab sheʼriyatining asosiy usullari ishlab chiqilgan. Shubhasiz, bizga maʼlum boʻlgan yetuk sheʼriy asarlarning paydo boʻlishidan avval sheʼriyat uzoq rivojlanish davrini bosib oʻtgan. Ushbu jarayonning birinchi bosqichi saj, yaʼni qofiyadosh nasriy nutq, oxirgi undoshi qofiyalanib keladigan «ogʻzaki qatorchalar» boʻlgan.

Odatda mumtoz arab sheʼrlari koʻpincha qofiyasi boʻyicha nomlanadi (masalan, «lomiya» – barcha baytlar «lom» harfi bilan tugaydigan sheʼr).

Islomgacha boʻlgan davrda 50–100 baytdan iborat boʻlgan qasidalar yozilgan.. U XX asrgacha saqlanib qolgan. Islomgacha boʻlgan sheʼriyatda maʼlum boʻlgan qitʼa – umumiy mavzudagi va sodda tuzilishga ega boʻlgan 7–

10 ta baytdan iborat kichikroq she'r ma'lum edi. Qit'a mustaqil asar yoki qasidaning parchasi bo'lishi mumkin.

Badaviylar hayotining turli vaziyatlariga bag'ishlangan qasidaning qismlari muayyan tartibda bir-birining ortidan kelardi. Shoir iste'dodining mezoni har bir baytning badiiy kamoloti bo'lgani sababli, u baytlar va qasidaning ayrim qismlari o'rtasidagi ma'no jihatdan aloqadorlik haqida qayg'urmagan. Bayt esa odatda yakunlangan mantiqiy parcha bo'lgan.

Arab qasidasi odatda sahroda tuya yoki ot ustida borayotgan shoir o'z hamrohlariga bir vaqtlar o'zi bo'lgan va hali badaviylar qo'nog'ining izlari saqlanib qolgan joyda biroz to'xtashni taklif qilishi bilan boshlanadi. Tashlab ketilgan uyning ko'rinishi shoirda o'tmishga aylangan baxtli onlar, mahbubasi bilan bo'lgan uchrashuvlar va undan ayrilgani haqida qayg'uli xotiralarni yuzaga keltiradi. Shoir bu yerda hayotidagi eng yaxshi damlarini birga o'tkazgan mahbubasi haqida so'z yuritadi. Uning tashqi qiyofasi, kiyim-boshi va zebuziynatlarini tasvirlaydi.

Qo'qqisdan shoirning e'tibori uning sobiq hamrohi – oti va tuyasiga ko'chadi. Shoir bu hayvonni batafsil ta'riflaydi. Oyoqlarining tezligi, kuchi va chidamliligini maqtaydi. So'ngra tabiat manzaralari (bo'ron, sel tasvirlari yoki ov manzaralari) keladi. Nihoyat, shoir qasidaning bosh mavzusiga o'tadi: dushman ustidan kuladi, uni jangga chorlaydi, o'z qahramonliklarini yoki qabilasining shonli ishlarini kuylaydi, dohiy yoki qahramonning jasorati va donishmandligini maqtaydi, keyingi davrlarda esa hukmdorini sharaflaydi.

Shunday qilib, qasida mazmuni o'zaro farq qiladigan bir qancha qismlardan iborat bo'lgan.

Islomgacha bo'lgan davrlarda she'riy janrlar hali qasidadan ajralib chiqmagan edi. Mazkur syujetlardan biriga bag'ishlangan hamda yo eksprompt, yo qasidaning ajralgan qismini tashkil etgan qisqa qit'alarni hisobga olmaganda, barcha she'riy janrlar qasida tarkibida janr shakllari ko'rinishida birgalikda mavjud bo'lgan. Shu bois, qasidani, janr nuqtai nazaridan, sinkretik asar deb hisoblash mumkin.

Faqat mustaqil janrlar sifatida rivojlangan *hijo* (hajviya) va *riso* (marsiya) islomgacha bo'lgan davridayoq ko'p yoki oz darajada tugallangan shaklga ega bo'lgan.

Islomgacha bo'lgan davrda eng ko'p tarqalgan janrlardan biri *hijo* bo'lgan. Uning mazmuni doimo shoir va qabila dushmanlarini qoralashdan iborat bo'lgan. Shoir o'z qabilasining sha'nini nafaqat jang maydonida qo'lida qurol bilan, balki she'riy mushoirada she'r bilan ham himoya qila olishi kerak bo'lgan. Badaviy qabilalar deyarli har doim urush holatida bo'lgani sababli *hijo* janri juda keng yoyilgan.

Hijo dushmanga qarshi qaratilgan tajovuzkorona hayqiriqlarda rivojlangan. Badaviy shoir qoralash orqali odamlarda dushmanga nisbatan nafrat uyg'otgan. Bunda u qo'pol va hatto kamsitish iboralaridan ham foydalangan. *Hijo* yordamida shoir, dushman qabilasini haqoratlash bilan bir qatorda, dushman shoirlarining hujumlarini ham qaytargan va o'z qabilasining sha'nini himoya qilgan. Ba'zan badaviy shoir hokimiyat uchun kurashayotgan qabila boshliqlarining bahsida ham ishtirok etgan, ulardan birini maqtagan va boshqasining ustidan kulgan.

Boshqa bir janrning nomi – *riso* – ko'pincha Yevropa adabiyotida unchalik to'g'ri bo'lmagan «marsiya» so'zi orqali tarjima qilinadi. *Riso* o'lganlarning xotinlari qabiladoshlari oldida oshkora aytib yig'lashlari kerak bo'lgan dafn marosimiga muvofiq marosim aytuvlaridan kelib chiqqan.

Risoda badaviy shoir o'z qarindoshi yoki do'stining o'limidan chekayotgan azoblarini tasvirlagan, yuksak darajadagi qiyoslash va bo'rttirishlardan foydalanib, vafot etgan shaxsning qadr-qimmatini har tomonlama ulug'lagan.

Shoira al-Xansa vafot etgan akasi Saxraga atab, ko'plab marsiyalar yozgan.

Islomgacha bo'lgan she'riyatning eng ko'p tarqalgan janr shakllaridan biri faxr («o'zini maqtash») bo'lib, u badaviy shoir qasidasining asosiy tarkibiy qismini tashkil qilgan. Faxrda badaviy shoir o'z qahramonliklari va o'z urug'ining g'alabalarini, ajdodlarining buyukligini, ezgu ishlarini, jasorati va saxovatini maqtagan hamda o'z qabilasining qudratini, aholisining ko'pligini bo'rttirilgan shaklda ifodalagan.

Faxrda qabila qahramoni go'yoki butun qabila bilan uyg'unlashtiriladi. Shoir qahramonni ideallashtirib, qabilaning barcha buyuk ishlari va ideallari sohibi, qabila manfaatlarining namoyon bo'lishi sifatida ifodalaydi, uni qabiladoshlari ongida ulug'laydi. Faxrdagi bo'rttirilgan obrazlar va tantanavor intonatsiyalar uni tinglovchilarda qabilaviy vatanparvarlik hissini yuzaga keltirgan. Faxrda (risoda ham) muayyan darajada qahramonlik qasidalarining kurtaklarini ko'rish mumkin. Islomgacha bo'lgan davrda qasidachilik rivojlanmagan. Bu arab qabilalarining bir-biridan ajralganligi, umumxalq hayotining yo'qligi bilan izohlanadi, zero har qanday xalq qasidaning mazmunini umumxalq hayoti tashkil qiladi. Bunda islomgacha bo'lgan arablarning majusiy dinlarida rivojlangan mifologiya (afsona)ning, ya'ni qahramonlik qasidalari yuzaga kelishining eng muhim shart-sharoitlaridan birining yo'qligi ham ta'sir qilgan. Keyinchalik, VII asr o'rtalarida ham Arabistonning birlashuvi nihoyat diniy asosda yuz bergach, qahramonlik qasidaisi endi shakllana olmagan.

Faxr bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa bir janr – madhdir («maqto'v», «madhiya»). Qadimgi arab badaviy she'riyatida faxr bilan madhiya o'rtasida chegara o'tkazish juda qiyin. Faxr singari madhiya ham mustaqil ko'rinishda uchramagan, ammo u qasidaning asosiy qismini tashkil qilgan. Madhiyada shoir odatda qabila boshliqlari va qahramonlari yoki mayda arab podsholiklarining hukmdorlari qilgan g'alabalar va ezgu ishlarni maqtagan. Feodal hukmdorlarga yoqish va ulardan hadya olish umidida ularni ulug'lagan keyingi saroy shoirlaridan farqli o'laroq, islomgacha bo'lgan badaviy shoirlar madhiya yordamida o'z qabilasining sha'nini mustahkamlashga harakat qilganlar, xolos.

Johiliya davri she'riyatida turli tavsiflarni ifodalovchi vaf hamda ishqiy lirika – nasib_katta o'rin egallagan.

Vasfda islomgacha bo'lgan shoirlar Arabistonning sahro tekisliklarini, uning qizdiruvchi quyoshini, bo'ronlari va unumdor yomg'irlarini, sahroning kambag'al nabototi va hayvonotini, ot va tuyani, go'zal joylarini, vayron bo'lgan aholi yashash joylarini va tark etilgan qo'noqlarni tasvirlaganlar. Ular jangu-jadallar, qabila yig'inlari, an'anaviy o'yinlari hamda siyosiy va madaniy hayotdagi boshqa

hodisalarni batafsil hikoya qilganlar. Tabiatni va turli voqealarni bunday tavsiflash ayni vaqtda lirik va epik xususiyatga ega bo‘lib, mustaqil ko‘rinishda juda kam uchraydi. Odatda u qasidaning katta qismini tashkil etadi. Tinglovchida muayyan kayfiyat yaratadi va asarning asosiy mavzusiga olib kiradi. Turli xil tavsiflar islomgacha bo‘lgan deyarli barcha qasidalarda uchraydi.

Nasib – qasidaning lirik muqaddimasi bo‘lib, unda shoir o‘z hissiyotlari va rashki, mahbubasidan ajralib chekkan azoblari va muhabbat quvonchlari haqida hikoya qiladi. Ushbu janrning rivojlanishi badaviy shoirning qahramonliklariga sabab bo‘lgan mahbubasini ulug‘lash bilan bog‘liq.

Islomgacha bo‘lgan davrdagi muhabbat she‘riyatidayoq ikkita yo‘nalish – badaviy va saroy yo‘nalishlari ko‘zga tashlana boshlagan. Badaviy shoirlarning muhabbat she‘riyati oshkora ehtirosli bo‘lgan. Ammo unda hali Vizantiya va Eron madaniyatining ta‘siriga uchragan va saroy hayotidagi to‘kin-sochinlikdan «buzilgan» shoirlarda ko‘zga tashlanadigan shahvoniy behayolik yo‘q edi.

Qadimgi arab she‘riyatida muhabbat mavzuidagi she‘rlar juda kam uchraydi. Muhabbat haqidagi baytlar qasida tarkibiga o‘zini hurmat qiladigan hech bir shoir qasidaning asosiy mazmuniga o‘tishdan avval to‘xtalмай o‘tmaydigan lirik muqaddimaning elementi sifatida kiradi.

Islomgacha bo‘lgan she‘riyatning janrlaridan yana biri may (sharob) haqidagi she‘rlar – hamriyot. Xuddi nasib singari, hamriyot ham islomgacha bo‘lgan davrda mustaqil ko‘rinishda juda kam uchragan va odatda qasida tarkibiga kirgan.

Nihoyat, alohida baytlar va kichik she‘rlar shakliga ega bo‘lgan hikmatlar – turli xil ezgu fikrlar va pand-nasihatlari ajratiladi. Hikmat, xuddi maqol singari, hayotning u yoki bu munosabatlari yoki sharoitlarini obrazlar qisqa shaklda umumlashtirgan. Hikmat qadimgi arablarda ijtimoiy axloq normalarini ifodalashning asosiy usuli bo‘lgan.

Ma‘lum ma’noda, hikmatni bizning odatdagi maqol va rivoyatlarimizdan bir oz ulug‘vorroq fikrga egaligi va she‘riy xususiyati, har qanday hazil va nasrning yo‘qligi bilan ajralib turadigan she‘riy shakldagi qisqa pandlar bilan qiyoslash

mumkin. Johiliya davri shoirlarining ba'zi hikmatlarida inson hayotining o'tkinchiligi motivlari namoyon bo'ladi.

Islomgacha bo'lgan she'riyat alohida g'oyaviyligi va mavzularining boyligi bilan ajralib turmaydi. Badaviylar hayotining bir tarzdaligi va yangi taassurotlarning yo'qligi shoir xayolotini cheklar hamda odatdagi obraz va assotsiatsiyalar doirasidan chiqishiga qo'ymas edi. Shu bilan birga, ko'chmanchi turmushining oddiyligi, uning tabiatga yaqinligi hamda sahrodagi hayot qiyinchiliklarini doimiy ravishda yengish va yashab qolish uchun kurashda nafaqat o'z kuchiga, balki qabiladoshlar yordamiga ham tayanish zarurligi badaviyning kuzatuvchanlik qobiliyatini kuchaytirdi.

Badaviy shoirlar o'z qabilalari bilan chambarchas bog'liq bo'lganlar. Ular ideal haqidagi tasavvurlarida va hayotni estetik baholashda hech qachon umumqabilaviy tasavvurlar doirasidan tashqari chiqmaganlar. Shoirning urug' va qabila bilan bunday ruhiy birligi, hatto uyg'unligi uning dunyoni his qilishini belgilab bergan. Islomgacha bo'lgan she'riyatda shoir shaxsi va uning kechinmalari, ruhiy holatining sub'ektiv sabablari haqida xulosa chiqarishga imkon beradigan she'rlar kam. Barcha shoirlar uchun umumiy bo'lgan tashlab ketilgan qo'noq ko'ringanida g'am-g'ussaga botish – shoir shaxsiy kechinmalari va hayotiy muvaffaqiyatsizliklarining oqibati emas, balki an'anaviy qolip bo'lib, busiz mazkur qasidani tinglovchilar va shoirlar tasavvur qilmaganlar.

Badaviy shoir tinglovchilarni fantaziyasining parvozi, fikrining o'ziga xosligi yoki qandaydir umumlashtirish bilan qoyil qoldirishga urinmagan. U faqat an'anaviy shaklni rivojlantirib, o'zidan oldin o'tgan shoirlar va raqiblardan tasvirlashning haqqoniyligi, ifodaliligi va lo'ndaligi bilan ustun kelishga intilgan.

Hayotiy haqiqatga intilish fakt, hodisa yoki narsani iloji boricha aniq ifodalashga urinishda namoyon bo'lgan. Islomgacha bo'lgan shoirlar she'rlaridagi obrazlar odatda qiyoslash yordamida yaratilgan. Buning uchun material esa atrofdagi hayotdan olingan. Shubhasiz, tashqi o'xshashlik asosiga quriladigan ushbu qiyoslashlar ba'zan yorqin tavsiflarga o'sib o'tadi hamda arablargacha bo'lgan she'riyatning asosiy go'zalligini tashkil qiladi.

Imru-l-Qays mu'allaqasidan misol keltiramiz.

To'xtanglar, yorim manzilin eslab, biroz yig'laylik.

Duxul va Xovmala vodiysi aro.

Yorim izlarin olib ketmabdi,

Janubu shimoldan esgan ul sabo.

Johiliya davridagi arab she'riy uslubining o'ziga xos jihati lo'ndalik va kinoyadir. Arab shoirlari tinglovchilar o'z xayolotlari yordamida qo'shishlari mumkin bo'lgan barcha jihatlarni tashlab ketganlar. Bu ularning asarlariga lo'ndalik va harakatchanlik bag'ishlagan, tinglovchiga esa obrazni oson va tez idrok etish imkonini bergan. Xususan, islomgacha bo'lgan shoirlar ko'pincha tashbihdan foydalanganlar.

Dastlab, aftidan, ibtidoiy man etish zaminida yuzaga kelgan bu usulning ifodaliligiga sifat narsaning o'ziga xos jihatini belgilab, ayni vaqtda narsaning o'zi uchun ifoda bo'lib xizmat qilishi orqali erishilgan.

Umuman olganda, hayot ifodasining jamlanganligi – islomgacha bo'lgan she'riyatning asosiy xususiyatlaridan biri. Johiliyat davri shoirlari bir necha o'n baytda butun boshli poetik manzarani ifodalay olganlar, ushbu manzaralarning tezkor ketma-ketligida badaviylar hayotining turli tomonlari o'z aksini topgan.

Islomgacha bo'lgan davrdayoq ikki yo'nalish yuzaga kelgan bo'lib, ular keyinchalik arab she'riyatida ko'p asrlar mobaynida saqlanib qolgan. Ulardan birini shartli ravishda badaviylik she'riyati deb, keyinroq ichki qabilaviy aloqalar susaygan va feodallashuv kuchaygan davrda yuzaga kelgan yo'nalishni saroy she'riyati deb atash mumkin.

Badaviy shoirlar asosan urug' zodagonlariga mansub bo'lganlar. Ko'pincha ular, al-Muxalhil yoki Imru-l-Qays kabi qabila boshliqlari bilan yaqin qarindosh bo'lganlar va hokimiyat uchun kurashda ishtirok etganlar. Eng taniqli badaviy shoirlarga quyidagilar kirgan: Imru-l-Qays, Tarafa, Zuxayr, Amr ibn Kulsum, al-Xaris ibn Xilliza, Antara.

1.2. BADAVIY SHOIRLAR SHE'RIYATI

Darsning maqsadi: talabalarni Shanfara, Antara, Imru-l-Qays hayoti va ijodi bilan tanishtirish.

Tayanch soʻzlar va iboralar: *Johiliya davri, hijo — hajviy sheʼrlar, al-Basusa tuyasi, nasib, lomiya, taviil, bayt, xazar, abs.*

Bizga maʼlum boʻlgan eng qadimgi islomgacha boʻlgan davrda yashab oʻtgan badaviy shoirlardan biri ash-Shanfara boʻlgan (uning haqiqiy ismi Sobit ibn al-Aus). VIII asrgacha shoir ismining uchramasligi ayrim tadqiqotchilarga uning boʻlganligini inkor etish, sheʼrlarini esa keyinchalik chiqqan soxta asar (apokrif) deb hisoblash uchun asos bergan. Biroq, I. Yu. Krachkovskiy toʻgʻri taʼkidlaganidek, ash-Shanfara sheʼriyatining arxaizmlarga toʻlaligi hamda muallifning sahrodagi ibtidoiy hayot sharoitlarini nihoyatda yaxshi bilishi, shaharlik yozuvchi uchun buning imkoni yoʻqligi uning asarlari haqiqiy ekanligidan koʻproq dalolat beradi.

VI asr boshida vafot etgan ash-Shanfara haqida deyarli hech narsa maʼlum emas. Uning sheʼrlaridan shuni tushunish mumkinki, shoir qaysidir sabablar tufayli oʻz qabilasini tashlab ketish va sahroda yovvoyi hayvonlar ichida yashashga majbur boʻlgan. Qabiladoshlari tomonidan tahqirlangan ash-Shanfara oʻz qabilasidan nafratlangan va badaviylar qoʻnoqlariga qaroqchi sifatida hujumlar qilgan, hamma yerda qoʻrquv va vayrongarchilik urugʻini sochgan.

Ash-Shanfaraning asosiy asari – hozirgi zamon tadqiqotchilari tomonidan «Sahro qoʻshiqlari» deb nomlangan mashhur «Lomiya» asari (yaʼni «Lom» harfi bilan qofiyalanadigan qasida) boʻlib, unda sahrodagi yolgʻiz oʻtgan hayot kuylanadi. Asar qahramoni – ochlik, tashnalik, sovuq va daydilik hayotining boshqa qiyinchiliklarini mardonavor yengayotgan jasur quvgʻin – qoʻnoqlar va oʻtroq aholi yashaydigan joylarga hujumlar qiladi, yovvoyi hayvonlar bilan doʻstlashadi va hokazo.

Ash-Shanfara – hali urug‘-qabilachilik axloqining sohibidir. Qalban shoir o‘zini qabila qonunlarini buzgan jinoyatchi deb his qiladi va faqat jazoning qattiqligidan achchiq shikoyat qiladi. Ayni vaqtda ash-Shanfara qasidasida shoir ijtimoiy nizo qurboni bo‘lganidan dalolat beruvchi baytlar mavjud. Shoir «muruvat ko‘rsatayotganidan gerdayayotgan o‘zini mening homiyim deb hisoblaganidan» ko‘ra ochlikni afzal ko‘radi hamda andisha qilmaganida qabilaning barcha boyliklarini o‘zlashtirib olishi mumkinligini aytadi – «mendan boshqa hech kimda ziyofat uchun ichimlik yoki ovqat qolmagan bo‘lardi».

Ash-Shanfaraning qasidasi qadimgi arab qasidasining barcha an‘anaviy kompozision elementlariga hali ega emas, ammo unda qasidaga xos ayrim jihatlar mavjud: har bir bayt – tugallangan mazmunli parcha, butun qasida – bir qancha poetik manzaraning birlashmasi bo‘lib, u bitta vaznda (tavilda) yozilgan va barcha baytlari bir xil qofiyaga ega.

Ash-Shanfaraning yoniga islomgacha bo‘lgan boshqa bir ajoyib shoir – Taabbat Sharranni (taxminan 530 yillarda vafot etgan) qo‘yish mumkin. Uning hayoti haqida ash-Shanfaranikiga qaraganda ko‘proq ma‘lumot bor. Taabbat Sharran xuddi ash-Shanfara kabi qabiladan quvg‘in qilingan. U qo‘noqlarga hujumlar qilgan, ammo bunda badaviylarning yozilmagan axloq kodeksiga qattiq rioya qilgan (faqat qonli qasos qonuniga rioya etib odam o‘ldirgan va o‘z qabilasiga dushman qabilalarga hujum qilgan).

Taabbat Sharran she‘rlari – badaviyning mardligiga bag‘ishlangan zavq-shavqli madhiyadir. Ularda xuddi ash-Shanfara she‘rlarida bo‘lganidek, hali qasidaning barcha an‘anaviy elementlarini ko‘rmaymiz. Biroq ekspressiya bo‘yicha, betakror, hayotni sof badaviycha his etish bo‘yicha, ularni qadimgi arab she‘riyatining ajoyib namunalariga bimalol kiritishimiz mumkin.

Islomgacha bo‘lgan shoirlardan bizga ma‘lum bo‘lgan dastlabkilari orasida tag‘lib qabilasidan chiqqan **al-Muhalhil** (VI asrning ikkinchi yarmida vafot etgan) bor. Rivoyatlarga ko‘ra, u faris, ya‘ni sahroning jahongashta mardumi (risari) bo‘lgan hamda sarguzashtlar va muhabbatga to‘la hayot kechirgan. Odatda shoirning tarjimai holi yarim afsonaviy xususiyatga ega «al-Basusaning tuyasidan

kelib chiqqan urush» tarixi bilan bogʻlanadi. Bu rivoyat VI asrdagi arab qabilalarining holatidan darak beradi.

Al-Muhalhilning Kuleyb ismli akasi ikkita qardosh qabila, yaʼni bakr va tagʻlibning harbiy boshligʻi boʻlgan. Kuleyb kibrga berilib, eski qabilaviy qonunlarni buzishni, qabilaning oddiy aʼzolarini qiynashni boshlagan, oʻziga nisbatan alohida hurmat koʻrsatishlarini talab qilgan. U qabiladoshlariga tuyalarini uning podasi bilan birga boqishni taqiqlagan. Bir kun Kuleybning xotini oʻz aka-ukalarini, ayniqsa, Jassosni maqtab uni gʻazablantirgan. Kuleyb oʻtovdan chiqib, oʻz podasida jiyaninikiga kelgan Jassosning xolasi al-Basusaning tuyasi boqilayotganini koʻrib qolgan. Kuleyb ana shu tuyani oʻldirib, Jassosni tahqirlagan. Jassos ham, oʻz navbatida, Kuleybni poylab borib, oʻldirgan. Al-Muhalhil qabiladoshlarini akasi uchun oʻch olishga daʼvat etgan. Natijada bakr va tagʻlib qabilalari oʻrtasida qirq yillik urush boshlangan. Urush «al-Basusaning tuyasidan kelib chiqqan urush» nomini olgan. Urush davomida al-Muhalhil asr tushgan va tez orada vafot etgan. Uning oʻlimidan keyin bakr va tagʻlib qabilalari yarashgan. Ular oʻrtasida Xira hukmdori Amr ibn Hind vositachilik qilgan.

«Al-Basusaning tuyasidan kelib chiqqan urush» toʻgʻrisidagi rivoyatda urugʻchilik tuzumining parchalanishi va sinfiy jamiyat shakllanishi bilan bogʻliq jarayonlar oʻz aksini topgan. Bu urush oddiy qabilalararo toʻqnashuv boʻlmagan, balki davlat shakllanishi davrida olib boriladigan birlashuv uchun kurash boʻlgan. Ushbu holda bu kurash uchinchi tomon – qabilalararo nizodan Markaziy Arabistondagi mavqeini mustahkamlash uchun foydalanib qolgan kuchli Xira hukmdorlarining gʻalabasi bilan yakunlangan.

Bizgacha al-Muhalhilning kam sheʼrlari yetib kelgan. Ular asosan Kuleyb akasining oʻlimiga bagʻishlangan uning risosi edi. Saqlanib qolgan va atigi 30 baytdan iborat boʻlgan ushbu qasidada shoir Kuleybning jasurligi va oliyjanoblighi, jang maydonidagi jasurligi, otda (tuyada) yurish mahorati va hattoki doʻstona bazmu-jamshidlardagi chidamliligi – umuman olganda, barcha badaviy ustunliklarini kuylagan – hamda nihoyatda alamli hayqiriqlarida oʻz gʻam-gʻussasini ifodalagan.

She'ning ifodaliligini kuchaytirish uchun al-Muhalhil so'zlarda majozlardan foydalangan. Ular she'rga g'am-alamli ohangdorlik bag'ishlagan. Natijada u dafn marosimidagi yig'ini eslatgan.

Takrorlanuvchi baytlar, shaklan dafn marosimlaridagi qo'shiqlarga borib taqaladi.

Al-Muhalhil she'riyati hali sodda. Unda keyinchalik an'anaviy bo'lib qolgan murakkab kompozisiya yo'q. Bunday kompozisiyalarni biz ancha keyin yashab o'tgan johiliyat davri shoirlarida ko'ramiz.

O'rta asrlarda yashagan arablar islomgacha bo'lgan shoirlardan eng mashhuri deb Imru-l-Qaysni (taxminan 500 – VI asr o'rtalari) hisoblaganlar. U zodagonlardan bo'lgan. Qabilalar ittifoqining dohiysi Kuleyb shoirning tog'asi bo'lgan; shoir al-Muhalhil ham unga qarindosh bo'lgan. Imru-l-Qaysning otasi Asad qabilasining qudratli boshlig'i, shafqatsiz va adolatsiz inson bo'lgan. Qabiladoshlari mutlaq hokimiyatga da'vo qilgan ana shu qabila boshlig'ini o'ldirganlar.

An'anaviy tarjimai holda shoirning bolaligi va yoshligi boylikda o'tganligi, bu esa odatdagi shafqatsiz badaviy turmush sharoitida yashagan qabila boshliqlarining vorislariga aslo xos bo'lmaganligi aytiladi. Bolalikdan Imru-l-Qays katta shoirlik qobiliyatini namoyon etgan va she'rlarida o'z o'yinkulgularini ifodalagan. Otasi dastlab uni she'r yozishdan voz kechtirishga uringan, ammo pirovardida o'g'lini uydan quvib yuborgan. Bu hol she'riy ijod shahzodalarga nomunosib mashg'ulot ekanligi haqida yangicha tasavvur paydo bo'lganidan dalolat beradi.

Imru-l-Qays o'ziga o'xshash quvg'inlilardan iborat guruh bilan sahroda bir vohadan boshqasiga kezib yurgan, ov qilgan, she'rlar yaratgan. Quvg'inlikda u otasining o'lganini bilib, uning uchun qasos olishga qasam ichgan. Bakr va tag'lib qabilalaridan bo'lgan ittifoqchilari bilan birga u asad qabilasiga qarshi urush boshlagan, ammo asadiylar homiysi – Xira hukmdori Munzira III ning qo'shini tomonidan tor-mor etilgan. Hasaniylar amiri al-Xaris orqali Imru-l-Qays Vizantiya imperatori Yustiniandan Konstantinopolga borish uchun ruxsat

so‘ragan. Konstantinopolda Imru-l-Qays Eronning ittifoqchilari bo‘lgan Xira hukmdorlariga qarshi kurashda Vizantiyaning qo‘llab-quvvatlashiga erishishga uringan. Vizantiyadan qaytish yo‘lida shoir vafot etgan.

Badaviylar qabila an‘analari va odatlaridan to‘liq voz kechmagan Imru-l-Qays she‘riyatidan boshlab qo‘shni davlatlar (Vizantiya va Eron) nozik saroy madaniyatining ta‘siri seziladi.

Arab an‘anasiga ko‘ra, Imru-l-Qays barcha o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lgan qasidaning yaratuvchisi hisoblanadi. Uning eng mashhur asari deb esa, asr o‘rtasida arablar eng zo‘r durdona va hatto badiiy etalon deb e‘lon qilgan uning muaallaqasi tan olinadi. Ular biror she‘riy asarni baholaganda shunday der edilar: «Bu «To‘xtab turing! Yig‘lab olaylik!» qasidasidan ham go‘zaldir» yoki: «Bu «To‘xtab turing! Yig‘lab olaylik!» qasidasidan ham mashhurdir».

An‘anaga ko‘ra, Imru-l-Qays o‘z mu‘allaqasini mahbubasi Uneyza bilan uchrashuviga bag‘ishlab yozgan. U mahbubasining qomatini o‘z qasidasida shunday ta‘riflaydi:

*Uning nozik qomati xuddi tuyaning eshilgan arqoni kabi ingichkadir,
Oyoqlari esa soyada o‘sgan papyrus novdalariga o‘xshaydi.*

Uchrashuv joyiga ko‘ra «Darat Juljul kuni» nomini olgan bu kun, o‘rta asrlar arab sharhlovchilarining guvohlik berishicha, quyidagi voqea bilan tarixda qolgan.

Uneyzaga ko‘ngil qo‘ygan Imru-l-Qays, mahbubasi bilan uchrashish uchun ayyorlik qiladi. Qabila ko‘chayotgan paytda u qabiladoshlaridan ortda qolib, Darat Juljuldagi cho‘milish havzasi yonida yashirinadi. Uneyza boshqa ayollar bilan suvga tushganida shoir qirg‘oqdagi kiyimlarni yig‘ib olib, qirg‘oq yoniga o‘tiradi va cho‘milayotganlar chiqqan taqdiridagina ularni berishini aytadi. Uzoq ikkilanishdan so‘ng ayollar bo‘ysunishga majbur bo‘ladilar. Ular kiyimlarini olishgach Imru-l-Qaysni yengiltaklikda ayblaydilar, biroq sahiy shoir o‘z tuyasini so‘yib, ularni sharob hamda qovurilgan go‘sht bilan siylaydi. Shoirning ishidan ta‘sirlangan ayollar tuyasining egarini qabila qo‘nog‘iga o‘zlari ko‘tarib boradilar.

Imru-l-Qaysning mu'allaqasi bir qancha mustaqil qismlardan iboratdir. Birinchi qismida shoir bir vaqtlar ishq va hijron azobini his qilgan tashlandiq qo'noqni ko'rganda yuzaga kelgan xotiralarini ifodalaydi. Ikkinchi qismida u muhabbat sarguzashtlarini, Uneyza bilan uchrashuvlarini ta'riflaydi va Darat Juljul kuni voqealariga alohida to'xtaladi. Qasidaning uchinchi qismini shoir tabiat va sahrodagi hayotni ta'riflashga bag'ishlaydi (sahrodagi tunni tasvirlaydi, ov, ot, momaqaldiroqni ta'riflaydi va h.k.):

*O uzun tun! Yorishaqol,
Tongda, axir tong senda izzatda emasku.*

*O mening hamrohim, men ko'rsatgan chaqmoq chaqinini ko'ryapsanmi,
U xuddi qora bulutlar orasidan chiqqan qo'lga oxshaydi.*

Imru-l-Qaysning butun she'riyatida ikki mavzu – muhabbat va tabiat mavzulari asosiy o'rin tutadi. Shoir ushbu mavzularni rivojlantirib, har xil narsalar odamlar va voqealar, azob-uqubat va sinovlar, quvonch va muvaffaqiyatlar haqida hikoya qiladi. Umuman olganda, tinglovchi oldida Arabiston sahrosidagi hayotning go'zal manzarasi gavdalanadi.

Imru-l-Qays haqli ravishda arablarda peyzaj she'riyatiining eng mohir ustasi hisoblanadi. U hayotining katta qismini sahroda o'tkazib, go'yoki Arabiston tabiati bilan qo'shilib ketgan. Imru-l-Qaysning tabiat tasvirlari aniq, sodda va lo'nda, ammo ayni vaqtda ular tabiatning o'lik nusxasi emas. Imru-l-Qays ulkan musavvir sifatida badaviyning bir maromdagi hayotida yuksak she'riyatni topgan hamda u haqda qisqa va go'zal so'z yurita olgan.

Imru-l-Qays muhabbat kechinmalari haqidagi hikoyalariga ma'shuqasi bilan suhbat shaklini bergan. Uning asarlarida mahbubasining ta'rifu-tavsifi hamda uchrashuv manzaralari suhbat bilan almashib keladi.

Ba'zan Imru-l-Qays she'rlarida taqdirdan nolish ko'rinadi, adolatsizlikka to'qnashgan va hayotdan hafsalasi pir bo'lgan insonning qalbidagi alam ko'zga tashlanadi, yaqin qolgan o'lim motivlari, ishonchsizlik ohanglari eshitiladi.

Imru-l-Qaysning uslubiy vositalari juda xilma-xildir. Shoir barcha boshqa badiiy tasviriy vositalardan atrof olamdan oladigan qiyoslashlarni afzal ko'radi.

Islomgacha bo'lgan boshqa shoirlardagi kabi, Imru-l-Qaysning obrazli tafakkurida ham simvolika yoki majozlar yo'q; ko'pincha uning she'rlarida ramziylik va ma'no parallelizmini uchratish mumkin. Imru-l-Qays istiora va metonomiyadan keng foydalangan. Masalan, mu'allaqada shoir tunga murojaat etadi.

Tunni kerishayotgan hayvonga o'xshatish yevropalik o'quvchi uchun kutilmagan hol, ammo yirtqichlarning xulqini yaxshi bilgan badaviy uchun tabiiydir.

Imru-l-Qays badiiy obrazlar yaratayotganida «so'zlarning qudratli musiqasidan» ustalik bilan foydalangan. Undoshlarni takrorlash va tovushlarga taqlid qilish orqali u she'rda alohida ifodaviylikka erishgan. Turmush qiyinchiliklari yoritilgan baytlarida ingrash va xo'rsinish eshitiladi, o'z otining fazilatlarini haqida so'z yuritilganida she'rda ot dupuri eshitiladi. Har bir she'rning qofiyalanayotgan oxirgi so'zlaridagi r, s, k, l undoshlaridan iborat kombinatsiya tuyoqlar dupurini eslatuvchi «taqillovchi» tovush hosil qiladi.

Imru-l-Qays – shubhasiz qadimgi arab she'riyatidagi eng mashhur siymolardan biri. Uning ijodida arab shoirlari butun mumtoz davr mobaynida asoslanib kelgan arab she'riyatining usul va shakllarini birinchi marta ko'ramiz. Imru-l-Qaysga islomgacha bo'lgan davrdagi shoirlar (Zuhayr, Tarafa) ham, mumtoz davr shoirlari (Umar ibn Abu Rabi'a, Abu Nuvas, al-Buxturiy va boshqalar) ham taqlid qilganlar.

Ilk islomgacha bo'lgan shoirlarga, xuddi Imru-l-Qays kabi, hayotining katta qismini quvg'inda o'tkazgan **Tarafa** (VI asr o'rtalarida vafot etgan) ham kiradi.

Tarafa haqida kam ma'lumotga egamiz. Shoir Fors ko'rfazi hududidagi Bahraynda ko'chib yurgan “Bakr” nomli qabilaning taniqli urug'idan kelib

chiqqan. Uning bolaligi to'kinlikda o'tgan, ammo otasining vafotidan keyin u amakilarining va'siyligiga o'tgan. Ular, aftidan, Tarafaga meros bo'lib o'tgan mulk va huquqni egallab olishga intilganlar. Qarindoshlari Tarafa urug'ning mulkini o'z ko'ngil xushliklariga sarflaganliklaridan foydalanib, qabiladoshlarini Tarafaga qarshi ko'targanlar va uni «qichima toshgan, qatron surkalgan tuya singari» qabiladan quvib yubordilar.

Tarafa uzoq vaqt Arabiston sahrolarida sang'ib yurgan, ammo oxir-oqibat qabilaga qaytib kelgan. U qabila boshliqlariga bo'ysunib, o'z akasi Ma'badga cho'ponlik qilgan. Vaqt o'tgach Tarafa yana qabilani tark etgan hamda she'riyat ixlosmandi va bilimdoni Amr ibn Hind saroyiga joylashgan. Biroq shoir saroy shoiridek past mavqega ko'na olmagan va Xira hukmdori va uning atrofidagilarga qarshi bir qancha hajviy she'rlar yozgan. Bundan g'azablangan Amr ibn Hind Tarafani jazolash uchun Bahraynga, o'ziga bo'ysunuvchi noib huzuriga jo'natgan. Ammo Bahrayn noibi, Tarafaning qabiladoshi buyruqni bajarishdan bosh tortgan va shu bois lavozimidan mahrum qilingan. Tag'lib qabilasidan bo'lgan yangi noib esa shoirni qatl ettirgan.

Tarafaning asarlari ichida arablar orasida eng mashhurlari qasida bo'lib, ushbu qasidani ular mu'allaqalarga kiritadilar.

Mu'allaqa yaratilishiga Tarafaning mulkini egallab olgan akasi Ma'badning zulm qilishi sabab bo'lgan. Tarafa o'z mu'allaqasida akasiga ta'nalar bilan murojaat etadi, o'z turmush tarzini har tomonlama oqlaydi va qadr-qimmatini maqtaydi. Tarafaning mu'allaqasida an'anaviy muqaddima (tark etilgan qo'noq va mahbuba), tuya tasviri, o'zini o'zi maqtash bor. Keyingi, «falsafiy» qismi hikmatlardan iborat bo'lib, ularda shoir o'zining havoyi turmush tarzini yer yuzidagi hamma narsaning o'tkinchiligi bilan oqlaydi.

O'z asarining oxirgi (asosiy) qismida shoir o'zini akasining hujumlaridan himoya qiladi, mahbubasi nazarida o'zini oqlashga urinadi hamda o'zining jasurligi va qabilasiga «jangda ham, maslahatda ham» foyda keltiruvchi boshqa qadr-qimmatlarini har tomonlama ta'kidlaydi, adolatsizlikdan shikoyat qiladi va vaqti kelib o'zining haqligini isbotlashdan umidvorligini bildiradi.

Tarafaning dunyoqarashi batamom urug‘-qabilachilik negizida qolgan. U o‘zining oqsoqollar kengashi ishtirokchisidek burchiga sodiq bo‘lgan, istalgan daqiqada qabilasini himoya qilishga tayyor bo‘lgan. U faqat qabila boshliqlarining adolatsiz munosabatlaridan shikoyat qilgan.

Tarafaning ijodida, Imru-l-Qaysniki kabi, bolalikda, so‘ngra esa saroydagi hayot davrida tarbiyalangan nazokat uzoq vaqt sahroda bo‘lish ta‘sirida paydo bo‘lgan qo‘pollik bilan qo‘shilib ketgan.

Hissiyotlarni ifodalashdagi muayyan tiyilish ajoyib she‘riy obrazlilik bilan uyg‘unlikda tarafa she‘riyatining asosiy jihatini tashkil etadi. Tarafa qiyoslash bobida alohida mahoratga erishgan.

Bu yerda ko‘z o‘ngimizda bir qator qiyoslashlar gavdalanadi: sahroda borayotgan tuyalar ustidagi mahofalari bilan qayiq'larga o‘xshatiladi, ikkovi birgalikda esa badaviylarning o‘yiniga qiyoslanadi.

Shoir o‘z she‘rlarida mahbubasini ohuga, uning jilmayishini esa «toza va nam qumdan iborat tepalikda o‘suvchi» yovvoyi moychechak guliga qiyoslaydi.

Tarafa qiyoslari odatda aniq va ayni vaqtda yorqin hamda shoironadir.

Arablar barcha zamonlarda Tarafaning shoirlik iste‘dodini ulug‘laganlar, uni hissiyotlarining kuchi va falsafiy teranligi bilan zamondoshlaridan ustun turadigan joxiliya davrining buyuk shoiri deb hisoblaganlar. Ayni vaqtda ular shoir she‘rlarining haddan tashqari qo‘polligini, me‘yor va yetuklik yetishmasligini ta‘kidlaganlar.

Tarafa ijodi, Imru-l-Qays ijodi singari, arab o‘rta asr mumtoz she‘riyatining butun keyingi rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

VI asr oxiridagi islomgacha bo‘lgan she‘riyatning badaviylik yo‘nalishiga mu‘allaqalarning ikki muallifi – **al-Xaris ibn Xilliz** va **Amr ibn Kulsumning** ijodi taalluqlidir. Ularning nomlari bakr va tag‘lib nomli qardosh qabilalar o‘rtasidagi ko‘p yillik urush bilan bog‘liq.

Yuqorida aytilganidek, «al-Basusa tuyasi tufayli yuzaga kelgan urush» Xira hukmdorining aralashishi tufayli yakunlangan. Biroq tez orada qabilalar o‘rtasida yana urush boshlangan. Raqib qabilalar hakam sifatida Xira hukmdori Amr ibn

Hindga (554–569) murojaat etganlar. Taxminlardan biriga ko‘ra, shoirlar mu‘allaqalarini Amr ibn Hind oldida bahslashuvchi tomonlarning nutqlari sifatida o‘qib berganlar. O‘zining tag‘lib qabilasini ulug‘lagan va Xira hukmdoriga tosh otishdan qo‘rqmagan Amr ibn Kulsumning chiqishini qabila boshlig‘i yomon qabul qilgan. Al-Xaris ibn Xilliz qarshi tomonning asoslarini rad etib, hakamning donishmandligini sharaflay olgan. Xira hukmdori bahsni bakr qabilasining foydasiga hal qilgan. Albatta, bu she‘riy munozaraning oqibati bo‘lmagan (ushbu fakt bo‘lganligining o‘zini ayrim tadqiqotchilar shubha ostiga oladilar). Sababi sof siyosiy xususiyatga ega bo‘lgan: Xira hukmdorlarini tag‘libiylar qudratining o‘sib borayotganligi cho‘chitgan. Tag‘lib qabilasi Arabistonda eng qudratli qabilalardan biri sifatida katta hududga ega bo‘lgan. Ushbu qabila haqida hattoki «agar islom paydo bo‘lmaganida, tag‘lib qabilasi hamma narsani qamrab olgan bo‘lardi» degan gap tarqalgan. She‘riy munozara haqidagi yarim afsonaviy hikoyaning o‘zi arab qabilalari ijtimoiy hayotida shoirlarning muhim o‘rin tutganidan dalolat beradi.

Al-Xaris ibn Xillizning mualaqasi an‘anaviy kompozisiyaga ega. Shoir odatdagi lirik chekinishdan so‘ng tag‘libiylar uning qabilasiga Kuleybning o‘limiga aloqadorlikni aytib, qo‘yayotgan aybni rad etadi, bakr qabilasini maqtaydi, ularning g‘alabalari, xususan tag‘lib qabilasining ustidan qozongan g‘alabasi haqida hikoya qiladi, Xira hukmdorlari bilan tag‘lib qabilasi o‘rtasidagi eski adovat haqida so‘z yuritadi, Xira hukmdorini ulug‘laydi va uning bakr qabilasiga ko‘rsatgan xizmatlarini e‘tirof etadi. She‘r oxirida u Xira hukmdori bilan bakr qabilasi o‘rtasidagi do‘stlikka da‘vat etadi.

Al-Xaris ibn Xillizning mu‘allaqasini arab notqlik san‘atining eng qadimgi namunalaridan biri deb hisoblash mumkin. Mu‘allaqada hikoya qilish elementi katta o‘rin tutadi. Shoir o‘zining tag‘libiylar bilan bahsda ilgari surgan asoslarini o‘z qabilasining qahramonona ishlari haqidagi hikoya bilan mustahkamlaydi. Aftidan, o‘z qabiladoshlarining xislatlari, ishlarini ideallashtiruvchi va bo‘rttiruvchi muallifning boy fantaziyasi bilan ko‘pirtirilgan tarixiy faktlarga asoslangan ushbu hikoya epik xususiyatga ega.

Al-Xaris ibn Xilliz qasidasining tili juda o‘ziga xos. Shoir Xira hukmdoriga bag‘ishlangan baytlardagi so‘zlarni shunday tanlaganki, ular yumshoq va nozik eshitiladi, ayni vaqtda qasidada qabilaning qahramonona ishlarini tavsiflaganda jang musiqasi eshitiladi.

Hakamlilik sudida tag‘libiylar manfaatini, yuqorida aytilganidek, tag‘libiylar hukmdorlaridan birining o‘g‘li va mashhur tag‘libiy dohiy Kuleybaning ajdodi shoir **Amr ibn Kulsum** himoya qilgan. Hakamlar sudi to‘qnashuvning oldini ololmagan. Rivoyatga ko‘ra, Xira hukmdori Amr ibn Hind Amr ibn Kulsumni onasi bilan mehmonga chorlagan va ziyofat vaqtida qari ayolga hurmatsiz munosabatda bo‘lgan. Haqoratlangan Amr ibn Kulsum Xira hukmdoriga tashlanib, kallasini qilich bilan olib tashlagan hamda o‘z yo‘ldoshlari bilan birga Xiraning ko‘plab zodagon vakillarini asir olib, qochib yashiringan. Bakr va tag‘lib qabilalari o‘rtasida urush uzoq cho‘zilgan va goh u, goh bu tomonning g‘alabasi bilan davom etgan. Aslida, bu Shimoliy va Markaziy Arabiston ustidan hukmronlik uchun olib borilgan kurash edi. Urush jarayonida ba’zi qabilalar bir lagerdan boshqasiga o‘tib turgan. Amr ibn Kulsum urushda ham jangchi, ham shoir sifatida faol ishtirok etgan. U o‘z she’rlarida urush voqealarini hikoya qilgan, o‘z qabilasini sharaflab, Xira hukmdorlarining ustidan qattiq kulgan.

Amr ibn Kulsumning badiiy jihatdan eng mashhur va yetuk asari deb uning, aftidan, ikki qismli mu‘allaqasi hisoblanadi. Birinchi qismidan shoirning Amr ibn Hindga murojaati o‘rin olgan. Ikkinchi qismida shoirning Xira hukmdorini qatl etgani hikoya qilinadi. Mu‘allaqaning birinchi qismi xamriyat, ya’ni sharobni ulug‘lash bilan boshlanadi. Shundan so‘ng, an’anaga ko‘ra nasib (shoirning mahbubasidan ajralgani tasvirlanadi, uning go‘zalligi kuylanadi), so‘ngra asosiy qism – faxrga o‘tiladi. Bu qismida shoir tag‘libiylarning bakriylar bilan kurash tarixini hikoya qiladi, bakriylar hukmdorini tag‘libiylarni bo‘ysundirishga urinishda ayblaydi, o‘z qabilasining qudratini tavsiflab maqtanadi.

Mu‘allaqaning ikkinchi qismi, uning mazmuni bo‘yicha xulosa chiqaradigan bo‘lsak, keyinroq, tag‘libiylarning Xiraga qarshi urushi kuchaygan vaqtda yozilgan. Unda shoir o‘z qabilasi askarlarining jasorati va g‘alabalarini maqtashda

chegaradan chiqib ketgan. Amr ibn Kulsumning mu'allaqasi uni qahramonlik qasidasiga yaqinlashtiruvchi bir qator jihatlarga ega. Ammo Amr ibn Kulsumning qahramoni hali shaxs sifatida ajralib chiqmagan, hikoyaning markaziy siymosiga, xalq irodasi, mardligi va donoligining ifodasiga aylanmagan, qisqasi qahramonlik xalq romanining bosh personajiga xos jihatlarga ega bo'lmagan. Amr ibn Kulsum mu'allaqasining qahramoni – qabila bo'lib, shoir uning jasoratlarini maqtaydi. Uning she'rlari bo'rttirishlarga to'la, badiiyat ko'p. Shoirning jadal xayoloti arab shoirlarida odatiy bo'lgan ma'naviy birlikning buzilishigagina emas, ba'zan she'rda har qanday ma'noning yo'qolishiga olib kelgan. Ayni vaqtda Amr ibn Kulsumning she'ri nihoyatda jarangdor xususiyatga ega, unda jang shovqini, yelib borayotgan chavandozlarning dupuri eshtiladi. Amr ibn Kulsum o'z she'rlarida johiliyat davri she'riyatining barcha vositalari – ma'no parallelizmi, qiyoslash, istiora va tashbihlardan foydalangan.

Bu o'rinda o'ziga xos ma'noli parallelizm orqali shoir qabiladoshlarining erksevarligi ta'kidlanadi, ularning hatto tuyalari ham bo'ysunmas ekanligi ko'rsatiladi.

Amr ibn Kulsum o'z qasidasini qabilasining jasoratini sharaflowchi maqtoov baytlari bilan tamomlaydi.

Amr ibn Kulsumning mu'allaqasi islomgacha bo'lgan davrda arab qabilalari orasida juda mashhur bo'lgan. Uni ayniqsa tag'libiylar yaxshi ko'rganlar.

Zubiyani va abs qabilalari o'rtasidagi urush davrining taniqli shoirlaridan yana biri **Zuhayr ibn Abu Sulma** (530–627) bo'lgan. Ushbu tinchlikparvar shoirning asarlarini o'rta asr arab tanqidchiligi qadimgi arab she'riyatining eng ajoyib namunalariga kiritgan. Shoir abs va zubiyan qabilalari kelib chiqqan gatafan qabilasining vakili bo'lgan. Zuhayr shoirlik hunarini arab tilshunoslari alohida (ausiy) she'riy maktabning asoschisi deb hisoblovchi Aus ibn Hujra rahbarligida o'rgangan.

Zuhayr – tipik badaviy shoir. Uning ijodi yuksak qabilaviy ko'tarinkilikka to'la. Zuhayr o'z qabilasi qudratining tiklanishi haqida orzu qilib, butun ijodi

bilan absiylar va zubiyanlarni yarashtirishga intilgan, chunki o‘z qabilasi ojizlashganligining sababini shoir aynan shunda ko‘rgan.

She’riy rivoyatga ko‘ra, abs va xazar – zubiyanlarning qardosh qabilalar o‘rtasida o‘tkazilgan ot poygasida absiylar dohiysi Qays ibn Zuhayr Daxis laqabli toyni, Xazar qabilasining hukmdori Xuzeyfa ibn Badr esa al-Gabra laqabli biyani poygaga qo‘ygan. Xazariylar g‘alabaga erishish uchun pistirma qo‘yib, Daxisni cho‘chitib yuborganlar va marraga birinchi bo‘lib al-Gabra yetib kelgan. Biroq Xuzeyfa mukofot tariqasida yuzta tuya talab qilganida, Qays buni rad qilgan. Bu esa urush boshlashga bahona bo‘lgan. Ushbu urush «Daxis va al-Gabra urushi» nomini olgan va afsonaga ko‘ra, 40 an’anviy yil davom etgan.

Zuhayr she’riyatida madhiya markaziy o‘rin tutadi, biroq ularda shoir dunyodagi kuchli shaxslarni emas, balki o‘z faoliyati bilan qadrdon qabilasining farovonligiga xizmat qilgan hamda tinchlikparvarligi, sahiyligi va boshqa badaviylar uchun an’anaviy bo‘lgan ezguliklar bilan shon topgan shohlarni ulug‘lagan. Xususan, Zuhayrning mualaqasi zubiyanlik ikki nafar taniqli shaxs – rivoyatga ko‘ra, qabilalar o‘rtasida tinchlik o‘rnatish maqsadini qo‘ygan hamda xun talablarga o‘z mulkidan uch ming tuyadan iborat ulkan tovon to‘lagan Xarim va Xarisni maqtashga bag‘ishlangan:

*Qasamki, siz ikki janob qanchalar oliyjanob ekansiz,
Har qanday holatda – oddiy tugunmi yoki chigalmi?
Siz aytdingiz: agar har tomonlama sulxga erishsak,
Boylik, hayrli so‘z yordamida, qutulib qolamiz.*

Shoir o‘z mu’allaqasida urushni va qabilani urushga tortganlarni qoralaydi, tinchlikka rioya etishga va yomonlikni unutishga chaqiradi. U urushni qabilalarni maydalab tashlovchi tegirmon toshiga o‘xshatadi. O‘z dalillarini obrazli shaklga kiritib, ayni vaqtda u o‘z qasidasini «tartibga keltiradi», uni aniq-ravshan va mantiqan izchil qiladi, barcha qismlarini yagona umumiy g‘oyaga bo‘ysundiradi.

Kompozision jihatdan Zuhayrning mu'allaqasi Imru-l-Qays yoki Tarafa mu'allaqalariga qaraganda yaxlitroq asardir.

Ayni vaqtda Zuhayrning mu'allaqasida Imru-l-Qays asarlariga xos tiyraklik va shiradorlik yo'q. Arablar nazdida Zuhayr mulohazadorlik va ezgulikni, ayni vaqtda Imru-l-Qays va Tarafa esa yengiltaklik va beg'amlikni ifodalagan.

Hattoki Zuhayr qasidalaridagi lirik chekinishlar (muqaddima) ham hissiyotning emas, balki aqlning hosilasi; ularning mavjudligi faqat an'ana tufayli bo'lgan. Shoirning hajviyasi juda tiyilgan va nasihatomezdir.

Zuhayr hikmatlarida tushkunlik elementlari ko'zga tashlanadi. U qabilalararo nizolar, o'zboshimchalik va adolatsizlik hukmron bo'lgan dunyoning nomukammalligini keskin his qiladi. Zuhayr she'rlaridagi achchiq motivlar qabila ideallarining poymol etilishi, bir vaqtlar mavjud bo'lgan qabilaviy jipslikning buzilishi, patriarxal badaviy axloqning tanazzuli bilan bog'langan.

Arablarda Zuhayr tavsiflashning eng zo'r ustasi hisoblangan. Uning ta'riflari harakatga to'la, bo'yoqdor, lo'nda va aniq. Ularda shoirning she'riy xayolotlari kuchiga qaraganda, uning nihoyatda ajablanarli kuzatuvchanligi ko'proq namoyon bo'lgan. Masalan, u yovvoyi eshakni tavsiflaganda lablaridagi yashil maysaning izi singari tafsilotlarni ham ko'zdan qochirmaydi. Narsa haqida so'z yuritganda Zuhayr uning rangi, shakli va nimadan yasalganligini albatta eslatib o'tadi. U doimo hayotda ko'rgan narsasini fotosuratdagidek aniq berishga hamda harakat vaqti va joyini ko'rsatishga urinadi. Ko'chish jarayonini tasvirlaganda shoir joy reliefi, ob-havo, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida batafsil so'z yuritadi. Harakat joyi, sharoiti va vaqtini aniq ko'rsatishda arablarda tarixiy tafakkurning yuzaga kelayotganligini ko'rish mumkin.

Zuhayr istiora usulidan mahorat bilan foydalangan. Masalan, tinchlik elchisi Xarimni ulug'laganida va uning ko'z yoshlarini tavsiflaganda, Zuhayr uning ko'zlarini suv to'ldirilgan chelaklarga qiyoslaydi va shu joyning o'zida ushbu chelaklarni olib ketayotgan tuyani, tuya egasini (haydovchini), u chelakdagi suvni to'kayotgan irmoqlarni hamda cho'kishdan qo'rqib suvdan sakrab chiqayotgan qurbaqalarni ham tasvirlaydi.

Oʻrta asr arablari Zuhayr ijodini yuksak qadrlaganlar va uni islomgacha boʻlgan davrdagi eng ajoyib shoirlardan biri deb hisoblaganlar.

Islomgacha boʻlgan badaviy shoirlar qatorida jangchi-shoir, qahramon, shaxsi afsonalarga burkangan **Antara ibn Shaddod** (VI–VII asrlar) alohida oʻrin tutadi. Uning shaxsi Oʻrta asrlar arablarini katta qahramonona qasida yaratishga ilhomlantirgan.

Antara abs qabilasining taniqli askari va habash kanizakning oʻgʻli boʻlgan. Qabila qonunlariga muvofiq u, kanizakning oʻgʻli sifatida, qul hisoblangan va poda boqishi kerak boʻlgan. Biroq absiylar tay qabilasi bilan urushayotgan davrda Antara katta jasorat koʻrsatib, qullikdan ozod qilingan va teng huquqli askarga, keyinchalik esa hatto harbiy sarkardaga aylangan edi. Ammo gʻalabalar shoirni qabiladoshlarning nafratidan qutqarmadi. Antara unga, sobiq asir (qul) sifatida amakivachchasi goʻzal Abla unga nisbatan nafrat bilan munosabatda boʻlishidan ayniqsa koʻp aziyat chekardi.

Antara – asosan lirik shoir. Sheʼrlarining asosiy mazmuni – Ablaga boʻlgan javobsiz muhabbatdan azob chekish, qabiladoshlarining adolatsiz munosabatidan gʻussa va alamga botishdir. Antara sheʼrlarining aksariyati oʻz jasoratlarini maqtashga va shoir butun umr sodiq boʻlib qolgan Ablaning goʻzalligini tavsiflashga bagʻishlangan:

*Shoirlar kuylash mumkin boʻlgan biror narsa qoldimikan,
Nahotki sen, baʼzi shubhalardan keyin, mahbubam uyini tanimading?*

*O al-Javadagi Ablaning uyi, gapir
Tongda xotirjam boʻlgin, o Ablaning uyi, tinch boʻl.*

Antaraning asosiy asari, rivoyatlariga koʻra «Daxis va al-Gabra urushi» davrida kelib chiqishi tufayli Antaraning ustidan kulgan qabiladoshi boʻlgan jangchiga javob sifatida yozilgan muʼallaqa edi. Anʼanaga koʻra, Antara muʼallaqani bir vaqtlar Abla yashagan qoʻnoq izlarini koʻrganda his etgan

tuygʻulari haqida hikoya qilishdan boshlaydi... Soʻngra shoir Ablaning goʻzalligini taʼriflaydi va unga boʻlgan muhabbati haqida hikoya qiladi.

Koʻrib turganimizdek, shoir sezilar-sezilmas tarzda anʼanaviy tartibdan chekinadi. Soʻngra, goʻyo esiga tushib qolgandek, ushbu mavzuga qaytadi va mashuqasi minib borayotgan tuyani taʼriflashga oʻtadi. Shu yerda tuyani tasodifan tuyaqush bilan qiyoslash shoirning tezyurar qushni tavsiflash uchun yana chalgʻishiga sabab boʻladi.

Shoir muʼallaqani oʻzining badaviy xislatlarini maqtash va jangovar gʻalabalarini tavsiflash bilan yakunlaydi:

Jangni koʻrgan har qanday odam senga xabar beradi

*Men qoqqisdan jangga kiranman, biroq u yerda oʻzimni oʻljadan tiyib
turaman (yaʼni, jangda jasur, oʻlja olishda odmi)*

Antaraning shoirona nutqi nihoyatda ifodalidir. Soʻzlarini oʻziga xos tarzda tanlash, joylashtirish va tovush uygʻunligi tufayli Antara ajoyib badiiy effektga erishgan. Mahbubasi Ablani tavsiflashda uning nutqi nazokat va malohatga toʻliq, tuyani ifodalashda yugurib ketayotgan hayvon dupuri, jang manzaralarida – qurolning sharaqlashi eshitiladi va hokazo.

Islomgacha boʻlgan barcha boshqa shoirlar singari Antaraning deyarli hamma tavsiflari nihoyatda aniqligi bilan ajralib turadi. Faqat dushman kuchi haqida soʻz yuritgandagina, Antara oʻz qadr-qimmatini sharaflash uchun bir qadar boʻrttirishga yoʻl qoʻygan.

Antaraning hayoti va qahramonliklarini tavsiflashga oʻrta asr arab adabiyotida jild-jild kitoblar bagʻishlangan. Afsonalarda Antara yengilmas jangchi va mard askar, mazlumlar himoyachisi, ezgulik va axloqiy poklik sohibi sifatida tasvirlanadi. VI–VII asrlardagi arablar uchun jozibali boʻlgan ideal badaviy jangchi obrazi keyinchalik badaviy anʼanalar va badaviylar axloqi prinsiplaridan butunlay uzilish davrida arablar doimo murojaat etgan qandaydir romantik idealga aylangan.

Islomgacha bo'lgan davrning «oxirgi badaviy shoiri», mu'allaqa muallifi **Labid** (taxminan 560–661) edi. Shoir uzoq umr ko'rgan va nafaqat Muhammad payg'ambardan, balki uning sahobalaridan (haqiqiy), xalifalardan ham ko'proq yashaganiga qaramay, uning shoirlik faoliyati islomgacha bo'lgan davr bilan bog'liq. Rivoyatlarga ko'ra, Labid islom dinini qabul qilgach she'riy ijoddan voz kechgan. Labidning eng yaxshi asarini o'rta asrlarda yashagan arablar muallaqalarga kiritgan qasida tashkil qiladi. Uning tuzilishi an'anaviy: tashlab ketilgan qo'noq izlarini ko'rganda shoirda yuzaga kelgan hissiyotlarni ifodalash, zulmkor mahbubasini xotirlash, tuyani ta'riflash, kiyik ovi manzaralari va, nihoyat, shoirning o'zini va qabilasini maqtashi bilan almashadi.

1.3. SAROY SHE'RIYATI

Darsning maqsadi: VI-VII asr saroy shoirlari hayoti va ijodi bilan tanishtirish.

Tayanch so'zlar va iboralar: *nasib, ra'jaz, vaf, xamriyat, tardiyat, madh.*

VI asrning II yarmida o'z qabilasi bilan aloqasini uzmagani va badaviy she'riyat an'alarini davom ettirgan shoirlar bilan bir qatorda, she'riyati saroydagi mayda arab hukmdorlarining hayoti bilan bog'liq ancha ko'p shoirlar ham bo'lgan. Ular shahar madaniyatining ta'siriga borgan sari ko'proq uchrab, arab she'riyatiga xorijiy madaniyat belgilariga ega yangi an'alarni kiritganlar. Saroy shoirlari an'anaviy qasida kompozitsiyasidan voz kechmagan holda, ayni vaqtda uning madhiya qismini biroz kengaytirganlar. Badaviy shoirlarda hayotiy kuchga ega bo'lgan ko'chmanchi arab turmushining tavsifi saroy shoirlarining she'rlarida sun'iylik kasb etib, an'anaviy qolipga aylanadi. Endi saroy shoiri hissiyotlarga to'liq badaviy shoir emas, balki mulohazali, ba'zan esa hisob-kitobli saroy vakili. U kuchli hukmdor oldida qabilasining yoki o'zining manfaatlarini himoya qiladi. She'riy vositalar murakkablashadi – ibtidoiy bo'yodkorlik va bevositalik o'rnini ancha puxta sayqal egallaydi. Shoirlar ijodida muayyan she'riy maktab jihatlari borgan sari aniq ko'zga tashlanadi.

VI asrning ikkinchi yarmidagi saroy she'riyatining eng yirik vakili **An-Nabig'a az-Zubiyaniy** (taxm. 535–604) edi. U arab she'riyatidagi birinchi shoir hisoblanadi. An-Nabig'a Nejdaning shimoli-sharqiy qismida ko'chib yurgan Zubiyani qabilasining taniqli urug'laridan bo'lgan. Shoirning hayoti haqida juda uzoq-yuluq ma'lumotlarga egamiz. An-Nabig'a hayotining katta qismini Xira hukmdori Amr ibn Hind (vafoti 569) va uning vorislari, xususan **an-Nu'man ibn al-Munzir** (580–602) saroyida o'tkazgani ma'lum.

Obro'sini mustahkamlashga intilgan an-Nu'man o'z ajdodlari singari, ko'plab taniqli shoirlar (Labid, al-A'sha, Hasan ibn Sobit – Muhammad payg'ambarning bo'lg'usi shoiri) va ular qatori An-Nabig'ani saroyga yaqinlashtirgan.

Shimoliy Arabistonda VI asr oxirida siyosiy vaziyat beqaror bo'lgan. Doimiy ravishda bo'lib turgan qabilalararo to'qnashuvlar qabilalarni kuchli homiylar izlashga majbur qilgan. An-Nabig'a o'z qabilasining manfaatlarini himoya qilishga hamda Xira va Hasaniylar hukmdorlarini o'z tomoniga tortishga urinib, doimo «yuksak» homiylarning tilini topishga majbur bo'lgan. Masalan, taxminan 587 yilda u an-Nu'manni tark etgan va Hasaniylar saroyiga ko'chgan. Keyinchalik u yana Xiraga qaytgan, hayotining so'nggi yillarini esa o'z qabilasida o'tkazgan. An-Nabig'a Xira va Hasaniylar hukmdorlariga ko'plab madhiyalar bag'ishlagan va bu bilan saroy madhiya she'riyati janriga asos solgan. Shu kundan boshlab shoir o'z qabilasining sha'nini kuylashga qaraganda ko'proq mukofot evaziga o'zining qudratli homiylarini ulug'lagan.

Arablar An-Nabig'ani siyosiy lirikaning asoschilaridan biri deb ham hisoblaydilar. Chunki shoir o'z qabilasining ishlarida faol ishtirok etish va uning manfaatlarini saroyda himoya qilish orqali qabiladoshlari va ularning ittifoqchilari uchun o'ziga xos siyosiy ko'rsatmalarga ega bo'lgan bir qator qasidalar yaratgan. Ularda shoir abs va zubiyani qabilalarini kelishmovchiliklarga chek qo'yish, ittifoqdoshlikka sodiqlikni saqlash va ittifoqqa boshqa qabilalarni jalb etish, bu bilan dahshatli dushman – Hasaniylar davlati oldida kuchli bo'lishga chorlagan.

Arablar An-Nabig'aning an-Nu'manga bag'ishlangan va mu'allaqalarga kiritilgan madhiyasini uning badiiy jihatdan eng yaxshi qasidasi deb hisoblaganlar.

Madhiyada shoir an'anaviy muqaddimadan so'ng tezyurar tuyada yurishini tavsiflaydi, tuyani kiyikka o'xshatadi va asta-sekin ov haqidagi hikoyaga o'tadi. Kutilmaganda shoir Xira hukmdorining qudrati, sahiyligi va donoligini maqtashga o'tadi, uni goh podsho Sulaymon, goh toshqin vaqtidagi keng va ayqirgan Frot daryosiga qiyoslaydi. U, shuningdek, qushlar galasi sonini chamalab aniqlay oladigan ayol haqidagi rivoyatni keltiradi. Bu bilan an-Nu'man ham ana shunday ziyrak, adolatli va shoirga nisbatan rahmdil bo'lishga ishora qiladi.

Qabila sha'nini himoya qiluvchi badaviy shoirlarning madhiyalaridagi soddalikka qarama-qarshi o'laroq, An-Nabig'a madhiyalari balandparvoz, maqtalayotgan shaxsga qaratilgan maqtovlar esa me'yoridan ortiqdir.

An-Nabig'a nihoyatda mohir tavsiflovchi bo'lgan. Vasf har bir qasidasining majburiy elementini tashkil etadi. An-Nabig'aning tavsiflari go'zal bo'lib, jonli tafsilotlarga to'lib-toshgan. An-Nabig'a yovvoyi buqa yoki tuyani tasvirlaydimi, o'z mahbubasi yoki qushlar galasini tasvirlaydimi, uning ta'rifu-tavsifi, garchi asosiy mavzuga bevosita aloqasi bo'lmasa ham, uzviy bo'lib qasidaning asosiy g'oyasini yorqinroq ifoda etishga xizmat qiladi. Masalan, qasidalarining birida Hasaniylar hukmdori Amrni va uning yengilmas jangchilarini maqtab, shoir shu joydayoq jang guvohi bo'lgan qushlar galasini ifodalaydi.

An-Nabig'a o'zining tashvish va qayg'u holatini tabiatni tasvirlash orqali mahorat bilan ifodalaydi.

An-Nabig'a islomgacha bo'lgan boshqa shoirlar kabi, qiyoslashga ayniqsa ko'p murojaat etgan va qiyoslash sifatida qasidaga katta manzaralar, butun boshli rivoyatlar va shu kabilarni kiritgan.

An-Nabig'aning tili doimo tasvirlanayotgan voqealarga mos keladi. Shoir bunga so'zlarni puxta tanlash orqali erishgan. Masalan, ovni tasvirlashda An-Nabig'a ishlatgan hijo nafis, hukmdorga qaratilgan maqtovlar doimo balandparvoz ifodalar bilan berilgan, tabiat manzaralari oddiy tilda tasvirlangan.

Bu esa ushbu manzaralarni jonli va joizibador qiladi. Mahbubasi haqidagi she'rlarda shoir «nozik jaranglovchi» so'zlardan foydalanadi, jasoratni kuylovchi baytlarda «zarbli» ohanglar yangraydi va h.k.

Ijodi zamondoshlari orasida mashhur bo'lgan va o'rta asr arab tanqidchiligida yuksak baholangan islomgacha bo'lgan taniqli shoirlarga, shuningdek, shoir **al-A'sha** (vafoti taxm. 629 yil) va hajviy **al-Xutey'a** (vafoti 679 yil) kiradi.

Al-A'sha An-Nabig'aning shoirlik she'riyati an'analarini davom ettirgan. U Old Osiyo davlatlari (Iroq, Suriya, Eron va boshq.)ning deyarli barcha poytaxtlariga borgan va hamma yerda saroy shoiri sifatida so'zga chiqqan. Al-A'shaning qasidalarida, odatdagi elementlardan tashqari ziyofat tasvirlari va sharob maqtovlari batafsil keltirilgan. Al-A'sha qasidalarining sharobga bag'ishlanganlarida Tarafa va Antara qasidalarining tegishli joylari singari, sharob she'riyati (xamriyat) janrining kurtaklari bo'lgan. Bu janr al-Axtal va Abu Nuas ijodida to'liq shakllangan. Tanqidchilar doimo shoir ijodida tabiatning ajoyib tavsiflariga urg'u berganlar. Ularga ko'plab tajassum etish (jonlantirib tasvirlash)lar jonli tus bergan.

Abs qabilasidan chiqqan **al-Xutey'a** biroz boshqacharoq hajviy shoir bo'lgan. «Abadiy quvg'in»da bo'lgan bu shoirning zaharxanda she'rlari har doim ham shoirning homiylariga yoqavermagan va uning doimiy darbadarligiga sabab bo'lgan. Al-Xutey'a she'riyatida qabila vatanparvarligi deyarli sezilmaydi. Shoir har qanday kuchli va o'zi uchun foydali insonni maqtayvergan. Shu bilan birga, shafqatsiz zaharxandalik ortida ba'zan homiyni yaxshiligiga tobe insonning alami seziladi.

Al-Xutey'aning hajviyasi – achchiq, ammo unda qo'pollik yo'q. Uning kuchi shoirning o'tkir nigohi va inson nuqsonlarini nozik his qila olishidadir.

Islomgacha bo'lgan she'riyat arab adabiyoti tarixidagi eng ajoyib sahifalardan biridir. Ammo islomgacha bo'lgan nasr (nasr) haqida bunday deya olmaymiz. Har holda uning bizgacha yetib kelgan namunalari katta badiiy

qiziqish uygʻotmaydi va biz uchun koʻproq tarixiy-madaniy nuqtai nazardan muhimdir.

Manbalarning guvohlik berishicha, qadimgi arablarda turli maqollar, hikmatlar va masallar juda mashhur boʻlgan. Ularning aksariyati, arab anʼanasiga muvofiq, qadimgi arab afsonaviy donishmandi Luqmon tomonidan yaratilgan. Qabilalar vakillari oʻrtasidagi turli musobaqalar hamda siyosiy va diniy xususiyatga ega boʻlgan har xil ommaviy chiqishlar notiqlik sanʼati rivojlanishiga yordam bergan. Ushbu sanʼat islomgacha boʻlgan davridayoq muayyan uslubiy va kompozision qoidalarga boʻysungan. Badaviylar va saroy muhitida arablar tarixining qahramonona voqealari haqidagi epik hikoya va rivoyatlar yurgan. Ular keyinchalik urushlar haqidagi afsonalarda oʻz aksini topgan va qadimgi arab sheʼriyati antologiyalaridagi sharhlar sifatida qayd etilgan.

Islomgacha boʻlgan davrdagi arab epik rivoyatlari va afsonalari uning bir qismi keyinchalik yaratilgan toʻplam – Abu Ubaydning (728-825) «Arablar kunlari» («Ayyam al-arab») toʻplamiga kirgan. Ularda badaviy qabilalar oʻrtasidagi muhim janglar hamda ayrim badaviy jangchilar oʻrtasidagi toʻqnashuvlar haqida soʻz yuritiladi. «Arablar kunlari» rivoyatlarining baʼzilari Ibn Abd Rabbixa, Ibn al-Asir va boshqa oʻrta asr arab tarixchilari, geograflari va antologiya tuzuvchilarining kitoblariga kirgan. Ana shunday rivoyatlarning ikkitasi («Al-Basusaning tuyasi tufayli kelib chiqqan urush» va «Daxis va al-Gabra urushi»)ning mazmunini yuqorida qisqacha bayon etdik. Qizigʻi shundaki, qadimgi arab rivoyatlari butun oʻrta asrlar mobaynida ogʻzaki berib kelingan va koʻplab kech oʻrta asr xalq romanlari ular asosida yuzaga kelgan.

Seminar mashgʻulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. “Al-Muʼallaqa” soʻzining maʼnosini tushuntiring.
2. “Al-Muʼallaqat” toʻplamiga qaysi shoirlarning ijodi kiritilgan?
3. Qasida janri.
4. Antara – jangchi shoir.
5. Ash-Shanfaraning asarining asosiy gʻoyasi.
6. Johiliya davri shoirlari asarlari toʻplangan manbalar.

7. «Arablar kunlari» («Ayyam al-arab») islomdan ilgari nasriy asar.
8. Maqollar, hikmatlar va masallar qaysi to'plamdan joy olgan?
9. An-Nabig'a saroy she'riyati vakili.
10. Al-Xutey'aning hajviyasi.
11. «Kitab al-Ag'aniy» va uning muallifi kim?

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. V-VII asr arab shoirlarining ijodi.
2. Qasida janri va uning mazmun-mohiyati.
3. Amr ibn Kulsum –urug'-qabilachilik axloqining sohibidir.
4. Al-Basusaning tuyasidan kelib chiqqan urush.
5. “Devon al-Xamosa” to'plami haqida.
6. Imru-l-Qays hayoti va ijodi.

II BOB. QUR'ONU KARIM VA AHODISI NABAVIYA

2.1. HADIS VA MUHADDISLAR

Darsning maqsadi: Qur'onu karim va Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy to'plagan hadislar to'plami haqida tushuncha beriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *sura, va'z, xutba, tafsir, hadislar, muhaddislar.*

Islom dini arab adabiyoti oldida yangi ufqlarni ochib, unga yangi tushunchalarni kiritdi. U arab tilini yangi ma'nodosh so'zlar bilan boyitdi. Qur'oni Karim arab tili va adabiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Qur'oni Karim — musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, uni yana al-Furqon yoki al-Mus'haf ham deb ataydilar. U 114 suradan iborat bo'lib, shulardan 92 tasi Makkai mukarramada va 22 tasi Madinai munavvarada nozil bo'lgan. Mazkur suralar oyatlarga bo'linadi.

Qur'oni Karimni xotirasida saqlagan Rasulullohning sahobalari va shogirdlari og'zidan yozib olinganlari 632 yili Xalifa Abu Bakr Siddiq (raziallohu anhu) zamonlarida to'plangan. Qur'oni Karim 645 yili xalifa Usmon ibn Affon

(r.a.) zamonlarida to'la-to'kis holda qo'lyozma holiga keltirilgan. Qur'oni Karim fasohat va balog'at bobidagi eng oily namuna hisoblanib, arab tilining sof saqlanishiga sabab bo'ldi. Qur'oni Karim arab tili grammatik shakllarining takomillashishi va lug'at tarkibining yanada boyishiga katta hissa qo'shdi. Qur'oni Karim musulmon dini ilmlari fiqh (musulmon huquqshunosligi), tafsir va arab tili sarfi-nahvi, maoniy va bayon ilmlarining asosi hisoblanadi.

Islom dinida Qur'oni Karim eng mo'tabar va har sohada murojaat manbai bo'ladigan kitob hisoblanib, undan keyin Rasulullohning hadislari turadi. Zotan ul zoti mubarak aytganlar: "Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur'oni Karim bilan o'zimning sunnatim — yo'l-yo'riqlarimni qoldirdim. Sizlar shu ikkalasini qattiq ushlab ularga amal qilsangiz, to'g'ri yo'ldan also adashmaysiz".

Shu andisha nuqtai nazaridan qarasak, payg'ambarimizning hayotlik chog'larida aytgan so'zlari, qilmishlari, ko'rsatma-yo'llari, pand-nasihatu o'gitlari — bular hammasi hadis yo sunnat bo'lavergan va shunday deb atalgan. Chunki har bir musulmon kundalik hayotida duch keladigan turli-tuman holatlarda, ayniqsa, qiyin bir vaziyat yuz berganda mana shu sunnatlarga rioya va amal qilishni o'zining burchi va ixtiyori deb biladi.

Islomning dastlabki yillarida hadislarni saqlab qolish ularni muttasil yodlab borish bilan amalga oshirilar edi. Ko'pchilik sahobalar yetarli darajada savodli bo'lishlariga qaramay hadislarni o'z vaqtida yozib bormaganlar. Bunda Payg'ambarning hadislarini yozib borishlikni man qilganlari asosiy sabab bo'lgan. O'z xotiralari quvvatiga ishongan sahobalar ularni yodlab boraverganlar va shu tarzda avloddan-avlodga yetkazish mumkinligiga ishonganlar. U davrlarda kishilarning hurmat-ehtirom qilinishi, obro'-e'tibor qozonishi uning yodlangan va ma'nosini o'zlashtirgan Qur'oni Karim oyatlari va hadislarning soni bilan belgilanar edi. Vaqt o'tishi bilan Qur'oni Karim va Ahodisi Nabaviyani yod biladigan kimsalar birin-ketin dunyodan ko'z yumib, ularning soni tobora kamayib borayotgani ma'lum bo'la boshlaydi. Shu boisdan hadislarni xatga tushirish va to'plash orqali kelajak avlodlar uchun ma'naviy meros qoldirish

harakatiga asos solindi. Bu ishga, ayniqsa, hijratning ikkinchi asridan boshlab jiddiy kirishildi.

Uchinchi asrda esa, Imom al-Buxoriy (810-869), Imom Muslim (819-874)lar o'zlarining Islom olamiga mashhur bo'lgan "al Jome' as sahih" kitoblarini yozdilar. Shu tariqa hadislar birinchi marta bob va bo'limlarga bo'lindi. Bularga ergashib Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Abu Dovud Sulaymon as-Sijistoniyy, Imom Ahmad an-Naso'iy, Imom ibn Mojja al-Qaznaviy kabi yirik zotlar yetishib chiqdilar va ular ham "as-Sahih" yoki "as-Sunan" nomi bilan hadislar to'plamini yozdilar.

Islom tarixiga oid kitoblarda hadislar asosan Muhammad Payg'ambar vafotidan keyin yozila boshlangani va Muhammad Alayxis-salomga payg'ambarlik uning qirq yoshida nasib bo'lganligi qayd qilinadi. Shunga ko'ra Qur'oni Karim oyatlari Rasululloh umrlarining oxirigacha, ya'ni 23 yil mobaynida turli munosabatlar bilan nozil bo'lib turgan bo'ladi. Saxobalar bu oyatlarni maxsus sahifalarga yozib borganlar.

Ilk muhaddislardan biri **Abu said al-Xudriy** Payg'ambardan hadislarini yozib borishga ruxsat so'raganda, rad javobini olganligi tarix manbalaridan ma'lum. Ilk yozilgan hadislar qatoriga Muhammad Payg'ambarning xorijiy o'lkalarga (Vizantiya imperatoriga, Eron shohiga, Misr va Hindiston hukmdorlariga) yo'llagan maktublari ham kiradi. Undan tashqari ko'plab vasiqa va hujjatlar ham bo'lganki, ular ham ilk bor yozilgan hadislardan hisoblanib, ularda islomga da'vat, odamlarni ma'lum vazifalarga tayinlash, yer va undan olinadigan soliqlar, imon va tavsiya maktublari, Payg'ambarga kelgan xatlarga javoblar aks etgan.

Hijriy III acp (IX melodiy) boshlariga kelib, hadis haqida ko'plab kitoblar yozila boshladi. Hadis ilmining bu "Oltin asri"da al-Buxoriy, Muslim, an-Naso'iy, Abu Dovud, at-Termiziy, Ibn Mojja kabi imomlar "al-Jome' as-Sahih" va "as-Sunan" nomli kitoblarini yozganlar. Bu asarlar "Kutubi sitta" ("Olti kitob") nomi bilan mashhurdir.

2.2. IMOM AL-BUXORIY

Darsning maqsadi: Diyorimizdan yetishib chiqqan mihaddis Imom al-Buxoriy uning asarlari bilan tanishtiriladi.

Tayanch soʻzlar va iboralar: *hadis, muhaddis, “Jome as-Sahih”, “al-Adab al-Mufrad”*.

Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug’ira al-Buxoriy 194/810 yili Buxoroda tavallud topgan. U 10 yoshidayoq oʻz diyoridagi muhaddislardan hadis eshitib, uni yodlashga kirishgan va 11 yoshida ba’zi ustozlarining xatolarini topa boshlagan. U 16 yoshida muhaddislardan Abdulloh ibn Muborak va Vaqi’ ibn al-Jarrohlarning hadis kitoblarini to’la yod bilgan. So’ngra onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga boradi va haj marosimlari tugagach, onasi va akasidan izn so’rab, hadislarni to’plash maqsadida Makkada qoladi. 18 yoshida sahoba va tobeinlarning rivoyat qilgan hadislarini to’plab, “Tarix” nomli kitob yozadi. Imom al-Buxoriy yangi hadis axtarib bir necha o’lkalarda — Kufa, Basra, Hijoz, Misr, Suriya mamlakatlarida bo’lgan va ularning ba’zilarida uzoqroq istiqomat qilgan. U yerlarda ko’plab muhaddislar bilan tanishadi va ulardan eshitgan hadislarini oʻz kitobi “Al-Jome’ as-Sahih”ga kiritadi. Bu asar islom olamida eng mashhur bo’lgan va buyuk ulamolar tarafidan Qur’ondan keyingi eng to’g’ri kitob deb tan olingan va “Kutubi sitta”ning eng mashhuri hisoblangan. Imom al-Buxoriyning bu asari mashhur muhaddislar ko’rigidan o’tgan, kitobda keltirilgan rivoyatlar borasida birortasi ham ixtilofga uchramagan va allomalarning barchalari bir ovozdan ma’qul topganlar.

Imom Muhammad al-Buxoriy xayri-saxovatli kishi bo’lgan. U otasi shayx Ismoilidan qolgan meros mollarining katta qismini faqiru miskinlar va tolibi ilmlarning hojatlarini ravo qilish uchun sarf etgan. Imom al-Buxoriy 20 yoshidan boshlab kitob ta’lif eta boshlaydi. Ul zotning “Al-Jome’ as-Sahih” (“Ishonchli to’plam”)idan tashqari yigirmaga yaqin kitobi bo’lgan. Ammo ularning bir qismigina qo’lyozma shaklida mavjud bo’lib, qolganlarining nomlarigina ma’lum xolos. Al-Buxoriy hadis rivoyat qilgan shaxslarning tarjimai xolini to’plab, bu

sohada qimmatini zoʻr boʻlmish va koʻpchilik hadisshilar murojaat qiladigan asar “at-Tarix al-Akbar” (“Eng katta tarix”)ni yozadi. Keyinchalik muallif bu kitobini qisqartirib “At-Tarix as-Sagʻir” (“Kichik tarix”) nomi bilan atagan va bu asar 1325 (1907) yilda Hindistonda 251 sahifa boʻlib bosilgan. Kitob soʻngiga al-Buxoriyning “Kitob az-Zuafo” (“Zaiflar kitobi”)si ham ilova qilgan.

Imom al-Buxoriy hijriy 256 yili ramazon oyining 30 da (869 yil 31 avgustda) vafot etadi. Manbalarda koʻrsatilishicha, u kishi oʻzgʻindan kelgan, oʻrta boʻyli, tabiatan oʻta muloyim, taqvodor bir zot boʻlganlar.

2.3. IMOM AT-TERMIZIY VA UNING “AS-SUNAN” ASARI

Darsning maqsadi: Diyorimizdan yetishib chiqqan mihaddis Imom at-Termiziy va uning asarlari bilan tanishtiriladi.

Tayanch soʻzlar va iboralar: *“as-Sunan”, “ash-Shamoil an-Nabaviya”, Bugʻ qishlogʻi, quvvai xofiza, hasan.*

Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savro as-Sulaymiy al –Bugʻiy at-Termiziy 209 (824) yili Termiz shahridan taxminan 50 chaqirimlar masofada boʻlgan (hozirgi Sherobod) Bugʻ qishlogʻida tavallud topgan boʻlsa-da, unib oʻsishi, ilm olishi va istiqomati Termizda boʻlgan. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, oʻsha davrlarda Termiz ilm-fan taraqqiy etgan markazlardan boʻlganligi maʼlumdir.

At-Termiziy yoshlik chogʻidanoq hadis mutolaasiga kirishib, oʻqigan va eshitgan barcha fikr mulohazalarini maxsus qogʻozga batartib yozib borar edi. Ustozi Imom al-Buxoriy at-Termiziyning hadislarni sinchiklab oʻrganishdagi nodir qobiliyatini, quvvai xofizasi, ilm va taqvodagi ustunligini tan olgan va unga shohidlik bergan. Mashhur muhaddislarning koʻplari imom at-Termiziyning hadis ilmining takomillashtirish va uni kelgusi avlodlarga sof holda yetkazishdagi xizmatlarini yuqori baholaganlar. Hadis olimlaridan Abdurahmon ibn Muhammad

al-Idrisiyning ta'biricha, at-Termiziy "Hadis bobida iqtido qilinadigan imomlardan biridir".

At-Termiziy fiqh-islom qonunshunosligi boblariga moslab tasnif qilgan "as-Sunan" nomli kitobi tegishli mavzularni o'z ichiga atroflicha qamrab olganligi sababli "Al-Jome' as-Sahih" deb ham shuhrat topgan. Bu asar 1867-68 yillari Mirtoxda tosh bosmada, 292 (1876-77) yili ikki jild bo'lib Qohirada nashr etilgan. Bu asarda takror hadislar uchramasligi, o'tmish muhaddislar asarlarida zikr qilinmagan "Manoqib" va "Tafsiri Qur'on" boblarini kengaytirib berilganligi mazkur kitobning qimmatini yanada oshiradi. Kitobdagi hadislar 3 guruhga bo'linadi: sahih, hasan, zaif. Har bir hadisni zikr qilgach, qaysi guruhga mansub ekanligi aytib ketiladi.

Birinchi va ikkinchi o'rinlarni al-Buxoriy va Muslimning "Al-Jome' as-Sahih" kitoblari olsa, at-Termiziyning "Sunan"i mazkurlardan keyingi kitob hisoblanadi.

Imom at-Termiziy o'zining shoh asarini yozib tugatgach, uni zamonasining mashhur ulamolariga ko'rsatadi va ularining roziligini oladi.

Umrining oxirgi yillariga kelib at-Termiziyning ko'zlari ojiz bo'lib qoladi va 279 (892) yili ona shahri Termizda vafot etadi. Imom at-Termiziyning "Sunan" asaridan tashqari yana quyidagi kitoblar yozgani ma'lum:

1. "Kitob at-Tarix" ("Tarix kitobi")
2. "Kitob al-ilal" ("Nuqsonlar kitobi")
3. "Kitob ash-Shamoil an-Nabaviya" ("Payg'ambarning axloq va odoblariga oid kitob")
4. "Kitob az-Zuhd" ("Zohidlik haqida kitob")
5. "Kitob al-asmo va al-kunya" ("Roviylarning ism va laqablari haqida kitob") va boshqalar. At-Termiziy asarlariga ko'plab sharx va hoshiyalar bitilgan.

2.4. ILK ISLOM SHOIRLARI

Darsning maqsadi: talabalarni islomning dastlabki davridagi shoirlari ijodi bilan tanishtiriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *Kaab ibn Zuhayr, da'vat, vasf, xitoba.*

VII asr o'rtalarida jadal kechgan voqealar – Arabistonda yangi dinning tarqalishi va davlatning shakllanishi – albatta, o'sha davr she'riyatida o'z aksini topmasligi mumkin emas edi. Islom dini tarqalishi bilan she'riyatning tashqi umumiy xususiyati asosan o'zgarmadi (avvalgi janrlar mavjud bo'lishda davom etdi, qasidaning an'anaviy kompozitsiyasi saqlanib qoldi va h.k.). Biroq, she'riyatga yangi mavzu kirib keldi. Shoirlar yangi dinni qabul qilib, diniy madhiyalar yarata boshladilar. Ularda islom dini va Muhammad payg'ambar ulug'landi, «kofirlar»ga qarshi muqaddas urushga da'vat qilindi. Hajviyalarda esa, islom dinining dushmanlariga hujum qilindi. Ushbu shoirlar odatda ilk musulmon shoirlari deb atalgan.

Islom dinini qabul qilgan va Muhammad tarafida diniy kurashga faol qo'shilgan shoirlar orasida **Ka'ab ibn Zuhayr** (vafoti 662 yil) va **Hasan ibn Sobit** (vafoti 674 yil) alohida o'rin tutganlar. Islomgacha bo'lgan davrdagi mashhur shoir Zuhayrning o'g'li Ka'b Muhammad yangi dinni targ'ib qilishidan ancha avval mashhur shoir bo'lib tanilgan edi. Yangi ta'limotni u dushmanlik bilan qarshi oldi, Muhammadga qarshi bir qancha o'tkir hajviyalar yaratdi, payg'ambarning salafilariga qarshi kurashda ishtirok etdi va hatto, nizolardan birida jarohatlandi ham. Islom dini yanada ko'proq xayrixohlarga ega bo'lgani sayin Ka'ab o'zining yangi dinga munosabatini o'zgartirib bordi, Muhammad tarfiga o'tdi va unga atab «al-Burda» deb nomlangan qasida bag'ishladi. Chunki, rivoyatlarga ko'ra, payg'ambar ushbu madhiyasi uchun uni o'z chakmoni bilan mukofotlagan. Keyinchalik mashhur bo'lib ketgan mazkur qasida an'anaviy lirik muqaddima, tuya tavsifi hamda asosiy qismdan iboratdir. Asosiy qismda

shoirning Muhammadga murojaat qilib sodir etgan gunohlarini kechirishni so‘ragani va payg‘ambarga maqtovlari keltirilgan:

Haqiqatda ham Allohning elchisi bu

Haq yolini yorituvchi yaraqlagan qilichdir

An‘anaviy lirik muqaddima, xuddi an‘anaviy tuya tavsifi singari, islomgacha bo‘lgan shoirlarning qasidalaridagi tegishli qismlardan deyarli farq qilmaydi. Biroq biz ularda tabiat va hayotni idrok etishdagi yangilikni uchratmaymiz.

Islomgacha bo‘lgan she‘riyat an‘analariga sodiqlik Ka‘ab qasidasining asosiy qismida ham seziladi. Masalan, Muhammadga qarata aytilgan gunohlarni kechirish haqidagi iltimoslar bor. Ka‘ab Muhammadning donoligini maqtaydi. Kechirishini so‘rab duo qiladi, his etayotgan azoblaridan shikoyat qiladi.

Ka‘ab ibn Zuhayr qadimgi arab shoirlarining usullariga qat‘iy amal qiladi.

Ilk islom shoirlari qatoriga **Hasan ibn Sobit** (taxm. 563–674) ham kiradi. Uning hayot yo‘li islom dini yuzaga kelgan davr shoirlariga juda xosdir. Hasan ibn Sobit bir vaqtlar Yamandan ko‘chib o‘tgan Hijozdagi xazraj qabilasining zodagon oilasidan chiqqan. Yoshlikda u she‘r to‘qiy boshlagan va shoirona so‘zlari bilan o‘z qabiladoshlarini ularning aus qabilasiga qarshi kurashida qo‘llab-quvvatlagan. Keyinchalik u Hasaniylar saroyiga ko‘chib, saroy shoiriga aylangan. Ammo u Hasaniylarning raqiblari – Xira hukmdorlariga ham maqtovlar bag‘ishlagan. Yoshi o‘tganda islom dinini qabul qilgan Hasan ibn Sobit Muhammad va uning xalifalarining sadoqatli shoiriga aylandi.

Qabila shoirining ana shunday saroy shoiriga, so‘ngra esa islomning ashaddiy himoyachisiga aylanishi VI–VII asrlarda urug‘-qabilachilik tashkilotidan kuchli markazlashgan davlatgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan. Arabiston boshidan o‘tkazgan tadrijiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hasan ibn Sobitning shoirlik faoliyati dastlabki bosqichda islomgacha bo‘lgan boshqa shoirlarning ijodidan farq qilmagan. U qabilalararo kurashning faol ishtirokchisi bo‘lib, o‘z qabilasining himoyachisi sifatida maydonga chiqqan,

qabila jasoratini va o‘z qahramonliklarini sharaflagan. Hasan ibn Sobit Xasaniylar va Laxmiylar poytaxtlarida bo‘lgan davrda nihoyatda xushomadgo‘y va olg‘ir saroy shoiriga aylanadi. Uning qasidaları avvalgidek an‘anaviy xususiyatga ega bo‘lib, eski davr asarlaridan o‘zi yozgan shoirlik qismi bilan ajralib turadi. Ushbu qismida u maqtalayotgan shaxsning qahramonliklari va shaxsiy xislatlarini balandparvoz ifodalar orqali tavsiflaydi.

Shoirning islomni qabul qilishi va Muhammadning shoiriga aylanishi uning tadrijiy rivojlanishidagi tabiiy yakun bo‘lgan. Hasanning Muhammad va uning salaf-lari sha’niga yozgan madhiyalari Arabiston hukmdorlarini sharaflab yozilgan madhiyalaridan ko‘p ham farq qilmagan. Ularda faqat mukofot so‘rab xiralik bilan qilingan iltimoslar bo‘lmagan. Zero, islomni himoya qilish ishi shoir uchun o‘z-o‘zicha sharaflı ish bo‘lgan. Ushbu qasidalarda Muhammad but-sanamlarga sig‘inuvchilarga qarshi kurashchi, yangi dinning sobit targ‘ibotchisi sifatida ulug‘langan:

Payg‘ambar bu to‘g‘ri yolning chirog‘i

U xuddi, o‘tkir yaraqlagan qilich kabi nurlanadi

U bizni do‘zax olovidan himoya qildi va jannat haqida xabar berdi

U bizga islomni berdi va biz Allohga sajda qilamiz.

Hasan ibn Sobit madhiyalarining tuzilishi islomgacha bo‘lgan shoirlar asarlaridan biroz farq qilgan. An‘anaviy lirik muqaddimani Hasan eng kam darajagacha qisqartiradi va asosiy mavzuga maxsus kirish iborasi – «buni qo‘ya turaylik» iborasi bilan o‘tadi. Bu bilan u lirik muqaddimaning majburiyligi sun‘iy ekanligini o‘zi ham tushunishini ko‘rsatadi, go‘yoki Hasan ibn Sobit turli kirish tavsiflaridan ham qochadi, bu esa uning qasidasiga maqsadga qaratilganlik va mantiqiylik tusini beradi.

Hasan ibn Sobit, shuningdek, shaklan an‘anaviy hajviyalar ham yozgan. Ammo ularda shoir dastlabki yillarda islomning tarqalishiga qarshilik ko‘rsatgan

majusiyy-qurayshiylarga hujum qilgan, ularning bilimsizligi, baxilligi, qo'rqoqligi va boshqa qusurlari ustidan kulgan.

Hasan ibn Sobitda, xuddi boshqa ilk islom shoirlaridagi kabi, islomning ta'siri she'rlarining ruhida, yangi falsafiy va axloqiy (gunohlardan poklanish va gunohlar uchun jazo olish, hayotning mazmunini yangicha tushunish) g'oyalarida seziladi.

Seminar mashg'ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. Qur'onda nechta sura bor?
2. Hadislarning eng obro'li to'plamlari kimga tegishli?
3. Yurtimizda yetishib chiqqan muhaddislar kimlar?
4. "Kutub as-Sitta" mualliflari.
5. Ilk islom davridagi she'riyatning mazmun-mohiyatini aytib bering.
6. "Qasidat al-Burda" va uning muallifi.
7. Hasan ibn Sobit ijodining bosqichlari.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Imom-al Buxoriy hayoti va ijodi.
2. Ilmga oid hadislar.
3. "Al-adab al-Mufrad" asari – odobnomaning ilk namunasi.
4. Imom-at-Termiziyning "Ash-Shamoilu an-Nabaviya" asari.
5. Tafsir va mufasssirlar.
6. Kaab ibn Zuhayr hayoti va ijodi.

III BOB. O'RTA ASR ARAB ADABIYOTI

(VII asr oxiri – XVIII asr)

3.1. ILK O'RTA ASR ADABIYOTI

(661-750 yillar)

Darsning maqsadi: Ilk o'rta asrdagi adabiy jarayonlarda siyosiy she'riyat vakillari haqida talabalarga ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *solih, ajralganlar, madh, hijo, xamriyat, umaviylar davri.*

632 yilda Muhammad vafotidan keyin davlatga uning izdoshlari – xalifalar boshchilik qildilar. Ular ayni vaqtda musulmonlar jamoasining diniy rahbarlari vazifasini ham bajardilar. Dastlabki, «solih» xalifalar – Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali, shuningdek ularning o‘rniga kelgan umaviylar (661–750) sulolasiga mansub xalifalar davrida arablar Ikki daryo oralig‘i, Suriya, Falastin, Eron, Misr, Shimoliy Afrika, Pireney yarimoroli, O‘rta Osiyo, Shimoli-G‘arbiy Hindistonning bir qismi, Armaniston, Ozarbayjon va Gruziyaning bir qismini zabt etdilar. Istilolar natijasida ulkan davlat – xalifalik vujudga keldi.

Xalifalikdagi ichki siyosiy vaziyat VII–VIII asrlarda nihoyatda murakkab bo‘lgan. Harbiy yurishlarda ishtirok etgan arab qabila zodagonlari orasida hokimiyat uchun kurash borgan. Kurash hukmdor arab urug‘chilik zodagonlar bilan xavorijlar, ya’ni bo‘ysundirilgan viloyatlarning islomga kirgan aholisi o‘rtasida ham boshlanib ketgan. Siyosiy kurash diniy tus olgan. Uchinchi «solih» xalifa Usmon davrida Eron va Iroqda hukmdor xalifaga muxolafat yuzaga kelgan. Undan keyinchalik islomdagi alohida yo‘nalish – shialik rivojlangan. Shialar musulmonlarning diniy va siyosiy rahbari Muhammadning amakivachasi va kuyovi Ali hamda uning avlodlari bo‘lishi kerakligini ta’kidlaganlar. Fitnachilar arab badaviylariga tayangan holda xalifa Usmonni o‘ldirdilar va Alini xalifa etib e’lon qildilar. Biroq Ali hokimiyat tepasida ko‘p vaqt turmadi. Unga Qurayshiylar zodagonlari va Suriyadagi noib Mu’aviya qarshi chiqdilar. Bundan tashqari, Alining eski tarafdorlaridan bir qismi ham undan yuz o‘girdilar. Shu bois ular xorijiyalar «ajralganlar» deb atalganlar. Xorijiyalar harbiy o‘lja va egallangan yerlarni bo‘lishda barcha musulmonlar teng ulush olishlari hamda xalifani butun musulmonlar jamoasi saylashini talab qilganlar. 661 yilda Alini xorijiyalardan biri o‘ldirdi. Xalifalik taxtini esa uma urug‘idan bo‘lgan suriyalik noib umaviylar sulolasining boshlig‘i Mu’aviya egallab oldi.

Mu’aviya xalifalik poytaxtini Damashqqa ko‘chirdi va Suriyada qo‘nim topgan arab qabilalariga tayanishga urindi. Bu esa xalifalikning boshqa viloyatlaridagi arab qabilalari zodagonlari orasida norozilik uyg‘otdi. Umaviylar

shialarga qarshi uzoq vaqt kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Shialarning asosiy qismini Eron va Iroq aholisi tashkil qilgan. Arabistonning o'zida Damashq hukmdorlariga qarshi Muhammad salafining avlodlari bo'lgan zubayriylar qarshi chiqdilar.

Islom dinini yoyish uchun olib borilgan ko'p yillik urush sharoitida arab madaniyati har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. Arab ko'chmanchilarining qadimiy tamaddunlar mavjud bo'lgan muzofotlarga kelishi va madaniy xalqlar bilan munosabatga kirishishi, tabiiyki, istilochilarning madaniy va siyosiy rivojlanishiga yordam berdi. Badaviylar unumdor tuproqli boy mamlakatlar, hunarmandchilik va savdo-sotiq gullab-yashnagan katta shaharlarning egalari bo'lib qolgach, o'troq hayotga o'tib, yer va boshqa yurtlarni egalladilar hamda tamaddunning turli ne'matlaridan bahramand bo'la boshladilar. Biroq arab istilochilari turmush sharoitining o'zgarishi, loqal dastlabki bosqichda, arab adabiyotining xususiyatiga ta'sir etmadi. Umaviylar arab madaniyatining sofligini istilo etilgan xalqlar ta'siridan saqlab, badaviylarning she'riyatdagi an'analarini tiklashga intildilar hamda islomgacha bo'lgan she'riyat endi ma'jusiylar she'riyat sifatida boshqa siquvga olinmadi. Buning ustiga, istilolar davrida susayib qolgan qabilalararo kurashning keskin kuchayishi ham islomgacha bo'lgan she'riyatni uning qabilaviy jasoratni ulug'lash an'analari bilan birga tiklanishiga yordam berdi.

Xalifalar qabilalar o'rtasidagi raqobatni har tomonlama qo'llab-quvvatlar hamda shoirlarning qabilaviy vatanparvarligini avj oldiradilar. Badaviy shoirlar umaviylarning hokimiyat tepasiga kelishi sababli davlatning madaniy va siyosiy hayotining markazlariga aylangan Kufa, Basra va Damashqqa o'z qabilasini sharaflash yoki boshqa qabilaning ustidan kulish uchun kela boshladilar.

Islom tarafdorlari va raqiblari, kurashayotgan siyosiy va qabilali guruhlar singari, o'z qasidanavis shoirlariga ega edilar. Ularning she'riy bahslarida islomgacha bo'lgan an'anaviy janrlar – madh, hijo – gullab-yashnardi. O'z mavqelarini barcha vositalar bilan mustahkamlashga uringan xalifalar shoirlarni saroyga yaqinlashtirar va ularni hadyalar bilan siylar edilar.

Ulkan arab istilolari tajribasi vasf janrining mavzuini kengaytirdi. Qasidalarda jang yurishlari, harbiy qurol, istehkomlar, qurshov mexanizmlari kabilar tavsiflana boshladi. She'riyat ancha hikmat tusiga ega bo'la boshladi hamda an'anaviy qadimiy hikmatlarga endilikda yangi Qur'on hikmatlari qo'shildi. Yangi avlod shoirlari qasidaning tuzilishi va mantiqiy jihatdan tarqoq bo'lgan qismlarini turli uslubiy yo'llar bilan bog'lashga urindilar.

Arablarining she'riy ijodi xususiyatiga zabt etilgan xalqlar madaniyati ta'sir ko'rsatdi. Fors madaniyati ta'sirida arab she'riyati yorqinroq, nozikroq va musiqaviyroq bo'la bordi. Tasvirlash vositalari boyib bordi, obrazlarda fantaziya va jonli shoirona xayolot ko'paygani sezildi. Shu bilan birga, xalifa saroyining yirik madaniy va adabiy markazga aylanishi hamda qabila shoirlarini o'ziga tortishi shoirlarni asta-sekin badaviylar muhiti va sahro tabiatidan uza boshladi, ularning bir vaqtlar bo'lgan bevosita idroki yo'qolishiga olib keldi. Natijada she'riyat sun'iylik xususiyatlariga ega bo'la boshladi.

3.2. UMAVIY SAROY SHOIRLARI

Darsning maqsadi: Siyosiy she'riyat vakillaridan al-Axtal, al-Jarir, al-Farazdaq ijodi bilan tanishtiriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *naqo'id, hamriyot, tardiyot, al-Farazdaq, "zu-salib".*

VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning boshidagi she'riyatda markaziy o'rinni mashhur shoirlar triadasi – al-Axtal, al-Farazdaq va Jarir egalladi. Ularning ijodini arab adabiyotshunoslari «siyosiy» she'riyatga kiritadilar. Bunday she'riyat islomgacha bo'lgan davridayoq qabilaviy vatanparvarlik ifodasi sifatida mavjud bo'lgan. Islom tarqalayotgan davrda bu she'riyat diniy kurashda katta rol o'ynagan. Umaviylar g'alaba qozonishi bilan siyosiy she'riyat alohida ahamiyat kasb etdi, chunki turli qabilaviy, siyosiy va diniy guruhlarining hokimiyat uchun kurashi, bir daqiqaga bo'lsa-da, to'xtamas va har bir kurashuvchi guruh o'z kuychilariga ega bo'lishga intilar edi.

Yuqorida keltirilgan uch shoir qat'iy aytganda, o'z qabilalari bilan chambarchas bog'liq bo'lganlar. Ularning umaviy xalifalar saroyida bo'lishi yo umaviylar, yo ularning siyosiy raqiblari homiyligini izlashga majbur bo'lgan badaviy qabilalar nochor ahvolining oqibati bo'lgan. Ushbu shoirlarning ijodi esa hali johiliya davri she'riy an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Al-Axtal (640–710) tag'lib nomli nasroniy qabiladan kelib chiqqan. Umaviylar hamda Muhammad salaflarining avlodlari o'rtasida yuzaga kelgan kurashda shoir hukmron sulola tarafini egalladi (tag'lib qabilasi umaviylar bilan ittifoqdosh bo'lgan). Shoir umaviylarning Qays aylan qabilasiga qarshi urushida katta rol o'ynadi. Ushbu qabila boshida xalifalik taxti uchun da'vogar Ibn az-Zubayr turardi. Shu bois ham xalifa Abdulmalik shoirga «Umaviylar shoiri» maqomini berdi. Al-Axtal o'z madhiyalarida umaviylar hokimiyatining qonuniyligini isbotlashga har tomonlama uringan. U xalifalik taxti umaviylarga Ali tarafdorlari ustidan g'alabani hadya qilgan Allohning o'zi tomonidan yuborilganligini ta'kidlagan, xalifa va uning atrofida gilarni sharaflagan, umaviylarning dushmanlari – Ali tarafdorlari, al-Zubayra urug'i, Qaysiylar qabilasi kabilarning ustidan kulgan. Umaviylar sulolasining vakillari uning qasidalarida vazmin va qat'iyatli, sahiy va muloyim so'zlovchi hukmdorlar, islom dinining ashaddiy kurashchilari va Allohning sodiq bandalari sifatida ifodalangan. Saroy shoirining umaviylarning islom yo'lidagi yaxshiliklarini ta'kidlashi tabiiy bo'lgan. Biroq bu shoirning islomga zarda bilan hujum qilishiga xalal bermagan.

Saroy shoiri bo'lish al-Axtalning badaviy tabiatiga kam ta'sir etdi. Shoirning tarjimai holini yozganlar ta'kidlashicha, u o'zining badaviy xislatlarini – qadr-qimmat hissi, jasorat, sahiylik, ezgulik va shu kabilarni – yo'qotmagan. Al-Axtal qadimgi arab she'riyatining zo'r ishqibozi bo'lgan. U An-Nabig'aga qoyil qolgan, Zuheyrga taqlid qilishga uringan. Al-Axtal saroydagi o'z mavqeini Xira va Hasaniylar hukmdorlari huzurida An-Nabig'aning mavqei bilan qiyoslashni yaxshi ko'rgan. Al-Axtal An-Nabig'aga taqlid qilib, ko'pincha ritorik takrorlashlar hamda birinchi arab saroy shoirining boshqa uslubiy yo'llaridan foydalangan.

Al-Axtal madhiyalarining tuzilishi islomgacha bo'lgan shoirlar qasidalarinikidan farq qilmaydi. Odatdagi lirik muqaddimadan keyin asosiy qism – madhiya bag'ishlangan shaxs fazilatlarini sanash, umaviylar urug'ini albatta maqtash – keladi. So'ngra shoir o'z qabilasini ulug'lashga o'tadi. Odatda qasidaning bu qismi (faxr) qolgan matn bilan bog'liq bo'lmagan va an'anaga amal qilish bo'lgan. Faxrda shoir o'z qabilasining buyuk jangchilarini keltirgan, qabila qo'lga kiritgan g'alabalarni sanab o'tgan hamda tag'libiylarning umaviylar sulolasi oldidagi xizmatlariga alohida to'xtalgan.

Al-Axtal qasidalaridagi hajviy baytlar odatda lirik muqaddima yoki madhiya qismidan, ba'zan esa faxrdan keyin keladi. Shoir odatda alohida bir shaxsga emas, balki umaviylar hamda tag'libiylarning umumiy dushmanlariga hujum qiladi. Shoir dushman ko'rgan zarar-talafotlarni sanab o'tadi hamda uning qusurlari (baxilligi, qo'rqqoligi, so'zida tura olmasligi kabilar)ni qoralaydi.

Al-Axtalning hajviyalari haqida so'z yuritganda, bahs-munozarali she'r janri bo'lgan *naka'idni* eslatib o'tmaslik mumkin emas. Shoir ushbu janrdan katta mahorat bilan foydalangan. Munozaraviy she'rlar islomgacha bo'lgan davridayoq ma'lum bo'lgan, ammo bu janr xalifalik shoirlarida ayniqsa shuhrat qozongan.

Munozaraviy she'r (odatda hajviy mazmundagisi) unda ustidan kulinayotgan shaxs yoki qabilaga qaratilgan. Buning ustiga, dushman tarafning she'riy munozarada ishtirok etayotgan shoiri javob berishda she'rning o'lchami va qofiyasini saqlab qolishi kerak bo'lgan. Munozarali she'rlarning bunday ayriboshlanishi al-Axtal bilan tag'libiylarning abadiy raqibi Qays aylan qabilasining ittifoqchisi bo'lgan tamim qabilasining shoiri Jarir o'rtasida yuz bergan.

Al-Axtal madhiyalarida sharobga yoki ziyofatlarga bag'ishlangan she'riyat – *xamriyat* alohida o'rin tutadi. Al-Axtal qasidalarida sharobga bag'ishlangan baytlar doimiy ravishda uchraydi. Ba'zan ular she'rning asosiy mazmuniga lirik muqaddima tarkibiga kiradi. Shoir sharob hosil bo'lishining butun yo'lini tokka ishlov berishdan boshlab tasvirlaydi hamda quvnoq ichkilikbozliklar haqida hikoya qiladi, sharobning rangi va hidini, uni ichayotgan insonning ahvolini

tavsiflaydi va hokazo. Umuman olganda, she'rlardagi sharobga oid baytlar al-Axtal she'riyatida eng jonli elementni tashkil qiladi.

Al-Axtal sharobga bag'ishlangan baytlari bilan arab ziyofat she'riyatining eng taniqli vakili bo'lgan Abu Nuvas ijodining debochasi bo'ldi.

Al-Farazdaq (641–732) tamim qabilasining asilzoda urug'laridan bo'lgan. Al-Farazdaq, barcha badaviy shoirlar kabi, o'z qabilasi manfaatlarining mutaassib himoyachisi bo'lgan hamda VII asr oxiri va VIII asr boshidagi murakkab siyosiy sharoitda kurashayotgan guruhlariga va o'zining qudratli homiylariga munosabatini bir necha bor o'zgartirgan. O'z madhiyalarini u goh umaviylar xalifalari va ularning noiblariga, goh umaviylarning dushmanlari bo'lgan zubayriylar, Ali tarafdorlariga bag'ishlagan va hokazo. Aksariyat hollarda ilgari ulug'lagan shaxslarga qarshi o'tkir hajviyalar yozgan, buning uchun g'azabga uchragan va hatto hibsga olingan.

Biroq shoir o'z madhiyalarining aksariyatida umaviylarning xalifalikdagi hokimiyatga ega bo'lish huquqini himoya qilgan va ularga g'alabalar tilashini ifodalagan. U qasida oxirida odatda xalifalardan xalifalik noiblari siquvga olayotgan hamda tamim qabilasiga kiradigan mudariylar qabilalarini himoya qilishini so'ragan. Al-Farazdaqning asosan islomgacha bo'lgan uslubda yozilgan she'rlari ba'zi yangi jihatlariga ham ega bo'lgan. Islomning ta'siri shoirning dunyoqarashida ham, syujet tanlashida ham seziladi. Uning she'rlarida Qur'ondan keltirilgan oyatlar ko'p. Al-Farazdaq madhiyaning lirik muqaddima qismini keskin qisqartirgan, ba'zan esa umuman tashlab ketgan. Shoir ilk bor o'zi ulug'layotgan shaxs fe'liga xos bo'lgan jihatlarini tasvirlashga uringan. Biroq shoir mayllari va e'tiqodlarining o'zgaruvchanligi uning ijodida ham o'z aksini topgan: uning madhiyalariga qo'polroq yolg'on hamda ulug'lanayotgan shaxslarga nisbatan soxta xushomad xosdir. Bu jihatlar uning madhiyalarini islomgacha bo'lgan shoirlarning she'rlaridan ajratib turadi, zero ularda ideallar barqaror, maqtovlar esa samimiy va uzviy bo'lgan.

Al-Farazdaqning she'riyatdagi raqibi Jarir bilan keskin adabiy bahsi endi ikkala tarafdin ham hijo va naqoid janrlarida ko'plab she'rlar yaratilishiga olib

keldi. Al-Farazdaq hajviyalarida qabiladagi o‘z urug‘ini behad maqtash bor. Uning o‘zini maqtashlari nihoyatda balandparvoz, og‘ir va bir xildir. Shoir odatda o‘zining kelib chiqishi haqida batafsil yozgan, o‘z qabiladoshlarining jasurligi, sahiyligi va aql-farosatini maqtagan, so‘ngra dushmanlarining ustidan kulishga o‘tgan, ularni barcha haqiqiy va qalbaki badaviy gunohlarda ayblagan. Bunda hatto islom dinida talab qilinadigan taqvodorlik ham shoirni qattiq ifodalardan tiya olmagan.

Arab tanqidchiligi al-Farazdaqning iblis ustidan kulishga bag‘ishlangan va pand-nasihat xususiyatiga ega bo‘lgan kichikroq hajviy qasidasining badiiy qimmatini yuqori baholaydi.

Al-Farazdaqning qasidasida u yetmish yil mobaynida «iblisga xizmat qilgani», ammo umri nihoyasida ko‘zi ochilgani hamda Allohga nigohini qaratgani e’tirof etiladi. Biroq iblis shoirni tinch qo‘ymaydi. U shoirga abadiy hayot va jannatdagi rohat-farog‘atni va’da qilib, haqiqiy islom yo‘lidan ozdirishga har tomonlama urinadi. Ammo al-Farazdaq o‘zining diniy his-tuyg‘ularida sodiq qoladi va iblisni bir qadar mantiqiy dalillar bilan mag‘lub etadi.

Iblis haqidagi qasida go‘zal oddiyligi va ishonchliligi bilan arab tanqidchilari tomonidan arab diniy she’riyatining eng zo‘r namunasi hisoblanadi.

Al-Farazdaqning badaviy shoir sifatidagi qobiliyatlari sahroni ta’riflashga bag‘ishlangan she’rlarida ayniqsa to‘liq namoyon bo‘lgan. Bejizga al-Farazdaq o‘zini al-Muhalhil, Imru’ul-Qays, Tarafa hamda islomgacha bo‘lgan boshqa shoirlar yo‘nalishining davomchisi deb hisoblamaydi. Misol uchun shoirning sahroda och bo‘riga duch kelgani haqidagi go‘zal hikoyasini keltiramiz. U johiliyat davridagi quvg‘inga uchragan shoirlar qasidalaridagi eng yaxshi o‘rinlarni eslatadi.

*Tez chopar, tuklari tushib ketgan, yolg‘iz daydib yurgan, ochlikdan
kuchsizlanib qolgan bo‘ri mening gulxanim tomon keldi.*

*U yaqinlashgach men unga dedim: “yaqinroq kel, mening ovqatimni
bo‘lishib yeymiz”.*

Jarir (653–733). Arab tanqidchiligi umaviylar she'riy uchligining eng iste'dodli vakili deb al-Farazdaqning adabiy raqibi Jarirni hisoblaydi. Shoir tamim qabilasining qashshoq badaviy urug'idan kelib chiqqan bo'lib, bolaligida otasining molini boqqan. Bolalik yillaridayoq u o'z qabilasidagi zodagon va boy urug'larining kalondimog' vakillariga nisbatan adovat hissini tuygan, keyinchalik esa ushbu adovat uning she'rlarida o'z ifodasini topgan. Shunisi qiziqarlilik, arab zodagonlari arablarga taalluqli bo'lmagan barcha narsalarni nazar-pisand qilmagan vaqtda, Jarir arablar bilan mavllar o'rtasida tenglik tarafdori bo'lgan, o'z she'rlarida mavllarni maqtagan va ular oliyjanoblikda arablardan qolishmasligini ochiqchasiga aytgan. Ilk yoshlik yillaridayoq Jarir iste'dodli shoir sifatida tanilgan, ammo qashshoq badaviy urug'i uning iste'dodi to'liq namoyon bo'lishi uchun haddan tashqari tor doira bo'lgan va shu bois Jarir qudratli va boy homiy izlagan. U Abdul Malik va al-Valid kabi xalifalarning saroy shoiri sifatida qo'nim topmagunicha xalifalikning deyarli barcha hududlarini aylanib chiqqan.

Jarirning umaviylar saroyidagi mavqei unchalik mustahkam bo'lmagan, chunki uning urug'i umaviylarning dushmani bo'lgan zubayriylar hamda qaysiylar qabilasi bilan ittifoqdosh bo'lgan. Shoir bir necha madhiyasini bag'ishlagan Iroq noibi al-Xajjojning qo'llab-quvvatlashigina Jarirning saroyda qolishiga yordam bergan. Shoir xalifalar unga va uning urug'iga foyda keltirishlari uchun juda ko'p mehnat qilgan, ammo na xalifalar, na o'zining qabilasida al-Axtal yoki al-Farazdaq bilan teng maqomga ega bo'la olgan.

Jarir o'z madhiyalarini turli shaxslarga – umaviylar xalifalari va ularning yaqinlari, xalifaning Iroqdagi noibi al-Xajjoj kabilarga bag'ishlagan. Jarirning madhiyalari odatda hajm jihatdan katta va juda balandparvozdir. Ularda shoir maqtalayotgan shaxsning fazilatlarini sanab o'tgan, ayniqsa sahiylik va taqvodorlik singari xislatlarga tahsin o'qigan. Shoir xalifalarni ulug'lab, «Allohning yerdagi noibi», «xudoning podsholikka ko'tarilgan shaxsi», «mahdiy» kabi sifatlashlarni ko'p ishlatgan. O'z zamonidagi boshqa shoirlardan farqli ravishda Jarir maqtalayotgan shaxsning an'anaviy fazilatlarini — qudrati, jasorati

kabilarni ta'kidlash bilan cheklanmagan, balki bunyodkorlik faoliyatini suv sug'orish inshootlari qurishi, bog' yaratishi va hokazolarni ham ularning xizmati sifatida ko'rsatgan.

Zamondoshlari orasida Jarirning hajviy she'rlari alohida muvaffaqiyat qozongan. Jarir o'z raqiblari bo'lgan boshqa qabila shoirlariga, jumladan al-Axtal va al-Farazdaqqa qarshi hujumlarida tengsiz bo'lgan. Qizg'in she'riy bahsda u raqibining hajviy she'rini biroz to'ldirib, muallifning o'ziga qarshi qarata olgan. Jarir qo'pollik ham, to'g'ridan-to'g'ri tuhmat ham ishlatishdan hazar qilmagan, u raqib qabilasi va urug'i ustidan mag'zava to'kkan, uning ota-onalarini sharmanda qilgan, unga turli xil noinsofliklarni ayb qilib qo'ygan.

Al-Farazdaqni tahqirlashga harakat qilib, shoir uni temirchining o'g'li deb ataydi (temirchilik hunari badaviylarda nojo'ya mashg'ulot hisoblangan) hamda shu joyning o'zidayoq temirchilik uskunalarini zaharxanda bilan sanab o'tgan. Jarir al-Axtalga hujum qilar ekan, musulmon hukmdor qoshidagi shoir sifatida musulmon shoirga munosib javob bera olmagan al-Axtalning mushkul ahvolidan foydalanib, tag'libiylarni nasroniy bo'lganliklari, cho'chqa go'shti yeb, sharob ichganliklari uchun ularning ustilaridan mag'zava to'kadi. Jarir al-Axtarni tahqirlash uchun uning ismini Uxaytal (Axtalning kichraytirilgani) deb atayin buzib aytadi, buning ma'nosi esa «ahmoq», «har xil bo'mag'ur narsalarni gapiruvchi»dir. Xalifa Abdul Malikning e'tiborini qozonish uchun shoir sotqinlik qiladi – o'z qabiladoshlari qo'llab-quvvatlagan Ibn az-Zubayrga qarshi haqoratomuz hujum qiladi.

Jarir madhiya va hajviyalardan tashqari ko'plab marsiya va lirik she'rlar ham yozgan. Jarir she'riyatii shaklan an'anaviy, ammo, boshqa zamondoshlarida bo'lgani kabi, shoirning islomgacha bo'lgan davrdagi kabi sevgan kishining ichki kechinmalarini – xavotir, g'am-g'ussa, hijron kabi his-tuyg'ularni ifodalashi bilan ajralib turadi.

Jarir she'rlariga ajoyib nafislik va ohangdorlik xos. Ular nozik va kutilmagan istioralar, ritmik takrorlarga to'la. Ularda al-Farazdaq she'rlaridagi balandparvoz

ulug‘vorlik, chuqurlik va bo‘yoqdorlik yo‘q, ammo ularda raqibida bo‘lmagan jihatlar – ravshanlik va odatdagidan tashqari musiqiylik bor.

O‘rta asr arab tanqidchilari, al-Farazdaq va Jarirni qiyoslab, birinchisining she‘rlari sun‘iyroq va tantanavorroq, ikkinchisniki esa tabiiyroq va erkinroq deb topganlar. Bu xususda «Qo‘shiqlar kitobi»ning tuzuvchisi Abul Faraj al-Isfaxoniy quyidagi latifani aytib ketgan. Bir kun shuhratparast Jarir tilshunoslardan biridan so‘rabdi: «Kim yaxshiroq shoir, menmi yoki al-Farazdaq» – «Sen, – deb javob beribdi tilshunos, – al-Farazdaqdan oddiy odamlar nazarida ustunsan, ammo olimlar nazdida sening she‘rlaring al-Farazdaqnikidan ortda qoladi». Jarir: «G‘alaba! – deb qichqiribdi, – Allohga hamdu sanolar bo‘lsinki, mening ahvolim yaxshiroq ekan, chunki yuz nafar odam orasidan bitta ham olim topishing qiyin!».

Zur-Rumma (vafoti 735 yil) arab istilolari va islom dinining tarqalishi davriga so‘nggi badaviy shoirlardan biri, islomgacha bo‘lgan she‘riyatning mumtoz an‘analari asosida yozilgan ko‘plab madhiya va hajviyalar muallifi Zur-Rumma ijodi kiradi. U, umaviylar hukmronlik qilgan davrdagi barcha taniqli shoirlar kabi, she‘riy bahsga urg‘u bergan, unda, albatta, al-Farazdaq tarafini olgan.

Islomgacha bo‘lgan she‘riyat qonunlariga rioya etgan shoir qasidaning asosiy mavzusidan avval madhiya yoki hajviya shaklidagi batafsil lirik muqaddima keltirgan. Zur-Rumma, islomgacha bo‘lgan qadimgi shoirlar kabi, asosiy mavzuga hech qanday uslubiy bog‘lovchisiz o‘tadi. Zur-Rummada johiliyat davridagi syujetlardan farqli syujetlar deyarli uchramaydi, ammo qasidalarining obrazlarida, tabiiyki, yangi, islomiy unsur va motivlar paydo bo‘lgan (shoir qo‘noq izlari o‘rniga musulmon masjidlarining vayronalari borasida kuyunadi, islom atamalarini kiritadi, payg‘ambar va uning safdoshlarini eslab o‘tadi va hokazo).

Zur-Rumma devonining badiiy jihatdan eng yorqin sahifalari sifatida sahro tabiati va cho‘pon hayotini ta‘riflagan baytlarni keltirish mumkin. Ularda Zur-Rumma hatto islomgacha bo‘lgan badaviy shoirlardan ham o‘tib ketdi. Bu esa arab tanqidchilari uni ra‘aviyat – «cho‘ponlik» she‘riyati janrining eng mashhur vakiliga kiritish imkonini bergan.

Zur-Rumma zamondoshlari bo'lgan ota-o'g'il – al-Ajjaj va Ru'ba nomlari bilan bog'liq bo'lganidek, arab adabiyoti tarixchilari Zur-Rummaning nomini arab she'riyatidagi eng qadimgi shakllardan biri bo'lgan urjuza she'riy shaklining tiklanishi bilan bog'laydilar. **Urjuza** – rajaz o'lchamida yozilgan she'r. Zur-Rumma urjuzalarining xususiyatini ichki qofiyadoshlik tashkil qiladi (ya'ni yagona qofiya nafaqat ikkinchi misralar oxirida, balki birinchi misralar oxirida ham keladi).

Islomgacha bo'lgan urjuzalar odatda badaviylar turmushini tavsiflashga bag'ishlangan va bir qancha baytlardan ortiq bo'lmagan. Faqat al-Ajjajgina urjuza shaklidan barcha an'anaviy janrlarda katta qasidalar yozish uchun foydalangan. Katta urjuzalar yaratishda yuzaga keladigan texnik qiyinchiliklar ko'pincha shoirni so'zlardan odatdagidan boshqa ma'noda foydalanishga, ichki qofiyaga rioya etish uchun grammatik shakllarni buzishga majbur qilgan. Zur-Rumma shoirlik faoliyatining dastlabki bosqichlarida urjuza yaratish bilan ayniqsa ko'p qiziqqan.

Al-Axtal, al-Farazdaq va Jarir xalifalar saroyida turli qabila va firqalarning manfaatlarini himoya qilganlar. Biroq islom dini tarqalishi davrida umaviylarga ochiqchasiga qarshi bo'lgan siyosiy va diniy guruhlar qarashlarining ifodachisi bo'lgan shoirlar ham yashab o'tganlar. Masalan, Ubaydulloh ibn Qays ar-Rukayat (vafoti 694) quraysh qabilasidan bo'lib, ibn az-Zubayrning tarafdori bo'lgan. U umaviylarni qurayshiylarga xiyonatda, poytaxtni Hijozdan Suriyaga ko'chirganlikda va Janubiy Arabiston qabilalariga suyanishda ayblagan. Ubaydulloh zubayriylar va shialarga bir qancha madhiyalar bag'ishlagan. Shoir at-Tirimmax ibn Hakim (vafoti 718 yil) xorijiylarni ulug'lagan, al-Kumeyt ibn Zayd al-Asadiy (679–743) shia shoiri bo'lib, hoshimiylar va Ali urug'iga maqtoov madhiyalari bag'ishlagan.

3.3. HIJOZNING MUHABBAT SHE'RIYATII

Darsning maqsadi: Hijoz badaviy ishqiy she'riyatii bilan tanishtiriladi.

Tayanch soʻzlar va iboralar: *gʻazal, nasib, majnun, lubna, Jamil ibn Maʼmar.*

Arab adabiyotining arab istilochilari vatanidagi rivojlanishi boshqa yoʻllardan bordi. Umaviylar hokimiyat tepasiga kelgunlariga qadar koʻplab vakillari paygʻambarning birinchi izdoshlari (muhojirlar va ansorlar) boʻlgan Hijoz zodagonlari oʻzlarining uzoqni koʻra olish qobiliyatining mevasidan bahramand boʻlardilar: ularni juda tez oʻsib va boyib borayotgan musulmonlar jamoasida hamma hurmat qilar edi. Davlatning birinchi poytaxti boʻlgan Madina shahridan arablarning musulmon guruhlarini joʻnab ketar, harbiy oʻlja imperiyaning barcha hududlaridan aynan shu yerga keltirilardi.

Hokimiyat tepasiga umaviylar kelishi va xalifalikning siyosiy markazi Suriyaga koʻchirilishi bilan hijoz zodagonlarining ahvoli yomonlashdi. Makka va Madina oʻzlarining sobiq siyosiy ahamiyatini yoʻqotib, faqat diniy markaz maqomini saqlab qoldi. Ulkan hajmdagi boyliklar ilgariidek islom olamining barcha hududlaridan ziyoratchilar bilan birga bu yerga oqib kelinardi, ammo hijoz zodagon xalifalikda ilgari siyosiy rolini oʻynamay qoʻydi. Istilolarda ishtirok etmayotgan va oʻz zamonining asosiy tarixiy voqealaridan chetda qolgan hijoz qabilalari yanada qiyin ahvolda qoldi. Zabt etilgan va islomga kiritilgan boshqa xalqlarning ahvoliga tushib qolgan, ular singari soliq toʻlashga majbur boʻlgan ushbu qabilalar zoʻrgʻa kun kechirardi.

Siyosiy faoliyatdan chetlashtirilgan hijoz shoirlari fuqaroviy mavzuga qiziqmay qoʻydilar va butun eʼtiborlarini intim kechinmalarni tavsiflashga qaratdilar. Natijada VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning boshida Hijoz sheʼriyatida muhabbat sheʼriyatii ustun janrga aylandi.

Hijozning muhabbat sheʼriyatii ildizlari, asosiy mazmuni qanday boʻlishidan qatʼi nazar, mahbubani lirik tasvirlash bilan boshlanadigan islomgacha boʻlgan qasidalarga borib taqaladi. Ammo agar johiliyat davridagi qasidada lirik muqaddima faqat yordamchi ahamiyatga ega boʻlgan va asosiy mavzuga

o'tishdan avval tinglovchilarda kayfiyat hosil qilishi kerak bo'lgan bo'lsa, hijoz shoirlarida lirik boshlama mustaqil muhabbat she'ri shakliga kirdi.

Islomgacha bo'lgan shoirlarning muhabbatga bag'ishlangan she'rlarida ta'riflash elementi ustunlik qilgan. Shoirlar sevikli yorni tasvirlaganda katta ixtirochilikni namoyon qilganlar, yorqin qiyoslash va istioralar izlab topganlar. Biroq lirik qahramonning his-tuyg'ulari islomgacha bo'lgan shoirlarning qasidalarida juda kam joy egallagan. VII–VIII asr arab shoirlarida esa qahramonning ruhiy holatiga qiziqish sezilarli. Ular qahramonning umidsizligi, g'am-g'ussasi, shubhalari, javobsiz muhabbatdan azoblanishi, mahbubasidan ayriliq alamini tasvirlaydilar. Ushbu kechinmalar tavsifi endilikda mustaqil janr bo'lgan ***g'azalga*** aylangan muhabbat she'riyatiining mazmunini tashkil etadi.

Islomgacha bo'lgan barcha asarlar singari, hijoz she'rlari ham kuylangan, va shu bois ularning tili oddiy va tushunarli bo'lgan. She'rlarni kuyga moslashtirgan hijoz shoirlari o'z asarlari uchun yengilroq she'riy o'lchamlar (vafir, xafif, ramal, mutakarib)ni tanlaganlar, ba'zan esa kuyga moslashtirib, an'anaviy vazn qoidalarini buzganlar.

VII–VIII asr hijoz muhabbat she'riyatida ikki yo'nalishni – shahar va badaviy yo'nalishlarini kuzatish mumkin.

Badaviy ishqiy she'riyat arab ko'chmanchilarining manzillarida yaratilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Uzra nomli hijoz qabilasidan chiqqanlar she'r yozish mahorati bilan ayniqsa shuhrat qozonganlar, shu bois badaviylik yo'nalishi ayni vaqtda Uzra yo'nalishi deb ham ataladi. Uzra shoirlari qabilaning shafqatsiz qonunlari bilan bir-birlaridan ayrilgan baxtsiz oshiqlarning pok va sof muhabbatini kuylaganlar. Allohning irodasi bilan yuzaga kelgan, taqdir bilan bog'liq ilohiy muhabbat shoirga faqat azob beradi. Bu azobdan uni hatto o'lim ham forig' eta olmaydi. Uzra she'riyatii bir vaqtlar mag'rur va kurashchan qabilaning hozirgi quvonchsiz va ayanchli hayoti sharoitida tug'ilgan chorasiz hijron va mahkumlik hislari bilan to'lgan.

Badaviy shoirlarning asarlarida o'ziga xoslik deyarli mavjud emas. Shu bois u yoki bu shoirning muallifligini aniq aytish ancha qiyin. VIII–X asrlarda yashab

ijod qilgan arab tilshunoslarining antologiyalarida bir qancha uzra shoirlarining hayoti va bebaxt muhabbati haqidagi yarim afsonaviy rivoyatlar saqlanib qolgan.

Uzra qabilasidan chiqqan Jamil (vafoti 701 yil) mashhur badaviy liriklardan biri hisoblanadi. Uning Buseynaga boʻlgan fojiali muhabbati haqidagi afsona oʻrta asrlarda juda mashhur boʻlgan. Rivoyatlarga koʻra, shoir oʻz mahbubasiga koʻplab qasidalar bagʻishlagan, ammo unga sovchi qoʻyishga uringanida, Buseynaning qarindoshlari uni qattiq gʻazab bilan rad etganlar (badaviylarda oʻz qabilasidan boʻlgan qizga sheʼr bagʻishlash va ayniqsa shunday uyatli qilmishdan keyin unga sovchi yuborish sharmandalik hisoblangan). Buseynani boshqa kimsaga turmushga beradilar, ammo Jamil mahbubasi bilan koʻrishishda davom etadi, bu Buseyna erining qabiladoshlarini gʻazablantiradi. Ularning taʼqibi tufayli shoir Yamanga, soʻngra Misrga qochishga majbur boʻladi.

Jamil oʻzining gʻazallari bilan shuhrat qozongan, holbuki uning asarlari ichida anʼanaviy badaviy madhiya va hajviyalar ham boʻlgan. Jamilning gʻazallari Buseynaga bagʻishlangan. Ularda shoir eng alangali ifodalar orqali oʻzining ehtirosli va sadoqatli muhabbati, mahbubasi uchun barcha toʻsiqlarni yengishga va hatto hayotini qurbon qilishga tayyorligi haqida soʻz yuritadi.

Uzra yoʻnalishidagi boshqa bir shoir (uning tarixiy haqiqiyliги, aftidan, uncha shubha uygʻotmaydi) Amir qabilasidan chiqqan Qays ibn Zarix (VII asr oxiri) boʻlgan. U mahbubasi Lubnaga taʼsirli muhabbati bilan tanilgan (shoir uni koʻpincha kichraytirgan holda Lubeyna deb ataydi). Qays va Lubnaning muhabbati, rivoyatga koʻra, fojiali shakllandi. Shoirning qarindoshlari oshiqqlarning ajralishini qattiq talab qildilar. Biroq baxtsiz shoir ayriliqdan keyin ham badaviylar axloqini buzgan holda oʻz mahbubasini koʻrishga urindi. Ana shu bois xalifa Muʼoviya, Lubnaning otasi iltimosini inobatga olib, Qaysni qonunbuzar deb eʼlon qildi va shoirni qabiladan quvib yubordi.

Shoir xalifaning qarorini bilgach, baʼzi ilohiy jihatlariga ega boʻlgan mungli sheʼrini yozgan.

Shaxsi bilan koʻplab rivoyatlar bogʻliq boʻlgan uzriy yoʻnalishidagi eng mashhur shoir Majnun laqabli Qays ibn al-Mulauvah boʻlgan. Majnunning hayoti

va ijodi haqidagi ma'lumotlar afsonaviy xususiyatga ega. Uning Layliga bo'lgan baxtsiz muhabbati haqidagi she'riy hikoya nafaqat arab, balki Sharqning boshqa xalqlari adabiyotlarida ham ko'plab asarlar uchun mavzu bo'lib xizmat qilgan. Arab o'rta asr an'anasi Layli ismi tilga olingan barcha she'rlarni Majnunga tegishli deb hisoblagani sababli, Majnun haqiqiy tarjimai holi va she'rlarining haqiqiyligini aniqlab bo'lmagan. Nima bo'lganda ham, Majnun yozgan deb hisoblanadigan barcha she'rlar uzriy yo'nalishida bo'lib, VII–VIII asrlar badaviy she'riyatining barcha asosiy jihatlariga ega.

Shoirlarning she'rlariga sharh sifatida yuzaga kelgan Jamil va Buseyna, Qays va Lubna, Majnun va Layli haqidagi qissalar keyinchalik, Antaraning afsonalari singari, o'ziga xos nasriy janr shaklida mustaqil hayotga ega bo'lgan.

Shahar muhabbat she'riyatii. Sipo va iffatli badaviy muhabbat she'riyatidan farqli o'laroq, Hijoz shaharlarining she'riyati ehtirosli, epikurlik xususiyatiga ega bo'lgan. Payg'ambarning siyosiy rahbarlikdan chetlashtirilgan avlodlari va safdoshlari xalifalikning siyosiy va diniy hayotiga qiziqmaganlar. Ular sobiq xudojo'ylik va diyonatni yo'qotdilar. Hijozga ziyoratchilar bilan oqib kelayotgan ulkan boyliklar Makka va Madina zodagonlariga hamda savdogarlariga turli-tuman nozik ermaklarga to'la behuda hayot kechirishi imkonini berardi. I. Yu. Krachkovskiyning fikricha, ildizlari johiliyat davri qasidasining lirik kurtaklariga qaraganda ko'proq Hijozga Janubiy Arabiston orqali kirib kelgan fors she'riyatiga borib taqaladigan muhabbat she'riyati ana shu muhitda gullab-yashnadi.

Shahar liriklarining eng mashhur vakili, o'rta asr arablarining fikricha, muhabbat she'riyatining eng katta ustasi Umar ibn Abu Rabi'a (644–712) bo'lgan. U Madinada boy qurayshiy savdogar oilasida tug'ilgan, Arabiston, Suriya va Ikki daryo oralig'i bo'ylab ko'plab sayohatlar qilgan, ammo hayotining katta qismini Makkada o'tkazgan. Rivoyatlarga ko'ra, Umar quvnoq, mehribon va xushfe'l inson.

Uning ijodida birorta ham madhiya ko'rmaymiz. Halifa Sulaymonning o'ziga madhiya bag'ishlash haqidagi iltimosiga shoir she'rlarida faqat ayollarni

kuylashini aytib, rad javobini bergan. Umar ibn Abu Rabi'a janglarni ham, sayohatlarni ham tavsiflamagan, sharobga ham madhiya to'qimagan. Uning barcha she'rlari faqat muhabbat haqidagi kechinmalardir. Albatta, ularda shoir hayotining haqiqiy voqealari har doim ham ko'rinmaydi, ammo Ibn Abu Rabi'a she'rlarining hayotiy haqiqatligi shubhasiz. Umarning she'riy asarlari shaklan mahbubasiga nomalarni eslatadi. Odatda bular qisqa, 6–8 baytli she'rlar bo'lib, javobsiz muhabbat haqidagi hikoyatlar va muhabbat izhorlaridir. Arab she'riyati tarixida birinchi marta muhabbatga oid she'rlarda dialog katta o'rin egallagan. To'g'ri, dialogni o'z she'rlariga islomgacha bo'lgan davr shoirlari ham kiritganlar. Ammo ibn Abu Rabi'a dialogni o'z she'riy uslubining asosiga aylantirgan.

Ibn Abu Rabi'a she'riyatida badaviylikdan asar ham yo'q. Shoirning uncha ko'p bo'lmagan katta she'rlari orasida bittasi tuzilishiga ko'ra qasidani eslatadi. Umuman olganda esa, u an'anaviy she'riyatga juda kam o'xshaydi. She'r shoirning mahbubasi huzuriga qilgan sayohati haqidagi hikoyadan boshlanadi. Bu qismda, qadimgi badaviy shoirlardan farqli o'laroq, Ibn Abu Rabi'a nafaqat jasorati va sabr-matonati bilan maqtanmagan, balki, aksincha, sahrodagi sayohatning qiyinchiliklaridan qattiq shikoyat qilgan. Shundan so'ng shoir mahbubasi bilan uchrashuvi haqida hikoya qiladi, uni rosa maqtaydi. Shunday qilib, ushbu katta she'r kengaytirilgan nasibni eslatadi; unda, shoirning qisqa she'rlarida bo'lgani kabi, muhabbat mavzui asosiy o'rin egallaydi.

Umarning barcha lirik she'rlari ayolga bag'ishlangan. Shoir o'ziga zamondosh ayollarning tashqi ko'rinishi, xatti-harakati va nutqiga xos jihatlarni jonli tasvirlaydi. Umar ibn Abu Rabi'a she'riyatida, ba'zi uzriy liriklarning ijodida bo'lgani kabi, o'z qahramonlarining xarakteri va hissiyotlariga qiziqish ilk bor seziladi.

Biroq Umar ibn Abu Rabi'aning ruhiyatga oid tasvirlari ancha shakllangan bo'lib, ularga o'ziga xoslik yetishmaydi. Tashqaridan qaraganda uning qahramonlari ham bir-biridan juda kam farq qiladi, chunki ayol go'zalligini tasvirlashda shoir an'anaviy qiyoslashlardan foydalanadi. Ibn Abu Rabi'a

she'riyatining kuchi tafakkurining chuqurligida ham, yorqin yangi obrazlarda ham emas, balki uslubning g'aroyib nazokatida, she'rlarining oddiyligi va ifodaliligidadir. Umar ibn Abu Rabi'a islomgacha bo'lgan davrda keng tarqalgan she'riy vaznlari – basit va tavildan voz kechgan hamda musiqa ostida ijro etish uchun moslashuvchan va yengilroq – xafif, ramal, mutakariblardan foydalangan.

3.4. ILK O'RTA ASR ARAB NASRI

Darsning maqsadi: Dastlabki nasriy asarlar bo'lmish xitoba (notiqlik san'ati), rasoil (rasmiy va shaxsiy yozishmalar) hamda Sharif ar-Rodiyning «Nahju-l-Balag'a» asari haqida.

Tayanch so'zlar va iboralar: *xutaba, rasoil, notiqlik san'ati, «Nahju-l-Balag'a».*

Xalifalik tashkil topayotgan davrdagi badiiy nasr, johiliyat davridagi kabi, hali shakllanmagan edi. Arab adabiyotshunoslari umaviylar davri nasriy janrlarga notiqlik san'ati asarlari – *xutaba* hamda o'ziga xos noma – *rasoil*, diniy va siyosiy xususiyatga ega bo'lgan, ammo yozma ravishda bayon etiladigan murojaatlarni kiritadilar.

Xalifalik tashkil topayotgan davrdagi notiqlik san'ati asarlari islomgacha bo'lgan targ'ibotchilarning chiqishlarini eslatardi. Ular hajm jihatdan katta emas va xilma-xil badiiy asarlar, metaforalar va shu kabilarga to'lgan. Ammo ular islom tarqalayotgan davrda yuzaga kelgan bo'lib, islomiy ruh bilan sug'orilgan, Qur'ondan olingan parchalar bilan ta'minlangan.

Notiqlar o'z nutqlarini urushga ketayotgan jangchilarda mardlik, jasurlik hissini singdirish uchun ularga qarata so'zlangan, yangi dinni himoya qilib chiqqanlar, shuningdek u yoki bu siyosiy guruhlar, qabilalar, diniy yo'nalishlarini himoya qilib chiqqanlar. Ba'zan notiqlar o'z chiqishlarida sajdan foydalanganlar.

Notiq sifatida ayniqsa to'rtinchi «solih» xalifa Ali (600–661) shuhrat topgan. Alining X asr oxirida tilshunos va shoir **ash-Sharif ar-Radiy** (vafoti 1016 yil)

o‘zining «Balog‘at yo‘li» («Naxj al-balag‘a») to‘plamiga jamlangan nutqlari, xutbalari, parchalari e‘tiqodli targ‘ibotchining ko‘tarinkilik ruhi bilan sug‘orilgan, ilk musulmon diniy notiqligining go‘zal namunasidir. Ali o‘z fikrlarini nafis hikmatlar shaklida ifodalaydi. Uning xalqqa qaratilgan nomalari va xutbalari – ifodali, lo‘nda bo‘lib, fikr ravshanligi obraz va fantaziyalarning yorqin va jonliligi bilan uyg‘unlashgan. Bularga qo‘shimcha qilib, targ‘ibotchining katta uslubiy mahoratini keltirish lozim: vasf va isteoralarning, badiiy misollarning xilma-xilligi, qofiyali nasrdan mahorat bilan foydalanish, kuylanuvchanlik va hokazo. Ash-Sharif ar-Radiy she‘riyatidan namunalar:

*Orzular ro‘yobga chiqmasa ham, umid qoladi,
Albatta, u bizni baxtni qidirishga ruhlantiradi*

Yoshligi haqida:

*O, yoshligim mening, men seni hech ham esdan chiqarmayman,
Biroq uni esidan chiqaradigan odamlar ham bor.*

Arablar **Ziyod ibn Abihi** (vafoti 675 yil)ni ham notiqlik san‘atining ustasi deb hisoblaydilar. U xalifa Ali davrida Forsda noib lavozimini egallagan. Keyinchalik esa umaviylar xalifasi Mu‘oviya tomonidan xalifalikning deyarli barcha sharqiy viloyatlariga noib etib tayinlangan. Ziyod ibn Abihi ko‘plab nutqlar muallifi bo‘lgan.

Ziyod ibn Abihining nutqi Basra ahliga qaratilgan bo‘lib, umaviylar hokimiyatiga bo‘ysunishga da‘vat qo‘zg‘olonchilarga qaratilgan tahdidlardan iborat. Ziyodning ushbu ehtirosli nutqi faqat umumiy g‘oya bilangina birlashgan va o‘zaro yaxshi bog‘lanmagan parchalardan iborat. Umuman olganda, ushbu nutq – diniy va‘z bilan yangi hokimiyatning vazifalarini tushuntiruvchi davlat arbobining nutqi o‘rtasidagi narsa. Unda tahdidlar, va‘dalar, qasamlar va ritorik

savollar – notiqning temperamenti o‘z ifodasini topgan hayajonli ovozlar bilan almashadi.

Rasoil janriga turli-tuman rasmiy ish yuritish va diplomatik hujjatlar, ilmiy va ilohiy asarlar, siyosiy chaqiriqlar va va’zlar, xususiy yozishmalar va boshqalarni kiritganlar. Arablar istilosining dastlabki bosqichlarida xalifalik hukmdorlari forslar, yunonlar, koptlarning xizmatlaridan foydalanishga majbur bo‘lganlar va barcha hujjatlar tegishli tillarda tayyorlangan. VIII asrdan boshlab butun xalifalik hududida asta-sekin arab tiliga o‘tildi. Rasoil janrining asoschisi deb arab tanqidchiligi **Abdulhamid al-Katibiy** (vafoti 750 yil) hisoblaydi. U kelib chiqishi bo‘yicha fors bo‘lib, oxirgi umaviy xalifa Marvan II ning kotibi bo‘lgan.

Abdulhamidning bizgacha yetib kelgan asarlari orasida u xalifa Marvan II ning o‘g‘liga otasi nomidan yozgan hamda qurolli kuchlarni tashkil qilish va harbiy taktika bo‘yicha ko‘rsatmalarga ega bo‘lgan noma mavjud. Abdulhamidning boshqa bir nomasi adiblarga yo‘riqnomadir. Unga muallif nafaqat badiiyat qonunlarining tavsifini, balki axloqiy tavsiyalarni ham kiritgan.

Abdulhamidning nomalari ularni badiiy nasrga kiritish imkonini beruvchi bir qator xususiyatlarga ega. Abdulhamidning nomalariga tuzilishining mantiqiyliigi, uslubining go‘zalligi, ritmiklik va ohangdorlikdan tashqari, uning asarlarini go‘zal adabiyotga yaqinlashtiruvchi o‘ziga xos jihatlar – obrazli tuzilish, istiora va majozlarga boylik xos.

Abdulhamid Abdulloh ibn al-Muqaffadan tortib, al-Jahizgacha bo‘lgan keyingi asr arab adiblariga ta’sir ko‘rsatgan arab badiiy nasrining asoschilaridan birigina emas, shuningdek, u arab badiiy uslubiyotining ayrim qonunlarini ifodalashga uringan o‘rta asr arab she’riyatining birinchi nazariyotchisidir.

Seminar mashg‘ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. Xalifalik dastlabki notiqdari.
2. Umar ibn Abu Rabi’a – shahar ishqiy she’riyati vakili.
3. Umarning barcha lirik she’rlari kimga bag‘ishlangan?
4. Badaviy ishqiy she’riyati vakillari.

5. “Layli va Majnun” asari prototiplari kimlar?
6. Al-Axtal hayoti va ijodi.
7. Al-Farazdaq va Jarir ijodi.
8. Siyosiy she’riyat vakillari kimlar?
9. Zur-Rumma devonining badiiy mohiyati.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Rasoil janrining asoschisi.
2. Ziyod ibn Abihining nutqi.
3. VII–VIII asrlardagi badaviy ishqiy she’riyat.
4. Umar Ibn Abu Rabi’a shahar ishqiy she’riyati asoschisi.
5. Qays al-Amiriy va Qays Ibn Zarih she’rlari kimga bag’ishlangan?
6. Shoirilar ijodida naqoid janri.

IV BOB. ARAB MUMTOZ ADABIYOTINING GULLAB-YASHNAGAN DAVRI (VIII asr o‘rtalari – XII asr)

4.1. YANGILANISH DAVRI ADABIYOTI (VIII-IX)

Darsning maqsadi: Gullab-yashnagan davrning dastlabki bosqichi yangilanish davri haqida umumiy ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Tayanch so‘zlar va iboralar: *xalifalik xalqlari, arab tili – ilm tili, Halab, yangilanish harakati.*

VIII asrdan XII asrgacha bo‘lgan davr o‘rta asr arab adabiyoti tarixida eng samarali davr bo‘lgan. Aynan shu davrda «arablar tushunchasi asta-sekin o‘z mazmunini o‘zgartira boshlagan. Arab ko‘chmanchilari tomonidan zabt etilgan, arablarning tilini qabul qilgan xalqlar ham arablar deb atala boshlagan. Ushbu arablashgan aholi arab madaniyatining rivojlanishida faol ishtirok etgan. Butunlay arablashmagan xalifalik xalqlari arab tilidan, o‘zlarining ilmiy va adabiy ijodida foydalanganlar.

Arablashgan, tilini va o'zligini saqlab qolgan O'rta Osiyo va Eron xalqlari o'zlarining ma'naviy tajribalari bilan xalifalik madaniyatining rivojlanishiga barakali hissa qo'shdilar.

Aynan shu davrda arablar fani va adabiyoti jahon maydoniga chiqadi hamda jahon madaniyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. O'sha davrning mashhur olimlari orasida xalifalik fuqarolari – xorazmlik matematik va astronom al-Xorazmiy (vafoti IX asr o'rtalari), Abu Rayhon al-Beruniy (973–1048), turkiy faylasuf al-Farobiy (870–950), O'rta Osiyodan chiqqan shifokor va faylasuf Ibn Sino (980–1037), basralik matematik va faylasuf al-Kindiy (IX asr oxiri), raylik shifokor fors Abu Bakr ar-Roziy (864–925), fors geograf al-Istaxriy (X asr), tarixchilar: bag'dodlik al-Mas'udiy (vafoti 957 yil), fors at-Tabariy (vafoti 923 yil) va ko'plab boshqa olimlar bo'lgan. O'z asarlarini arab tilida yozgan xalifalik olimlari qanchalik turli qabilalardan chiqqanligini his qilish uchun ushbu kichik ro'yxatning o'zi ham yetarlidir. Xalifalikning eng yirik shaharlari – Bag'dod, Kufa, Basra, Fustat (keyinchalik Qohira), Damashq, Halab, Buxoro, Samarqand, Xorazmlar – yirik savdo-hunarmandchilik o'quv yurtlari, kutubxonolari, adabiy va ilmiy to'garaklari bo'lgan hamda madaniy markazlarga aylangan.

Xalifalik shaharlarida ajoyib saroylar va masjidlar bunyod etilgan. Ularga vizantiyalik va suriyalik ustalar tomonidan bajarilgan jimjimador naqshlar fayz beradi.

Davlatning harbiy va soliq ehtiyojlari, keng miqyosda amalga oshirilayotgan suv inshootlari qurilishi, dengiz ortidagi savdo munosabatlarining kengayishi amaliy fanlar – matematika, geografiya, astronomiya, tibbiyot kabilarning rivojlanishiga sharoit yaratdi.

Fanning rivojlanishiga xalifalar har tomonlama qo'llab-quvvatlagan keng miqyosdagi tarjima faoliyati, ayniqsa, unumli ta'sir ko'rsatdi. Bilimdon tarjimonlar – suriyaliklar, yunonlar va forslar – arablarni Arastu va Aflotun, Gippokrat va Galen, Yevklid, Arximed va Ptolemey asarlari, Hind tibbiy risolalari, mashhur «Kalila va Dimna» hamda forslarning tarixiy asarlari bilan tanishtirdilar. Suriyalik Xuneyn ibn Ishoq (810–873) va uning o'g'li Ishoq ibn

Xunein, xarranlik Sobit ibn Kurra (836–901); Suriyaning Baalbeka shahridan Kosta ibn Luka (vafoti 922), forslardan Ibn al-Muqaffa va al-Hasan ibn Saxl kabi ko‘plab tarjimonlar shuhrat qozondilar.

Bu davr adabiyoti o‘z rivojlanishida uch bosqichni bosib o‘tgan: «yangilanish» davri, «qadimiyatga qaytish davri» bosqichi va taraqqiyot davri.

4.2. «YANGILANISH» DAVRI SHE’RIYATI

Darsning maqsadi: Yangilanish davri shoirlari va adiblari ijodi bilan tanishtiriladi.

Tayanch so‘zlar va iboralar: *hamriyot, zuhdiyot, Abul Ataxiya, Abu Nuvas, yangilanish harakati.*

Arab tanqidchiligida «yangilanish harakati» («badiiy» – «yangi» so‘zidan olingan) deb nomlangan birinchi bosqich VIII asr o‘rtalaridan IX asr birinchi choragining oxirigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davr shoirlari qadimgi arab she’riyatining eskirgan an‘analariga taqlidgo‘ylarcha rioya etishdan voz kechadilar hamda arab adabiyotini zamonaviy mazmun bilan to‘ldiradilar.

Adabiyotdagi yangi harakat tashabbusi bilan Eronda tug‘ilgan arab shoirlari – Bashshar ibn Burd, Abu Nuvaslar ijodida arablarga qarshi bo‘lgan mazmundagi she‘rlar ilk bor yangradi. «Yangilanish» davri shoirlari arab adabiyoti tarixida birinchi bo‘lib mumtoz qasida qoidalaridan voz kechdilar hamda o‘z zamondoshlarining hayoti va his-tuyg‘ularini tasvirlashga e’tibor qaratdilar. Bunda ular yangi shakllar, yangi sana’tlar, yo‘llar va eng oddiy she’riy o‘lchamlardan foylandilar. Shunday qilib, «yangilanish» shoirlarining ijodiga ham yangi mavzu, ham uslubiyatdagi yangi usullar xos bo‘lgan.

Bashshar ibn Burd (714–783) kelib chiqishi bo‘yicha fors bo‘lib, «yangilanish harakati» asoschilaridan biridir. Shoir Basrada hunarmand oilasida tug‘ilgan, bolalikdan olimlar va adiblar bilan bog‘liq bo‘lgan, keyinchalik esa turli yo‘nalishlardagi oqimlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan. U xalifa al-

Mahdiyning saroy shoiri bo'lgunicha uzoq vaqt darbadar yurgan. Biroq shoirning ortodoksal islom ta'limoti nuqtai nazaridan bid'at bo'lgan ta'limotlarga tarafdorligi hamda al-Mahdiy va yuksak martabali saroy ayonlariga qarshi qaratilgan zaharxanda hajviyalari shoirga nisbatan hukmdorning g'azabini qo'zg'atdi. Uning buyrug'iga asosan 783 yilda Bashshar ibn Burd kaltaklab o'ldirildi.

Arab an'anasi so'qir Bashshar ibn Burdni turli qusurlari bo'lgan odam, xudbin, buzuq, qo'rqqoq va ikkiyuzlamachi mansabparast deb tasvirlaydi. Ushbu baholarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerak, chunki ular xalifalik saroy doiralarining shoir asarlaridagi arablarga qarshi ruhdan noroziligini aks ettirishi ham mumkin.

Bashshar ibn Burd arab adabiyoti tarixida ham fors, ham arab madaniyati bilan uzviy birinchi shoir bo'lgan.

Bashshar ibn Burd mumtoz adabiyot shakllarining yuqori martabali tarafdorlari didiga moslashishga majbur bo'lgan. U barcha katta-kichik shaxslarga bag'ishlagan madhiyalarida ham she'riy o'lchamda shior odatda madhiyalar uchun og'ir tavildan foydalangan, ham mazmun-mohiyatda qadimgi arab she'riyati qonunlariga qat'iy amal qilgan.

Qolgan barcha janrlarda – hajviya, muhabbat she'riyatii, marsiyada Bashshar ibn Burd jasur novator sifatida namoyon bo'lgan. U qotib qolgan an'anaviy shakllardan voz kechgan, she'riyatga yangi, hayot bilan chambarchas bog'liq mavzular kiritgan hamda yangi she'riy usullardan foydalangan.

Bashshar ibn Burd arablar bosib olgan xalqlarning siyosiy kayfiyatlarini ifodalab, o'z kelib chiqishi bilan mag'rurlangan arablar ustidan zaharxanda, ba'zan hatto qo'pol ifodalar bilan kulgan hamda forslarni ulug'lagan.

Albatta, ungacha bo'lgan hech bir shoir arablar bilan bunday ohangda gaplasha olmagan.

Bashshar o'z kelib chiqishidan uyalgan va o'zlariga soxta badaviy ajdodlar to'qigan forslar ustidan kulgan. U o'z ajdodlari haqida g'urur bilan yozgan.

Bashshar ibn Burdning hajviy she'rlarida odatda o'zini maqtash mavjud. Bu esa ayrim tadqiqotchilar shoir yangi janr yaratgani haqida so'z yuritishlari uchun asos bo'lgan. Bashshar ibn Burd qadimgi arab she'riyatidan olingan hamda zamondoshlari va hatto arablarga ham uncha tushunarli bo'lmagan o'lik shakllar va uslubiy qoliplardan voz kechib, obrazlarni atrof olamdan bimalol olavergan, yangi va kutilmagan qiyoslar hamda tashbihlardan qo'rqmay xalq iboralarini kiritgan.

Bashshar ibn Burdning muhabbat she'riyatii qadimgi arab shoirlarining qo'polroq va ehtirosliroq nasiblaridan farqli ravishda o'zining nazokati va musiqiyli bilan farq qiladi. Unda nozik fors she'riyatining ta'siri ayniqsa sezilarli. Bashshar ibn Burdning g'azallari hissiyotga boy va ba'zan unchalik ham odobli emas, bu, ehtimol, saroy muhitining yengiltak didlariga mos kelgan. Shu jihatdan ular Ibn Abu Rabi'aning g'azallarini eslatadi. Ibn Abu Rabi'a she'rlarida temperament ko'proq bo'lsa, Bashshar ibn Burd esa kayfiyatni aks ettirish ko'proq .

Bashshar ibn Burd she'rlarining mavzulari xilma-xil: uning devonida hazil she'rni ham, maishiy manzarani ko'rsatuvchi baytlarni ham, quvnoq ziyofat, saroylar, istirohat bog'lari tavsifini ham, daryo bo'ylab sayohat haqidagi hikoyani ham, yo urf bo'lgan qo'shiqchi ayolga qoyil qolish so'zlarini ham uchratish mumkin. So'qirlik shoirga atrof olamni yorqin ifodalashida xalal bermagan. Bashshar ibn Burdning shoirona xayoloti aniqligi va realligi bilan ajralib turgan.

Abu Nuvas (762–813) «yangilanish» adabiyotining buyuk shoiri, Xuzistonda kambag'al oilada tug'ilgan. Uning otasi oxirgi umaviy xalifa Marvarid II qo'shinida xizmat qilgan. Shoirning onasi fors bo'lgan. Abu Nuvasning bolaligi Basrada o'tgan, u yerda yoshligidayoq u taniqli adiblar va olimlar bilan tanishgan. Shundan keyin shoir Xorun ar-Rashid saroyida qabul qilingan, bir qancha vaqt amir al-Xasib saroyida yashagan, so'nggi yillarini esa Bag'dodda xalifa al-Aminning saroy shoiri sifatida o'tkazgan.

Abu Nuvasning zamondoshlari uni bachkanaligi uchun doimiy ravishda qoralagan bo'lsalar-da, shoirning keng ma'lumotga ega ekanligini bir ovozdan

ta'kidlaganlar. U tibbiyot, astronomiya va boshqa fanlarni chuqur bilgan hamda ko'plab tillarda so'zlasha olgan. Xuddi Bashshar ibn Burd kabi Abu Nuvas an'anaviy arab she'riyatining ashaddiy dushmani bo'lgan va o'z davri taqlidchi shoirlarining ijodiga xos hayotdan uzilganlikni bartaraf etishga uringan. Faqat ayrim madhiyalaridagina Abu Nuvas, saroy ayonlarining xohishini bajarib, majburan og'ir tilli va katta hajmdagi tavilda yoritilgan an'anaviy qasidalar yaratgan. Abu Nuvas hajviya va marsiyalar yozgan. U hattoki mustaqil ov qasidaları – tardiyatning yaratuvchisi hisoblanadi, chunki unga qadar ov tasvirlari qasidalarda faqat tarkibiy element sifatida mavjud bo'lgan. Ammo Abu Nuvasga shuhratni uning hamriyoti – may haqidagi she'rlari, ilk bora Abu Nuvasda mustaqil janrga aylangan butun boshli ziyofat qasidaları keltirgan. Abu Nuvas o'z o'tmishdoshlari al-A'sha, al-Axtal va boshqa shoirlarning an'alarini davom ettirib, ziyofat she'riyatining tengsiz namunalarini yaratgan.

Abu Nuvasning ziyofat qo'shiqlarida quvnoq maishatparastning hissiyotlari oddiygina ifodalangan emas: ularning ortida butun boshli adabiy dastur yashiringan. Abu Nuvas eng zaharxanda ifodalarida qadimgi arab qasidalarini qo'llab-quvvatlagan, sahrodagi ko'chmanchi hayotdan zavqlangan va eski badaviy an'alarni kuylagan taqlidchi shoirlarning ustidan kulgan. U katta zamonaviy shaharda boy hayotga intilishini ochiqchasiga aytgan, badaviylarning sahroga va ko'chmanchi hayotga bog'langan hayoti ustidan kulgan.

Abu Nuvasning eskirgan she'riy an'alarga qarshi chiqishi shoirning badiiy didi bilangina bog'liq bo'lmagan, balki birinchi navbatda o'zining ma'naviy ozodligi uchun kurashayotgan forslarning muayyan siyosiy qarashlarini aks ettirgan.

Abu Nuvas obrazlarining rang-barangligi, uning nihoyatda kuzatuvchanligi, cheksiz she'riy fantaziyasi, uslubining aniq-ravshan va soddaligi arablar orasida o'rta asrning eng buyuk shoirlaridan biri sifatida shuhrat qozonishiga sabab bo'lgan. Mavzularining birxilligiga qaramay (ayniqsa xamriyat janrida), shoir har safar yangi ifodali obrazlar topgan.

Abu Nuvas she'r yozish texnikasini juda yaxshi egallagan. Shoir she'rning mazmuniga mos she'riy o'lchamlarni mohirlik bilan tanlagan: uning madhiyalari ulug'vor yangragan, muhabbat mavzuidagi she'rlari yengil bo'lgan, mayga bag'ishlangan she'rlari oddiy bo'lgan va h.k. Abu Nuvas arab she'riyatini og'ir «mumtoz» birxillikdan forig' eta olgan hamda she'rni yengil va nozik qila olgan. Abu Nuvasning she'rlari nihoyatda musiqiyligi bilan ajralib turadi.

Yumshoq, «sirg'aluvchi» arabcha «s» tovushini takrorlash orqali Abu Nuvas butun she'rga nozik ohangdorlik bag'ishlagan.

Hayotining oxirgi yillarida Abu Nuvas bir qator diniy pand-nasihat xususiyatiga ega bo'lgan she'rlar yozgan. Ularda shoir o'tmishdagi «sayoq» hayotidan afsuslanishini ifodalagan hamda din bilan yarashish yo'lini izlagan. Abu Nuvasni hayotiy maslagini o'zgartirishga nima majbur qilgan – haqiqatni izlashmi yoki yaqinlashib kelayotgan o'limdan qo'rqishimi – buni aytish qiyin. Abu Nuvas hech qachon dahriy ham, o'ta taqvodor ham bo'lmagan.

Abul Ataxiya (748–825) lirik she'riyatining alohida janri – zuhdiyatning otasi hisoblanadi. Arabcha «zuhdiyat» termini («zuhd» – «tiyilish», «tarkidunyochilik» so'zidan) ushbu janrning mazmunini qisman ifodalaydi, chunki hayot lazzatlaridan voz kechish mavzusi mazkur janr asarlarining asosiy g'oyasi emas. Arablar zuhdiyatga avvalo mungli, marsiyaga oid va ayni vaqtda taqvo xususiyatiga ega bo'lgan, dunyodagi butun hayotning o'tkinchiligiga doir tushkun fikrlar, ba'zan esa ijtimoiy adolatsizliklarni tanqid qilishni kiritadilar. Ayni vaqtda falsafiy-zohidlik yo'nalish qadimgi arab she'riyatida ham an'anaga ega bo'lib, islomgacha bo'lgan shoirlar Imru-l-Qays, Tarafa, Zuhayr va Labid kabilarning ijodida ham dunyoning bevafoligi haqidagi qayg'uli fikrlarni uchratish mumkin. Ammo maxsus janr – falsafiy-elegik lirikaning yaratilishi Abul Ataxiya nomi bilan bog'liq.

Abul Ataxiya Kufa yaqinida sartarosh oilasida tug'ilgan va bolaligida kulolchilik buyumlarini sotish bilan shug'ullangan. Abul Ataxiyaning erta namoyon bo'lgan shoirlik iste'dodini barcha tan olgan va u hayotining aksariyat qismini Bag'dodda xalifalar al-Maxdiy, Xorun ar-Rashid, al-Amin va al-

Ma'munning saroy shoiri sifatida o'tkazgan. Shoirning xalifa al-Mahdiy amakivachchasining kanizagi Otbaga bo'lgan baxtsiz muhabbati unga ko'p qayg'u-alamlar keltirgan va, ehtimol, shoir tarkidunyochiligining sabablaridan biri bo'lgan.

Abul Ataxiya she'riyatining diniy taqvoga to'la va nafsni tiyishga chaqiruvchi umumiy yo'nalishi Bag'dodning xalifalik hokimiyatining obro'sini mustahkamlashga intilayotgan saroyida qo'llab-quvvatlandi. Shu bois, shoir shialarga xayrixoh bo'lishiga qaramay, xalifalarning e'tiborini qozongan.

Abul Ataxiya ijodiy yo'lining boshida o'z muhabbat iztiroblarini kuylashga butunlay o'zini baxshida qilgan lirik sifatida namoyon bo'ladi. Biroq asta-sekin uning hijroni o'rnini tushkunlik egallaydi va ishqiy lirikaning o'rniga tafakkur keladi.

Abul Ataxiya devonining kattagina qismini madhiyalar tashkil qiladi. Ammo ushbu an'anaviy janrda ham shoirning mahorati seziladi. Uning tavsiflari cho'zilib ketmagan, maqtovlari esa didsiz tilyog'lamalikka o'tmagan. Abu Ataxiyaning hajviyalari ehtiyotkor bo'lib, avvalgi shoirlardan farqli o'laroq, ularda ortiqcha qo'pollik yo'q.

Abul Ataxiyaning Otbaga bag'ishlangan ishqiy g'azallari ayniqsa go'zal. Ularda shoir Umar ibn Abu Rabi'a yo'nalishini davom ettiradi. Biroq Umar ibn Abu Rabi'a, Bashshar ibn Burd va Abu Nuvas g'azallaridan farqli ravishda, Abul Ataxiyaning muhabbat haqidagi she'rlari iboli va har qanday bachkinalikdan xolidir. Ko'pincha Abul Ataxiyaning g'azallari madhiyalarining kirish qismi bo'lgan, xolos. Shoir ijodida uning ba'zan badiiy shaklga kirgan diniy da'vatlar yoki hayot mazmuni va kelajak oxir zamon haqidagi falsafiy o'y-xayollarni eslatuvchi zuhdiyati asosiy o'rin egallagan.

Abul Ataxiya arab she'riyatidagi falsafiy-zohidlik yo'nalish asoschisi. U falsafiy lirikada eng taniqli arab faylasuf shoiri al-Ma'arriy ijodiga turtki bo'lgan.

«Yangilanish davrining» boshqa shoirlari singari Abul Ataxiya she'riy shakl novatori bo'lgan. U har qanday balandparvozlik, dabdaba va sun'iylikni rad etib, she'riy taqlidchilikka qarshi chiqqan. U sxolastlar va grammatiklarning g'azabini

qo‘zg‘atishini bilsa ham, «har qanday vazndan ustun ekanligini» aytib, an‘anaviy vaznlarni buzgan.

4.3. “YANGILANISH” DAVRI NASRI

Darsning maqsadi: Yangilanish davri adibi Abdulloh Ibn Muqaffa ijodiy faoliyati bilan tanishtiriladi.

Tayanch so‘zlar va iboralar: *«Kalila va Dimna»*, *paxlaviy tili*, *«Kichik odobnoma»*, *«Katta odobnoma»*, *«Panchatantra»*.


«Yangilanish» davrida nafaqat she‘riyatda yangi uslub paydo bo‘ldi, balki badiiy nasr ham yuzaga keldi. Uning asoschisi deb haqli ravishda Abdulloh ibn al-Muqaffa hisoblanadi.

Abdulloh ibn al-Muqaffa (721–757) Eronda Jur qishlog‘ida (Feruzobod) fors zardushtiylar oilasida tug‘ilgan. Bu yerda u an‘anaviy zardushtiylar tarbiyasini olgan va fors madaniyati bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan. Keyinchalik o‘smir Basraga ko‘chib o‘tgan. U yerda ma‘lumot olishini yakunlash va arablar madaniyatidan bahra olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu esa o‘sha davrdagi ko‘pchilik ma‘lumotli forslar singari xalifalikning yuqori martabali amaldorlari xizmatiga kirish imkonini bergan. U Eron va Iroqning turli shaharlarida umaviy va abbosiy noiblar qo‘lida xizmat qilgan hamda nafaqat yaxshi amaldor, balki yozuvchi sifatida ham shuhrat qozongan. Umrining oxirgi yillarida Abdulloh ibn al-Muqaffa islom dinini qabul qilgan, ammo boshqalardan yashirincha zardushtilikka rioya etavergan.

Ibn al-Muqaffaning forslarga bo‘lgan muhabbati, yuzaki sadoqat ortiga yashiringan arablardan nafrati va zindiq (hurfikrli bid’atchi)ligidan yozuvchining dushmanlari Bag‘dodda uning obro‘sizlantirishda foydalanganlar. Natijada xalifa al-Mansurning buyrug‘i bilan yozuvchi 35 yoshida qatl ettirilgan. Manbalarda Ibn al-Muqaffa yuksak ma‘lumotli va oliyjanob inson, insonparvar va xushfe‘l kishi, fors madaniyatining katta bilimdoni va muxlisi sifatida tasvirlanadi. U xalifalik

aholisining ma'lumotli qismini fors adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishga harakat qilgan.

Ibn al-Muqaffa har tomonlama qobiliyatli inson bo'lgan. U fors manbalariga tayanib, davlat tuzilishi va siyosat masalalariga bag'ishlangan bir qancha risolalar yozgan, ularda xalifalikning davlat tizimini tanqid qilgan hamda uni Sosoniylar davlati namunasi bo'yicha isloh etishni taklif etgan. Ibn al-Muqaffa, shuningdek, ikki risolani – «Kichik odobnoma» va «Katta odobnoma» risolalarini qadimgi paxlaviydan arab tiliga tarjima qilgan. Ularda yaxshi tarbiyali insonning axloq-odobi haqidagi qoidalar, shuningdek, hukmdorlar o'zlarining faoliyatida va qo'l ostidagilar bilan muomalada rioya etishlari kerak bo'lgan qoidalar berilgan.



Ibn al-Muqaffa «Kalila va Dimna» nomli hind nasihat hikoyalari to'plamini o'rta fors tilidan arab tiliga tarjima qilganligi bilan arab va jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan. «Kalila va Dimna»ning hind tilidagi asl nusxasi saqlanib qolmagan, ammo uning sanskrit tilidagi qayta ishlangan ilk hind variantlaridan biri – «Panchatantra» bizgacha yetib kelgan. Aftidan III–IV asrlarga taalluqli bo'lgan «Panchatantra» – hind ertaklari, masallari, rivoyatlari, hikmatlarining to'plami bo'lib, odamlarni oqilona xatti-harakat qilishga o'rgatish, donolar bisotidan bahramand qilish maqsadida tuzilgan. To'plam beshta bobdan iborat («Panchatantra»ning tom ma'nosi «besh kitob»). Uning birinchi bobida – do'stlik qanday buzilishi haqida, ikkinchi bobida – qanday qilib do'st orttirilishi, uchinchisida – qanday jang qilinishi, to'rtinchisida esa egallangan narsa qanday

yo‘qotilishi, beshinchisida aqlsiz ishlar qanday sodir etilishi haqida hikoya qilinadi.

VI asr o‘rtalarida Eron podshosi Xusrav Anushirvon ajoyib kitob haqida bilib qolgach, uni o‘rta fors tiliga tarjima qilishni buyurgan. Tarjimada keltirilgan rivoyatga ko‘ra, podsho aynan shu maqsadda o‘z shifokori Barzueni Hindistonga yuborgan. Barzue turli nayranglar bilan ana shu qo‘lyozmadan foydalanish imkonini qo‘lga kiritgan va maxfiy tarzda uni ko‘chirib olgan. VI asrda Barzue tarjimasida Suriya bayoni amalga oshirilgan, VIII asr o‘rtalarida esa Abdulloh ibn al-Muqaffa kitobni arab tiliga o‘g‘irgan. Kitob «Kalila va Dimna» nomini olgan. Bu nom pahlaviydagi va arab tilidagi tarjimada buzilgan «Panchatantra» kitobining birinchi bobida keltirilgan shoqollar («Karataka va Damamaka»)ning nomlaridan kelib chiqqan.



«Kalila va Dimna»ning qayta ishlangan varianti shunchalik o‘zgarib ketganki, tarjima ekaniga qaramay, kitob arab o‘rta asr nasri tarixida juda katta o‘rin tutadi. Arab zaminida asar yangi hayot boshladi va aynan Ibn al-Muqaffa tarjimasi tufayli bir qancha vaqt o‘tgach Yevropada tanildi. Ibn al-Muqaffa, musulmon kitobxonning didiga moslashtirish uchun, shuningdek o‘z g‘oyalarini ifodalashga intilib, «Kalila va Dimna»ning ko‘p joylarini o‘zgartirgan,

shuningdek o‘zi yozgan yangi qismlarni kiritgan. Masalan, Ibn al-Muqaffa fors tilidagi matnga kirish hamda Dimna (o‘z nayranglari bilan sher va ho‘kizning to‘qnashuvini hamda ho‘kizning o‘limini atayin keltirib chiqargan shoqol)ning ishini tergov qilish haqidagi bobni qo‘shgan, chunki asarning didaktik maqsadlari gunoh jazolanishini talab qilardi. U hukmdorni tabaqalar iyererarxiyasiga rioya etishga chaqirish maqsadida (chunki tabaqalarning buzilishi hokimiyat uchun xavfli bo‘lishi mumkin edi) taqvodor va mehmon haqidagi hikoyani qo‘shdi. Yozuvchi hikoya qahramonlarining tilidan vaziyatga mos keladigan arab maqollari va Qur‘on parchalarini keltirgan.


Shunday qilib, «Kalila va Dimna»da turli madaniyatlarning elementlari qo‘shilib keladi. Hind prototipining jihatlari didaktik maqsaddagi rivoyatdan keng foydalanilganida, asarning ayrim pand-nasihatli voqealar bir-birining ortidan cheksiz tasma sifatida keladigan «ramkali» kompozitsiyasida, nihoyat hind hayotidagi ayrim voqealarda (masalan, Ilada haqidagi bobda uning buddaviy yoki jayniylardan kelib chiqqanidan dalolat beruvchi brahmanlarga qarshi motivlarda) ko‘rinadi.

Yuqorida aytganimizdek, «Kalila va Dimna» – avvalo didaktik xususiyatga ega bo‘lgan asar. «Oqillar bu kitobni undagi donishmandlikdan bahramand bo‘lish uchun, aqlsizlar esa ko‘ngilxushlik uchun o‘qiydilar». Kitobda hukmdorlarning o‘z yaqinlari va qo‘l ostidagilarga nisbatan xatti-harakatining qoidalari qiziqarli shaklda bayon etilgan, buning ustiga muallif yuqori martabali shaxslarni chaqimchilarga ortiqcha ishonishdan va ayblanuvchilarni ayblashda shoshqaloqlikdan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. Siyosiy mulohazalar ancha ehtiyotkor shaklda bildiriladi. Muallifning fikricha, hukmdor odil va rahmdil bo‘lishi hamda so‘zining ustidan chiqishi va g‘azabini jilovlay olishi kerak. «Aybsiz odamlar qo‘rqadigan podsho – eng yomon podsho». Qayg‘uli tajriba muallifga ko‘p narsalarni o‘rgatgan: «Donishmandlar faqat aqlsiz odamlargina uch narsani qilishdan qo‘rqmasliklarini aytganlar: podsholar bilan do‘stlashish, zaharni ichib ko‘rish va sirlarini ayollarga ishonish».

«Kalila va Dimna» asarida hukmdorning yordamchilar va maslahatchilarni tanlashiga alohida ahamiyat beriladi. Hukmdor eng munosib, bilimdon odamlarnigina, ularning shaxsiy xislatlarini o'rganib, o'ziga yaqinlashtirishi kerak.

«Kalila va Dimna» haqli ravishda Sharq donoligining xazinasini hisoblanadi va donolikni sharaflashga xizmat qiladi. Muallifning fikricha, hayotdagi eng asosiy narsalar – aql va bilimdonlik. Aql hiyla bilan birgalikda kuchni yengadi. Jasurlik, saxovat, burch hissi, do'stga sadoqat, taqvo va nafsni tiyish bular eng muhim insoniy qadriyatlardir. Shu bilan birga, barcha ko'zguldagi kabi, e'lon qilingan qoidalar yuksak umuminsoniy talablarning in'ikosi sifatida ochib beriladi.

«Kalila va Dimna» insonning xatti-harakati – yaxshilari ham, yomonlari ham – azaldan taqdirda belgilab qo'yilgan, deb o'rgatadi. Shu bois inson ular uchun javobgar bo'la olmaydi.



Kitobda voqealar pand-nasihatlar qiluvchi hayvonlar nomidan hikoya qilinadi. Ularda hayotiy donishmandlik hikmat va rivoyatlar shaklida bayon etiladi. Hikoyaning asosiy badiiy to'qimasi – rivoyat. Rivoyatlar mohirlik bilan hikoyaga kiritiladi. Ular fokusning cheksiz tasmaidek o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator pand-nasihatli hikoyalarni hosil qiladi. «Kalila va Dimna»ning tuzilishi, yuqorida aytilganidek, Qadimgi Hindistondagi o'ralgan qissalarning tuzilishiga yaqin. «Panchatantra» da bo'lgani kabi, «Kalila va Dimna»da ham umumiy qobiq hosil qiluvchi hikoya mavjud: hind podshosi Dabshalim va o'z hukmdoriga o'git beruvchi faylasuf brahman Beydaba tarixi. Bunday ramkali kompozisiya asarga badiiy tugallik bag'ishlaydi. «Kalila va Dimna»ning bir bobi ham ramkaga –

bobning asosiy fikrini ifodalovchi bosh rivoyatga ega. Ushbu qobiq rivoyatni bayon etish mobaynida qahramonlar yoki bosh hikoyachi qaysidir xususiy fikrni qisqa rivoyat yordamida tushuntirish uchun vaqtincha hikoya qilishdan chalg'iydi, shu tariqa ko'zboylag'ichning qutilari singari bir-birining ichiga solingan kiritma rivoyatlar shodasi hosil qilinadi.

Badiiy jihatdan yakunlangan sher va ho'kiz haqidagi to'plamning dastlabki boblariga kirgan qissa qutili kompozisiyaning misoli bo'lib xizmat qilishi mumkin. Podsho Dabshalimning iltimosiga ko'ra, Beydaba makkor yolg'onchi urishtirib qo'ygan bir-birini yaxshi ko'ruvchi ikki mavjudot haqidagi rivoyatni aytib beradi.

Kunlardan bir kun sherning podsholigida egasi tashlab ketgan ho'kiz paydo bo'ladi. Ho'kizning mo'rashini eshitgan sher qo'rqib ketadi va qo'rquvini atrofdagi hayvonlarga sezdirmaslik uchun harakatlanmay qo'yadi. «Sher mag'rur, o'zgalar fikriga quloq solmaydigan, o'zining fikrlari esa nomukammal edi».

Ikkita shoql – Kalila va Dimna sherning xizmatida edi. «Dimna yovuzroq va kuzatuvchanroq edi». U sherning qo'rquvi sababini tushundi va podshoning «nodonligidan» foydalanish va saroyda yuqoriroq lavozim egallashga qaror qildi. U sherga yaqinlashib, «podsho kelib chiqishiga ko'ra arzimasi bo'lsa ham, insondagi jasoratidan nafratlanishi kerak emas»ligiga doir shirin nutqlari bilan uning ko'nglini oldi va unga xavfni bartaraf etishni va'da qildi. Podshoning roziligi bilan ho'kiz huzuriga bordi va uni hukmdorining huzuriga taklif qildi.

Biroq vaziyat shuhratparast Dimna istaganicha bo'lmadi. Sher ho'kiz bilan tanishgach, uni hurmat qilib, eng yaxshi do'stiga aylantirdi. Dimna sher va ho'kizning do'stligiga xotirjam qarab tura olmas edi. U ho'kizning ustidan shubhalanuvchi va qo'rqqoq sherga tuhmat qildi va sherni ho'kiz unga qarshi fitna uyushtirayotganiga ishontirdi. Oxir-oqibatda g'azab otiga mingan sher do'stini burda-burda qilib tashladi.

Sher va ho'kiz haqidagi rivoyatning qisqacha mazmuni ana shunday. Undan chiqadigan xulosa aniq: hukmdor makkor yordamchilarining maslahatlariga ko'r-

ko'rona rioya etmasligi kerak; uning maslahatchilari orasida faqat munosib kishilar bo'lishi lozim.

Biroq sher va ho'kiz haqidagi rivoyat – faqat qobiq, xolos, va muallif, yangidan-yangi kiritma rivoyatlarni aytib berish uchun, syujet rivojidagi har qanday burilishdan foydalanadi.

Masalan, Dimna akasi Kalilaga ho'kiz ustidan shikoyat qiladi va o'zining qora niyatlarini aytib beradi. Kalila ukasidan so'raydi: «Ho'kizni qanday yengasan, axir u sendan kuchli-ku?». «Sen qarg'a ilonni qanday yengganini bilmaysan-mi?» – deb javob beradi Dimna. «Bu qanday bo'lgan? – deb so'raydi Kalila. Shunda Dimna qarg'a ilonni hiyla bilan yenggan haqidagi rivoyatni aytib beradi. Qarg'a ayolning qimmatbaho zeb-ziynatini o'g'irlashi va uni ilon uyasi yaqiniga tashlashiga to'g'ri keldi. Odamlar zeb-ziynatni olish uchun kelib ilonni o'ldirishdi. Shunday qilib, hiyla kuchni yengdi.

Ammo qarg'a haqidagi rivoyat, o'z navbatida, kiritma rivoyatga ega. Ma'lum bo'lishicha, qimmatbaho ziynatni o'g'irlash haqidagi fikrni shoqol, unga esa o'z poloponlarini yeb qo'yganidan shikoyat qilgan qarg'a aytgan. «Men ilon oldiga boraman va ko'zlarini cho'qib tashlashni istayman», – deydi qarg'a. «Ilonni yenggishingga va o'zing halok bo'lmasligingga yordam beradigan usulni top», – deydi dono shoqol. – Tag'in qisqichbaqani o'ldirishni istab, o'ziga zarar yetkazgan qarqaraga o'xshab qolma». Shunda shoqol baliqlarga boshqa hovuzga olib borishni va'da qilgan, har safar yo'lda ularni yeb qo'ygan va, nihoyat, qisqichbaqani olib ketayotganida u baliq suyaklarini ko'rib, o'zini nima kutayotganini tushungan holda qarqarani qisqichlari bilan bo'g'ib tashlagan qarqara haqidagi rivoyatni aytib beradi. Muallif bu bilan «hayot uchun kurashda o'z kuchingni to'g'ri chamala, aks holda seni halokat kutadi» demoqchi bo'ladi.


«Kalila va Dimna»da har xil rivoyatlar keltirilgan. Ayrimlari qiyofasiz, donishmandlikni ko'rsatuvchi personajlarning dinamikadan mahrum va fojiali harakatlarini eslatadi (masalan, ukki va qarg'a haqidagi bob rivoyati, boshqalari, aksincha, qiziqarli mazmunga ega bo'lgan jonli, hozirjavob, qisqa hikoyalardir (masalan, yuqorida bayon etilgan sher va ho'kiz haqidagi rivoyat). Birinchi

turdagi rivoyatlarda hayvonlar hali an'anaviy tipik jihatlariga ega emas, ular harakat qilmaydi, balki uzoq mulohaza yuritadi va hali o'zaro so'zlashuvchi odamlarni juda eslatib turadi. Ikkinchi turdagi rivoyatlarda (masalan, «Kalila va Dimna» haqida hikoyada) personajlarda o'ziga xoslik jihatlar paydo bo'ladi, ularning xarakterlari sezila boshlaydi.

Rivoyatlarning tuzilishi murakkab emas. Odatda muallif rivoyatni bitta gap bilan boshlaydi: «Faylasuf aytdiki». Shundan so'ng voqea joyini qisqacha tavsiflaydi va qahramonlarni sanab o'tadi. So'ngra voqea boshlanadi (tugun) – qahramonlar tushib qolgan vaziyat tasvirlanadi, yechim – vaziyatdan chiqish ko'rsatiladi, so'ngra butun rivoyatning xulosasini ifodalovchi hikmat yoki maqol keltiriladi. Voqea ko'pincha dialog shaklida rivojlanadi. Qisqa rivoyatlarda tavsiflash qismi muallifdan eng kam darajagacha yetkazilgan, uzunlarida u ko'pincha kengayib ketadi va bayon etilish sur'ati pasayadi. Bundan tashqari, uzun rivoyatlarda bayon chekinishlar, kiritma rivoyatlar va hikmatlar bilan uzilib turadi. Katta rivoyatlardagi boblarning tuzilishidagi ma'lum birxillik va voqealar rivojidagi imillash har bir masalning ma'nosini tushuntirish va singdirishga xizmat qiladi. Ammo asarning badiiy qimmatini biroz pasaytiradi. Boshqa tomondan, rivoyatlar o'rtasidagi aloqa hech yerda uzilmaydi. Bu esa o'quvchining qiziqishini doimiy ravishda kuchaytiradi va o'qishdan to'xtashiga imkon bermaydi.

«Kalila va Dimna» butun keyingi arab adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu asardan boshlab qiziqarli hikoya janri arab adabiyotida mustahkam o'rnashgan, al-Jahiz, va keyinchalik Badiuzzamon, al-Xamazaniy, al-Haririy ijodida arab nasrsining asosiy janrlaridan biriga aylangan.

XI–XIII asrlarda «Kalila va Dimna» Yevropaga kirib boradi. Taxminan 1081 yilda kitobning yunoncha tarjimasi paydo bo'lgan. XIII asrda undan slavyan tiliga tarjima amalga oshirilgan. U Moskva Rusiga «Stefanit i Ixnilat» nomi bilan kelgan. XII asr boshida «Kalila va Dimna» arab tilidan yaxudiy tiliga, 20 yildan so'ng esa lotin tiliga o'girilgan. Oxirgi tarjimasi esa ko'plab yevropa tillariga tarjima uchun asos bo'lgan.



«Kalila va Dimna» Uygʻonish davri yozuvchilarining ijodiga taʼsir etgan Bokachchoning novellarida, Lafontenning masallarida oʻz ifodasini topgan. Rossiyada «Kalila va Dimna»ning syujetlari bilan turli koʻrinishlarda I. A. Krilov tanish boʻlgan, L. N. Tolstoy ham ular bilan qiziqqan. Shunday qilib, «Kalila va Dimna» koʻp asarlar mobaynida butun dunyoda tarqalgan hamda tarbiyaviy ahamiyati va qiziqarliligi bois jahon adabiyotining buyuk yodgorliklari orasida mustahkam oʻrin egallagan.

Seminar mashgʻulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. «Kalila va Dimna» asari arab tiliga kim tomonidan tarjima qilingan?
2. «Kalila va Dimna» qanday asar?
3. Arab tanqidchiligida «yangilanish harakati»
4. Abu Nuvas hamriyot asoschisi.
5. Abul Ataxiya zuhdiyot janri asoschisi.
6. Kim tomonidan vafot janrining mavzusi kengaytirildi?

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Bashshar ibn Burdning hayoti va ijodi.
2. Yangilanish harakati.
3. Ibn –Muqaffa ijodiga bir nazar.

V BOB. QADIMIYATGA QAYTISH DAVRI

5.1. ABU TAMMOM VA AL BUXTURIY IJODI

Darsning maqsadi: O'rta asr arab adabiyotida qadimiyatga qaytish davri vakillari Abu Tammom va Al-Buxturiylar ijodi bilan tanishtirish.

Tayanch so'zlar va iboralar: *«vasf», mustaqil janr, «Kitab al-xamasa», al-Buxturiy, Jasim, Manbij.*

Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha har xil hamda etnik jihatdan turlicha bo'lgan Abbosiylar davlati uncha mustahkam bo'lmagan tuzilma chiqdi. Yirik feodal yer mulkining o'sishi hamda mahalliy separatistik tamoyillarning kuchayishi sababli nisbatan siyosiy barqarorlik boshlangan qisqa davrdan so'ng xalifalik VIII asr oxirida parchalanib, markaziy hokimiyat asta-sekin obro'sizlana boshlaydi hamda viloyatlar hududlarida amalda mustaqil bo'lgan davlatlar shakllanadi (VIII asr oxirida Marokashda – Idrisiylar davlati, IX asr boshida Tunisda va Jazoirida Aglabiylar davlati, IX asr o'rtalaridan boshlab Misr va Suriyada – Tuluniylar, so'ngra X asr o'rtalaridan boshlab – Fotimiylar davlati). IX asrda xalifaga O'rta Osiyo va Kavkaz hududlari nomigagina bo'ysungan. VIII–IX asrlardagi feodallarga qarshi dehqonlarning kuchli qo'zg'olonlari Eron, O'rta Osiyo, Kavkaz hamda barcha joylarda diniy tus olgan boshqa viloyatlardagi ana shunday qo'zg'olonlar ham Bag'dod xalifalarining hokimiyatini yemirardi.

IX asr o'rtalarida mamlakatning siyosiy hayotiga turkiy va Shimoliy Afrikadan kelib chiqqan jangchilardan iborat saroy armiyasining ta'siri ham kuchaya boshlaydi. Qo'shinga yollanma jangchilarni keng miqyosda jalb qilishni turklar va berberlardan iborat ko'p ming sonli qo'shin tuzgan xalifa **al-Mu'tasim** (833–842) asos solgan. Biroq asta-sekin xalifalar armiyasi sarkardalari qo'lidagi o'yinchoqqa aylana borganlar.

Qadimiyatga qaytish davri vakillari adabiyotdagi qadimgi arab shakllarini tiklashga da'vat eta boshladilar. Ular «yangilanish» adabiyotiga qarshi hujum qildilar. Boshqa tomondan, islomgacha bo'lgan she'riyat she'riy va axloqiy ideallar manbai sifatida qabul qilindi. Qadimgi qahramonliklar she'riyatining

butunligi, axloqiy pokligi «yangilanish» she'riyatining ikkiyuzlamchiligiga qarshi qo'yildi. Aynan «qadimgi davrga qaytish» yozuvchi va shoirlari dastlabki qadimgi arab she'riyati antologiyalarini yaratdilar va arab mumtoz uslubiyatining qonunlarini ifodalashga uringan arab she'riyatining nazariyotchilari sifatida namoyon bo'ldilar.

IX asr she'riyatidagi «klassisizm» adabiyotning taqdiriga ko'proq salbiy ta'sir etdi. Islomgacha bo'lgan shoirlarga taqlid etishga intilgan saroy shoirlari an'anaviy mavzularni ishlash va odatdagi qolipga aylangan obrazlarga murojaat etishda davom etdilar. Biroq, reaksiya kuchayganiga qaramay, IX asr yetarlicha yorqin ifodalangan o'ziga xoslik uslubga ega bir qator yirik shoir va nasrlarni ilgari surdi. Bular quyidagilar: Abu Tammom, al-Buxturiiy, Ibn ar-Rumiiy, Ibn al-Mu'tazz, al-Jahiz. Ularning ijodi fikrining teranligi va temperamenti bilan o'quvchini lol qoldiradi. IX asr adiblari (she'riyatda ham, nasrda ham) o'ziga xos bo'lgan jihat hayotning o'zi ilgari surayotgan falsafiy va axloqiy muammolarga qiziqish edi. Yunon mantiq'i bilan intizomlashgan badiiy ong falsafiy g'oyalarni ifodalash uchun aniq-ravshan iboralarni oson topdi. IX asr arab shoirlari islomgacha bo'lgan an'analarni davom ettirib, Iroq, Suriya hamda xalifalikning boshqa viloyatlari tabiatining manzaralarini qiziqish bilan chizardilar. Ularning tavsiflari o'zining balandparvozlighi va rang-barangligi bilan islomgacha bo'lgan shoirlarning qasidalaridagi tavsiflardan ancha ustun edi. IX asr shoirlarining she'rlarida «yangilanish» davri epikurchilarining she'riyatida orqaga surilgan qahramonlik motivlari yana yangradi. Hatto, eng konservativ va barqaror an'analarga ega bo'lgan janr bo'lmish madhiyalar ham «qadimgi davrga» qaytish iste'dodli shoirlarining ijodida yangicha, jonli va ifodali yangradi.

Qadimgi davrga qaytish harakatining birinchi taniqli arbobi Abu Tammom edi.

Abu Tammom (805–846) Damashq yaqinida nasroniy yunon oilasida tug'ilgan. Biroq islomni qabul qilgach, bo'lg'usi shoir ashaddiy musulmonga aylandi va, hatto o'ziga sof arabiy shajara o'ylab topdi. Abu Tammom yoshlik yillarida ko'plab kasblarda o'zini sinab ko'rdi: u hunarmand, suv tashuvchi bo'lib

ishladi. Pul topish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurgan hamda Suriya, Misr va Iroqning eng yirik shaharlarida bo'lgan. Uning dastlabki shoirlik tajribalari muvaffaqiyat qozonmagan, Ammo keyinchalik Abu Tammom nazarga tushib, xalifa al-Mu'tasim saroyiga taklif etildi, tez orada saroy shoiri bo'lib qoldi. Abu Tammom she'riyatining umumiy yo'nalishi hukumat tepasidagi yuqori martabali amaldorlarga ma'qul keldi va ulardan birining yordamida shoir Mosuladagi pochta boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Bu unga bo'lgan katta ishonchdan dalolat bergan, chunki shoirning yangi lavozimi maxfiy ma'lumotlarni to'plash bilan bog'liq edi.

Manbalarda shoir uncha yaxshi tasvirlanmagan: mag'rur, qo'pol va hatto vulgar, yuqori martabaga da'vogarlik qiluvchi hamda o'zining arab an'analari va islom diniga sodiqligini doimiy ravishda ta'kidlovchi qilib ko'rsatilgan. Shu bilan birga, manbalarda uning hayotdan zavq olishi va epikurcha uslubdagi sahiy tabiati, quvnoq ulfatlari doirasida o'zi e'lon qilgan haqiqiy musulmonning axloq prinsiplarini osonlik bilan buzishi haqida xabar qilinadi. Shu jihatdan u zamonning haqiqiy farzandi bo'lgan.

Abu Tammom turli-tuman an'anaviy janrlarda ko'plab she'rlar qoldirgan. Biroq unga mashhurlikni nafaqat she'rlari, balki arab she'rlari antologiyasini yaratish borasidagi faoliyati ham keltirgan. Buning ustiga, o'zgalar asarlarini to'plovchi sifatida Abu Tammom shoirga qaraganda ko'proq didini namoyon etgan. Keyinchalik o'rta asr arab tilshunoslari u singari she'riy antologiyalar tuza boshladilar. Buning ustiga, Abu Tammom to'plamlari muqarrar ravishda ular uchun namuna bo'lib xizmat qilgan.

Abu Tammomning arab she'riy merosini to'plashga bo'lgan qiziqishi tasodifiy emas. U shoirning arab adabiy an'alariga sodiqligidan kelib chiqqan va muayyan feodal doiralarining arablarning qahramonona o'tmishida va qadimiy madaniyatidan arablarning ojizlashib borayotgan siyosiy va axloqiy obro'sini saqlab qolish uchun kurashda g'oyaviy qurol sifatida foydalanishga intilishini ifodalagan.

Tarixiy-adabiy nuqtai nazardan, Abu Tammomning bizgacha yetib kelgan antologiyalari orasida mashhur «Jasorat» kitobi («Kitab al-xamasa») eng qimmatlisidir. Uning oʻnta bobida bir necha yuz arab shoirlarining eng yaxshi sheʼrlari toʻplangan. Kitobning nomi arablarning qahramonliklari haqidagi sheʼrlari toʻplangan birinchi bobining nomidan olingan.

Abu Tammom oʻz sheʼrlarida qadimgi arab adabiyoti anʼanalarining davomchisi sifatida namoyon boʻlgan. Sheʼrlarining aksariyatini xalifalikning taniqli va obroʻli shaxslariga bagʻishlangan anʼanaviy madhiyalar tashkil qiladi. Ular tantanavor va ogʻir tavil uslubida yozilgan boʻlib, anʼanaviy tuzilishga egadir. Shoir haqiqatga mos kelmasa ham maqtalayotgan shaxsga badaviy arabning barcha fazilatlarini – oliyjanoblik, mardlik, sahiylik kabilarni tirkagan. Uni haddan tashqari maqtagan.

Abu Tammom, anʼanalarga sodiqligiga qaramay, taqlidchi shoirlarning madhiyalarida qolipga aylangan badaviy obrazlar tizimini ancha yangilagan. U oʻzidan oldin oʻtgan shoirlar odatda uslubiy iboralar yordamida bogʻlagan eng qadimgi qasidalaridagi qismlar tarqoqligiga batamom barham bergan hamda madhiyalarda toʻliq mantiqiy birlikka erishgan. Abu Tammom, shuningdek, marsiyalar va hajviyalar ham, qisqa falsafiy mazmundagi hamda vasf janridagi sheʼrlar ham yozgan. Bu asarlar anʼanaviy xususiyatga ega boʻlgan, Abu Tammom oʻz hajviyalarida odatda raqobatchilari (muvaqqiyatliroq shoirlar) yoki maqtovlar yogʻdirgan shoirga nisbatan uncha sahiylik koʻrsatmagan amaldorlar ustidan kulgan. Abu Tammomning mukofot uchun buyurtma boʻyicha yozgan marsiyalarida (ularda shoir vafot etganlarni maqtagan) odatdagi obrazlardan foydalanilgan boʻlib, baʼzan eskicha va soxta yangragan, ammo oʻziga yaqin odamlar (masalan, oʻgʻlining vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasi ifodali boʻlib, chuqur iztirobga toʻla).

Zamondoshlari Abu Tammomning vasf janridagi sheʼrlarini qadrlaganlar. Bu ayniqsa qahramonlik namunalari koʻrsatilgan, arablarning harbiy jasorati sharaflangan, urush harakatlari, qurol-yarogʻ, jangu jadal, qalʼani oʻrab olish kabilar tasvirlangan sheʼrlariga taalluqlidir.

Biroq Abu Tammomning qahramonona she'rlariga muayyan balandparvozlik va dabdaba xos. Uning xalifa al-Mu'tasimga atalgan madhi:

*U xuddi dengizga o'xshaydi, qay tomondan kelsang ham,
Uning tubi – xayrixohlik, sohillari esa – oliyjanoblikdir.*

Shubhasiz, Abu Tammomning eng yaxshi asarlari tabiatni ta'riflashga bag'ishlangan she'rlaridir. Ularda shoirning iste'dodi, boy hayoloti va kuzatuvchanligi to'liq namoyon bo'lgan. Abu Tammom tabiat go'zalligini butun nozik jihatlari bilan birga his qilibgina qolmay, balki tabiatning sirini aniqlashga, uning yashirin ma'nosini tushunishga urinadi:

*Bu dunyo – hayot manbaidir, bahor kelsa
Undan go'zalroq ko'rinish yo'qdir.*

Falsafiy tafakkurga moyillik Abu Tammomni zamondosh shoirlardan ajratib turgan. Falsafiy she'riyat yo'nalishi bo'yicha Abu Tammomni al-Mutanabbiy va al-Ma'ariyning ajdodlari deb hisoblash mumkin. Uning she'rlarida yunon falsafasining ta'siri seziladi. Ta'kidlash lozimki, Abu Tammom ham, uning an'analarini tiklashga intilgan keyingi hamfikrlari ham yunon va fors madaniyatining qudratli ta'siridan xoli bo'lmaganlar.

Abu Tammomning she'rlari ba'zan qadimgi arab folkloriga borib taqaladigan qisqa ifodali hikmatlarga boy, aksariyat qismida esa shoirning o'zi yaratgan bo'lib, keyinchalik ular maqollarga aylangan.

Abu Tammom qadimgi she'riyatga, birinchi navbatda o'zining sevimli shoiri Zuhayrga taqlid qilib, notiqlik san'atiga qiziqqan, arxaizmlar, eng murakkab til shakllaridan foydalangan. O'z she'rlarini son-sanoqsiz istioralar bilan bezagan. U odatdan tashqari obrazlar, she'rlari hatto zamondoshlari uchun ham ko'pincha tushunarsiz bo'lishiga olib kelgan o'xshatishlarni yaxshi ko'rgan. U badihona to'qigan falsafiy mazmundagi qisqa she'rlari yoki hikmatlari

tushunish qiyin bo'lgan og'ir madhiyalaridan ko'ra ko'proq she'riy qimmatga ega.

Al-Buxturiy (821–897). Yangi yo'nalishda ijod qiluvchi boshqa bir shoir al-Buxturiy bo'lib, u ham xuddi Abu Tammom singari qadimgi arab she'riyati bo'yicha yozgan o'z antologiyasi bilan shuhrat qozongan. Al-Buxturiy badaviylarning tayi qabilasidan chiqqan bo'lib, bolaligi Halab hududidagi Manbij qishlog'ida badaviylar orasida o'tgan. Yoshlik yillaridayoq bo'lg'usi shoir Abu Tammom bilan tanishgan va uning rahbarligida shoirlik asoslarini o'rgangan. Al-Buxturiy 20 yoshida Bag'dodga keladi va tez orada buyuk shoir sifatida taniladi. Xalifa al-Mutavakkil (847–861) o'ldirilganidan keyin boshlangan notinch vaqtda shoir murakkab siyosiy vaziyatda mohirlik bilan ish ko'rib, saroy shoiri bo'lib qola olgan.

O'sha zamondagi aksariyat shoirlar singari al-Buxturiy ham bemalol vijdoniga qarshi borgan. U Bag'dod xalifalari va ularga yaqin shaxslarning mavjud bo'lmagan fazilatlarini bemalol kuylayvergan, keyinchalik esa, agar buni siyosiy vaziyat talab qilsa, xuddi shunday muvaffaqiyat bilan o'z hajviyalarida ularning ustidan kulgan.

Abu Tammom kabi al-Buxturiy ham she'riy an'analarni tiklashga intilgan va aksariyat asarlarini (shoir asosan madhiyalar to'qigan) qadimgi arab she'riyati ruhida yozgan. Biroq shoirning shubhasiz iste'dodi tufayli uning qasidalari o'zidan oldin o'tgan shoirlarning she'rlariga oddiy taqlid bo'lmagan; ular katta she'riy xususiyatlari bilan ajralib turgan. Al-Buxturiy hatto madhiyada majburiy bo'lgan insoniy fazilatlarni (jasorat, donolik, sahiylik kabilarni) sanab o'tishda ham didsiz bo'rttirishlardan muvaffaqiyatli qochgan hamda birga olinganida haqiqatsimon obraz hosil qiladigan xarakter xususiyatlaridan chekinardi. Jonli portret chizishdek ushbu qobiliyat (hatto, ulug'lanayotgan shaxsga uncha o'xshamasa ham) al-Buxturiyni o'z zamonidagi boshqa shoirlardan ustun ko'rsatib turgan.

Al-Buxturiy maqto'v qasidalaridan tashqari vasf janrida ham bir qator ajoyib asarlar yaratgan. Shoirning tabiat vasfi soddaligi, tafsilotlarni ifodalashdagi

aniqligi bilan ajralib turadi hamda islomgacha bo'lgan davrdagi eng yaxshi qasidalarni, ayniqsa al-Buxturiy doimo qoyil qolgan Imru-l-Qaysning she'rlarini eslatadi.

Al-Buxturiy she'rlarida tabiatning tasvirlanishi nafaqat uning nozik, sof badaviy kuzatuvchanligidan, balki katta poetik fantaziyasidan ham dalolat beradi. Qadimgi arab she'riyati shaklidagi qat'iylik, «qadimgi davrga qaytish»ning boshqa shoirlari kabi, al-Buxturiy ijodida ham yoritiladi. Al-Buxturiy poetik manzaralarni yoritishda yorqinlikka, she'ning go'zal bo'lishiga intiladi, murakkab isteoralar, jonlantirib tasvirlashlarga murojaat etadi:

*Qish fasli shunchalar tez va bildirmasdan ketib qoldiki,
Xuddi qo'rqqanidan kiyimini almashtirib qochgan odamga o'xshaydi*

Al-Buxturiy me'moriy yodgorliklar: saroylar, masjidlar, favvoralar va shu kabilarni badiiy tasvirlash bilan shuhrat qozongan. Masalan, al-Buxturiy al-Mu'tazzaga yozgan madhiyasida xalifaning «al-Kamil» («Mukammal») nomli saroyini shunday tasvirlaydi.

Al-Buxturiy o'z she'rlariga mantiq qonunlarini kiritgan rasionalist shoirlarga sovuq munosabatda bo'lgan, ularning she'riyatiga tug'ma she'riy did va badiiy intuisiyaga ega Imru-l-Qaysning jonli ijodini qarshi qo'ygan.

She'riyatda mantiqni qabul qilmaslik al-Buxturiyning chuqur ma'noli falsafiy asarlar yaratishiga xalal bermagan. Shu jihatdan, uning she'rlari Abu Tammom asarlaridan qolishmagan.

Al-Buxturiy Abu Tammomga taqlid qilib o'z «Xamosa»sini – arab she'riyatidagi antologiyasini yaratgan. Biroq shoir unga unchalik qiziqarli bo'lmagan qadimgi arab shoirlarining asarlarini (asosan, didaktik mavzudagilarini) kiritgan. Shunday qilib, al-Buxturiy Abu Tammom bilan shoirlikda bimalol muvaffaqiyatli raqobat qilgan va, ehtimol, shoir sifatida undan ustun turgan al-Buxturiy, o'tgan shoirlarning asarlarini baholashda badiiy didi bo'yicha o'z ustozidan ortda qolgan.

Ibn ar-Rumiy (835–896). Al-Buxturiyning zamondoshi shoir Ibn ar-Rumiyning taqdiri fojiali bo'lgan. U Bag'dodda tug'ilgan va hayotining katta qismini o'sha yerda o'tkazgan. Shoirning otasi yunon, onasi fors bo'lgan. Tabiiy qobiliyatlari bo'lg'usi shoirga bolaligidayoq yunon falsafasi, matematika sohasida keng miqyosli bilimga ega bo'lish hamda islom ilohiyoti va arab tilini chuqur o'rganishda yordam beradi. Ma'lumotlilik shoirni butun hayoti davomida unga hamrohlik qilgan qayg'u va mahrumliklardan asramadi.

Ibn ar-Rumiy «qadimgi davrga qaytish» harakatining tarafdori bo'lmagan. U Bashshar ibn Burda yoki Abu Nuvas singari ushbu yo'nalishlarning faol dushmani ham bo'lmagan. U sof adabiy masalalarda betaraf bo'lsa-da, siyosiy kurashda mavl tarafida turgan.

Shoirning saroy a'yonlariga salbiy munosabati sir bo'lmagan va uni na xalifalar, na uning yaqinlari qo'llab-quvvatlamaganlar. Uning badiiy jihatdan o'rtacha darajadagi og'ir an'anaviy madhiyalari, homiy yetarlicha sahiy bo'lmagani aniqlangan zahoti, darhol yuqori martabali homiyga qarshi o'tkir hajviyalar bilan almashgan.

Shoirning shialarga xayrixohligi, arab zodagondan nafratlanishi va zaxarhandaligi uning hayotiga zomin bo'ldi. Xalifa al-Mu'tadidning buyrug'i bilan shoir zaharlab o'ldirildi.

Arablar Ibn ar-Rumiyning hajviya bobidagi iste'dodini yuksak baholaydilar va hajviy sifatida uni hattoki al-Hutey'i, al-Farazdaq va Jarirdan ham ustun qo'yadilar.

Ibn ar-Rumiy ayniqsa epigrammalar borasida muvaffaqiyat qozongan. Ularda shoir insondagi xunuklik, baxillik, nodonlik kabi nuqsonlar ustidan kulgan.

Ibn ar-Rumiy peyzaj she'riyatining buyuk ustasi bo'lgan. Tabiat shoirning nafaqt ijodiy kuchini uyg'otgan, balki turmushdagi ranj-alamlar vaqtida tabiatdan taskin topgan. Shoir tabiatni ongli kuch sifatida idrok etgan, uni jonli obrazlar orqali ifodalashdan foydalangan, ko'pincha inson hayotini tabiatdagi hodisalarga qiyoslagan.

Ibn ar-Rumiy noyob tasviriy iste'dodga ega bo'lgan. Uning badiiy tasvirlari (...jarayonlarini, harakatlarni, tabiat go'zalliklarini, turli-tuman hodisalarni tavsiflashi) shoirning nihoyatda kuzatuvchanligidan, tasvirlanayotgan narsalarning shakli va rangini his qila olishidan dalolat beradi.

Zamondoshlari bo'lgan va o'z she'rlarini atayin murakkablashtirgan hamda fikrlarini har doim ham tushunarli bo'lmagan shamalar bilan ifodalagan boshqa shoirlardan (Abu Tammomdan) farqli o'laroq, Ibn ar-Rumiy aniq-ravshanlik va batafsillikka intilgan. U o'z zamonidagi boshqa shoirlar kabi har bir baytning an'anaviy ma'no mustaqilligidan voz kechgan. Bu esa qasidaning ifodalash imkoniyatlarini kengaytirgan va unga mazmuniy yaxlitlik bag'ishlagan.

5.2. ADABIY JARAYON

Darsning maqsadi: O'rta asr arab adabiyotida adabiyotshunoslikka oid dastlabki asarlarni yozgan al-Jaxiz va Ibn al-Mu'tazz ijodi bilan tanishtiriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *"Kitab al-bade", tashbih, istiora, "Kitab al-hayavan", "Kitab al-bayan va at-tabyin", "Naqd ash-She'r"*.

Al-Jaxiz (775–868). «Qadimgi davrga qaytish» adabiyotida buyuk arab nasrnavisi va adabiy tanqidchisi, mu'taziliyaning asosiy arboblardan biri al-Jaxiz alohida o'rin tutadi. Abu Usmon ibn Baxrning laqabi «al-Jaxiz» («Lo'q ko'z») bo'lgan. U Basrada tug'ilgan. Bolalik yillaridayoq bo'lg'usi yozuvchi o'qishga qiziqdi va masjidiylar to'garagi – Basradagi katta masjidda birlashgan olimlar va adiblar to'garagiga kirdi. Keyinroq al-Jaxiz Bag'dodga ko'chib o'tdi, u yerda turli fanlar, ayniqsa yunon falsafasi (Arastu va boshqa mutafakkirlarning asarlarini) o'rganishda davom etdi. Bag'dodda al-Jaxiz o'zining adabiy faoliyatini boshladi. Uning iste'dodli adib ekani haqidagi gap-so'zlar xalifa al-Ma'mungacha yetib bordi. Xalifa al-Jaxiz asarlari bilan tanishgach, unga Abbosiylar hokimiyatining qonuniyligi haqida risola yozishni topshirdi va bu ishni bajarishi uchun uni o'z devoniga amaldor qilib tayinladi.

Al-Jaxizning diplomatik risolasi, uning quvnoqligi, hozirjavoblighi va bilimdonligi, shuningdek, arablarga xayrixohligi unga turli xalifalarning saroylarida muvaffaqiyatni ta'minladi. Al-Jaxiz Ibn az-Zayat (al-Mu'tasim va al-Vasiq kabi xalifalarning vaziri) davrida alohida hurmat qozondi. Ushbu vazir bilan yozuvchini yaqin do'stlik bog'lab turgan. Ibn az-Zayat ishdan bo'shagach (847) al-Jaxiz uning siyosiy va adabiy raqibi – bosh qozi Ahmad ibn Abu Du'ad va boshqa yuqori martabali shaxslar bilan do'stona munosabatlar o'rnatdi. Al-Jaxizning hurfikrliligi, mo'tazilizmi unga ortodoks-ilohiyotchilarning doimiy ravishda hujum qilishiga sabab bo'lgan. Biroq bu hujumlar barchaning hurmatini qozongan al-Jaxizning martabasiga jiddiy ta'sir ko'rsata olmagan. Faqat hayotining so'nggi yillariga kelib, mo'taziliya musulmon ilohiyotida yetakchi o'rinni butunlay yo'qotganidan keyin, al-Jaxiz Bag'dodni tark etdi va Basraga qaytdi. U yerda uzoq umr kechirib, vafot etdi.

Al-Jaxiz buyuk olim, ensiklopedik bilimlar egasi bo'lgan. Uning qalamiga o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan deyarli barcha fanlar (falsafa, ilohiyot, tarix, geografiya, etnografiya, tabiatshunoslik, kimyo, mineralogiya, matematika va boshqalar)ni qamrab olgan 200 ga yaqin asarlar mansub. Al-Jaxizning ilmiy ishlari deyarli har doim munozaralarga boy bo'lgan. Haqiqatni izlashda u faqat aqlga tayanishga harakat qilgan va ilohiy izohlardan qochgan. Al-Jaxiz ilmiy tadqiqotchilar uchun boshlang'ich nuqta sifatida eksperiment (tajriba) va kuzatishni tan olgan. U doimo dalillarni aniq ifodalashga hamda mulohazalarida mantiqqa qat'iy amal qilishga harakat qilgan.

Al-Jaxiz, Ibn al-Mu'tazz singari, – arab adabiyotining dastlabki nazariyotchilaridan biri. U hattoki arab uslubiyati va notiqlik san'ati masalalariga «Tushuntirishlar kitobi» («Kitab al-bayan va-t-tabiyin») kabi maxsus risolalar bag'ishlagan. Unda qiyosiy usuldan foydalanib va lingvistik prinsipga asoslanib, o'rta asr arab mualliflarining uslubi yuzasidan bir qator kuzatishlarini bayon etgan hamda suhandonlik namunasi sifatida ularning asarlaridan parchalar keltirgan. Al-Jaxiz «yangilanish harakati» tarafdorlariga qarshi chiqib, arablarning nihoyatda yuksak notiqlik qobiliyatini, badiiy uslub sohasidagi nozik hissiyotini ta'kidlagan.

Al-Jaxiz ilmiy masalalarga katta qiziqish bildirgani hamda ko‘plab ilmiy asarlar yozganiga qaramay, arab madaniyati tarixiga u avvalo o‘zining badiiy asarlari bilan kirgan. Al-Jaxizning badiiy ijodini tushunish uchun uning siyosiy qarashlarini anglash nihoyatda muhim.

Al-Jaxiz abbosiylar xalifaligining qat’iyatli himoyachisi sifatida namoyon bo‘lgan va hattoki o‘rta osiyolik turkiy yollanma askarlarni xalifalik hokimiyatining tayanchi sifatida keng jalb qilish haqidagi fikrlarini bildirgan.

Al-Jaxizning bizgacha yetib kelgan adabiy asarlariga avvalo uning hajviy ruhdagi «Kvadratlik va aylanalik haqidagi noma» («Risalat fi-t-tarbiy va-t-tadvir») kiradi.

Badiiy nuqtai nazrdan, al-Jaxizning eng katta asari «Baxillar haqidagi kitob» («Kitab al-buxala») bo‘lib, u ziqnalik va sahiylik haqidagi munozarali nomalarning, qurumsoq odamlar haqidagi hikoya va latifalarning tartibsiz to‘plamidir. Ushbu hikoyalarning qahramonlari sifatida odatda forslar – Xuroson viloyati va O‘rta Osiyodagi Marv shahrining aholisi, shuningdek Bag‘dod hokimiyatiga doimo muxolif bo‘lgan yarmi shia, ko‘p millatli Basra ahli ko‘rsatiladi.

«Baxillar haqidagi kitob» – hajviy asar. Unda o‘quvchining ko‘z o‘ngidan turli kimsalar – savdogarlar va ziroatchilar, olimlar va ilohiyotchilar, firibgarlar va qashshoqlar o‘tadi. Al-Jaxiz hikoyalaridan birida ahmoqona nutqlar so‘zlovchi aqidaparast ilohiyotchini tasvirlaydi, boshqasida Basralik masjid olimlari, ziqna va ezma, kun bo‘yi olov chiqarishning eng tejamkor usullari haqida bahs yuritish bilan shug‘ullanuvchi basralik masjid olimlari ustidan kuladi, uchinchisida qaysidir olimning andishasiz ochofatligi haqida so‘z yuritadi, to‘rtinchisida – boy ammo xasis kishining ustidan kuladi, uning tilidan Qur’on va hadisga asoslangan holda baxillikni himoya qiluvchi so‘zlarini keltiradi.

Biroq al-Jaxizning kitobi – inson nuqsonlarining oddiygina tavsifidan kattaroq narsa. Baxillarning xatti-harakatini, ularning intilishlarini, mulohaza va dalillarini tahlil qilgan al-Jaxiz inson xarakterini nozik tushunishini, aql ko‘pincha yurakning «xizmatkori»gina bo‘lib qolishini tushunishini ko‘rsatadi. Al-Jaxiz

kitobning muqaddimasida o‘quvchilarga baxillar haqidagi kulgili hikoyalar va ularning «hiylakor asoslarini» aytib berishni va’da qiladi. Darhaqiqat, «baxillar haqidagi kitob»ning aksariyat epizodlarida nafaqat baxillik, balki ularning mantig‘i, «dalil va mulohazalari» kulgiga olinadi. Bular kitobning eng yorqin sahifalaridir.

«Baxillar haqidagi kitob»da ancha keskin ijtimoiy tanqid bor. Kitobning qahramonlaridan biri – basralik boy yer egasi as-Sauriy sudxo‘rlik bilan shug‘ullanadi – har narsada tejayveradi: yalangoyoq yuradi, uydagilarni xurmoni danagi bilan yeyishga majbur qiladi va hokazo. Boshqa bir qahramon – boy Ahmad ibn Xalaf o‘zining baxilligi bilan shuhrat topganidan xursand, chunki bunday «orzu» uni pul so‘rovchilarning tixirligidan saqlaydi. Uchinchi qahramon – baxil uy egasi bo‘lib, nodonligi va ziqnaligi uning ijarachiga qarshi kulgili nutqida ochib beriladi.

Al-Jaxizning obrazlari to‘laqonli va yorqin. Qahramonlarining tili aniq soddalashgan.

«Baxillar haqidagi kitob» nafaqat adabiiy, balki, shubhasiz, tarixiy madaniy qadriyatdir. Unda o‘sha davrdagi jamiyatning iqtisodiy va madaniy ahvoli, turmushi va axloq-odobi tasvirlangan.

Al-Jaxizning «Hayvonlar to‘g‘risidagi kitobi» («Kitab al-hayvan») asari biroz boshqacharoq xususiyatga ega. Bu *adaba* janridagi ilk asarlardan biridir (qiziqarli va umumta’lim ahamiyatiga ega bo‘lgan, ilmiy-ommabop, didaktik va badiiy adabiyot chegarasidagi kitob).

Ushbu kitobida al-Jaxiz o‘quvchiga qiziqarli shaklda hayvonlar haqidagi turli ma’lumotlarni keltiradi. Unda arab, fors va yunon yozuvchilari hamda Aristotelgacha bo‘lgan barcha mutafakkirlarning asarlaridan parchalar, hayvonlar haqidagi turli maqollar, hikmat va she’rlar, Qur’ondan sharhlab berilgan parchalar, Bibliya rivoyatlari va boshqalar keltirilgan.

Al-Jaxiz o‘zining xarakterining nozik tomonlarini boshqa asarlarida bo‘lgani kabi, qiziqarli tarzda bayon etishga harakat qilib, doimiy ravishda kompozision birlikni buzadi va asosiy mavzudan chekinadi. Muallif hayvonlar haqida hikoya

qilayotganida axloq, din, psixologiyaning turli-tuman masalalariga to'xtaladi. Al-Jaxiz kitobni hayvonlarni yaratayotganida shunchalik oqilonalikni namoyon etgan, ularga aql va hiyla bergan Allohning donoligi va qudratini sharaflash bilan yakunlaydi.

Al-Jaxiz arab badiiy nasrsi tarixida katta rol o'ynagan. Aytish mumkinki, u arab adabiyotidagi birinchi haqiqiy hajviydir. Bayonning qiziqarliligi, mavzularning xilma-xilligi va o'ziga xosligi unga jamiyatning turli tabaqalarida mashhurlikni ta'minladi. Bag'dod va Basra ahli al-Jaxiz qahramonlarida hech bir qiyinchiliksiz o'z zamondoshlarini ko'rib olardilar. Adabiyot tarixida birinchi marta zamonaviy mavzudagi nasriy asarlar paydo bo'ldi. Ularda o'sha vaqtdagi axloq manzaralari keltirilgan va ijtimoiy hayot asoslari tanqid qilingan. Keyinchalik ko'plab arab yozuvchilari (Ibn Qutayba, Ibn Abd Rabbixi, maqoma mualliflari va boshqalar) al-Jaxiz asarlarining mavzulari, uslubi va tuzilishiga taqlid qilishga harakat qilganlar.

Ibn al-Mu'tazz. Arab o'rta asr she'riyatini umumiy tasvirlashda yorqin va o'ziga xos shoir hamda IX asr oxirining adabiy tanqidchisi, «bir kunlik xalifa» Ibn al-Mu'tazz (861–908)ga to'xtalmaslik mumkin emas. Xalifa al-Mu'tazzning (866–869) o'g'li bo'lgan bu shoir hayotining katta qismini otasining saroyida, so'ngra xalifaning amakivachasi al-Mu'tadid (892–902) huzurida o'tkazgan. Abbosiylar xalifasi al-Muktafiy (902–908) vafotidan keyingi notinch kunlarda u voqealarning oddiy guvohi bo'lib qolmadi va hokimiyat uchun kurashda ishtirok etdi. U saroy a'yonlarining bir qismi yordamida taxtni egallab oldi va bor-yo'g'i bir kun (908 yil 17 dekabr kuni) hokimiyat tepasida qoldi, so'ngra xalifa al-Muktadir tarafdorlari tomonidan taxtdan tushirildi va 908 yil 29 dekabr kuni qatl etildi.

Ibn al-Mu'tazz yaxshi tilshunoslik maktabini o'tagan. Uning o'qituvchilari orasida Basra, Kufa va Bag'dodning taniqli olimlari (al-Mubarrad, Sa'lab va boshqalar) bo'lgan. U o'sha zamon she'riyatining uslubi tahlil qilingan arab adabiyotiga oid dastlabki risolalardan biri bo'lgan «Yangilik haqidagi kitob» («Kitab al-badii»)ning muallifidir. Ibn al-Mu'tazz birinchi bo'lib arab

tilshunosligiga notiqlik bo'yicha izchil, puxta o'ylangan terminlarni kiritgan, o'z risolasida yangi she'riy uslub, she'riy fonetika kabi masalalarga to'xtalgan.

Ibn al-Mu'tazz o'zidan keyin ham an'anaviy, ham yangi janrlarda bir qator asarlar qoldirgan buyuk shoir bo'lgan. Unga arab adabiyotidagi qasidalardan biri uning qalamiga mansub bo'lib, unda xalifa al-Mu'tadidning hayoti va faoliyati haqida hikoya qilinadi.

Ibn al-Mu'tazz madhiyalar yozmagan – uning yuqori martabasi sadaqa olish uchun saroy amaldorlariga xushomad qilish zaruratidan xalos qilgan. O'rta asr arab she'riyatining boshqa janrlari (tabiat tavsifi, ishqiy she'rlar, may haqidagi qo'shiqlar va hokazo) uning devonidan keng o'rin olgan. Bunda qadimgi arab she'riyatining an'anaviy obrazlari hamda «yangilanish» adabiyotining o'ziga xos jihatlari uning ijodida shu qadar uyg'un ifodalanganki, uning she'riyatida keyinchalik al-Mutanabbiy va al-Ma'arriy ijodida unumli yakunlangan o'ziga xos badiiy uyg'unlik tug'ilgani haqida so'z yuritish mumkin.

Ibn al-Mu'tazzning eng yorqin va poetik asarlariga uning vasf janriga mansub qisqa (2–3 baytli) she'rlari kiradi. Oy haqida o'xshatish:

*Sen – kumushdan quyilgan o'roqqa o'xshaysan,
Tunda ochiladigan nilufar gullarini o'rasan.*

*Somon yo'li – irmoq qirg'oqlari chinni gullar bilan qoplangan,
Oy esa, bilakuzuk yarmidir*

*Tonggi shabboda shabnam sirlarin ochdi,
Bog'larda rayhon gullari islarin sochdi*

Ibn al-Mu'tazz tabiatni tavsiflashda nihoyatda zo'r did va boy tasavvurni namoyon etgan. Zamondoshlari uni «she'riyat amiri» («amir ash-shi'r») deb bejiz atamaganlar. Ibn al-Mu'tazzning she'rlari ifodali istioralarga to'la bo'lib, ularning nozikligida zamondoshlaridan hech kim unga bas kela olmagan.

Ibn al-Mu'tazzning may haqidagi she'rlari ham go'zallikda qolishmaydi. Abu Nuvas xamriyati katta ta'sir ko'rsatganiga qaramay, ibn al-Mu'tazzning may haqidagi qo'shiqlarida she'riy fantaziyalar, kutilmagan go'zal qiyoslar ko'p.

Ibn al-Mu'tazz o'tmishdoshlarining uslubiy yo'llaridan keng foydalanganiga qaramay, she'rlari shaklining mukammalligi, ularning oddiyligi va go'zalligi shoirga o'rta asr arab she'riyatidagi iste'dodli shoirlardan biri degan munosib shon-sharafni keltirgan.

Qudama Ibn Ja'far (888-948) Ibn al-Mu'tazzning zamondoshi Abul Faraj Qudama Ibn Ja'far 888 yilda Basrada tug'ilgan bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra oromiydir. Olim o'zining ilmiy faoliyati bilan arab filologiyasi va geografiya fanlarida chuqur iz qoldirgan. Uning qalamiga mansub "Naqd an-Nasr" ("Nasr tanqidi") va "Naqd ash-She'r" ("She'riyat tanqidi") asarlari mavjud. Qudamaning "She'riyat tanqidi" asari 1884-1885 yillarda Konstantinopolda arab tilida nashr qilingan. I. Yu Krachkovskiy o'zining "IX asr arab she'riyati" asarida Qudamaning bu ishiga yuksak baho bergan. U shunday yozgan edi: "Qudamaning arablarda adabiy nazariyaning rivojida roli e'tiborga sazovordir. Al-Jaxiz va Ibn al-Mu'tazzning asarlari kabi bu risola ham arab she'riyati tarixi, umuman IX asr arab adabiy harakati jarayonida juda muhimdir".

Qudama Ibn al-Mu'tazzdan farqli o'laroq u nafaqat poetik fazilatlar kategoriyalarini tekshirdi, balki poetik nuqsonlarni ham ko'rib chiqdi. Bu Qudamaning arab she'riyati nazariyasiga qo'shgan muhim hissasidir.

Seminar mashg'ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. Al-Jaxizning arab badiiy nasri tarixidagi o'rni.
2. «Kitab al-hayavan» asarining muallifi kim?
3. «Baxillar haqidagi kitob» qanday asar?
4. «Yangilik haqidagi kitob» asari kim tomonidan yozilgan?
5. Qudama Ibn Ja'farning "Naqd ash-She'r" asari.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Ibn al-Mutazzning "Kitab al-adab" asari.
2. Ibn al-Mutazzning hayoti va ijodi.

3. Al-Jaxizning “Baxillar haqida”gi kitobi xususida.

VI BOB. ADABIY TARAQQIYOT DAVRI

6.1. SHE’RIYAT – AL-MUTANABBIY IJODI

Darsning maqsadi: Mazkur davrda ilm-fan, adabiyot rivoj topdi. She’riyat bobida al-Mutannabiy ijodi o’rganiladi.

Tayanch so’zlar va iboralar: «*Shamiyat*», «*Suriya she’rlari*», «*Sayfiyat*», “*Kafuriyot*”, “*Adudiyot*”.

X asrda xalifalikning parchalanish jarayoni yakun topdi. Bag’dodlik xalifalar bir vaqtlar mavjud bo’lgan qudratining oxirgi qoldiqlarini yo’qotdilar. Xalifalikning aksariyat viloyatlari anarxiya girdobiga cho’mdi. Xalifaning sarkardalari va ayrim viloyatlarning noiblari Bag’dodni nomigagina davlat va umummusulmon markazi deb tan olgan holda, huquqiy mustaqillikni qo’lga kiritish uchun kurashdilar. G’arbiy Eronda yuzaga kelgan Buidlar sulolasi, jangari deylemitlarga tayangan holda, butun Eronni, 945 yilda esa Iroqni Bag’dod bilan birga egallab oldilar. Abbosiylar har qanday siyosiy hokimiyatdan batamom mahrum bo’ldilar va faqat musulmon jamoasining diniy rahbarlari vazifasinigina saqlab qoldilar. Ayni vaqtda, Shimoliy Suriya Halab bilan birga Sayf ad-Davla (944–967) siymosida Hamdaniylar sulolasining, Misr esa Ixshidiylar sulolasining hukmronligiga o’tadi. Ixshidiylar nomidan sarkarda Kafur (vafoti 968) davlatni boshqaradi.

Xalifalikning parchalanishi adabiyotga ko’proq foydali ta’sir ko’rsatdi. Mafkuraning barcha sohalarida keskinlashgan kurash turli-tuman ma’naviy faoliyatlarga turtki berdi. O’zaro raqobatlashgan hamda bir-birini madaniyatning barcha sohalarida ortda qoldirishga intilgan mayda davlatlar hukmdorlari olimlar va shoirlarni saroyga jalb etib, sahiylik bilan mukofotlar edilar. Tabiiyki, boshqa shaharlar ichida madaniy markaz sifatida ko’proq xalifalar qarorgohi Bag’dod, Hamadoniylar davlatining poytaxti Halab (ayniqsa Sayf ad-Davla hukmdorlik

qilgan davrda), shuningdek Somoniylar davlatining markazlari, ham arab, ham fors tilida adabiyot gullab yashnagan Buxoro va Samarqand shuhrat topdi.

X–XII asrlar arab adabiyoti tarixida eng unumli davr bo‘ldi. Aynan shu davrda qahramonlik she‘riyati o‘zining oxirgi vakili bo‘lgan taniqli o‘rta asr shoiri **al-Mutanabbiy** ijodida o‘zining cho‘qqisiga erishdi. Falsafiy she‘riyat buyuk faylasuf shoir **Abul Ali al-Ma‘arriy** ijodida yorqin ifodasini topdi, ishqiy va diniy lirika ash-Sharif ar-Radiy she‘riyatida yorqin namoyon bo‘lgan. Nihoyat, tasavvufning borgan sari tarqalib borishi natijasi bo‘lgan sufiylik she‘riyati ushbu adabiy oqimning eng katta arab vakili Ibn al-Farid asarlarida eng yuksak cho‘qqisiga chiqdi. She‘riyat bilan bir qatorda badiiy nasr ham rivoj topdi. X asrning ikkinchi yarmida maqoma janri – nozik qofiyali nasrda yozilgan qisqa latifalar yuzaga keldi. Maqomalarning eng mashhur mualliflari al-Xamazaniy va al-Haririy bo‘lganlar. Faqat bilimdon tinglovchigina tushunadigan nozik maqoma janri bilan bir qatorda «demokratik» adabiyot – xalq romani (uning eng ajoyib namunalardan biri deb «Antaraning hayoti» asarini hisoblash mumkin), shuningdek «Ming bir kecha» asarida eng to‘liq ifodalangan shahar novellasi – muvaffaqiyatli rivojlandi. Nihoyat, shu davrga adaba nomli adabiyotning rivojlanishi kiradi. O‘z xarakteriga ko‘ra turli-tuman bo‘lgan adaba asarlarida ilmiy (geografiya, tarix kabilarga oid) bilimlar ommalashtirildi. Materialni bayon etish xususiyatlari (qiziqarlilik, adabiy chekinishlar) bizga bir qator hollarda adaba asarlarini badiiy nasrga kiritish imkonini beradi.

X–XII asrlarda arab adabiyotining gullab-yashnashi xalifalikdagi ko‘plab xalqlarning ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bu davr adabiyoti ko‘plab avlodlar davomida har xil xalqlar yaratgan eng yaxshi jihatlarni birlashtirdi. X–XII asrlar arab adabiyoti g‘oyalari xilma-xilligi va chuqurligi hamda shakllari boyligining sababi ushbu sintezdadir.

Al-Mutanabbiy (915–965). Sintez davriga mashhur arab shoiri Abu-t-Tayyib Ahmad ibn al-Husayn al-Mutanabbiy ijodi taalluqlidir. U Kufa shahrida kambag‘al suv tashuvchi oilasida tug‘ildi. Uning oilasi Janubiy Arabiston badaviylaridan kelib chiqqan edi. 925 yilda bo‘lg‘usi shoir, Karmatlar shaharga

bostirib kirganligi bois, Kufadan Suriyaga qochgan va badaviylar orasida ikki yil yashagan. Ko‘chmanchilar ichida yashash ko‘p jihatdan shoirning siyosiy va badiiy xohish-irodasini belgilab berdi, shuningdek uning dunyoqarashida chuqur iz qoldirdi. Qabilada shoir badaviylar xarakterini yaxshi ko‘rib qoldi hamda badaviylar orasida katta shaharlardagiga qaraganda yaxshiroq saqlanib qolgan arab adabiy tili borasidagi bilimlarini takomillashtirdi.

928 yil oxirida shoir Bag‘dodga ko‘chdi. Shu davrda yuzaga kelgan uning dastlabki she‘riy tajribalari Bag‘doddagi bilimdon jamoaning e‘tiborini tortmadi.

Bag‘dodda karmatlar harakati «tenglashtirish» g‘oyalari bilan kambag‘al, ammo izzattalab yosh shoir oldida katta imkoniyatlar ochar edi. Shu bois u ana shu oqimga qo‘shildi. Xalifalikning barcha viloyatlarida qo‘zg‘olonlar bo‘lib turgan alg‘ov-dalg‘ov o‘sha zamonda shoirni siyosiy maydonda shuhrat topish imkoniyati o‘ziga tortdi. Buning ustiga, uning dastlabki adabiy tajribalari muvaffaqiyat qozonmayotgan edi. 933 yilda shoir karmatlar harakatining ayrim arboblari bilan tanishdi hamda shia-karmat va‘zlari bilan dastlab Kufada, so‘ngra Suriya badaviylari oldida nutqlar bilan da‘vatlar qildi. Al-Mutanabbiyning da‘vat qiluvchi faoliyati tafsilotlari bizga ma‘lum emas, ammo, arab biograflarining guvohlik berishicha, aynan ana shu faoliyat tufayli shoirning «al-Mutanabbiy» («Soxta payg‘ambar») laqabi kelib chiqqan. Adabiyotda bugun ham u mana shu laqabi bilan ma‘lum. Shoir o‘zining shia-karmatiya ruhidagi chiqishlari hamda badaviylar orasida hur fikr so‘lar aytgani uchun, manbalarning dalolat berishicha, ikki yil qamoqda saqlangan.

Al-Mutanabbiy ijodining 20 yilni (928–948) qamrab olgan birinchi davri uning Suriya bo‘ylab sayohatlari yillariga to‘g‘ri keladi. «Shamiyat» («Suriya she‘rlari») deb atalgan ushbu davr she‘rlarida alg‘ov-dalg‘ov zamonning kuchli ta‘siri seziladi. «Suriya she‘rlari» qahramonlik xarakterida yozilgandir. Suriya davri oxirida muvaffaqiyatsizliklar va umidsizliklar ta‘sirida al-Mutanabbiyning she‘riyatiga qayg‘u motivlari paydo bo‘ladi.

Siyosiy maydondagi muvaffaqiyatsizliklar shoirni shuhratparastlik fikrlaridan voz kechishga va o‘zini butunlay shoirlik faoliyatiga bag‘ishlashga

majbur qildi. U ijodining birinchi bosqichidayoq qisqa vaqt mobaynida xalifalikning Suriyadagi sarkardasi Badr ibn Ammarning shoiri bo'lgan. Shoirning u bilan «mamlakatda g'ulg'ula solayotgan» forslarga bo'lgan nafrat yaqinlashtirardi. 948 yilda al-Mutanabbiy Halablik mashhur hukmdor Hamdaniy Sayf ad-Davla saroyiga ko'chib o'tdi. Uning homiyligidan ko'plab adiblar va olimlar foydalanardilar. Bu yerda al-Mutanabbiy ijodining yangi davri (948–957) boshlandi. Biograflarning dalolat berishicha, shoir Sayf ad-Davlaning yaqin do'sti bo'lgan va uning Vizantiyaga hamda badaviy ko'chmanchilarga qarshi yurishlarida unga hamrohlik qilgan.

Bu davr she'rlari «Sayfiyat» to'plamini hosil qiladi va al-Mutanabbiy she'riy devonining deyarli 1/3 qismini tashkil etadi. Ularning aksariyati Sayf ad-Davlagaga bag'ishlangan madhiyalardir:

*Agar davlat uni yordamga chaqirsa, u unga yordam beradi,
Chunki u qilich, qo'l va yurakdir.*

«Shomiyat»ni to'ldirgan shuhratparast maqtanchoqlik o'rnini, al-Mutanabbiyning fikricha, arab vatanparvarligi g'oyasini ifodalagan hamda jangchi fazilatlariga ega bo'lgan hukmdorni maqtash egallaydi. Al-Mutanabbiyning qat'iy fikricha, aynan Sayf ad-Davla arablarning sobiq shon-sharafini tiklashi hamda ularni qudratli davlatga birlashtirishi kerak edi. Ushbu qasidalarda shaxsiy muvaffaqiyat motivlari umumarab g'oyalarini amalga oshirish haqidagi orzular oldida keyingi o'ringa ko'chgan. Boshqa bir qasidasida al-Mutanabbiy Sayf ad-Davlaning vizantiyaliklarga qarshi yurishi haqida o'z qasidasida hikoya qiladi. Biroq Sayf ad-Davla al-Mutanabbiyning umidlarini oqlamadi, parchalanib borayotgan davlatni birlashtirish va arablarning eski obro'sini tiklash uning qo'lidan kelmadi.

Sayf ad-Davla saroyida al-Mutanabbiy doimiy ravishda o'zining g'oyaviy raqiblari va adabiyotdagi raqiblari, jumladan, taniqli shoir Abu Firas bilan kurash olib borishiga to'g'ri keldi.

Al-Mutanabbiyning saroydagi raqiblariga qarshi e'tirozi oxir-oqibatda ularning biri bilan bevosita to'qnashuviga olib keldi. Kunlardan bir kun Sayf ad-Davla huzuridagi oqshomgi suhbat chog'ida Ibn Xalavayx al-Mutanabbiyga tilshunoslik xususiyatiga ega bo'lgan e'tiroz bildirdi. Bunga javoban shoir: «Axir sen arab emas, fors bo'lsang... Arab tilini qaerdan ham bilarding!», – degan. G'azablangan Ibn Xalavayx al-Mutanabbiyning boshiga og'ir kalit bilan bir urgan. Sayf ad-Davla esa saroy a'yonlari shoirga qarshi qayrab qo'ygani uchun uning yonini olmagan. Shundan keyin o'ziga bino qo'ygan al-Mutanabbiy Halabni tark etishga majbur bo'lgan. U Misrga hamadoniylar bilan Suriya tufayli dushmanchilik qilayotgan Kafur rahbarligidagi Ixshidiylar saroyiga jo'nab ketgan.

Kafur huzurida shoir saroy shoiri vazifasini bajargan va o'zi suymagan hukmdor oldida har tomonlama xushomad qilishga majbur bo'lgan. «Men senga bo'lgan muhabbatimni yengishga harakat qilaman, ammo muhabbatim menga qaraganda kuchliroq» deb xushomad bilan murojaat etgan edi shoir Kafurga o'zining Misrda yaratilgan «Kafuriya» turkumidagi qasidalaridan birida. Ba'zi manbalarning guvohlik berishicha, al-Mutanabbiy Kafur uni viloyatlardan biriga hokim etib tayinlashidan umidvor bo'lgan, ammo uning bunday shuhratparast umidlari bu yerda amalga oshmagan. Kafur shoirga quyidagicha hazil gap qilganligi aytiladi: «al-Mutanabbiy yoshligida Muhammad bilan teng payg'ambar bo'lishni istagan. Endi esa u Kafur bilan birga hukmdorlik qilmoqchi». O'z homiysidan xafsalasi pir bo'lgan al-Mutanabbiy yashirincha Misrdan qochadi va Kafurga nisbatan bir nechta zaharxanda hajviya yozadi.

Oxirgi yillarni (962–965) al-Mutanabbiy Iroq va Eron bo'ylab sargardonlikda o'tkazgan. Shoir Bag'dodda, Janubay Eronda – Buidlar vaziri Ibn al-Amid qarorgohida ikki marta, nihoyat, Sherozda, ya'ni taxminan yarim yil mobaynida Buid hukmdori Adud ad-Davlaning saroy shoiri bo'lgan joyda yashagan. Shu bois ijodidagi oxirgi davr she'rlari «Adudiya» deb nomlangan.

Jonajon Iroq sog'inchi shoirni Sherozni tark etishga majbur qilgan va 965 yil sentyabr oyida Bag'dodga ketayotganida o'z qasidalaridan birida opasining

ustidan kulgan shaxs tomonidan o'ldirilgan. Shoirning Vatani Suriyaga bo'lgan sog'inch to'la eng yaxshi qasidalar Sheraz davriga to'g'ri keladi.

Al-Mutanabbiyning xarakteri alg'ov-dalg'ov sharoitdagi davrda shakllangan. U shuhratparastlik, mag'rurlik, takabburlik illatiga chalingan edi:

Men qabilam bilan faxrlanmayman, u men bilan faxrlanadi.

Men bobolarim bilan emas, o'zim bilan g'ururlanaman.

Al-Mutanabbiy butun umri davomida xatib yoki siyosiy arbob roli haqida orzu qilgan, doimo ulkan rejalar, amalga oshmas umidlar bilan yurgan. Natijada tez orada afsuslanib qolgan.

Sayf ad-Davla va vizantiyaliklar o'rtasida urush bo'lgan davrda dinga nisbatan betaraf bo'lgan al-Mutanabbiy vatanparvarlik mulohazalari nuqtai nazaridan o'zining islomga tarafdor ekanligini ko'p bora aytgan. Arab bo'lmagan shoirlarning hujumlaridan o'zini himoya qilgan shoir ularning forslar, yunonlar, suriyaliklarning madaniy jihatdan ustunligi haqidagi so'zlarini rad etgan hamda arablarning (ayniqsa, Janubiy Arabiston yigitlarining) harbiy jasorati, saxovati, yuksak aqliy qobiliyatlarini ko'rsatgan holda ularning ma'naviy xislatlarini har tomonlama maqtagan:

Kimki kuch bilan biror narsani qo'lga kiritisa,

U hech qachon iltimos qilmaydi.

Al-Mutanabbiyning she'riy asarlarining aksariyat qismini madhiyalar tashkil qiladi. Shoir o'z davridagi boshqa shoirlar kabi nomunosib shaxslarni maqtashga majbur bo'lgan hamda maosh izlab saroylar ostonalariga bosh urishdan qaytmagan. Al-Mutanabbiy madhiyalarining tuzilishi an'anaviydir. Dastlab lirik muqaddima keladi, unda shoir badaviy qizlarning go'zalligini kuylaydi, badaviylar turmushini, ot yoki atrof tabiatni tasvirlaydi. So'ngra o'z maqtovlarni boshlaydi.

Al-Mutanabbiyning «Shomiyat» va «Sayfiyat» turkumidagi madhiyalari tuzilishi jihatdan oʻzaro farq qiladi. Birinchisi koʻpincha oʻzini maqtashdan – faxrdan boshlansa, ikkinchisi, aksincha, koʻpincha umuman lirik muqaddimaga ega boʻlmagan va bevosita Halab hukmdorini ulugʻlashdan boshlangan.

Saroy sheʼriyati qonunlariga qarama-qarshi oʻlaroq, al-Mutanabbiy madhiyalarida (ayniqsa dastlabkilarida) shoir shaxsi orqa oʻringa oʻtmagan – shoirning his-tuygʻulari, kechinmalari ularda katta oʻrin tutgan. Deyarli barcha qasidalarida al-Mutanabbiy oʻzining jasurligi, shoirlik isteʼdodi, sheʼrlarining zoʻrligi, mashhurligi haqida faxrlanib yozgan («Men uyqu vaqtida atrofida ajoyib sheʼrlar toʻlib-toshadigan odamman!» – deb yozadi shoir).

Al-Mutanabbiy hajviya janriga juda kam murojaat etgan va odatda nihoyatda gʻazablangan taqdirdagina foydalangan. Shu bois uning hajviy sheʼrlari nihoyatda zaharxanda.

Har xil turdagi tavsiflar al-Mutanabbiy qasidalarida ancha koʻp uchraydi. Madhiyada ular goʻyoki asosiy mavzu uchun fon yaratadi, muayyan ustqurma vazifasini bajaradi.

Biroq badaviy sheʼriyatdan farqli ravishda, al-Mutanabbiyning tavsiflari doimo qatʼiy belgilangan badiiy qimmatga ega. Agar al-Mutanabbiy hayvonni tasvirlasa, bu yo ulugʻvor sher, yo qudratli ot, yo chidamli tuya, qisqasi, kuchli va ulugʻvor hayvonlar boʻladi, yaʼni ularning xislatlarini maqtalayotgan shaxs jihatlariga qiyoslash mumkin boʻladi. Garchi shoir odatdagi qadimgi arab obrazlaridan foydalansa ham, uning tavsiflari shoirning kuzatuvchanligi va sheʼriy his-hayajoni tufayli yangilik va yorqinlik kasb etadi.

Al-Mutanabbiyda haqiqatan ham epik xususiyatga ega boʻlgan jang manzaralari, ayniqsa, koʻp va boʻyoqdordir. Ular Abu Tammomning eng yaxshi tavsiflaridan qolishmaydi. Arab tanqidchiligi barcha zamonlarda ularni obrazlilik jihatidan nuqsonsiz deb hisoblagan.

Al-Mutanabbiy bir qancha marsiyalar ham yozgan. Ular, arab tanqidchilarining fikricha, badiiy jihatdan uning madhiyalari va hajviyalaridan past darajada turgan. Marhum haqidagi xotiralarda marsiyaviylik gʻam-gʻussa

tonini qahramonlik she'rlariga o'rgangan shoir unchalik yaxshi aks ettira olmagan. Marsiyalarda shoir yo taqdir va o'lim haqidagi falsafiy, tushkun mulohazalarga berilgan, yo ko'proq madhiyalarda qabul qilinganidek, marhumni maqtashga o'tgan.

Al-Mutanabbiy ijodi badaviy she'riyati an'analari bilan ham, «qadimgi davrga qaytish» she'riyati bilan ham chambarchas bog'liq.

Noyob shoirlik iste'dodi, kuzatuvchanlik va aql jonliligi al-Mutanabbiyga badaviylik she'riyatidagi cheklanishlarni va ko'plab taqlidlarni yengishiga yordam bergan. Uning she'rlari mazmunini zamon, insonning xarakteri tashkil qilgan, buning oqibatida ularda shoirning hayotiy kuzatishlari ham, ko'pgina amaliy g'oyalari ham badiiy ifodasini topgan. Al-Mutanabbiy arab shoirlik texnikasining barcha imkoniyatlaridan keng foydalanib, o'lib borayotgan mumtoz qasidaga yangi hayot bag'ishladi, ohangdorlik va kuch berdi. U alohida baytlarga shu qadar katta she'riy mazmun bera olganki, ularning aksariyati keyinchalik ajoyib hikmatlar va maqollar tarzida mustaqil hayot kechira boshladi.

Arablar barcha zamonlarda al-Mutanabbiyning shoirlik mahoratini yuksak qadrlaganlar. Uning qasidalarida an'anaviy she'riyat tarafdorlarini badaviy ruh o'ziga tortgan, ular hatto shoirni aytish qiyin bo'lgan, «keskin» tovush birikmalari va og'ir qofiyalari uchun kechirganlar. «Yangilanish» tarafdorlarini uning ijodida obrazlarni tuzish mahorati, ularning harakatchanligi, inson xarakteriga qiziqish o'ziga tortgan. Ikkala oqim tarafdorlariga shoir she'rlaridagi lo'ndalik, shakl yaxlitligi, iboralarning aniqligi, she'rning musiqaviyligi ma'qul kelgan.

6.2. ABU FIRAS VA ABU ALA AL-MA'ARRIY IJODI

Darsning maqsadi: Abu Firas she'riyati va Abul Ala ar-Ma'arriyning falsafiy she'riyati va risolalari haqida.

Tayanch so'zlar va iboralar: *Hamdaniylar urug'I, Sayf ad-Davla, Mosul, Halab, Manbij, ihvaniyat, "Luzumiyot", "Risolat al-G'ufro", Ma'arrat al-No'mon, "Hijaziyat".*

Abu Firas (932–968). Al-Mutanabbiyning zamondoshi va she'riyat maydonidagi asosiy raqibi risar shoir Abu Firas edi. U Mosulda tug'ilgan bo'lib, otasi arablarning Hamdaniylar urug'idan, onasi esa yunon bo'lgan. Bo'lg'usi shoir otasidan erta yetim qolgan va xalifalikda Sayf ad-Davlaning sarkardasi bo'lgan amakivachchasining tarbiyasiga olingan. Abu Firasning bolaligi Bag'dod, Mosul va xizmat yuzasidan borgan boshqa shaharlarda o'tgan. Suriyada mustaqil Hamdaniylar amirligi tashkil etilgach Abu Firas Halabdagi eng taniqli olimlar va adiblar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan va shu yerda tez orada uning shoirlik iste'dodi ochilgan.

Shoir Sayf ad-Davlaning vizantiyaliklarga qarshi yurishlarida ishtirok etgan va jasur jangchi sifatida namoyon bo'lgan. Sayf ad-Davlaning Abu Firasga bo'lgan ishonchi shunchalik katta bo'lganki, u shoirni Shimoliy Suriya va Ikki daryo oralig'i chegarasidagi yaxshi mustahkamlangan qal'a bo'lmish Manbijga qo'mondon qilib tayinlagan. Abu Firas vizantiyaliklarning hujumlarini qaytarishi hamda bo'ysunmas badaviy qabilalarni tinchitib turishi kerak bo'lgan.

Abu Firasning keyingi taqdiri fojiali kechgan. Shoir ikki marta vizantiyaliklar qo'lga tushib, asirlikda umumiy hisobda taxminan yetti yilni (959–966) o'tkazgan. Shoirning raqiblari hamda uning takabburligi va mustaqil fe'lidan norozi bo'lgan shaxslar tomonidan qayralgan Sayf ad-Davla asirni sotib olishni 966 yilgacha kechiktirgan. Sayf ad-Davla o'limidan so'ng (968) Abu Firas Halabdagi hokimiyatni kuch bilan egallashga uringan, ammo Sayf ad-Davlaning o'g'li boshchilik qilayotgan qo'shinga qarshi jangda halok bo'lgan.

Abu Firas saroy shoiri bo'lmagan: saroydagi yuksak maqomi uni yuqori martabali shaxslar oldida mukofot evaziga xushomad qilish zaruratini qoldirmagan.

Vizantiyada asir bo'lishidan avval yozgan ilk she'rlarida Abu Firas jangchi-shoir sifatida namoyon bo'lgan. Ritsarlik jasorati va muhabbati – uning she'rlaridagi asosiy mavzu. Bu davrda ko'p jihatlar Abu Firasni qadimgi arab shoirlariga yaqinlashtiradi: tungi visollarni zavq-shavq bilan tasvirlashlar ham, qasidalarga yozilgan lirik muqaddimalarning qayg'uli ohanglari ham, nihoyat, o'z

jasorati haqidagi maqtanchoq hikoyalari ham shundan darak beradi. Abu Firas qasidaları odatdagi lirik muqaddimali an'anaviy tuzilishga ega.

Abu Firasning ishqiy she'riyatii muhabbat dialogi yoki kechinmalari tasvirlangan qisqa she'rlar shaklidir. Abu Firas ko'pgina she'rlarini do'stlariga bag'ishlagan (do'stlik haqidagi she'rlar – *ihvaniyat*). Yaqinlarining o'limi munosabati bilan qisqa va g'am-g'ussaga to'la marsiyalar shular jumlasidandir. Qasidalarda, ularning mavzusidan qat'iy nazar, shoir o'z ajdodlarining, o'zi kelib chiqqan Hamadaniylar urug'i va tag'lib qabilasining sahiyligi, oliyanoblighi va mardligini kuylagan. U Hamadaniylarni vizantiyaliklarga qarshi urushdagi qahramonliklari, bo'ysunmagan xorijiyarlarni tinchitgani, xalifaga sodiqlighi va boshqa fazilatlari uchun ulug'lagan.

Vizantiyaliklarda asir bo'lib turgan vaqt Abu Firas ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Hayot shoirga faqat afsus va nadomatlar keltirgan. Bir vaqtlar boy, aslzoda, mansabdor bo'lgan shoir endilikda tahqirlangan. Akasi undan yuz o'giran, otasi vafot etgan – shu bois uning asarlari ham g'amgin nolish hamda baxtli o'tmish haqidagi qayg'uli xotiralarga to'la. Ammo aynan ushbu davrdagi she'rlari shoirga munosib shuhrat keltirdi. Vizantiya (Rum) davridagi she'rlar turkumi «Rumiyat» nomini oldi.

Vizantiyada yozgan she'rlarida shoir Sayf ad-Davlani maqtaydi va saroydagi badxohlarning tuhmatlarini rad etishni, urug'doshlik qonunlarini yodga olishni va uni asirlikdan qutqarishni iltijo qilgan. U qarib qolgan va ko'rish nasib qilmaydigan onasiga nazokatli so'zlar bilan murojaat etgan.

Abu Firas – «kuchli ehtirosli» shoir. Abu Firas zamondoshlariga hissiyotlarining chuqurlighi va samimiylighi, kechinmalarining nozik jihatlarini ifodalay oladigan so'zlarni topa olishi bilan yoqqan. Buning uchun arab o'quvchilari shoirning shakldagi ayrim e'tiborsizliklari va mumtoz arab she'riyati qoidalarini buzganligini kechirganlar.

Ash-Sharif ar-Radiy (970–1016). Adabiy sintez davrining shoirlari orasida buyuk fiqh, tilshunos va adib ash-Sharif ar-Radiyni ham eslab o'tish lozim. Ash-Sharif ar-Radiyning ajdodlari Muhammadning kuyovi Aliga borib taqaladi (sharif

– Muhammad avlodlarining maqomi). Shoir Iroqda algʻov-dalgʻov kechayotgan davrda Bagʻdodda tugʻildi va oʻsdi. U Bagʻdoddagi siyosiy hayotda ishtirok etish orqali ojizlashib qolgan xalifalar davrida yuqori martaba olishdan umidvor boʻlgan.

«Moʻminlar hukmdori, shoshma, – deb yozadi ash-Sharif ar-Radiy xalifaga qaratilgan qasidalaridan birida, – axir osmon daraxtida bizning oʻrtamizda farq boʻlmaydi».

Shoirning shia mazhabiga mansub Fotimiylar sulolasiga xayrixohligi uning saroydagi mansabi oʻsishida xalal bergan hamda zodagonlardan kelib chiqqani va mansabga intilganiga qaramay, ash-Sharif ar-Radiy siyosiy maydonda muvaffaqiyat qozona olmadi. Ash-Sharif ar-Radiy ilohiyotchi, tilshunos va shoir sifatida shuhrat topdi. Uning bir qancha asarlari Qurʼondagi tushunarsiz joylarni talqin etishga bagʻishlangan. U toʻrtinchi «solih» xalifa Alining «notiqlik yoʻli» («Nahj al-balagʻa») nomli nutq va risolalar toʻplamini tuzgan. Ushbu toʻplam arab notiqlik sanʼatining qadimiy namunalari bilan tanishishimizga imkon beradi.

Ash-Sharif ar-Radiyning sheʼriy devonidagi eng yaxshi sheʼrlari muhabbatga bagʻishlangan. Arab tanqidchiligi muallif Makkaga haj safariga borganida yozgan «Hijaziyat» («Hijaz sheʼrlari») turkumidagi lirik sheʼrlarini, ayniqsa, yuqori baholaydi. Ash-Sharif ar-Radiyning muhabbat sheʼriyatii sof shaxsiy xususiyatga ega.

Ushbu ichki kurash goh «badaviylarcha» yovvoyi va ehtirosli, goh nozik va mungli sheʼrlarida oʻz ifodasini topgan. Shoir oʻz azob-uqubatlari va gʻam-gʻussalarini tavsiflashda noyob ixtirosini namoyon etgan. Shu jihatdan qaraganda, ash-Sharif ar-Radiyning ishqiy sheʼriyatii koʻp asrlik arab sheʼriy anʼanalarining davomi boʻlgan.

Ash-Sharif ar-Radiy, al-Mutanabbiy singari, mukofot uchun yuqori martabali shaxslarni ulugʻlaydigan saroy shoiri boʻlmagan. Ammo uning devonida ham xalifalar va buid zodagonlarining vakillariga yozilgan madhiyalar bor. Ushbu maqtov qasidalarida u koʻpincha al-Mutanabbiy va boshqa shoirlarda uchraydigan

an'anaviy obrazlardan foydalangan. Bir qancha madhiyalarni shoir o'z otasiga bag'ishlagan.

Ash-Sharif ar-Radiy marsiyalar ham yozgan. Ularning ba'zilari diniy shia xususiyatiga ega bo'lgan va «Karbalo jafokashi» Husaynga bag'ishlangan.

Shoir o'zini maqtab yozgan ko'p she'rlarida o'zining qadimiy va taniqli urug'ini ulug'lagan, jamiyatda munosib o'rin egallashiga xalal bergan taqdirdan achchiq shikoyat qilgan va o'z shuhratparastligini yashirmagan.

Arablar «badaviylikni» abbosiylar zamonidagi san'atning nazokati bilan, she'riy mahoratini, qadimgi arab she'riyatining nozik tomonlarini, uslubiy usullar xilma-xilligi va badiiyyatini yumshoqlik va musiqiylik bilan uyg'unlashtira olgan ash-Sharif ar-Radiyning shoirlik mahoratini yuksak qadrlaydilar.

Al-Ma'arriy (973–1057). Gullab-yashnash davrining boy adabiyotida mashhur arab faylasuf shoiri al-Ma'arriy alohida o'rin tutadi. I. Yu. Krachkovskiyning fikricha, u «jahon miqyosida e'tiborga loyiq» inson bo'lgan. Uning ijodi islomgacha bo'lgan shoirlarning falsafiy baytlaridan boshlanib, Abul Ataxiyaning zuxdiyati va al-Mutanabbiyning tushkunlik holati bilan sug'orilgan baytlari orqali o'tuvchi arab falsafiy she'riyatii rivojini yakunlaydi.

Al-Ma'arriy ijodini baholashda umumiy fikrga kelinmagan. Garchi barcha tadqiqotchilar al-Ma'arriy arab va jahon adabiyotida mashhur siymo ekanligini muqarrar tan olsalar-da, ular unda avvalo shoirni, boshqalar esa ajoyib mutafakkirni ko'radilar.

Al-Ma'arriy ijodi shoirning ko'plab o'tmishdoshlarida ko'zga tashlangan saroydagi rasmiy she'riyatga qarshi turuvchi tanqidiy tamoyillar tufayli yuzaga kelgan.

Tanqidiy element Shu'ubiylar shoirlari va adiblaridan bo'lgan Bashshar ibn Burd, Abu Nuvas, Abdulloh ibn al-Muqaffa kabilarning asarlaridayoq mavjud bo'lgan va Mu'taziliy al-Jaxiz ijodida ancha rivojlantirilgan. Biroq arab adabiyotidagi tanqidiy fikrning cho'qqisi, shubhasiz, al-Ma'arriy bo'lgan.

Tanqidiy yoʻnalish oʻz mazmunida ham, hayotni baholashda ham rasmiy saroy sheʼriyatiga qarshi turadi. Arab hukmdorlari saroylarida shoir deb voqelikni boʻyab, hukmdorni va uning ishlarini maqtaydigan shaxsga aytilgan. Asta-sekin, shahar madaniyati rivojlanishi bilan adabiyotga boʻlgan munosabat oʻzgargan. Madaniy ongga shoirlik sheʼriyati endi inson qadr-qimmatini bilan mos kelmaydigan tuyuladi. Dunyo va insonga yangicha qarash taʼsirida yangi, tanqidiy yoʻnalishdagi adabiyot shakllandi.

Bu adabiyot avvalo hissiyot emas, balki tafakkur adabiyoti boʻlgan. U xarakteriga koʻra dunyoviy boʻlib, hayotga aqidaparastlik kishanlaridan xoli qarashni aks ettirgan.

Abul Ala al-Maʼarriy Maʼarat an-Numan qishlogʻida (Shimoliy Suriya) janubiy arab qabilasi boʻlgan tanuhdan kelib chiquvchi oilada tugʻilgan. Uning otasi bilimdon faqih va tilshunos olim boʻlgan. Dastlabki maʼlumotni al-Maʼarriy uyda olgan, keyinchalik fanlarni Halab, Antiohiya shaharlarida, Latakiya monastirida (Suriya) va Bagʻdodda oʻz zamonasining taniqli olimlari va tilshunoslari rahbarligida bilimlarini takomillashtirgan.

Eng hayrli boʻlgan Dajla daryosi suvidan ichdik,

Eng sharif boʻlgan xurmo daraxtlarini ziyorat qildik.

Shoir mazkur baytida Bagʻdodning ilm chashmalaridan bahramand boʻlgani va buyuk allomalarni ziyorat qilganini majoziy maʼnoda ifodalagan.

Mening bu tunim qoratanli kelinga oʻxshaydi

U boʻyniga yulduzlardan marvarid taqqan.

Bagʻdod va uning ahli men haqimda soʻraganlarida

Men Antakiya ahlidanman deb javob qildim.

Ular keyinchalik «Chaqmoqtoshdan uchqunlar» («Saqt az-zand») to'plamiga kirgan. U o'zining dastlabki she'rlarini, al-Mutanabbiy she'rlariga sharhini hamda boshqa asarlarini yaratgan.

Onasining kasalligi va o'limi Abul Alani qadrdon Ma'arat an-Numan qishlog'iga qaytishga majbur qilgan. Bu yerda u «ikki tomonlama qamoq mahbusi» – ko'rlik (uch yoshida Abul Ala chechak bilan og'rigan va ko'rish qobiliyatidan mahrum bo'lgan) hamda o'z ona qishlog'idan hech qaerga chiqmay deyarli 50 yil (1009–1057) yashagan. Shu yerda shoir she'riy kitoblaridan «Luzumiyat», «Afv etishni so'rab yozilgan noma» («Risalat al-g'ufron») va shoirga munosib shuhrat keltirgan boshqa ko'plab asarlarini yaratgan. Abul Alaning uyiga xalifalikning barcha tomonlaridan shogirdlari hamda buyuk olim va shoirning o'zidan bilim olishni istagan muxlislari oqib kelgan. O'sha zamonning buyuk hamda oddiy qiziquvchan odamlari u bilan xat yozishib turishga intilganlar. Fotimiylar xalifasining Misrdagi noibi mutafakkirni o'z poytaxtiga olib kelishga uringan, ammo al-Ma'arriy ma'naviy mustaqillikni saqlab qolishni istab, noibning taklifini rad etgan. «Hech qachon, – deb yozgan al-Ma'arriy «Chaqmoqtoshdan uchqunlar» asarining muqaddimasida, – men hech bir yuqori martabali shaxsga mukofot uchun madhiya yozmaganman».

Al-Ma'arriy o'z zamonasining nihoyatda bilimdon insoni, islom huquqi va ilohiyotining bilimdoni, taniqli faylasuf, tilshunos, tarixchi va arab she'riyati qonunlarining buyuk bilimdoni bo'lgan. U juda kuchli xotirasi tufayli juda ko'p she'riy va ilmiy asarlarni yod bilgan. Zamondoshlarining guvohlik berishlaricha, shoir jonli aql va yorqin hozirjavoblikka ega bo'lgan va shu bilan birga kamtar bo'lib, har narsadan, deyarli, tarkidunyochilik darajasida o'zini tiygan.

Al-Ma'arriy qalamiga taxminan 70 ta she'riy va ilmiy asar mansub bo'lib, ular bilimlarning turli sohalariga taalluqlidir. Afsuski, ularning ayrimlarigina bizga ma'lum.

Al-Ma'arriyning ilk asarlari qatoriga «Yo'lda tashlab ketilgan» («Mulka-s-sabil») nomli didaktik risolasi kiradi. Risolaning nomi unda to'plangan fikrlarni muallif hayotdan olganligini ko'rsatadi. Kitobda tarki dunyochilik xususiyatga

ega bo'lgan turli maslaxatlar va axloqqa oid ko'rsatmalar berilgan . Risola al-Ma'arriy asarlari uchun odatiy bo'lgan filologik jimjimadorlik bilan yozilgan. U arab alifbosidagi harflar soniga muvofiq keladigan kichikroq parchalarga bo'lingan. Buning ustiga, parchalardagi ko'rinishlar dastlab qofiyali nasrda parchadagi harfga mos keladigan qofiya bilan ifodalangan, so'ngra xuddi shu qofiyadagi she'rlarda takrorlangan.

Al-Ma'arriy filologik sharhlar tuzishga ko'p e'tibor bergan. Uning «Ahmad mo'jizasi» («Mu'jiz Ahmad»), «Habib haqida xotira» («Zikra Habib»), «Abas al-valid» va boshqa asarlarida eng taniqli arab shoirlari (al-Mutanabbiy, Abu Tammom va al-Buxturii) ning tanlangan she'rlari hamda she'rlariga yozilgan sharhlar keltirilgan. Bizgacha uning «Farishtalar haqidagi risola» («Risalat al-Mala'ka») asari yetib kelgan bo'lib, uni al-Ma'arriy XI asrning birinchi yarmi oxirida yozgan. Risolani yozish uchun muallifga noma'lum tilshunos yo'llagan savollar ro'yxatiga ega xat sabab bo'lgan. Xatga javob tariqasida yozilgan risolada al-Ma'arriy grammatikaning turli masalalari, jumladan farishtalar ismlari haqidagi masala yuzasidan o'z mulohazalarini bildirgan. «Farishtalar haqidagi risola» nasr (ba'zan qofiyali nasr) tarzida yozilgan, unga islomgacha bo'lgan va islomiyat davridagi arab shoirlari (Zuhayr, al-Xuteya, Umar ibn Abu Rabi'a, Zur Rumma va boshqalar)ning ko'plab she'rlaridan parchalar, maqollar, Qur'on oyatlari keltirilgan.

Risolaning kirish qismida muallif «farishta» so'zining kelib chiqishi xususida bir qator mulohazalar keltirgan, bunda Qur'onga va arab shoirlariga havolalar qilgan. Risolada jannatga kirmay qolgan bir qancha arab olimlari jannat posboni Ridvondan osmon ahlini arab grammatikasi qoidalariga o'rgatish uchun u yerga kiritishini so'raganliklari hikoya qilingan. Ridvon ularni kiritmaydi. Jannat darvozasi oldida ilmiy masalalarda bahs boshlanadi. Kelganlar jannatdagi olimlardan birortasi, masalan, al-Xalil ularning huzuriga chaqirtirilishini talab qiladilar. Al-Xalil keladi va jannat ahli qadimgi arab tilini juda yaxshi bilishlarini hamda yerdagi odamlardan farqli o'laroq til va grammatikani o'rganishga muhtoj emasliklarini tushuntiradi.

«Kechirim haqidagi risola» 1063 yilda shoirga falsafa, tilshunoslik va ilohiyotga oid bir qator savollar yuborgan adib Ibn al-Karix xatiga javob yaratilgan. Xatning butun ruhi ushbu adibning riyokorligidan, uning har qanday hurfikrlilik bilan chiqishmasligidan dalolat bergan. U bid'atchilarga va shoirning do'stlaridan biri bo'lgan qandaydir al-Mag'ribiyga hujum qiladi.

«Risola» qofiyali nasrda ifodalangan va turli-tuman she'riy qism va sharhlardan iborat. U o'zaro yaxshi bog'lanmagan ikki qismga bo'linadi. Birinchisi – narigi dunyo haqidagi an'anaviy islom tasavvurlariga taqlid, ikkinchisi – ibn al-Karixning xatiga javob.

«Risola»ning birinchi qismida xat muallifi ibn al-Karix narigi dunyoga sayohat qilgani haqida hikoya qilinadi. U yo'lga maxsus jannat tuyasida yo'lga chiqadi. Ibn al-Karix bir necha oy sayohat qilib, issiq va tashnalikdan azoblanib, jannatga kirishga urinadi. U jannatga boradigan yo'lni uning yerdagi odamlarni ko'p marta aldashiga ko'maklashgan ojiz she'rlari ochib berishiga umid qiladi. Biroq muvaffaqiyatsizlikka uchragan ibn al-Karix qilgan ishi uchun chin ko'ngildan tavba qiladi va o'z maqsadiga erishadi.

I. Yu. Krachkovskiy o'z vaqtida «Risola»ning birinchi qismidagi ayrim joylari hajviy xususiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratgan edi. Ularga, masalan, Ibn al-Karix qanday qilib jannatga kirgani haqidagi hikoyani keltirish mumkin.

«Risolaning» ikkinchi qismida al-Ma'arriy Ibn al-Karixga javob beradi va ayni vaqtda ko'pgina falsafiy va diniy masalalar yuzasidan fikr bildiradi. U o'zini mo'min-musulmon sifatida ko'rsatib va rasman bid'atni qoralab, aslida hurfikrlilarning qarashlarini ommalashtiradi.

Men o'zim Allohni – dono Halloq deb tanidim

Uni inkor qiluvchilar qatoriga hech qachon kirmayman.

Al-Ma'arriyning she'riy asarlari uning ikki devonida to'plangan: «Chaqmoqtoshdan uchqunlar» hamda «Majburiy bo'lmagan narsalarning majburiyligi» («Luzum ma la yalzam», qisqacha – «luzumiyat»).

«Chaqmoqtoshdan uchqunlar» to‘plamiga shoirning o‘z shahriga qaytguncha yozgan ilk she’rlari kiritilgan. Bular madhiyalar, marsiyalar, o‘zini o‘zi maqtashlardir. Al-Ma’arriyning yoshlikda yozilgan she’rlari o‘z xarakteriga ko‘ra an’anaviydir. Ularda al-Mutanabbiy va undan oldin o‘tgan boshqa buyuk shoirlarning ta’siri aniq seziladi. Rasmiy shaxslarga qaratilgan madhiyalarda shoirning olimligi izlari ko‘rinadi. Ammo shu ilk asarlargayoq obrazlarning yorqinligi xos bo‘lib, bu keyinchalik al-Ma’arriy katta she’riyatining o‘ziga xos jihatini tashkil etadi. Shoir o‘zini maqtashga bag‘ishlangan she’rlarida o‘z urug‘i va fazilatlarini ulug‘laydi. Marsiyalar (ayniqsa onasi va ayrim do‘stlarining o‘limi munosabati bilan yozilganlari) chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, inson taqdiri haqidagi g‘amgin fikrlarga ega. Al-Ma’arriyning «Chaqmoqtoshdan uchqunlar» to‘plamidagi ilk she’rlari orasida jangchilarning himoya qurollarini tavsiflashga bag‘ishlangan «Zirhli she’rlar» alohida o‘rin tutadi. Ushbu tavsiflar odatda maishiy hayot sahnalari bilan kechadi va og‘ir badaviy uslubiga qaramay, jonli va ifodali yangraydi.

Al-Ma’arriyning eng yetuk she’rlari uning barcha zamonlardagi arablar o‘rta asr arab she’riyatining cho‘qqisi deb hisoblaydigan «Luzumiyat» to‘plamiga kirgan. Devonning nomini ikki xil talqin etish mumkin. Muallif, ehtimol, to‘plamda jamlangan fikr va xulosalar, garchi boshqalar uchun majburiy bo‘lmasa-da, o‘zining ichki e’tiqodi va axloqiy burchi tufayli muallifning o‘zi uchun majburiy ekanligini bildirmoqchi bo‘lgan. Boshqa bir izoh to‘plamdagi she’rlarning qofiyasiga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi: al-Ma’arriy «Luzumiyat»da ketma-ket holda, yoki arab mumtoz adabiyotida majburiy hisoblanmagan tayanch yoki «ikki tomonlama» qofiyadan foydalangan (har bir she’rda oxirgi undoshi va harakatidan tashqari undan oldin keluvchi undosh ham o‘zaro mos keladi, bu esa qofiyani yanada boyitadi). «Luzumiyat» tuzilishiga ko‘ra antiqadir: undagi she’rlar birin-ketin alifboning barcha harflariga teskari tartibda qofiyalanib keladi.

«Luzumiyat» – bu she’riy shakldagi falsafiy, diniy va ijtimoiy-siyosiy g‘oyalardir. Bu esa ushbu turkumdagi she’rlarni falsafiy va fuqaroviy lirika

janriga kiritish imkonini beradi. «Luzumiyat» she'rlarida al-Ma'arriy o'z zamonining ajoyib mutafakkiri sifatida namoyon bo'ladi. Abul 'Alaning dunyoqarashi murakkab siyosiy vaziyatda shakllangan bo'lib, unda ijtimoiy va ma'naviy berk ko'chadan chiqish yo'llarini izlash izlari bor. Uning qarashlari ko'p jihatdan ziddiyatlidir.

Al-Ma'arriyning falsafiy qarashlari tugallangan tizim tashkil etmagan. Mutafakkirning sinovchan va o'tkir aqli doimo eng murakkab, falsafiy masalalarga javob izlaydi.

Aql – Abul Alaning e'tiqodicha, haqiqatni bilishning yagona vositasi. Ammo insonning dunyo haqidagi tasavvurlari to'g'rimi? «Balki bizning dunyo, xuddi tush kabi, borlig'imizga qarama-qarshidir», – deb fikr yuritadi shoir. Al-Ma'arriyning butun falsafiy she'riyatii orqali hayotdan nihoyatda qoniqmaslik mavzusi va bu dunyoda chorasiz yolg'izlik motivlari, yovuzlikka qarshi ojizlik mavzusi o'tadi. «Biz kulamiz, ammo kulgimiz aqlimizning kamligidandir. Aslida esa, yer ahli yig'lashi kerak».

Al-Ma'arriy dahriy bo'lmagan. Shoirni falsafiy-diniy muammolar bilan bir qatorda u yuksak insonparvarlik nuqtai nazaridan qaragan axloqiy masalalar ham qiziqtirgan. Shoir ijtimoiy adolatsizlikka qarshi qattiq bosh ko'targan, odamlarga xizmat qilish insonga munosib yagona yo'l deb hisoblagan.

Arab mumtoz adabiyoti rivojlanishida butun boshli davrni yakunlagan hamda o'z ijodida murakkab va turfa arab madaniyatining turli elementlarini birlashtirgan ushbu mutafakkir va faylasuf shoirning ulkan iste'dodi shubhasiz beqiyosdir.

Gumanist shoir ijodining ahamiyati arab madaniyati bilan cheklanib qolmaydi. Abul Ala o'zining falsafiy she'riyatii va nasrida X asrdayoq insoniyatning eng buyuk shaxslarini keyingi ko'p asrlar davomida qiziqtirgan falsafiy va axloqiy masalalarni ko'targan. Ma'arrat al-Numandan chiqqan buyuk so'qirning asosiy xizmati ana shunda.

Seminar mashg'ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. Al-Ma'arriyning Bag'dodda yozgan asari.

2. Al-Ma'arriyning "Luzumiyat" asari.
3. «Farishtalar haqidagi risola»da qanday fikrlar bildirilgan?
4. Al-Ma'arriy – "Ikki zindon mahbusi".
5. Sharif ar-Rodiyning "Nahj al-Balag'a" asari xususida.
6. Al-Mutanabbiyning she'riy asarlari.
7. Abu Firas – «kuchli ehtirosli» shoir.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Taraqqiyot davri madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan madaniyatlar.
2. Al-Mutanabbiyning "Shomiyot" asari xususida.
3. Al-Ma'arriyning "Risalat al-Gufron" risolasi.
4. Sharif al-Rodiyning "Nahju-l-balag'a" asari.

VII BOB. TARAQQIYOT DAVRI NASRI

7.1. MAQOMA. AL-HAMADONIY VA AL-HARIRIY IJODI

Darsning maqsadi: Mazkur bobda kichik janrdagi nasriy asar bo'lmish maqomalar, ularning mualliflari faoliyati haqida keng qamrovli ma'lumotlar beriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *Maqola, Tarassul, al-Hamadoniyy, al-Haririyy, abul Fath al-Iskandariyy, Abu Zayd, epistolyar.*

X–XI arslarda arab badiiy nasrining rivojlanishi ishga oid nasrning rivojlanishiga chambarchas bog'liq bo'lgan. X asrdan e'tiboran har xil *tarassul* – epistolyar janr asarlari (shaxsiy va rasmiy yozishmalari), shuningdek risolalar tarzidagi asarlar keng tarqalgan. Ushbu asarlarda epistolyar janr yo'llari va qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ko'p asrlar mobaynida to XIX asrdagi adabiyotning yuksalishi boshlangunicha o'zgarmay kelgan. Ish xatlari va ilmiy risolalarda arablarga islomgacha bo'lgan zamonlardan va Qur'ondan ma'lum bo'lgan saj borgan sari ko'proq qo'llanila boshlagan.

Epistolyar janrning eng taniqli ustalaridan biri Buidlar saroyining amaldori va vaziri, kelib chiqishiga ko'ra fors bo'lgan Ibn al-Amid (vafoti 970 yil) – o'z zamonining eng bilimdon insoni bo'lgan. U didaktik mazmunga ega bo'lgan va o'rta asr arab notiqlik san'atining barcha usullari qo'llanilgan bir qator noma va risolalar yozgan. Ularning tuzilishi murakkab naqshli gilamni eslatadi. Muallif o'z asarlariga qofiyali nasr parchalari, sinonimlar takrorlari va murakkab istioralar kiritgan, so'z o'yinlaridan foydalangan va hokazo.

Epistolyar janr **al-Kadiy al-Fadil** (1135–1200) –fotimiylarning oxirgi Misr davlat devonida amaldor, keyinroq ayubiylar hukmdori Salohiddin va uning o'g'li al-Azizning eng yaqin maslahatchisi asarlarida to'liq shakllangan. Al-Fadil shakl bobida mohir bo'lgan. U o'z nomalariga har xil badiiy san'atlar, so'z o'yinlari, kinoyalar, sitata va maqomalarni shunchalik ko'p kiritganki, ularning mazmunini tushunish uchun hatto zamondoshlari ham juda ko'p urinishlari kerak bo'lgan. Al-Kadiy al-Fadil keyingi asrlar arab nasrsining shakliga katta ta'sir ko'rsatgan. Kech o'rta asr yozuvchilari arab uslubiyatining ana shu umum e'tirof etgan ustasiga taqlid qilganlar hamda o'z asarlarini murakkab, mazmunsiz filologik rebuslarga aylantirganlar.

X asrda yuzaga kelgan va arab adabiyotida yangi bo'lgan nasriy janr bo'lmish maqolalar paydo bo'lgan paytidan e'tiboran epistolyar uslub qonunlarining kuchli ta'siriga tushgan. Maqomalarning ilk mualliflaridan biri, yangi janrning asoschisi deb hisoblanadigan shaxs Hamadonlik tilshunos olim Badiuzzamon al-Hamadoniy bo'lgani bejiz emas.

Al-Hamadoniy (969–1007). O'zining qisqa hayoti mobaynida Badiuzzamon Eronning ko'plab viloyatlariga sayohat qilgan, O'rta Osiyoda bo'lgan. U hamma joyda o'zining ko'plab risolalarida o'z zamonining murakkab «rang-barang» uslubini nihoyatda mukammal egallaganligini ko'rsatgan uslubchi tilshunos sifatida shuhrat qozongan. Nishopurda u turli xil uslublar yordamida mushoirada mashhur tilshunos va adib Abu Bakr al-Xorazmiyni yenga olgani ma'lum. Lekin Badiuzzamonga shuhratni uning ilmiy asarlari emas, balki ko'plab she'riy

kiritmalari bo‘lgan balandparvoz, qofiyali nasrda yozilgan qisqa hikoyalari – maqomalari keltirgan.

Qadimgi arablar «maqom» yoki «maqoma» so‘zi orqali qabila to‘planadigan joyni ifodalaganlar. Keyinchalik bu atama bilan nafaqat to‘planish joyi, balki odamlar majlisi, so‘ngra esa ushbu majlisda olib boriladigan suhbatlar ham ifodalanadigan bo‘lgan. Islom tarqalayotgan davrda xalifalar va ularning yaqinlari doirasida olib boriladigan nasihat xususiyatiga ega bo‘lgan suhbatlar ham maqoma deb atalgan. Vaqt o‘tishi bilan suhbatlarning xususiyati o‘zgargan. Shaharlar rivojlangani sayin arab tili va she’riyati bilan qiziquvchi odamlar doirasi kengayib borgan hamda olimu-shoirlar o‘zlarining adabiy qobiliyati va tilshunoslik sohasidagi bilimlarini namoyish etishi mumkin bo‘lgan adabiy to‘garaklar borgan sari ko‘paygan. Taxminan X asrdan boshlab «maqoma» atamasi uslub bo‘yicha nafis, jimjimador latifalarni ifodalash uchun qo‘llanila boshlagan. «Maqoma» so‘zi ma’nosining tadrijiy rivojlanishi ushbu janr go‘zal so‘z ishqibozlarining adabiy suhbatlarida yuzaga kelgan hamda dastlab og‘zaki hikoya ko‘rinishida mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Faqat keyinroq, aftidan al-Hamadoniyy ijodida, u to‘liq adabiy shaklga kirgan. Yangi janr asosan ma’lumotli shaharliklar va feodal «ziyolilar» orasida yoyilgan hamda juda o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lgan.

Xalifalikdagi hayot sharoiti, ayniqsa XI asrdan boshlab, ma’lumotli insonning adabiy faoliyati uchun qulay bo‘lmagan. Adibning mehnat bozori borgan sari toraygan. Xalifalikning ayrim viloyatlarida hokimiyatni qo‘lga olgan arab bo‘lmagan hukmdorlar arab adabiyotiga befarq bo‘lganlar va uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlamaganlar. Bu narsa adibning imkoniyatlarini cheklagan. U pul topish maqsadida shahardan shaharga sayohat qilgan, o‘z asarlari va badiiy badihalari bilan boy homiylar boshchilik qiladigan adabiy to‘garaklarda, shuningdek shahar bozorlari, qahvaxonalari va shu kabilarda so‘zga chiqqanlar. Ma’lumotli daydilarining ushbu tipi maqomalarda mustahkamlab qo‘yilgan.

Bizgacha yetib kelgan maqomalarning dastlabkilari al-Hamadoniyning e'tiroficha, 400 ga yaqin maqoma yaratgan bo'lib, ularning atigi 51 tasi saqlanib qolgan.

Al-Hamadoniyy maqomalarining bosh qahramoni sifatida epchil, tadbirkor va ayni vaqtda beg'am adib Abul Fath al-Iskandariy qatnashadi. U hikoyadan hikoyaga o'tgan sari o'z kasbini o'zgartiradi va yashash uchun mablag'ni hiyla, ba'zan esa firibgarlik bilan topadi.

Al-Hamadoniyy maqomalarida hikoya savdogar Iso Ibn Hoshim nomidan yuritiladi. Uni savdo ishlari va taqdir xalifalikning turli shaharlariga tashlaydi. U «She'riy maqoma» asarida o'zi haqida shunday deydi: «Taqdir meni Jurjonning eng uzoq qismiga tushmagunimcha bir joydan ikkinchi joyga tashlayverdi. Men taqdirga bardosh berdim: yer sotib oldim, unga qattiq ishlov berdim; savdo uchun zarur mollar sotib oldim, savdo ishlarining asosiy joyiga aylangan do'konga ega bo'ldim, do'stlar orttirdim. Uyimga faqat tong va tunni ajratdim, do'konga esa qolgan barcha vaqtimni o'tkazdim. Iroq, Eron yoki Kavkazning qaysi shahrida bo'lmasin, Iso ibn Hoshim Abul Fathning navbatdagi qilmishlariga tasodifan guvoh bo'lib qoladi, uni taniydi va fosh qiladi. Biroz vaqt savdogar ana shu tanishini yo'qotadi va keyingi hikoyada u bilan yana uchrashadi.

Maqomalar o'rtasida syujet birligi yo'q. Ularni har bir hikoyada muqarrar paydo bo'ladigan va kitobxonni navbatdagi nayrangi bilan qoyil qoldiradigan qahramon birlashtiradi. Har bir hikoyada Abul Fath yangi qiyofada namoyon bo'ladi: u mo'minlarni Vizantiyaliklarga qarshi kurashga da'vat etuvchi notiq, goh o'liklarni tiriltirish va yo'qolgan narsalarni topish qo'lidan kelishiga ishontiradigan ko'zboylalamachi, goh qashshoq tilamchi, goh bozorda qog'oz yozuvchi, goh imom, goh nihoyat bu dunyo ne'matlaridan tiyilishga chaqiruvchi darvesh sifatida namoyon bo'ladi. Pardozi va kiyim-boshi Abul Fathni tanib bo'lmas darajada o'zgartiradi hamda faqat qoyil qolarli darajadagi epchilligi va ajoyib adabiy iste'dodi Iso ibn Hoshimga uni fosh etish imkonini beradi.

Ma'lum yengiltakligiga qaramay, maqomalarning bosh qahramoni – Abul Fath o'z holatini yetarlicha hushyor baholaydi hamda hayot tarzini jamiyatdagi

ahvol bilan oqlaydi. «Pastkashlik va sharmandalikdan qo‘rqma, – deydi u maqomalardan birida, – zero seni shunga majbur qilgan zamon sendan ham yomondir. Agar uning tubanligiga qarshi kurashadigan bo‘lsang, uni yengmaysan. Farzand o‘z otasidan donoroq bo‘lishga majbur emas».

Abul Fathning yashash uchun kurashdagi ixtirochiligi cheksiz. U barcha notiqlik va artistlik qobiliyatlarini ishga soladi, kerak bo‘lsa o‘z tinglovchilarini yig‘latadi yoki qo‘rqitadi, nihoyatda kuchli aql-farosati bilan hayron qoldiradi yoki cheksiz maqtanchoqligi bilan alday oladi. Abul Fathning hayotdagi shiori bo‘lib uning quyidagi so‘zlari xizmat qiladi: «Odamlar orasidagi hayoting batamom hiyla va nayrangga bag‘ishlansin. Baxt hech qachon doimiy bo‘lmaydi va men ham unga taqlid qilishga harakat qilaman... Men – buqalamunman, doimo rangimni o‘zgartirib yuraman. Men o‘z ismim va shajaramni o‘zgartirib, vaqtga moslashaman, bugun kechqurun nabatiyga, ertaga tongda esa haqiqiy arabga aylanaman».

Garchi Abul Fathning nayranglari har doim ham kutilgan natija bermasa ham quvnoq qashshoq ko‘nglini cho‘ktirmaydi. Har qanday vaziyatda u tiyrak va hayotdan mamnun bo‘lib qolaveradi. «Taqdir, – deydi u, – yolg‘onchi ro‘yo. U qanday aylansa, sen ham shunday aylanib-o‘rgil». «Goh taqdir menga yomonlik qiladi, goh mening tiyrakligim uni yengishimga yordam beradi».

Al-Hamadoniyni maqomlari odatda pand-nasihat xususiyatlariga ega bo‘lib, muayyan xulosaga ega bo‘lsa-da, ularda muallifning kitobxonni kuldirish, yoki qahramonning shoirlik mahoratidan dalolat beruvchi qandaydir kulgili voqea bilan zavqlantirishga aniq intilayotgani sezilib turadi.

Al-Hamadoniyni maqomlari mazmunan bir xil emas. Ularda Bag‘dod hayotidan sahnalar keltiriladi, boshqalarida shoir Zur Rumma yoki siyosiy arbob Sayf ad-Davla singari qahramonlar qatnashgani bois, tarixiy hikoya ko‘rinishiga ega. Ayrim maqomalar murakkab, ko‘p bosqichli tuzilishga ega (masalan, «sher haqidagi maqoma»), ayni vaqtda boshqalariga faqat qiziqarli voqea asos qilib olingan.

Uslubiy jihatdan olganda, al-Hamadoniy maqomalari xalifalikdagi ma'lumotli odamlarning adabiy didlariga mos kelgan. Ular qofiyali nasrda yozilgan bo'lib, arab badiiyatining murakkab san'atlari bilan nihoyatda to'lib toshgan. Bu esa ularni faqat tor darajadagi adabiyot bilimdonlari uchungina tushunarli qilgan.

Al-Haririy (1054–1122). Maqoma janri basralik arab mashhur uslubchi al-Haririy ijodida yanada rivojlantirildi. Ipak sotuvchi savdogar otasidan al-Haririy minglab xurmo daraxtlari ekilgan katta yerni meros qilib olgan. Bu esa unga o'zini adabiy faoliyatga butunlay bag'ishlash imkonini bergan. Rivoyatlarga qaraganda, shoir nihoyatda xunuk bo'lgan. Buni anglagan shoir hatto bitta she'rida do'stlariga uning she'r o'qishini tinglaganda asardan olgan taassurotlari, xunuk basharasi ta'sirida yo'qolib qolmasligi uchun, unga qaramaslikni maslahat bergan.

Al-Haririy juda alg'ov-dalg'ov davrda yashagan. Biroq al-Haririy siyosiy kurashda ishtirok etishdan o'zini tortgan va hokimiyat vakillari bilan kelishishga harakat qilgan. U Basrada ancha yuqori lavozim – axborot xizmatining boshlig'i lavozimini egallab turgan, Bag'dodga ko'p borgan hamda xalifalikning ko'plab yuqori martabali shaxslari bilan xat yozishib turgan. U xalifa al-Mustarshid (Saljuqiylar davlatining susayishi xalifalik hokimiyatining kuchayishiga olib kelgan) hamda Dubays (Iroqdagi kichikroq podsholik hukmdori)ning homiyligidan foydalangan. Dubaysni al-Haririy hatto o'z maqomalaridan birida ulug'lagan.

Mumtoz arab tilining ishqibozi va bilimdoni al-Haririy mumtoz adabiy til normalaridan jonli nutq tomoniga har qanday og'ishga qarshi chiqqan. Uning qalamiga mansub tilshunoslikka oid bir qancha asarlarda (masalan, «Marvarid ovlovchining topgan marvaridi» risolasida) u o'z asarlariga so'zlashuv lahjalari va iboralarini kiritgan yozuvchilarga qarshi chiqadi. Al-Haririy o'zining «Shiniya» va «Siniya» kabi risolalarida arab tilini nihoyatda yaxshi bilishini namoyish etgan.

Tilshunoslik bobidagi chuqur bilimlari al-Haririyga maqoma yozishdek qiyin vazifani uddalash imkonini bergan. Bu esa unga arablar o'rtasida buyuk adib

sifatida tanilishiga yordam bergan. Arab tanqidchiligi al-Haririy maqomalarini arab uslubiyotining durdonalari deb hisoblaydi. Ular qofiyali bejamdor nasrda yozilgan bo‘lib, shunday filologik hiylalarga to‘laki, hatto ma’lumotli arablar ham uni sharhlarsiz tushunmaydilar. Mualliflikni o‘zlashtirib olishda shubha qilingan al-Haririy sinab ko‘rilgani haqidagi latifa saqlanib qolgan. Ushbu sinov vaqtida al-Haririy hech qanday asar yarata olmagan. Biroq bu tabiiy holat, zero maqomalar ustida ishlash jarayonida muallifga har xil adabiyotlar – ma’lumotnomalar, lug‘atlar va boshqalar zarur. Ammo al-Haririyda sinov vaqtida bular bo‘lmagan. Al-Haririy maqomalarida ijodiy ilhomga qaraganda ko‘proq bilimdonlik va mehnatkashlik seziladi.

Al-Haririy qalamiga 50 ta maqoma mansub bo‘lib, ularning to‘plamini muallif xalifa al-Mustarshidning vaziriga taqdim etgan. Al-Haririy al-Hamadoniya taqlid qilib, o‘z maqomalarida qahramon sifatida ma’lumotli va tadbirkor qashshoq daydi Sarujlik (Shimoliy Ikki daryo oralig‘idagi shahar) Abu Zayddan foydalangan. Al-Hamadoniya maqomalarida bo‘lgani kabi al-Haririy maqomalarida ham voqealar sayyoh savdogar nomidan hikoya qilinadi. Ushbu savdogar shahardan shaharga ko‘chib yuradi va maqomalar qahramonining navbatdagi hiyla-nayranglariga muqarrar ravishda guvoh bo‘ladi. Al-Xaris ibn Hammom ismli savdogar obrazi bir qancha juda ifodali jihatlariga ega. To‘qqizinchi – «Iskandariya maqomi»da, masalan, al-Xaris sayohati vaqtida yangi shaharga kirib, avvalo shahar qozisi bilan tanishishga urinishi xabar qilinadi. Bundan maqsad «uning ta’siri qiyin vaziyatlarda tayanch bo‘la olishi va o‘zgalar yurtida shahar hokimiyatining siquvlaridan qutulish» bo‘lgan. Har bir shaharda taqdir uni doimo yangi sifatda paydo bo‘luvchi va o‘z ishlarida aql, arab adabiy tilini juda yaxshi bilishi va shoirlik bobidagi ixtirochiligi bilan ajralib turadigan Abu Zaydga yo‘liqtiradi.

Al-Haririy maqomalarining asosiy qahramoni ko‘p jihatdan al-Hamadoniya maqomalaridagi Abul Fathni eslatadi hamda go‘yoki uning keyingi rivoji hisoblanadi. Ma’lum ma’noda, ushbu obraz ancha xalqchil bo‘lib, arab xalq latifalarining qahramoni bo‘lgan Juhiy obrazi jihatlariga ham ega. Ular Xo‘ja

Nasriddin haqidagi latifalar shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Abu Zayd – ayyor odam bo'lib, o'zining xarakterida hiyla va yaxshilikni, andishasizlik va oliyjanoblikni birlashtirgan. Har safar odamlar orasida yangi qiyofada paydo bo'ladigan Abu Zayd o'zining o'ylab topilgan sarguzashtlari haqida hikoya qiladi hamda tinglovchilarni so'z ustaligi bilan qoyil qoldirib, maqsadiga erishadi. Uning maqsadi esa arzimas – ovqat va boshqa shaharga ketish uchun biroz pul topish. Abu Zayd o'zining mustaqil maqomini juda yuksak qadrlaydi. Oltinchi – «Marag'iy maqomasida» al-Xaris ibn Hammom Abu Zaydning notiqlik san'ati tanazzulga uchraganidan shikoyat qilayotgan suhbatdoshlariga javoban boshni aylantiradigan risola to'qiydiki, unda faqat bayt ostidagi va ustidagi nuqtalari bilan ajralib turadigan bir xil ko'rinishdagi ajoyib asar yaratadi*. Abu Zaydning san'atiga qoyil qolgan mahalliy hukmdor unga saroyda katta lavozim taklif etadi. Ammo Abu Zayd bu taklifni rad etadi: «Men uchun kambag'al bo'lib, bir mamlakatdan boshqasiga o'tib yurish turli noqulayliklarga ega bo'lgan lavozimdan afzaldir. Qanchalik katta lavozimga ega bo'lmaylik, biz, o'zgalarning takabburligi va ta'nalariga chidashga majbur bo'lamiz. Hech bir hukmdor xizmatimga munosib mukofot bermaydi. Hech kim o'z xizmatchilarini himoya qilmaydi».

O'n ikkinchi – «Gut (yoki Damashq) maqomasida» kun kechirish uchun so'zlar yordamida pul topishga majbur bo'lgan Abu Zaydning ijtimoiy maqomi aytiladi. Maqoma qahramoni darvesh niqobiga kirib, Damashqdan Bag'dodga ketayotgan sayyoh savdogarlarga ularni «faqat so'zlar bilan» qo'riqlashni va'da qiladi. Butun yo'l mobaynida Abu Zayd duo qilib boradi. Yo'l oxirida esa savdogarlardan pulini olgach, karvonni tashlab, mayxonaga jo'naydi. Ibn Hammom oldida o'zini oqlab, u o'zining quvnoq, tashvishsiz hayotini himoya qilib butun boshli qasida aytib beradi, o'zini «dushmanning taqdiri bilan quviladigan ehtiyoj farzandi» deb ataydi hamda o'zining unchalik yaxshi bo'lmagan harakatlarini turmush qiyinchiliklari bilan oqlashga harakat qiladi. Abu

*Arab tilida ayrim harflar bir xil shaklga ega bo'lib, faqat bayt osti va usti nuqtalari bilan ajralib turadi.

Zayd o'z suxandonligidan faqat g'arazli maqsadda foydalanmaydi, balki kambag'allar va adolatsiz xafa qilinganlarni himoya qilish (masalan, aybsiz qamalganlarni qutqarish, noto'g'ri hukm chiqargan qozini aldash, jinoyatchining afv etilishiga erishish)da ham qo'llaydi. Abul Fatx kabi Abu Zayd ham o'z davriga xos shaxsdir. Ma'lumotli va tadbirkor daydi va tavakkalchi tipi o'zaro nizolardan parokanda bo'layotgan mamlakatdagi voqelik tufayli yuzaga kelgan edi. «Iskandariya maqomasida» Abu Zayd o'zi haqida shunday deydi: «Ilgari mening ma'lumotim menga boylik manbai bo'lib xizmat qilgan. Lekin hozir ma'lumotli odam qadrlanmayapti. Ma'lumotlilik eng arzon va hech kimga kerak bo'lmagan mol hisoblanadi».

Maqomalar muallifining asosiy qahramon – hozirjavob daydi shoirga munosabati ham o'zgaruvchandir. Abu Zayd ibn Hammomni ko'p marotaba alday olganiga qaramay, hikoyachi nafaqat unga nisbatan adovat his qilmaydi, balki aksincha, u haqda oshkora muhabbat bilan gapiradi. Abu Zaydning hayotga moslashganligi, topqirligi, bilimdonligi, hozirjavoblighi hikoyachini qoyil qoldiradi, uning nojo'ya ishlari, makr-hiylalari xayrixoh ta'nalar, xolos. Biz maqomalarda jonga tegadigan didaktikani ham, pand-nasihatni ham uchratmaymiz. Muallifning qahramonga munosabatida inson tabiatining o'ziga xoslikligi va boy imkoniyatlariga nisbatan mehr his qilinadi. Bu esa, Uyg'onish davri madaniyatiga juda xos jihatdir. Al-Haririy maqomalari al-Hamadoniynikidan adabiy jihatdan puxtaroq ishlangani, tuzilishining mukammalroq ekanligi, shaklining nozikligi bilan farq qiladi. Al-Haririy maqomalarining syujeti va tuzilishi odatda muallif o'zining mohir shoirlik texnikasini namoyish qila oladigan qilib qurilgan. Masalan, uchinchi – «Dinor haqidagi maqomasida» juldur kiyimdagi ma'lumotli qashshoqning ko'rinishidan ajablangan Ibn Hammom agar u tangani «durdona she'rlar» bilan tarannum etsa, unga oltin dinor berishini va'da qiladi. Abu Zayd shu yerdayoq to'satdan katta madhiya to'qiydi.

Abu Zaydning mahoratidan qoyil qolgan Ibn Hammom agar shoir tangaga haqorat ma'nosida she'r yozsa, yana bir dinor berishini va'da qiladi. Shoir darhol yangi she'rini aytib beradi.

Muallif shoirning ayni bir narsani bir xilda sharaflash va ustidan kulish qobiliyatiga qoyil qoladi. Biroq bu yerda o'z qarashlarini oson o'zgartiradigan va turli sharoitlarga moslashuvchi saroy shoirlarining axloqi ongli yoki ongsiz ravishda parodiya qilinadi.

Al-Haririy Al-Hamadoniya taqlid qilib, o'z maqomalarini tegishli epizod bo'layotgan joyning nomi bilan ataydi. Eng qizig'i, bunda ushbu joyga xos bo'lgan so'z va ifodalardan mohirlik bilan foydalanib, shevalarni a'lo darajada bilishini namoyish qiladi.

A.E. Krimskiyning fikricha, al-Haririy arab adabiyotiga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatgan. Arablar uning maqomalarini o'rganish davomida badiiylik idealini tabiiy she'riyatda emas, balki jimjimadorlik va so'z o'yinida ko'rishga o'rgandilar.

Biroq, al-Haririy maqomalarining jonli, ba'zan hatto jozibali qahramoni hamda «mumtoz davrning eng oxirgi taniqli shoiri»ning benuqson she'riy texnikasi hozir ham arab ma'lumotli kitobxonini qoyil qoldirishda davom etmoqda.

7.2. SIRATUL-ANTARA

Darsning maqsadi: Mazkur bobda hamda katta hajmdagi nasriy asarlardan "Sirat al-Antara" va uning mazmun-mohiyati haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *"Sirat al-Antara", risarlik romani, Abs qabilasi, Abla, Xira podshosi, al-Munzir.*

Xalq romani. Antara haqidagi roman. XII asr boshida arab adabiyotida yangi nasriy janrlar rivojlanadi.

Nasroniylar qo'shining xalifalik hududiga bostirib kirishining va Yaqin Sharq hududida mahalliy aholini shafqatsiz ezgan salibchilar davlatining

shakllanishi XII asr oʻrtalarida Suriya, Falastin, Misrdagi musulmon aholi kuchlarining birlashishiga olib keldi. Salibchilarga qarshi kurashda Misrda ayubiylar sulolasiga asos solgan hamda Misr, Suriya va Hijozning bir qismini birlashtirgan misrlik sarkarda Salohiddin (1169–1193) boshchilik qildi. 1187 yilda Salohiddin salibchilarni Tiveriad yaqinida magʻlub etib, Quddus shahrini qoʻlga kiritdi.

Salibchilarga qarshi urush arablarda diniy kayfiyatlar va qabilaviy umumiylik his-tuygʻularini keltirib chiqardi, qahramonona oʻtmishga qiziqish uygʻotdi.

Bu davrda ayubiylar boshchiligidagi Misrda salibchilarga qarshi urushning bevosita taʼsirida risarlik romani deb atalgan janr shakllanadi. Arablarda eng mashhur boʻlgan ushbu janrdagi asarlardan biri koʻp jildli «Antaraning hayoti» («Sirat Antara») xalq romani hisoblanadi. Asar markazida haqiqiy tarixiy shaxs, islomgacha boʻlgan Arabistonda VI asr oxiri – VII asr boshida yashagan mashhur badaviy jangchi shoir Antara turadi.

«Antaraning hayoti» asarining bizgacha yetib kelgan dastlabki variantlari 32 ta kitobdan iborat boʻlib, ularning tamomlanishi, «Ming bir kecha» toʻplamidagi «kechalar» tugashi singari, har doim ham u yoki bu epizodning yakunlanishi bilan mos kelmaydi. Zamon didiga muvofiq ravishda «Sirat Antara»ning kattagina qismi qofiyali nasr shaklida yozilgan boʻlib, unga taxminan 100 mingta sheʼriy bayt kiritilgan. Romandagi harakat deyarli olti yuz yil davom etadi hamda islomgacha boʻlgan tarix voqealari, qabilalararo urushlar hamda Arabistondagi Vizantiya–Eron raqobatini, Osiyo, Afrika, Yevropadagi arab musulmon istilolarini, salibchilarga qarshi urushni oʻz ichiga oladi. Voqeadan voqeaga oʻtgan sayin qissaning geografik va xronologik doirasi kengayib boradi. Roman qahramoni esa qabila qahramonidan barcha arablarning boshligʻi va hamma musulmonlarning himoyachisiga aylanadi.

«Antaraning hayoti» asarining qisqacha mazmuni quyidagicha. Abs qabilasining boshliqlaridan biri Shaddod qora tanli Zabiba ismli qizni hibsga oladi (keyinroq u podshoning qizi ekanligini bilib olamiz). U Shaddodga oʻgʻil –

Antarani tugʻib beradi. Antara bolalik yillaridayoq jismonan nihoyatda kuchli ekanligi va jasurligi bilan barchani hayratga soladi. Biroq Antara, qabilasining qonunlariga muvofiq, kanizakning oʻgʻli sifatida qul hisoblangan va uzoq vaqt oddiy choʻpon boʻlib yurgan. Lekin Antara qabilaga qoʻshni qabila hujum qilganida koʻrsatgan yordami uchun ozodlikka erishadi va teng huquqli jangchi sifatida eʼtirof etiladi. Ammo qullikdan qutulish Antaraga toʻliq baxt keltirmadi. Yoshligidan u oʻzining amakivachchasi goʻzal Ablani sevib qoladi, ammo uning amakisi – Ablaning otasi oʻz qizining kanizak oʻgʻliga turmushga chiqishiga qattiq qarshilik koʻrsatadi va Antaraga bajarish nihoyatda qiyin boʻlgan har xil shartlar qoʻyadi. Amakisining shartlarini bajarish va Ablaga erishishga intilgan Antara ajoyib qahramonliklar koʻrsatadi. Uning faoliyat maydoni doimiy ravishda kengayib boradi. Antara oʻz qabilasida uning Abla bilan nikohiga qarshilik koʻrsatayotgan otasining qarshiligini yengadi va shoir Urva ibn al-Vard boshchiligidagi koʻp sonli raqobatchilarni magʻlub etadi. Antara raqiblarini faqat jangda yengmaydi. Buyuk shoir Antara sheʼriy musobaqada ham gʻolib keladi. U eng buyuk shoir Imru-l-Qaysning sheʼriyat boʻyicha imtihonidan oʻtadi. Antaraning muʼallaqasi eng yaxshi deb topiladi va Makka ibodatxonasiga asir qoʻyiladi. Antara jangda abs qabilasiga dushman boʻlgan fazara qabilasining eng zoʻr qahramonlarini yengadi va ular bilan aka-uka tutinadi, shuningdek boshqa jasur va kuchli badaviy jangchilar ustidan gʻolib keladi.

Soʻngra qahramonning faoliyati Arabistondan tashqariga chiqadi. Bunga Ablaning otasi qoʻygan yangi vazifa sabab boʻladi. U nikoh sovgʻasi sifatida faqat Xira podshosi al-Munzir koʻpaytiradigan maxsus zotli tuyalardan mingtasini olib kelishni talab qiladi. Antara Iroqqa joʻnaydi hamda arab podsholari va ularning vazirlari bilan doʻstlashadi. U forslarga vizantiyaliklarga qarshi kurashda koʻmaklashish uchun Iroqdan Eronga boradi. Uning doʻstlari orasida Xusrav Anushirvon va boshqa sosoniy hukmdorlar boʻladi.

Erondan keyin Antara Suriyaga joʻnaydi. U yerda hukmdorning oʻgʻli Antaraning doʻstiga vaʼda qilingan qizga tixirlik qilayotganida u bilan kurashib, doʻstining raqibini oʻldiradi, podsho al-Xaris al-Vahhobni yengadi va u bilan aka-

uka tutinadi, al-Xaris o'limidan keyin esa yangi podsho, hali yosh bo'lgan Amir ibn al-Xarisga vasiylik qiladi, amalda esa Suriyaning hukmdori bo'ladi.

Shundan keyin harakatlar Yevropaga ko'chadi. Suriyada nasroniylarga yordam bergani uchun Antara Konstantinopolga taklif qilinadi va u yerda unga har tomonlama hurmat ko'rsatiladi. Biroq Fransiyaning akasini o'ldirgani uchun Antaraga dushman bo'lgan qiroli Laylaman Vizantiyadan arab qahramonini ushlab topshirishni talab qiladi.

Shunda Antara imperatorning o'g'li Irakli bilan birga Vizantiya qo'shiniga boshchilik qilib, franklar zaminiga jo'naydi. Uni Vizantiya mulkiga qo'shadi, Ispaniyagacha yetib boradi, ispan qiroli Sant Yagoni mag'lub qiladi, uning Shimoliy Afrikadagi mulki orqali Misrga boradi va Konstantinopolga qaytadi. Bu yerda Antara sha'niga ulkan haykal o'rnatiladi.

Uzoq hayoti mobaynida Antara ko'plab yurishlarga boshchilik qiladi. U Vizantiya imperatorining jiyaniga, Rim qiroli Balkam ibn Murkosga Rimni qamal qilgan Boemundni quvib yuborishda yordam beradi, Sudanda urush qiladi va oxirida negus mulkigacha yetib boradi; negus onasining amakisi bo'lib chiqadi va Antara shu tariqa onasining podsho qizi ekanligini bilib oladi. Antara Bayda zaminida podsho Laylamanga qarshi devlar yurtiga fantastik ekspedisiyaga boshchilik qiladi va hokazo.

Hayotining oxirida Antara sotqinlik qurboni bo'ladi va fojiali sharoitda o'z dushmani – bir vaqtlar ko'p bora yenggan va asir qilgan, so'ngra rahmi kelib ozod qilgan Vizr ibn Jobir ismli dushmanining qo'lidan halok bo'ladi. Vizr Antaraning oliyjanobligidan o'zini qattiq tahqirlangandek his qilib, qayta-qayta unga hujum qilar edi. Shu bois Antara pirovard natijada uni ushlab ko'zini ko'r qilib qo'yishga majbur bo'lgan edi. Antaradan qasos olishga intilgan Vizr ovozga qarab nishonga olib otishni o'rganadi va bir kun kelib Antarani zaharlangan o'q bilan sotqinlarcha o'ldiradi. Antara o'zining suyuqli oti al-Abjar ustida halok bo'ladi.

Sayohatlar vaqtida Antara ko'plab ishqiy sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Rim imperatorining singlisi Antaraga Gadanfar ismli o'g'il tug'ib beradi. Antara o'g'lining onasi Jufrana Fransiya malikasi bo'lgan. Antaraning farzandlari

Sharqqa salibchilar qo‘shiniga boshchilik qilib keladilar va shu yerda ularning otasi Antara sotqinlik qurboni bo‘lganligini bilib qoladilar. Ular otasi uchun qasos oladilar va Yevropaga qaytadilar. Roman oxirida Antaraning qabiladoshlari – absiylar islomga kirganligi aytiladi.

Matnda roman muallifi Bag‘dodda xalifa Xorun ar-Rashid saroyida yashagan mashhur tilshunos al-Asma’i (740–831) ekanligi bir necha bor eslatib o‘tiladi. Biroq, romanga ishonadigan bo‘lsak, muallif Antara va islomgacha bo‘lgan boshqa shoirlar bilan shaxsan tanish bo‘lganligi, ko‘pgina ma’lumotlarni esa Antaraning o‘z og‘zidan olganligi ma’lum bo‘ladi. Shu bilan birga, romanda ta’kidlanishicha, muallif asarni 1080 yilda yozib tugatgan. Bu esa romanga al-Asma’ining muallifligi haqidagi ma’lumotlar noto‘g‘ri ekanligiga ishontiradi.

«Antaraning hayoti» haqidagi ma’lumotlarni ilk bor XII asr o‘rtalariga taalluqli tarixiy manbalarda ko‘ramiz. Ushbu asarda keltirilgan tarixiy shaxslar bo‘yicha xulosa chiqaradigan bo‘lsak, roman yoki uning ayrim qismlari bevosita birinchi salib yurishidan keyin yozilgan deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, roman to‘liq shakllangan vaqt deb XII asrning birinchi yarmini tan olish lozim. Ehtimol, romanning dastlabki o‘zagida bunchalik ko‘p voqealar bo‘lmagan va u bunchalik ko‘p mamlakatlarni qamrab olmagan. Roman oxirida Antara o‘z hayoti haqida gapirib berayotganida faqat Arabiston, Iroq, Eron va Suriyadagi qahramonliklarini hikoya qilishi, bunda na Vizantiyani, na Yevropa mamlakatlarini, na Shimoliy Afrikani, na Sudan va na Xabashistonni eslamaganligi e’tiborga loyiq. U shuningdek, o‘zining faqat bitta muhabbati – Ablaga bo‘lgan sevgisini aytib beradi. Holbuki avvalgi kitoblarda qahramonning odatda zodagonlardan kelib chiqqan ko‘plab mahbubalari namoyon bo‘ladi. Antara o‘z farzandlari haqida hech narsa demaydi, ammo avvalgi kitoblarda uning farzandlari salibchilarning yo‘lboshchisi bo‘lganligi keltiriladi. Nihoyat roman boshida Antara o‘zini oddiy kanizakning o‘g‘li deb tanishtiradi, romanning o‘rtasida esa kutilmaganda uning onasi podsho qizi ekanligi, binobarin, Antara aslzoda ekanligi ma’lum bo‘lib qoladi. Aftidan, romanning dastlabki varianti Iroqda salib yurishidan avval paydo bo‘lgan. Salib yurishi davrida esa u yangi

material bilan to'ldirilgan. Ushbu holda, ehtimol, al-Asma'i – romanning dastlabki o'zagiga muallif deb hisoblash mumkin.

Romanning turli qismlarida turli davrlar, ba'zan esa turli dunyoqarashlar ta'siri seziladi. Asarning qahramonlik, badaviy ruhida, qabilalararo urushni tavsiflashda islomgacha bo'lgan rivoyatlarning ta'siri bor. G'olib islomning yo'lini ochib boruvchi Antaraning qahramonliklarida ham, Arabiston, Eron, Suriya, Shimoliy Afrika va Ispaniyaga qahramonning yurishlarida ham VII–VIII asrlardagi arab istilolari o'z ifodasini topgan.

Eron saroy marosimlari va hayotini (ov, kaptar orqali xat jo'natish) tasvirlashda, mansabdor shaxslarning forsha nomlarida, terminlar, ismlar va shu kabilarda fors madaniyatining ta'siri juda sezilarli.

Shubhasiz, romanning Antaraning Yevropadagi sarguzashtlari hikoya qilinadigan bir qismi salibchilar yurishi bilan bog'liq. Antara Osiyoga salibchilar kirib kelgan yo'lga teskari yo'nalishdagi (Suriyadan Vizantiya orqali franklar davlatiga) yurish qilib, o'zining qahramonliklari bilan arablarning Yevropa risarlari ustidan g'alabasini namoyon etgan. Ko'kragida xoch rasmi va belida ordenlik belbog'i (Damashq va Antioxiyani qamal qiluvchi) tasvirlangan salibchining qiyofasi roman sahifalarida bir necha bor paydo bo'ladi. Muallifning salibchilarga munosabati, keyinchalik yozilgan xalq romanlaridan farqli ravishda, har doim sabr-toqatli, mutaassiblikdan xolidir. Matnda nasroniy diniy atamalari nihoyatda ko'p, nasroniylar Iso, Maryam, Injil kabilar bilan qasam ichadilar. Romanda uchraydigan nasroniy ismlar ohangi bo'yicha grek, rim, eski fransuz, eski ispan ismlariga o'xshab ketadi.

Roman muallifi aftidan, o'zi hech qachon Yevropada bo'lmagan va u haqda boshqalarning hikoyalaridan ma'lumotga ega bo'lgan; shu bois romanda keltirilgan Yevropa haqidagi ma'lumotlar fantastik xususiyatga ega.

«Antaraning hayoti» asarining romanda «Risarlar otasi» yoki «Risarlar risari» deb ataluvchi qahramoni barcha risarlik fazilatlarining sohibidir. U oliyjanob, bir so'zli, risarlik sha'niga sodiq. U dunyo bo'ylab sayohat qilar ekan, tul qolgan ayollar, yetimlar va kambag'allarga homiylik qiladi. Romanda risarlik

turmushining barcha jihatlarini ko‘ramiz. Yurishlarda Antaraning ortida qurol olib yuruvchilar boradi. Romanda tasvirlanadigan turnirlar ayollar oldida, bayroqlar bilan bezatilgan maydonlarda yuz beradi. Bu narsa XI–XII asrlarda, ya’ni «Antaraning hayoti» yozilgan davrda salibchilar yurishlari davrida yuzaga kelgan.

Seminar mashg‘ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. Tarassul – epistolyar janr asarlari.
2. Al-Hamadoniyning maqomalari.
3. Antara haqidagi roman.
4. Antaraning hayoti haqidagi ma’lumotlar.
5. X–XI asrlarda arab badiiy nasrining rivojlanishi.
6. Al-Haririy maqomalari.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Shaxsiy va rasmiy yozishmalar.
2. Maqoma janrining paydo bo’lishi.
3. Maqoma qahramonlari.

VIII BOB. VIII–XV ASRLARDAGI ARAB-ISPAN

(ANDALUZIYA) ADABIYOTI

8.1. TAQLID DAVRI ADABIYOTI

Darsning maqsadi: Taqlid davrida ijod qilgan arab-ispán shoirlari ijodi bilan tanishtiriladi.

Tayanch so‘zlar va iboralar: *taqlid davri, “Noyob marjon”, Amiriylar sulolasi, sargardonlik yillari, Pirineya yarim oroli, berberlar, Kordova.*

O‘rta asr arab madaniyati va adabiyotining markazlari nafaqat sharqiy viloyatlar (Iroq, Suriya va Misr), balki xalifalikning shimoliy-g‘arbiy chekkalari – arab Ispaniyasi (Andaluziya)ning gullab-yashnayotgan shaharlarida ham bo‘lgan. Arab istilochilari Pirineya yarimorolida bo‘lgan VIII asr mobaynida berberlar va mahalliy arablashgan vesgot aholisi bilan birgalikda Andaluziyani arab

dunyosining eng rivojlangan viloyatlari bilan bir qatorga olib chiqqan yuksak madaniyatini yarata oldilar.

Arablar Ispaniyaga VIII asrning ikkinchi oʻn yilligida kelganlar. Ular shimoliy Afrikani zabt etib, u erlik berber qabilalari yordamida uch yil ichida (711–714) Pireney yarimorolining katta qismini istilo etdilar. Ispanlar faqat shimolda, Assuriya togʻlaridagina mustaqilligini saqlab qolib, kichikroq ispan-vesgot qirolligini tashkil qila oldilar. 756 yilda Ispaniyada Bagʻdod xalifalaridan amalda mustaqil boʻlgan va markazi Kordovada joylashgan amirlik tashkil topdi. Davlat boshligʻi umaviylar sulolasidan chiqqan Abdurahmon I boʻldi. 929 yilda amir Abdurahmon III xalifa maqomini oldi va bu bilan Abbosiylardan mustaqilligini eʼlon qildi.

Andaluziyaning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga uning qulay geografik joylashuvi yordam bergan. Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlari oʻrtasida savdo va madaniy ayirboshlashda vositachilik qilish vazifasi uning chekiga tushdi. Juda yaxshi tabiiy sharoitlar bu yerda ziroatchilikni rivojlantirishga imkon bergan. Andaluziya shaharlarida hunarmandchilik gullab-yashnagan. Oʻzaro musobaqalashgan amirlar oʻz viloyatlarining poytaxtlarini madaniyat markazlariga aylantirishga harakat qilganlar, masjidlar, saroylar qurdirganlar, maktab va kutubxonalarga asos solganlar. Andaluziyaning Kordova, Granada, Sevilya, Toledo kabi shaharlari yirik ilmiy markazlarga aylangan. Ularning universitetlari va boshqa oʻquv yurtlariga islom olamining barcha hududlaridan va hatto Yevropadan talabalar oqib kelar edilar. Arablar oʻzlari bilan Ispaniyaga arab tili hamda xalifalikning sharqiy hududlarida yuzaga kelgan madaniy anʼanalarni olib kirdilar. Andaluziyaning tub aholisi, qisman arablashgan holda, arablarning tilini qabul qildi. Xalifalikning sharqiy hududlari bilan keng aloqalar olib borildi.

Arablar bilan birga Ispaniyaga arab adabiyoti ham kirib keldi. Bu adabiyot muayyan bosqichda xalifalikning sharqiy viloyatlari adabiyotidan ajralib, mustaqil hayot kechira boshladi. Ispaniyadagi arab adabiyotining rivojlanish tarixini uch bosqichga boʻlish mumkin: «taqlidchilik davri» (X asr oxirigacha); «yangilanish davri» (XI asr boshi – XII asr oʻrtasi); va «tanazzul davri» (XII–XV asrlar).

Arab tanqidchiligida «taqlidchilik davri» nomini olgan birinchi bosqich deyarli uch yuz yilni VIII-X asrlarni qamrab oladi. U asosan Kordova xalifaligining gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Kordovaning ma'rifatli hukmdorlari VIII asr o'rtasidan boshlab adabiyotning an'anaviy shakllarda rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatladilar. Bu davrda arab istilochilari orasida qabilaviy qahramonliklar kuylangan, halok bo'lganlar haqida qayg'urilgan yoki tashlab ketilgan vatan sog'inchi ifodalangan kichik qasidalar rivojlantirilgan. Andaluziyaning «taqlidchilik davri» shoirlari Bag'dod shoirlarining an'alariga og'ishmay rioya etishga harakat qilganlar, zero ularning asarlari bular uchun badiiy etalon vazifasini bajargan.

Andaluziya adabiyotining bizgacha yetib kelgan asarlarining eng dastlabkilari VIII asr o'rtalariga taalluqlidir. Bizga Abbosiylar ta'qibidan qochgan va Andaluziyada mustaqil umaviylar davlatiga asos solgan umaviy amir Abdurahmon I Kelgindining she'rlari ma'lum. Ushbu she'rlar jonajon vatan haqidagi sog'inch hislariga to'liq.

Andaluziya adabiyoti va san'atining rivojlanishida Kordovaga Bag'doddan kelgan fors **Ziryab** (789–857) katta rol o'ynagan. U musiqachi, qo'shiqchi va aktyor bo'lib, sharqiy arab adabiyotidagi she'rlarni musiqa bilan birga ijro etish madaniyatini Ispaniya zaminiga olib kirgan. Shu vaqtdan boshlab Andaluziya she'riyati musiqa bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlangan.

Kordova «taqlidchilik» adabiyotining gullab-yashnashi X asrlarga to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropa hali madaniy rivojlanishning juda past darajasida bo'lgan hamda yagona savodli tabaqa ruhoniylar bo'lgan o'sha davrda Ispaniya nihoyatda katta iqtisodiy va madaniy yuksalishni boshidan kechirardi. Bag'dodda kuchayib borgan siyosiy va diniy reaksiya Andaluziyaga ta'sir etmadi. Ma'rifatli kordovalik xalifalar **Abdurahmon III** (912–961) va **al-Hakam II** (961–976) keng miqyosdagi qurilish faoliyati bilan shug'ullandilar, fan va san'atga homiylik qildilar. Xalifa al-Hakam II Kordovada ko'plab maktablar ochdi, Kordova universiteti Ispaniyadan uzoq-uzoqlarda ham ma'lum bo'lgan. Xalifaning kutubxonasi esa, arab manbalarining dalolat berishicha, 400 mingga yaqin

qo'lyozmalarga ega bo'lgan. X asrda Andaluziya adabiyotining rivojlanishida Kordovanning boy homiylari tashkil qilgan adabiy to'garaklar juda katta rol o'ynagan. Kordova xalifalarining vaziri qudratli al-Mansur (Yevropada «al-Mansor») qoshida ochilgan to'garak ayniqsa mashhur bo'lib ketgan.

Arab tanqidchiligida «taqlidchilik» adabiyotining eng katta siymosi deb haqli ravishda Abdurahmon III ning shoiri kordovalik **Ibn Abdu Rabbixiy** (860–940) hisoblanadi. U «Noyob marjon» («al-Ikd al-Farid») adabiy antologiyasining, shuningdek an'anaviy janrlar (ishqiy lirika, madhiyalar, marsiyalar va boshqalar)ga taalluqli bo'lgan bir qator she'rlar muallifidir. «Noyob marjon» 25 ta bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ulardan 12 tasi qaysidir qimmatbaho tosh nomi bilan nomlangan. U Ibn Qutaybaning «Ma'lumotlar manbalari» («Uyun al-axbar») asaridan foydalangan holda yozilgan hamda xalifalikning sharqiy viloyatlari adabiyotlari haqida bir qator ma'lumotlarga ega. Muallif turli-tuman ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-adabiy va hatto axloqiy masalalarga to'xtalgan. Ibn Abdu Rabbixiyning «Noyob marjon» asari Ispaniyada ham, xalifalikning sharqiy viloyatlarida ham juda mashhur bo'lgan. Kitob shu qadar qiziqarli bo'lganki, yuqorida aytilganidek, uni ilmiy va badiiy nasr chegarasida bo'lgan adaba janriga kiritish mumkin.

Ibn Abdu Rabbixiy yoshlik yillarida ishqiy mazmundagi bir qator she'rlar yozgan, ammo umri oxirida, xuddi Abu Nuvas kabi, o'zining axloqsizligidan afsuslanib, yoshligida yozgan har bir lirik she'ri evaziga xuddi o'sha qofiya bilan «poklanish» uchun yozilgan «diniy» mazmundagi she'rlar to'plamini tuzdi.

Andaluziyaning «taqlidchilik davri» shoirlaridan yana bir mashhuri **Ibn Xaniy** bo'lgan (938–973). Arab tarixchisi Ibn Xalliqon uni hattoki al-Mutanabbiy bilan yonma-yon qo'ygan. Ibn Xaniy o'zining shialarga xayrixohligi, shuningdek jasoratli mubolag'alari, maqtalayotgan shaxsni xudoga qiyoslagani bilan jonajon Sevilyada mo'min-musulmonlarning g'azabini qo'zg'atdi va Shimoliy Afrikaga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi. Bu yerda uni fotimiylar xalifasi al-Mansurning o'g'li, fotimiylar Misrni zabt etgandan keyin mamlakat hukmdori bo'lgan al-

Mu'izz o'ziga yaqinlashtirdi. Ibn Xaniy o'z homiysi huzuriga ketayotganida 35 yoshida noma'lum qotil qo'lida halok bo'ldi.

Ibn Xaniy qalamiga oltmishga yaqin qasida, asosan odatdagi janrlar sxemasida yozilgan madhiyalar mansubdir. Ularning o'ziga xos yagona jihati deb tushkun kayfiyatdagi falsafiy asarlarini hisoblash mumkin. Ibn Xaniy she'rlari shoirlik mahorati nuqtai nazaridan ham ancha oddiy. Shoirning qasidalarida badiiy san'atlar ko'p ishlatilgan, quyida tashbih san'atiga oid yozilgan misollarni keltiramiz:

*Quyosh nurlarida quyma oltin kabi yaraqlayotgan
Bepoyon yaylovlarni ko'rmayapsizmi
Nozik lolaqizg'aldoq ko'zlariga surma surtilgandek
Kimdir uning yaproqlariga qon tomizayotgandek...*

Shuningdek, kordovalik yozuvchi **Amir ibn Shuxeyd** (992–1035)ni ham eslab o'tmaslik mumkin emas. U o'zidan bir qator go'zal madhiyalar va lirik she'rlar hamda mazmuni bo'yicha al-Maarriyning «Kechirim haqidagi risola»sini, bayon etilish xarakteri, toni bo'yicha al-Jaxizning hajviy asarlarini eslatuvchi «Ruhlar va yovuz jinlar haqida risola» nomli o'ziga xos nasriy asarini qoldirgan. «Ruhlar haqidagi risola»da muallif ruhlar dunyosiga qilgan fantastik sayohati, vafot etgan arab shoirlari va yozuvchilarning ruhlari bilan uchrashgani haqida hikoya qiladi. Unda muallif uchratgan har bir adib unga o'z asarlarini o'qib beradi.

Ibn Darroj (958-1030). Abu Umar Ahmad ibn Muhammad ibn al-Asi ibn Ahmad ibn Sulaymon ibn Aysi ibn Darroj al - Andalusiy al-Kastalliy. 958 yili aprelida (347 hijriy muxarram) sanxaj qabilasining berber oilasida tug'ildi. Bu qabila vakillari musulmonlardan birinchi bo'lib, 711 yili Ispaniyaga kirib kelgan edilar. Ibn Darroj boshqa shoir va olimlar kabi madrasalarda o'sha davr barcha ilmlaridan tahsil oladi. Ispaniyada bu davrda al Mansur hukmronlik qilardi. Shuning uchun 992 yili Kordovaga kelgan ibn Darroj al Mansur sharafiga

o'zining birinchi qasidasini yozadi. Al Mansur o'z atrofiga ko'zga ko'ringan adib va shoirlarni to'plagan, ular hammasi ma'lum imtihonlardan o'tgan edilar. Imtihonlardan o'tgan shoirlargina "Shoirlar devoni"ga kiritilar, shundan keyingina ular rasmiy shoir hisoblanib, oylik maosh bilan taminlanar edilar. Ibn Darrojning birinchi chiqishidayoq uni "Shoirlar devoni"ga kiritildi, biroq uni ko'rolmaganlar ham bo'ldi. Shu bois u 992 yili 2 dekabrda obro'li majlis oldida ikkinchi imtihondan o'tdi. Bu gal u al Mansur saroyida katta qasida o'qib berdi. Unda shoir amiriylar sulolasiga bo'lgan o'zining samimiy sadoqati va o'z hukmronining fazilatlarini shon shuhrati uni "Imonning himoyachisi"ekani haqida to'lib, toshib gapiradi.

Ibn Darroj 16 yil davomida amiriylar davlatining ham shoiri, ham tarixchisi sifatida har bir voqeaga o'z munosabatini bildirib turdi. U o'z madhiyalariga janglarda chavandozlarning ko'rsatgan qahramonliklarini quyidagicha madh etadi:

*Sherlar o'kirar, bayroqlar, xuddi ularning yuragiga o'rnatilgandek
shamolda bir-biriga urilardi ...*

Va zamin ham qahramonlardan qorqqandek titrar,

Chavandozlarning ko'pligidan havoda chang-to'zon ko'tarilardi.

Shu tufayli u butun Andaluziya bo'yicha mashhur bo'lib ketdi. Biroq al Mansurning vafoti saroy shoirlarining tarqalib ketishiga sabab bo'ldi. Chunki yangi xalifa otasi davridagi shoirlarni saroyda qoldirgan bo'lsa-da, shoirlar va ularning she'rlariga uncha ahamiyat bermadi. Yaxshi she'rni yomon she'rdan ajrata bilmadi. Ketma-ket xalifalarning o'zgarishi saroy shoirlari ahvolini og'irlashtirdi. Shuning uchun boshqa shoirlar kabi ibn Darroj ham Kordovadan Seutuga- Ali ibn Hammud saroyiga keladi va albatta unga bag'ishlab bir qasida yozadi.

O'zining Shimoliy Afrikaga qilgan bu safari ma'qul kelmay yana Ispaniyaga qaytadi. 1014-1018 yillar u Almeriya, Valensiya, Xativ, Targos degan shaharlarga boradi va u erda o'z baxtini qidiradi. Biroq hech erda qo'nim topa olmaydi.

Sakkiz yillik sargardonlikdan so'ng ibn Darroj Saragosga - Tujibiylar sulolasi saroyiga keladi va bu erda o'n yil xizmat qiladi.

U juda ko'p qasidalar yozadi va 1030 yili shu erda vafot etadi.

Ibn Darroj ijodi to'rt davrga bo'linadi.

1. Al Mansur saroyiga kelishdan oldingi davr.
2. Amiriyalar saroyidagi davr (992-1009 yy.).
3. Sargardonlik yillari (1009-1018yy.).
4. Tujibiylar saroyidagi davr (1018-1028yy.).

Mana shu to'rt davrda eng muhimi bu Kardovada Amiriyalar saroyidagi davrdir. Bu davrda shoir 70 dan ortiq asar yaratdi. Shulardan 30 dan ortig'i al Mansurga atalgan madhiyalardir. Ibn Darroj o'z ijodida boy Sharq an'analarini davom ettirdi.

XI asr boshlarida Kordova xalifaligining tanazzulga yuz tutishi, Andaluziyada ko'pgina amirliklarning paydo bo'lishi arab - ispan adabiyoti rivojiga hech qancha to'siq bo'lolmadi.

XI asrning boshida Kordova xalifaligining parchalanishi hamda Andaluziyada ko'plab mayda podsholiklarning shakllanishi Andaluziya adabiyotining rivojlanishda davom etishiga xalal bermadi. Endilikda Kordova bilan bir qatorda adabiy hayot markazlarini Sevilya, Badaxos, Valensiya, Mursiya, Xaem, Granada, Almeriya, Mayorka oroli tashkil qilgan.

8.2. YANGILANISH DAVRI ADABIYOTI

Darsning maqsadi: Yangilanish davrida ijod qilgan ispaniya tabiatini kuylagan shoirlari va adiblari ijodi bilan tanishtiriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *Ibn Xazm, "Tauq al-Xamama", marsiya, madhiya, Ibn Xamdis, Ibn Zaydun, Vallada, muvashshax, zajal, Mosarablar.*

Asta-sekin Andaluziya adabiyoti an'anaviy sharqiy arab shakllari va syujetlaridan uzoqlasha boshlagan hamda mahalliy «ispan» mavzusiga yuz tutadi. Andaluziya adabiyoti tom ma'noda arab-ispan adabiyotiga aylanadi va arablarda

«yangilanish» davri (XI asrning 1-yarmi – XII asr oʻrtasi) nomini oladi. Bu davrda Andaluziya sheʼriyatining mazmuni oʻzgaradi. «Taqlidchilik» davri sheʼriyatining bosh mazmunini Iroq sogʻinchi tashkil qilgan boʻlsa, «yangilanish» davri sheʼriyatida Andaluziyaga boʻlgan muhabbat oʻz ifodasini topadi. Andaluziya sheʼriyatida anʼanaviy arab janrlarining barchasi saqlanib qolgan, biroq madhiya yoki hajviyada Sharqiy Arabiston anʼanalarining qonunlari hukmronlik qilsa, ishqiy lirika, hajviyalar hamda tabiat tavsiflarida anʼana ancha oʻzgartiriladi.

Arab-istan sheʼriyatining eng koʻp tarqalgan janrlaridan biri vasf edi. Unda tavsiflashning mazmuni nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Andaluziyalik shoirlar muhabbatining predmetini gullar bilan burkangan Ispaniyaning goʻzal dalalari, daryo, koʻl, togʻ, bogʻ va xiyobonlari tashkil qiladi. Arab adabiyotida ilk bor dengiz va unda suzib yurgan kemalarni keng tavsiflash paydo boʻladi. «Yangilanish» davri shoirlarining eʼtiborini Ispaniya shaharlaridagi goʻzal meʼmoriy inshootlar, naqsh bilan bezatilgan qimmatbaho qurollar, gullar va qimmatbaho matolar, arab-istan feodal podsholiklari saroylarining ziyofatlar, musiqa va raqslar, oʻyin-kulgi va koʻngilxushliklarga toʻla hayoti tortadi. Andaluziya shoirlari oʻz sheʼrlarida ularga faqat adabiy asarlar orqali maʼlum boʻlgan sahro anʼanaviy tasvirlarini Ispaniya tabiatining yorqin manzaralari bilan mohirona birlashtiradilar.

Xuddi Sharqda boʻlgani kabi, ishqiy lirika Andaluziya sheʼriyatida ham muhim oʻrin tutadi. Buning ustiga, Ispaniyada muhabbatning platonik, uzriy hissiy yoʻnalishlarini koʻrish mumkin. May va ziyofat quvonchlarini kuylash ham Andaluziya shoirlarinnig xush koʻrgan mavzularidan biriga aylandi.

Arablarning Ispaniyadagi mavqei mustahkam emasligi, nasroniy davlatlar bilan doimo kurash olib borishga majburligi Andaluziya sheʼriyatining umumiy ruhiga katta taʼsir koʻrsatgan. Shubhasiz, Andaluziya sheʼriyatida ispaniyaliklarning dahshatli hujumi sadosi sifatida sharqiy arablar uchun xos boʻlmagan mavzu – yoʻqolib ketgan sulolalar va shaharlar haqidagi marsiyalar paydo boʻladi. Allohga va sharqiy viloyatlardagi musulmonlarga qaratilgan

cheksiz o'tinchlar arab-ispan shoirlarining she'rlarini to'ldiradi. Islomgacha bo'lgan she'riyat davri arab adabiyotidayoq doimiy ravishda takrorlangan borliqning o'tkinchiligi motivlari Ispaniya arablarining fojiaiy taqdiri fonida arab adabiyotining eng yaxshi lirik asarlari darajasida turgan Andaluziya she'rlarida umuminsoniy ohangga ega bo'ladi.

Kordova xalifaligining so'nggi yillaridagi yozuvchilar qatoriga shoir va olim **Ibn Xazm** (994–1063) kiradi. Aslida arab-ispan «yangilanishi» aynan undan boshlanadi. Ibn Xazm Kordovalik umaviylarning faol tarafdorlariga kirgan va sulola taxtdan ag'darilgach, O'rta yer dengiz qirg'og'idagi kichikroq shahar bo'lmish Almeriyaga ketadi. Bu yerda u do'stining iltimosiga ko'ra «Kaptar bo'ynidagi marjon» («Tauq al-Xamama») nomli muhabbat haqidagi risolani yozadi. Bu asar axloq haqidagi risola va badiiy asar o'rtasidagi oraliq o'rinni egallaydi. «Kaptar bo'ynidagi marjon» – arab adabiyotida faqat bir marta uchraydigan o'ziga xos asar. Uning har bir bobi qandaydir muhabbat qissasiga yoki muhabbat hislarining rivojlanishidagi bosqichlarga: muhabbat belgilari, sadoqat, xiyonat, ajralish kabilarga bag'ishlangan. Muallif odatda umumiy axloqiy-psixologik mulohazalardan keyin o'z xulosalarini tasdiqlash uchun adabiyotdan yoki voqelikdan olingan misollarni keltiradi. Aksariyat hollarda bu misollar muallif zamonidagi Ispaniya hayotidan olingan maishiy latifalar sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, «Kaptar bo'ynidagi marjon» o'z tuzilishiga ko'ra al-Jaxizning «Baxillar haqidagi kitob»ini eslatadi. Bunday kitob Ibn Xazmgacha Andaluziya adabiyotiga noma'lum bo'lgan. Barcha arab hikoyachilarining odati bo'yicha Ibn Xazm o'z asarini kitobning asosiy mazmunini ifodalovchi she'riy kiritmalar bilan ta'minlagan.

Ayrim tadqiqotchilar Ibn Xazmning muhabbatga bo'lgan munosabatini uzriy shoirlarining asarlari – Allohga bo'lgan ilohiy muhabbatning in'ikosi, xolos deb hisoblovchi Bag'dod ilohiyotchilarining qarashlari bilan bog'laydilar. Ibn Xazmning kichikroq yoshdagi zamondoshi Kordovalik buyuk arab-ispan shoiri **Ibn Zaydun** (1003–1071) bo'lgan. Shoir Kordova taxti atrofida qizigan siyosiy kurashda faol ishtirok etgan. Umaviylar taxtdan ag'darilgach, u yangi hukmdorlar

nazarida eski amaldorlardan bo‘lib qolgan va quvg‘inga uchragan, qamoqqa tashlangan, u yerdan qochgan. Kordova hukmdorlariga yana yaqinlashgan, nihoyat batamom quvilib, sevilyalik hukmdor al-Mu’tadid huzuriga qochib ketgan, uning saroyida yuqori lavozim egallagan. Ibn Zaydun an’anaviy janrlarda she’rlar (madhiyalar, marsiyalar, ishqiy qo‘shiqlar), shuningdek risolalar ham yozgan. Masalan, uning qalamiga muhabbat bobidagi bosh raqibi vazir Ibn Abdusga qaratilgan hajviy risola mansub. Bu risola al-Jaxizning «Kvadratlik va aylanalik haqidagi risola» yo‘lida yozilgan.

Ibn Zaydunning eng yaxshi she’rlarida umaviylar xalifasi al-Mustaqfiyning qizi – shoira al-Valladaga bo‘lgan muhabbati kuylanadi.

Arablar orasida uning «Nuniya» qasidasi eng mashhur bo‘lgan. Ushbu qasidasida u o‘zining al-Valladaga bo‘lgan muhabbatini hikoya qiladi.

Ibn Zaydun sharqiy arab she’riyatining kuchli ta’sirini sezib turgan. O‘z she’rlarida u sharq shoirlariga, ayniqsa al-Buxturiyga taqlid qilgan. Undan fikrlar va obrazlarni olgan, hatto o‘z she’rlariga uning asarlaridan butun boshli baytlarni kiritgan. Ammo Ibn Zaydun ijodida uchraydigan sof ispan elementlari uning ijodini arab-ispan «yangilanish» davrining boshiga kiritish imkonini beradi: shoir Ispaniya tabiatini, Andaluziya shaharlari, ayniqsa Kordovaning go‘zalligini kuylagan:

O’, go’zal Kordova, men sen tomon intilmayapmanmi?

Sendan uzoq bo’lganimdan qalbim qiynalmadimikin?

Yana sening go’zallik va quvonch baxsh etadigan

Sharif tunlaringni ko’rarmikinman?

Ispaniyada mashhurlikda Ibn Zaydundan qolishmaydigan yana bir shoir **al-Mu’tamiddir** (1040–1095). Sevilyaning Abbosiylar davridagi amirining o‘g‘li, keyinchalik o‘zi ham taxtni egallagan al-Mu’tamid jadal tashqi siyosat yuritgan, o‘z mulkini ancha kengaytirgan va hatto Kordovani zabt etgan. Biroq al-Mu’tamidning Kastiliya qiroli Alfons VI oldidagi qo‘rquvi uni yordam so‘rab,

Marokashning al-Moraviylar sulolasining hukmdori bo'lgan Yusuf ibn Tashifinga murojaat etishga majbur qilgan. U, o'z navbatida, ispan hujumini to'xtatgan, ammo ayni vaqtda al-Mu'tamid mulkini ham egallab olgan. Toj kiygan shoirni esa Marokashdagi Agmat degan joyga surgun qilgan. Shoir u yerda asirlikda vafot etgan.

Tarixda al-Mu'tamid mehmonnavoz va sahiy homiy sifatida qolgan. Uning saroyiga butun Andaluziyadan adib va olimlar oqib kelgan. Shoirning Agmatda qamoqda bo'lgan davrda yozgan she'rlari saqlanib qolgan. Bu she'rlarning asosiy mavzui – shoir his qilgan tahqirlashlar haqidagi hikoyalar, baxtli o'tmishiga oid xotiralardir.

Al-Mu'tamidning she'rlari go'zalligi va soddaligi bilan ajralib turadi. Obrazlarning yangiligi va odatdan tashqariligi muallifni Andaluziya she'riyatining eng yorqin vakillaridan biri deb hisoblashga imkon beradi.

Sevilyada al-Mu'tamid saroyida sitsiliyalik shoir **Ibn Xamdis** (1055–1132) yashab ijod etgan. Vatanini 1078 yilda normandlar istilo qilganidan so'ng tashlab ketishga majbur bo'lgan shoir al-Mu'tamidning yaqin do'stlaridan biriga aylangan va amir vafot etgunicha u bilan birga qolgan. Ibn Xamdis umrining oxirgi yillarini Tunisda La-Mayorka orolida o'tkazgan.

Ibn Xamdis Ispaniya tabiatining kuychisi bo'lgan. Ispaniya manzaralari, ov sahnalari uning she'rlari mazmunini tashkil qilgan. Tabiat manzaralarini ifodalashda Ibn Xamdisning fantaziyasi chegara bilmagan.

*Subhi sodiqda biz bog'ga tashrif buyurganda
U yerdagi irmoq sohillari yalang'ochlangan qilich kabidir.
Quyosh haroratining daraxt shohlari orasidan tushgan
Nurlari (bog'ni) sayqallayotgandek.*

*Ko'tarilgan ajoyib yarim oyga boq
Uning nuri qora zulmatni yorib chiqmoqda.
U xuddi kumushdan yasalgan o'roq kabi,*

Uning she'rlarida ko'pincha tabiat mavzusi bilan may mavzusi ham qo'shib keladi.

Ibn Xamdis ishqiy hamda zohidlik xususiyatga ega bo'lgan she'rlar (zuhdiyat) yozgan. Uning ushbu janrdagi she'rlarida sharqiy arab she'riyatining (Umar ibn Abu Rabi'a, Abul Ataxiya) ta'siri seziladi. Ibn Xamdis she'riyati go'zal va mazmundor bo'lib, uning obrazlari tekis va ifodali, tili sodda va aniqdir.

Tabiat manzaralarining mohir ifodachilaridan yana biri **Ibn Hafaja** (1058–1138) bo'lgan. Uning laqabi al-Jannan bo'lib, bog'bon degan ma'noni bildirgan. U al-Sira shahrida tug'ilgan. Ispaniyaning eng go'zal viloyatlaridan biri – jonajon Valensiya tabiati shoir uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai bo'lgan. Ibn Hafaja nima yozsa ham – madhiyami yoki marsiya – tabiat mavzui ularda albatta mavjud bo'lgan. Shoir sharqiy arab she'riyatining qoliplaridan foydalanishga moyil bo'lsa-da, uning kuzatuvchanligi va ifoda shakli Ibn Hafaja tavsiflarini Andaluziyaning keyingi avlod shoirlari uchun namunaga aylantirgan. Ibn Hafaja she'rlarida Andaluziya ko'z o'ngimizda gullab-yashnayotgan bog' sifatida namoyon bo'ladi. Uning tinchligi va go'zalligini faqat bo'ronlargina vaqtincha buza oladi.

XII asrdan boshlab arab-ispan adabiyoti asta-sekin tanazzulga uchray boshlaydi. Al-Moraviylar va al-Mohadiylarning Ispaniyaga bostirib kirishi arab podsholiklari siyosiy mustaqilligini yo'qotishiga va Andaluziya Mag'rib davlatining viloyatiga aylanishiga olib keldi. Bir vaqtlar bo'lgan aqliy va diniy toqatlilikdan asar ham qolmadi. Mosarablar (arabcha so'zlashuvchi nasroniylar) Andaluziyadan quviladilar. Mutaassib berber lashkarboshilari dastlabki islomning «soddaligi» va «pokligi»ni tiklashga intilib, ajoyib me'moriy inshootlarni vayron qiladilar, «bid'at» deb e'lon qilingan kitoblarni yoqadilar.

Berberlarning Ispaniyadagi istilolari ilgari saroy she'riyati gullab-yashnagan muhitning yo'qolishiga olib kelgan. Afrika hukmdorlari arab tilini yaxshi bilmaganlar va ularning qarorgohlarida nozik arab-ispan she'riyatini ko'pchilik

tushunmagan. Shu bois asta-sekin saroy shoiri tipi yo‘qolib borgan. Buning o‘rniga oddiy xalq orasidan tinglovchilar va qadrllovchilarni izlovchi hamda ular bilan shahar lahjasida so‘zlashuvchi sayyor shoirlar paydo bo‘lgan. XI asr oxiri va XII asrning birinchi yarmida xalq tilidagi she‘riyat keng tarqaldi. Mumtoz she‘riyatning barcha nozik tomonlarini bilmagan va ko‘pincha ikki-uch tilda (arab tilining Andaluziya lahjasida, berber va roman tillarida) so‘zlagan keng aholi qatlamlari orasida lahjada yozilgan she‘rlar mashhur bo‘lgan. *Zajal* nomli strofik she‘riyat eng ko‘p tarqalgan. Zajal tuzilishiga ko‘ra muvashshahga juda o‘xshab ketgan. Dastlabki ikki she‘r asarning o‘lchami va asosiy qofiyasini belgilab bergan. So‘ngra har birida bir xil sondagi she‘rlar bo‘lgan (to‘rttadan o‘n ikkitagacha) va yagona qofiyaga 5–9 band keladi. Har bir bandning faqat oxirgi baytigina dastlabki ikki kirish bayti bilan qofiyalangan.

Zajal yaratishda kordovalik daydi shoir va musiqachi **ibn Kuzman** (1080–1160) yuksak cho‘qqiga erishgan. U o‘zining qo‘shiqlari bilan Andaluziyaning turli shaharlarida sahnaga chiqib, erkin va ancha badaxloq hayot kechirgan. Ibn Kuzman zajallarida mumtoz qasidaning hech bir jihati (sahro tavsifi ham, boshqa joyga ko‘chishlar ham, tuyalar ham) yo‘q, ularda Qur‘on ruhi ham sezilmaydi (shoir islomga ancha istehzoli munosabatda bo‘lgan, shu bois jazolangan va hatto qamoqda o‘tirgan). Ibn Kuzman zajallari odatda ikki qismdan iborat: birinchisi – yorqin elementlarga ega bo‘lgan muhabbat haqidagi kirish qismi, ikkinchisi – albatta xayriya so‘ralgan madhiya.

Ibn Kuzman zajallari qadimgi roman she‘riyatidan kelib chiqqani shubhasiz. Ibn Kuzmanning zajallari ham musiqa bilan chambarchas bog‘liqdir. Arab-istan she‘riyatining trubadurlar she‘riyatiga ta’sirining miqdori va xususiyatini aniqlash qiyin, ammo ta’sir etganligi shubhasiz.

Tanazzul davrining eng mashhur shoirlaridan biri hayotining oxirida islomga kirgan sevilyalik yahudiy Ibrohim ibn Sahl (1208–1251) bo‘lgan. Uning qalamiga mansub bir qator ajoyib ishqiy she‘rlarda yengillik va oddiylik jasorat va obrazlarning go‘zalligi bilan uyg‘unlashgan.

Andaluziya adabiyotida buyuk faylasuf va alloma ibn Tufayl (vafoti 1185 yil)ga tegishli «Yakzon o‘g‘li Hayya haqidagi roman» nomli ajoyib falsafiy asar alohida o‘rin tutadi. Mazmuni bo‘yicha o‘ziga xos bo‘lgan, inson aqlining ulug‘vorligi, komil insonning shakllanishi va oliy haqiqatni bilish yo‘llari haqida hikoya qiluvchi ushbu roman-rivoyat ko‘proq falsafa tarixiga kiradi. Biroq romanning qisqacha mazmuni (inson go‘dakligida kimsasiz orolga tashlab ketilgan bo‘ladi va tabiat bilan yolg‘iz qolib, o‘z aqlining kuchi bilan hayot qonunlarini bilib oladi) ushbu asarni arab badiiy nasrning xazinasiga kiritgan.

Andaluziyaning yana bir buyuk yozuvchisi va shoiri Granada amirlarining vaziri tarixchi **Lisoniddin ibn al-Xatib** (1313–1374) bo‘lgan. U bid‘at deb topilgan nazariyalari uchun qamab qo‘yilgan Fesedagi qamoqxonada qotil qo‘lida jon bergan. Lisoniddin bir qator tarixiy asarlar, risola va she‘rlar yozgan bo‘lib, uning muvashshahlari ayniqsa mashhur bo‘lgan. Ibn al-Xatibning o‘lim oldidan yozgan hamda kutilayotgan o‘lim hissi va Granada aholisini ispaniyaliklarning to‘liq g‘alabasidan ancha avval qamrab olgan chorasizlik hislarini aks ettirgan.

Ibn al-Xatib nasriy asarlarining uslubi Andaluziya adabiyotining tanazzul davriga nihoyatda xosdir. Unda Sharqiy Arabiston adabiyotining tanazzul davri bilan ko‘p o‘xshashliklar bor: xuddi o‘sha balandparvozlik, sun‘iylik va ko‘p so‘zlash, xuddi o‘sha so‘zni murakkab istiora va badiiy asarlar bilan bejashga intilish, o‘sha-o‘sha iqtiboslarga, tarixiy voqealarga, qofiyali nasrga o‘chlik va hokazo.

Andaluziya adabiyoti, shubhasiz, o‘rta asr arab madaniyati tarixidagi go‘zal sahifalardan biridir. Arab-ispan shoirlar Abu Tamman, al-Mutanabbiy, al-Ma‘arriy kabi Sharqiy Arabiston shoirlaridan she‘rlarining teranligi va falsafiyligi bo‘yicha orqada qoladi, ammo g‘oyalarining ravshan bayon etilganligi, nozikligi, go‘zalligi, shoirona fantaziyasi, tilining ravonligi va yengilligi bilan, shubhasiz, ulardan ustun turadi.

Ispaniya tarixidagi arab davri – G‘arb va Sharqning adabiyotlari bir-biriga keng va chuqur ta‘sir etgan davr. Andaluziya orqali Yevropaga qadimgi Sharq, antik va bevosita arab madaniy an‘analari kirib borgan. Ispaniya arablari Sharq va

G'arb o'rtasidagi madaniy almashuvda o'ynagan vositachilik rolining ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, u jahon madaniyati rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Seminar mashg'ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. Andaluziya adabiyoti va san'atining rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar.
2. Andaluziyaning «taqlidchilik davri» shoirlaridan kimlarni bilasiz?
3. «Yangilanish davri» she'riyati.
4. Ibn Xamdis she'riyatida Ispaniya tabiati vasfi.
5. Lisoniddin al-Hatib – olim va adib.
6. Zajal janri Ibn Kuzman ijodida.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Andaluziya adabiyoti bosqichlari.
2. Andaluziya adabiyotida «Taqlid davri».
3. Andaluziya adabiyotida «Yangilanish davri».

IX BOB. KECH O'RTA ASR ARAB ADABIYOTI

(XIII–XVIII ASRLAR)

9.1. SHE'RIYAT

Darsning maqsadi: Bu davrda adabiyot Misrga ko'chdi. U yerda faoliyat ko'rsatgan shoirlar ijodi bilan tanishtiriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *Tanazzul, tashtir, taxmis, al-Busiriy, "Qasidat al-burda", Ayubiylar, daydi adiblar.*

XII asr oxiridan XVIII asr oxirigacha davom etgan arab adabiyoti rivojlanishining uzoq davrini tanazzul davri deb atash qabul qilingan. Ammo bu fikrga faqat ikkita juda muhim shart bilangina qo'shilish mumkin.

Avvalo ushbu yetti asr davomida arablar har doim ham madaniy holatda bo'lmaganlar. Tanazzul haqidagi tasavvur faqat xalifalikning Sharqiy

viloyatlariga (birinchi navbatda Iroqqa) taalluqlidir, chunki ular XI asrda saljuqiylar istilosidan jabrlanganlar, so'ngra XIII asrda mo'g'ullar tomonidan butunlay barbod etilganlar hamda o'rta asrlarning oxirlarigacha o'zlarini o'nglay olmaganlar.

XIII asrdan boshlab Eron va O'rta Osiyoda (arab bo'lmagan aholi yashovchi hududlarda) fors va turkiy tildagi adabiyotlarning tiklanishi ham arab adabiyotining keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Zero, sharqiy viloyatlardan chiqqan adiblar, ayniqsa forslar, qadimdan bu yerda katta o'rin tutganlar.

Biroq xalifalikning sharqiy viloyatlari, birinchi navbatda, mamluklar zamonidagi Misrdan farqli o'laroq, g'arbiy viloyatlaridagi iqtisodiy va madaniy rivojlanish XV asrgacha davom etgan. Mamluk hukmdorlar (1250–1517) o'rniga kelgan ayubiylar mo'g'ullar hujumini qaytara oldilar va salibchilarni mag'lub etdilar. Ular davrida (ayniqsa XIII–XIV asrlarda) Misr iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaldi. Aynan shu davrda arablarda shahar adabiyoti janri (novella, xalq romani) gullab-yashnadi. Faqat XVI asr boshida, turklar istilosi natijasida arab viloyatlarida yuzaga kelgan chuqur iqtisodiy va madaniy turg'unlik oqibatida Misrda adabiy tanazzul boshlangan va u XIX asrgacha to'xtamagan.

Ikkinchidan, tanazzul davri faqat saroy adabiyotiga nisbatan ishlatilishi to'g'ri bo'ladi. Tabiiyki, bu ma'lumotli tabaqalar adabiyoti saroydagi arablarga qarashli bo'lmay qoldi chunki hokimiyatni arab she'riyatini tushunmaydigan va rivojlantirmagan turklar va mo'g'ullar egallab olgan davrda tanazzulga uchradi.

Biroq aynan shu davrda shahar adabiyotining yuksalishi kuzatildi, xalq badiiy nasrining yangi janrlari yuzaga keldi va rivojlandi, uning an'analari XVIII asr oxirigacha uzilmadi va keyinchalik yangi adabiy yuksalish davrida hozirgi zamon arab nasrining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Tanazzul davri shakllanishi adabiyotning rivojlanishiga xalal beradigan o'ziga xos turg'unlikni keltirib chiqardi. Jamiyatning badiiy ongi deyarli rivojlanmadi, an'anaviy shakllarga sodiqlik shoirlarga ham, o'quvchilarga ham bir xilda xos edi. Shoirning ijtimoiy maqomi o'zgardi. Endi u hayot uchun zarur mablag'ni saroy shoiri sifatida adabiyot yordamida topa olmas, u yo

hunarmandchilik va mayda savdo bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan, yo maqomalarda juda go'zal ifodalangan daydi adibga aylangan edi. Shoirilar ham, ularning mahsuloti ham ko'p bo'lgan, ammo nihoyatda bir xil tusda bo'lgan. Bu esa bir qator hollarda ushbu davr she'riyatini ifodalashda ularning nomlarini keltirish bilan cheklanishga majbur qiladi.

Gullab-yashnash davri (X–XII asrlar) arab she'riyatidayoq kelajakdagi tanazzul belgilari bo'lgan. Hattoki mumtoz she'riyat cho'qqilari bo'lmish al-Mutanabbiy va al-Ma'arriy ham, o'z zamonasiga moslashib, ba'zan mazmunga zarar yetkazadigan nafis shaxsiy usullarni ixtiro qilganlar. Maqomalarning mualliflari she'riy nasrni yanada ko'proq ishlatganlar. Biroq, agar ushbu janrning al-Hamadoniyy va al-Haririyy singari buyuk ustalarida uslubning ortiqcha jimjimadorligi muayyan darajada ularning bosh qahramoni bo'lgan ma'lumotli daydi adibning obrazini ochishga yordam bergan bo'lsa, ko'plab taqlidchilar ijodida ushbu qahramon obrazi hayot bilan har qanday aloqasini yo'qotgan va adabiy qolipga aylangan edi. Har qanday she'riy iste'dodning yagona mezonini o'tmishda o'tgan shoirilar she'riyatini yaxshi bilish va ularning usullaridan foydalanish tashkil eta boshladi.

XIII–XVIII asrlar she'riyati taqlidiy xususiyatga ega. Unda shaklning balandparvoz rangdorligi va jimjimadorligiga bo'lgan did tarbiyalandi. Tilni va vaznni nihoyatda yaxshi egallagan shoirilar o'z asarlarining ma'nosi haqida ko'p o'ylamadilar. Ular majozlar, g'ayri oddiy qiyoslashlar bilan qiziqdilar (har bir she'r muayyan istioraning misoli bo'ladigan qasidalar paydo bo'ladi), she'rlarini ishoralar, ikki ma'noli va topishmoqli iboralar bilan to'ldirdilar. Shu bilan birga tanazzul davri she'riyatiga so'zlashuv tili shakllari va lug'ati, shuningdek kelib chiqishi arabiy bo'lmagan so'zlar kirib bordi. Bu davrda har xil mayda she'riy shakllar – topishmoqlar, boshqotirma she'rlar va muammolar keng tarqaldi. Tabrik xususiyatiga ega bo'lgan qasidalar yozilib, ularda baytlardan biridagi harflar soni tabriklanayotgan inson tug'ilgan kuniga yoki ulug'lanayotgan voqea sanasiga mos keldi. Har xil she'riy hazillar juda mashhur bo'ldi.

Aholi orasida eng yaxshi qabul qilingan she'riy usullardan biri *tashtir* («ikkita yarimga bo'lish») hamda *taxmis* («besh qismga bo'lish») bo'lib qoldi. Tashtir usuli mohiyati shundan iboratki, she'rdagi baytlar o'rtasiga shoir ikkita yangisini qo'shadi va shu tariqa asar ikki baravar ko'payadi. Taxmisda shoir har bir baytga uchta yangi misra qo'shadi, natijada she'r bandlarga bo'lingan shakl oladi. Har bir band esa beshta misradan iborat bo'lib qoladi.

Sharqiy arab viloyatlarida ilgari arablarga notanish bo'lgan bandli she'riyatning tarqalishi Ispaniyada yaratilgan arab yangi she'riyati janri ta'sirining natijasi bo'ldi. Ispaniyadan sharqiy viloyatlarga muvashshax shakli keldi. Muvashshax sharqiy viloyatlarga ko'chib o'tgach Andaluziya she'riy janrining yangiligi va bevositaligini yo'qotdi hamda shaklan she'riy usulga aylandi. Zajal ham Sharqiy arab viloyatlariga Ispaniyadan olib kirilgan va bu yerda keng yoyilgan.

Shunday qilib, yuqorida aytilganidek, XII asr oxirida xalifalik adabiy hayotining markazi Misrga ko'chdi. Bu yerda, ayubiyalar, so'ngra Mamluk sultonlari saroyida bir qator arab shoirlari xizmat qildilar.

XIII asr Misr shoirlari orasida makkalik **Bahovuddin Zuhayr** (1186–1258) katta o'rin tutdi. U hayotining katta qismini Misrda sulton as-Solih Ayub huzurida yashadi va sadoqati uchun vazir lavozimiga tayinlandi. Bahovuddin Zuhayrga go'zal qofiyalarga boy, ustalik bilan tanlangan istioralar va majozlarga ega bo'lgan ishqiy she'riyati shuhrat keltirdi. Tanazzul davrida yashagan boshqa shoirlardan farqli o'laroq, Bahovuddin Zuhayr badiiy san'atlar bilan she'rni to'ldirib tashlashdan qochgan, uning she'rlari oddiy va samimiyligi bilan ajralib turgan, madhiyalari esa qo'pol xushomaddan xoli bo'lgan.

Kech o'rta asr arab adabiyotida misrlik **al-Busiriy** (1213–1295) o'zining diniy madhiyalari bilan shuhrat topgan. Uning “Burda qasidasi” («Qasidat al-Burda») asari arablar tomonidan juda yaxshi qabul qilingan. U Ka'ab ibn Zuhayrning madhiyasiga taqlidan yozilgan bo'lib, Muhammad Payg'ambarni ulug'lashga bag'ishlangan. Qasida nomi payg'ambar o'z chakmonini uning ustiga tashlagandek ko'ringan falaj kishining mo'jizaviy da'vo topgani haqidagi afsona

bilan bog‘liq. Qasida uch qismdan iborat an‘anaviy lirik muqaddima, pandnoma qism va madhiya. U quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Payg‘ambarlarning qay biri sen bilan tenglasha oladi?

O falak, sendan ham poyonsiz narsa bormi?

Uning barcha qismlari oddiy, tanazzul davri diniy she‘riyatiga xos bo‘lgan tasavvufiy ma’nolarda yozilgan. «Burda qasidasi» diniy ahamiyatga ega bo‘lib, mo‘min-musulmonlar uning matnidan olingan parchalarni tumor qilib olib yurganlar. Ta’kidlash lozimki, al-Busiriy asarlari, xuddi Bahovuddin Zuhayr she‘rlari kabi ko‘plab lahjalarga ega.

XIV asr boshiga kech o‘rta asrning eng mashhur shoirlaridan biri **Safiaddin al-Hilliy** (1278–1349 yoki 1351) ijodi taalluqlidir. Safiaddin Frot daryosi sohilidagi Hillada tug‘ilgan. Uzoq vaqt Bag‘dod va Misrda yashagan. Misrda sulton an-Nosir ibn Kalaum saroyida shoirlik qilgan. Safiaddin asarlari uning davriga nihoyatda xosdir. Shoir barcha arab o‘rta asr she‘riy janrlarida qalam tebratgan, barcha ma’lum she‘riy o‘lchamlar – ham mumtoz, ham kechki she‘riy o‘lchamlardan foydalangan. Zajal janrida qo‘shiqlar yozgan. U she‘r yozish texnikasini mukammal egallagan. Uning devonida 29 ta qasida ketma-ket alifboning barcha harflariga qofiyalangan. Ayni vaqtda qasidadagi har bir she‘rning boshlang‘ich harfi qofiyalanayotgan harfga mos kelgan. Safiaddin mumtoz she‘riyatining barcha badiiy-tasviriy vositalari – tashbih, istioralardan keng foydalangan. Safiaddin she‘riy fonetikani juda mukammal egallaganligini namoyish qilish bilan cheklanmay, nafaqat tovush, balki ko‘rish effektlarini ham namoyish etishga intilgan: hech bir so‘zi nuqtaga ega bo‘lmagan she‘rlar yozgan. Biroq shoir asarlari tili va badiiy-tasviriy vositalari qanchalik boy bo‘lmasin, tom ma‘nodagi she‘riylikdan uzoqlashgan. Safiaddin she‘riy san‘atlari undan avvalgi shoirlarda ko‘p bora uchragan va shoirning mahorati asosan tajnis, majozlar va she‘riy fonetika usullaridan mohirlik bilan foydalanishida namoyon bo‘lgan.

XIV asr o'rtalariga boshqa bir misrlik shoir **Ibn Nubata** (1287–1366) ijodi taalluqlidir. U madhiyalar hamda o'tib ketgan yoshlik haqida qayg'uradigan, zamondoshlaridan shikoyat qiladigan, yaqin odamlarining o'limidan g'ussaga botadigan g'amgin marsiyalar muallifidir. Uning she'riyatidagi umumiy tushkunlik ruhida tartibga solinmagan hissi hamda g'alayonlar, hukmdorlarning tez-tez almashinishi (shoir hayoti mobaynida Misrda 20 nafar Mamluk hukmdor almashgan) tufayli alg'ov-dalg'ov bo'layotgan mamlakatdagi hayotning beqarorligi aks ettirilgan.

Ibn Nubata buyuk shoir bo'lgan. So'z yaratish, so'zlarni o'ynatish va ikki ma'noli iboralarni ishlatishda uning fantaziyasi cheksiz bo'lgan. Tanazzul davrining boshqa shoirlari singari Ibn Nubata she'rlari muallifning she'riy texnikani mukammal egallaganligini namoyish etgan, ammo unda hech bir chuqur, yangi fikrlar bo'lmagan.

9.2. SUFIYLIK SHE'RIYATI

Darsning maqsadi: Bu davrda adabiyot Misrga ko'chdi. U yerda faoliyat ko'rsatgan sufiylik she'riyati bilan tanishtiriladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *sufiylik she'riyati, Ibn al-Farid, "al-Xamriya", "Nazm as-Suluk", majoziy ma'nolar.*

Kech o'rta asr davrida, ya'ni saroy madhiya she'riyati, jamiyatning faqat ma'lumotli yuqori tabaqasi, saroy zodagonlarigina tushunadigan tanqidiy yo'nalishdagi she'riyat kabi asta-sekin tanazzulga uchray boshlagan davrda birinchi o'ringa sufiylik she'riyati chiqib qoldi. Sufiylik she'riyati – quvonch, muhabbat, majoziy may she'riyatidir. Tanqidiy yo'nalishdagi tushkunlik holati dunyo bilan kelishmovchilik natijasi bo'lib, bu sufiy shoirlar tomonidan dunyodan va o'z «men»idan voz kechish orqali bartaraf etilgan. Hayot ziddiyatlarini sufiy shoirlar chuqur zohidlik yo'li bilan hal qilganlar.

Eng mashhur arab sufiy shoirlardan biri **Umar ibn al-Farid** (1181–1234) edi. U Qohirada dindor oilada tug'ilgan va chuqur diniy ta'lim olgan (ayniqsa,

islom huquqi – fiqhni chuqur o‘rgangan). Ibn al-Faridda zohidlarcha turmush tarziga moyillik erta uyg‘ongan va u Qohiradan sharq tarafda joylashgan al-Muqattam tepaligida yolg‘iz yashagan. «Muqaddas joylar»da ko‘p yillar bo‘lish (Ibn al-Farid 15 yil umrini Makkada o‘tkazgan) shoirning fe‘lini o‘zgartirmagan va Vataniga qaytganidan so‘ng u yana tepalikda yashay boshlagan. Bu yerga xudojo‘y shoirning muxlislari oqib kelavergan. Misrning salibchilarga qarshi urush sharoitida xalq ichida diniy e‘tiqodni har tomonlama mustahkamlashga uringan ayyubiy hukmdorlar sufiylarni qo‘llab-quvvatlaganlar. Sufiylar o‘zlarining qat’iy turmush tarzi bilan iymonli ruhoniylarning obro‘cini ko‘targanlar. Ular shoirga har tomonlama hurmat ko‘rsatganlar. Sulton al-Malik al-Kamil (1218–1238) hatto Ibn al-Faridni Misrning bosh qozisi etib tayinlashni va‘da qilib saroyga taklif etgan. Lekin shoir bunday yuqori mansabdan voz kechgan. Ibn al-Farid o‘zining ilohiy she‘rlarini bir necha kunlab och, kasal, ilhom kelish holatida yaratgan. Ibn al-Farid dunyoqarashidagi ko‘p narsa uni fors sufiylarining hayotiga yaqinlashtiradi. Fors sufiy shoiri Jomiy uning she‘rlariga sharhlar yozgani bejiz emas. Ibn al-Faridning devoni hajm jihatdan katta emas. Uning she‘rlarida yerga oid ilohiy jihatlar shunchalik qo‘shilib ketganki, ularni bir xilda ham muhabbat qasidalari, ham ilohiy madhiyalar sifatida talqin etish mumkin. Shoir Allohga bo‘lgan muhabbatini oddiy insoniy muhabbatga shunchalik jasorat bilan o‘xshatganki, muxlislari uning she‘riyati to‘g‘ri tushunilishi uchun sharhlar yozishga juda ko‘p mehnat sarflaganlar.

Ibn al-Faridning sof ilohiyot mazmunga ega bo‘lgan eng mashhur asarlari – «May qasidasi» («al-Xamriya») hamda «t» harfiga qofiyalanganligi bois «Katta ta’iya» deb ataladigan «Mo‘minning yo‘li» («Nazm as-Suluk») asarlaridir. «Katta ta’iya» xuddi shu muallifning «Kichik ta’iya»sidan farq qilgan.

«May qasidasi»ning birinchi jihati – may va mastlikning quvnoq holatiga hayratlanarli madhiyadir. Biroq bu yerda har bir so‘z ilohiy ma’noga ega. May – ilohiy jonlanish, yor – iloh, tok novdasi – borliq, osmondagi oy – xuddi kosa singari haqiqat nuri bilan to‘lgan komil inson, may quyish – Allohning irodasi bilan unga yaqinlik hadya etilgan mo‘min odamlarning paydo bo‘lishi va h.k.

Ushbu parchaning har bir soʻzini majoziy maʼnoda tushunish kerak. Bunda gap Allohga yaqinlashish baxti haqida bormoqda. May – Allohni bilish. Ushbu ichimlikning yaltirashi – inson aqlining nuri. Ilohiy haqiqat – har bir sufiy bilishga intiladigan, ammo puxta saqlanadigan sir. Ilohiy jonlanishni his qilmagan hech kim baxtli boʻla olmaydi, – ushbu parchaning ilohiy mazmuni ana shundan iborat.

Mayning aralashuvi komil insonning ilohiy haqiqatni qabul qilishini bildiradi.

Ibn al-Faridning «Katta taʼiya» nomli diniy mazmundagi qasidasini arab tanqidchilari arab adabiyotining durdonalaridan biri va sufiylik sheʼriyatining mumtoz namunasi deb hisoblaydilar. U sufiylik majlislarida musiqa bilan birga kuylanadi deb hisoblanadi.

Qasida, shubhasiz, islom tasavvufining tarixi bilan shugʻullanuvchilar uchun qiziqarlidir. «Katta taʼiya»da Ibn al-Farid oʻzining sufiylik tajribasini tasvirlashga urinadi. Qasida esa sufiyning Alloh tomon yuksalib borishini majozlar orqali ifoda etadi. Obrazli qilib aytganda sufiylarning ruhiy ekstaz holatiga erishishi ilohiy goʻzallikni koʻrish quvonchidan bahramand boʻlish uchun bosib oʻtishi lozim boʻlgan yoʻl haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Qasidada ilohiy goʻzallik tabiat va insonning goʻzalligi orqali ochib beriladi. Ilohiy ruhiy asos esa, goʻyoki tabiat bilan birlikda mavjuddir.

Ibn al-Faridning tili va uslubida diniy ekstaz muhri mavjud. Ibn al-Faridning qasidalaridagi hissiy zoʻriqish asar oxiriga yaqinlashgan sari ortib boradi. Muallif ilohiy ehtirosni ifodalab, unda cheklovchi arab tili grammatikasi qoidalarini buzadi. Uning hayajonli nutqi ruhlarga qarata aytilgan qasamyodlar, ritorik savollarga toʻla. Unda faqat bilimli odamlargina tushunadigan, sufiylik xususiyatiga ega boʻlgan koʻplab ishoralar mavjud. Shu bilan birga, muallif oʻz zamonining sheʼriy uslubiga asoslangan holda, murakkab badiiy sanʼatlar, soʻz oʻyinlari hamda kech oʻrta asr arab sheʼriyatiga xos boʻlgan boshqa sunʼiy usullardan foydalangan.

Arab sufiy adabiyotining hajmi juda katta. Unda Ibn al-Faridning kichik zamondoshi mursiyalik **Ibn al-Arabi** (1165–1240) katta oʻrin tutadi. Ibn al-

Arabiyga uning «Makka vahshiylari» («al-Futuxat al-Makkiya») nomli ko‘p jildli asari shuhrat keltirgan. Unda sufiylik falsafasining qoidalari, shuningdek diniy mazmundagi she‘rlari o‘rin olgan. Ushbu she‘rlarda u nafaqat islomgacha bo‘lgan davr va abbosiylar davri she‘riyatining an‘anaviy shakllariga asoslanadi, balki Andaluziyada yuzaga kelgan muvashshah shaklidan ham foydalangan.

Usmonli turklarning XVI asr boshida Suriya va Misrni zabt etishi sufiylik adabiyotining rivojlanishini to‘xtatmadi. Bu davr sufiy yozuvchilari orasida misrlik **ash-Sha‘raniy** (vafoti 1565)ning sufizm haqidagi nazariy va tarixiy asarlari keng ommalashgan. U sufiyona zohidlikda misrlik dehqonni og‘ir soliqlardan va turk noiblarini qo‘llab-quvvatlayotgan yuqori tabaqadagi islom ruhoniylarining tovlamachiligidan himoya qilishning yagona vositasini ko‘rgan.

Arab sufiy adabiyotiga yana bir taniqli siymoni XVII - XVIII asr bergan. Bu Abdul G‘aniy al-Nabulusiy (vafoti 1731) bo‘lib, u qofiyali nasrda yozilgan oddiy sufiyning ilohiyot sayohatlari yoritilgan bir qator ilohiyotga va sufiylikka oid risolalar, shuningdek she‘riy asarlar muallifidir. XVIII asrdagi suriyalik va misrlik yozuvchilar bevosita yoki bilvosita uning ta‘sirida bo‘lganlar.

Arab sufiy she‘riyati chuqurligi hamda badiiy-tasviriy vositalarining boyligi bo‘yicha fors sufiy she‘riyatidan biroz darajada tursa-da unda ilohiyot ruhidagi teran mulohazalar ko‘proq. Shunga qaramay, sufiy she‘riyat butun kech o‘rta asr mobaynida (XIX asrga qadar) arab mamlakatlarining ma‘naviy hayotida katta rol o‘ynagan hamda madaniy tanazzul sharoitida arab mumtoz she‘riy an‘anasini saqlab qolgan bosh yo‘nalish bo‘lib qoldi.

Seminar mashg‘ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. XIII–XVIII asrlar she‘riyati taqlidiy xususiyatlari.
2. «Qasidat al-Burda» asari muallifi kim?
3. Ibn al-Arabiy ijodiga bir nazar.
4. Sufiylik she‘riyati namoyondasi Umar ibn al-Farid ijodi.
5. «al-Xamriya» – majoziy ma’noli asar.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Safiaddin al-Hilliy ijodi.

2. Al-Busiriy hayoti va ijodi.
3. Ibn al-Faridning sufiyona qarashlari.

X BOB. KECH O‘RTA ASR NASRI

10.1. «MING BIR KECHA» («ALF LEYLA VA LEYLA»)

Darsning maqsadi: mazkur qismda kech o‘rta asrning adiblari, “Ming bir kecha” asari va undagi ba]zi ertaklari haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar va iboralar: *Ijodkorlik san’ati, insho janri, al-Qalqashandiy, “Ming bir kecha.”, “Xazor afsona”.*

Kech o‘rta asr adabiyoti turli-tuman an’analar, ilmiy va badiiy nasr asarlariga boydir. Bu davrda insho janri yanada rivojlandi. Pandnoma xususiyatiga ega bo‘lgan ko‘plab asarlar, risolalar, tarixiy manbalar paydo bo‘ldi. Ushbu asarlarning barchasidagi uslub balandparvoqlik va ortiqcha jimjimadorlikdan iborat bo‘lgan. Adiblar qofiyali nasrga ishqiboz edilar va zamondoshi bo‘lgan shoirlar singari, o‘z asarlarini badiiy asarlar, kamyob so‘zlar, so‘z o‘yinlari bilan bezashga urinardilar, ko‘plab iqtiboslar keltirardilar. XIII–XVIII asrlarda turli xil antologiyalar, ma’lumotnoma va ensiklopediyalar keng tarqaldi.

Kech o‘rta asrning eng mashhur adiblaridan biri misrlik **al-Qalqashandiy** (1355–1418) edi. U o‘z davri uchun juda xos bo‘lgan, bir qator yarim ilmiy, yarim badiiy mazmundagi asarlarning muallifidir. Uning «Ijodkorlik san’atida ojizlar uchun bilimlar chirog‘i» nomli asari kotiblarga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘z davrining ma’lumotli amaldori bilishi zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarga ega edi. Unda adabiyot tarixiga oid ma’lumotlar, yozuvchilik hunari bo‘yicha ko‘rsatmalar, diplomatik yozishmalarga oid qoidalar, muhim tarixiy va siyosiy ma’lumotlar, shuningdek insho janrining eng yaxshi namunalari keltirilgan edi.

Al-Qalqashandiy asarlarining uslubi atayin murakkablashtirilgan bo‘lib, ular badiiy san’atlar, tajnislar va shu kabilarga to‘lib toshgan. Kech o‘rta asr adabiyotida arablar yashaydigan viloyatlarda, ayniqsa, Misrda maishiy va fantastik novellalar keng tarqaldi. Ularning asosida tarixiy shaxsning haqiqiy

taqdiri yoki muhim tarixiy voqea yotardi. Aynan kech oʻrta asr davrida «Ming bir kecha» nomli mashhur toʻplam oxirgi koʻrinishga ega boʻldi, Antara haqidagi xalq romanining oxirgi varianti hamda koʻplab qahramonlik qasidalari shakllandi, ular arab mamlakatlarida (ayniqsa Misrda) keyingi asrlarda nihoyatda mashhur boʻlib ketdi. Koʻpincha xalq romanlari deb ataluvchi ushbu qahramonlik qasidalari professional hikoyachilar – muhaddislar tomonidan sheʼriy qismlari musiqa asbobi joʻrligida aytish bilan kechgan va ogʻzaki ijro etib kelingan. Xalq romanlari biz uchun katta madaniy-tarixiy qiziqish uygʻotadi.

Ogʻzaki hikoya qilish anʼanasi arab mamlakatlarida eng soʻnggi vaqtlargacha saqlanib qolgan va hatto, kitob bosishning tarqalishi ham uning yoʻq boʻlishiga olib kelmagan. Yuqorida eslab oʻtilgan «Ming bir kecha» va «Antaraning hayoti» bilan bir qatorda, Qohira aholisi orasida afsonaviy va yarimafsonaviy jangchilar hamda shonli arab qabilalarining qahramonliklari tasvirlangan koʻplab xalq romanlari (Abu Zayd, Bey bars, Zul Himma, Sayf ibn zi-Yazoniyning «Hayotlar») shuhrat qozongan edi. Ushbu xalq romanlarining hajmi shunchalik kattaki, uni aytuvchilar ulardan biriga «ixtisoslashganlar» va odatda qatʼiy belgilangan dasturni ijro qilganlar.

Xalq romanlari turli zamonlarda yaratilgan. Ular koʻp asrlar mobaynida qayta-qayta avloddan-avlodga berib kelingan hamda xattotlar va ijrochilar tomonidan ularga bizgacha yetib kelgan koʻrinishda yozilmagunicha sayqal berilgan.

Ming bir kecha. Oʻrta asr arab adabiyotining buyuk yodgorliklari qatoriga sehrgarlik ertaklari va hikoyalarining ulkan toʻplami, butun dunyoda «Ming bir kecha» romantik nomi bilan mashhur boʻlgan asar kiradi. Mubolagʻasiz aytish mumkinki, dunyoda birorta ham savodli inson yoʻqki, bolaligida yoki katta yoshida toʻliq tarjima holda yoki bayon etilgan holda ushbu mashhur kitob bilan tanishmagan boʻlsa. «Ming bir kecha» maʼlum bir muallifning asari emas, ushbu ajoyib toʻplamning qismlari qator asrlar mobaynida shakllanib borgan. Nihoyat XIV–XVI asrlarda toʻplanib, tahrir qilinib, bizga maʼlum koʻrinishda yetib kelgan.

To‘plamning oxirgi varianti vatani deb Misr hisoblanishi bejiz emas. Bu mamlakatning Hindiston, Arabiston va Afrika mamlakatlaridan Yevropaga o‘tadigan savdo yo‘llari chorrahasida joylashuvi shaharlar (ayniqsa, Qohira)ning iqtisodiy va madaniy jihatdan o‘rishiga, shahar adabiyotning rivojlanishiga yordam bergan. Ushbu adabiyotning asosiy janrlari – maishiy va fantastik novellalar – shahar muhitida yaratilgan turli fantastik va haqiqiy, xorijdan olib kirilgan va «mahalliy» hikoyalardan yuzaga kelgan.

Barcha zamonlarda arablar ajoyib hikoyachilar sifatida shuhrat qozonganlar. Juda qadim zamonlardayoq, islom tarqalishidan ancha ilgari, arab badaviylari o‘z ajdodlarining qahramonona ishlari haqidagi rivoyatlari bilan bir qatorda Hindiston va Erondan kelib chiqqan ertaklar va tarixiy hikoyalarni eshitishni xush ko‘rganlar. Ular eshituvchini arab hikoyalariga xos bo‘lmagan cheksiz fantaziya bilan o‘ziga tortganlar. Ular uchun ba‘zan uzoq mamlakatlar haqidagi bilimlarning yagona manbai bo‘lgan.

«Ming bir kecha»ning asosida, aftidan, «Ming rivoyat» («Xazor afsona») nomli fors to‘plamidagi hind ertaklarining arabcha tarjimasi yotgan. Mazkur to‘plamning mavjudligi haqida X asrdayoq yozilgan arab manbalarida xabarlar bor. Ushbu tarjimaning xarakteri haqida xulosa chiqarish qiyin. Chunki bizgacha faqat o‘z hikoyalari bilan o‘ziga tahdid solayotgan o‘limning vaqtini cheksiz uzoqlashtirib borgan ertakchi qiz haqidagi «qobiq» hikoya yetib kelgan. Bu hikoya hind adabiyotida uchraydi hamda «Ming bir kecha»ning eng qadimgi o‘zagini tashkil qiladi. «Ming bir kecha»ning aksariyat fantastik ertaklari ham qadimgi yoki o‘rta asr hind adabiyotidagi prototiplariga ega. Ayrim ertaklar uchun Uzoq Sharq xalqlari adabiyotidan parallellar topish mumkin.

«Ming bir kecha»ning qobig‘i bo‘lib hind «ramka»siga yaqin bo‘lgan fors podshohi Shahriyor haqidagi ertak xizmat qiladi. Shahriyor bevafo xotinidan g‘azablanib, har tun yangi ayolni xotin qilib olish, erta tongda esa qatl etishga qaror qilgan. Natijada ko‘plab bebaxt ayollar nobud bo‘lgan. Shahriyorning shafqatsizligiga chek qo‘yish uchun vazirning qizi Shahrizoda o‘z xohishi bilan podshoning xotini bo‘lishga rozi bo‘ladi va birinchi nikoh tunida unga qiziqarli

hikoya aytishni boshlaydi. Tongda Shahrizoda hikoyasini eng qiziq joyida to'xtatadi. Podshoh hikoyaning davomini bilish istagida qatlni keyingi kunga qoldiradi. Shahrizoda o'z ertaklarini ketma-ketiga ming kun aytadi, oxirida podshoh uni sevib qolib, qatlni bekor qiladi.

«Ming rivoyat»ning arabcha tarjimasining katta doirasiga asrlar mobaynida mohir ertakchilar yoki ko'chirib yozuvchilar yangidan-yangi hikoyalarni qo'shganlar. Shu bois to'plam bir qancha tahrirlarda chiqqan. Ayrim qo'lyozmalar ertaklarning joylashuvi, tunlar bo'yicha bo'linishi va tarkibiga ko'ra farq qiladi. Ertak to'plamga tushgach juda katta o'zgarishlarga uchragan. Arablardan kelib chiqqan hikoyalarni tadqiqotchilar odatda ularning kiritilgan joyiga ko'ra to'plamni Bag'dod va Qohira ertaklariga ajratadilar. Bunday bo'linish ancha shartlidir. Chunki hikoyalarni aniq ajratish uchun mezonlarga ega emasmiz. Mahalliy va tarixiy voqealar ularga qayta ishlash vaqtida kiritilgan bo'lishi mumkin.

«Ming bir kecha»ning ilk Bag'dod tahririning rasmiylashuvi, ehtimol, X–XI asrlarga to'g'ri keladi. Bag'dod tahririda ramka hamda «ming rivoyat»dagi hind ertaklarining bir qismi saqlab qolingani, Hindistondan kelib chiqqan boshqa ertaklar esa mahalliy arab hikoyalari bilan almashtirilgan. XIII–XIV asrlarda to'plamning Misrda kelib chiqqan hikoyalari hisobiga to'ldirilgan Qohira qismi rasmiylashgan. Nihoyat, «Ming bir kecha»ning Qohirada amalga oshirilgan oxirgi tahriri XIV–XVI asrlarga taalluqli bo'lib, unda to'plamning eng qadimgi saqlanib qolgan qo'lyozmalari kirgan. Bu vaqtga kelib, to'plam hozirgi hajmigacha ko'paygan va nomi biroz o'zgargan. Eski forsiy nomi «Ming rivoyat» IX asrda «Ming kecha»ga aylanib, bu nom to'plam juda ko'p hikoyalardan iborat ekanligini anglatgan, xolos. To'plamning «Ming bir kecha» degan nomi, ehtimol, «Bin bir» – «Ming bir» degan turk ideomasining ta'sirida kelib chiqqan bo'lib, u juda katta sonni angalatishga xizmat qiladi.

Biroq ilgari «Ming», «Ming bir» soni istiora sifatida xizmat qilgan bo'lsa, oxirgi tahririning mualliflari buni tom ma'noda tushunganlar va shu bois to'plamga kechalar sonini «Ming bir»ga yetkazish uchun bir qancha hikoyalarni

qo'shganlar. Bu davrda to'plamga «Sindbodning sayohati», «Umar ibn an-Nu'mon haqidagi qissa» hamda ilgari alohida, mustaqil asarlar ko'rinishida mavjud bo'lgan boshqa hikoyalar ham kirgan.

Garchi to'plam mazmun-mohiyatining ba'zi jihatlari tuzuvchining to'plamdagi mavzularni tasniflash, unga ma'lum tartib berish va hikoyalarni turkumlar bo'yicha joylashtirishga intilganidan dalolat bersa-da, «Ming bir kecha»ning ayrim qismlari o'rtasida ichki bog'lanish deyarli sezilmaydi. Hikoyalarning joylashuvi ham tasodifiy xususiyatga ega. To'plamning bir mavzuga bag'ishlangan va turkum hosil qiladigan ayrim hikoyalari ko'pincha bir joyda to'planib qolishi, masalan, Xorun ar-Rashid haqidagi hikoyalar hali tuzuvchining materialni tanlash va joylashtirishda faol ishtirok etganidan dalolat bermaydi. «Ming bir kecha»ning turkumlarga bo'linishi to'plamga tayyor hikoyalar to'plamlari kiritilishining natijalari bo'lishi mumkin. Tabiiyki, ushbu turkumlar to'plamda alohida bo'limlarni tashkil qilgan.

Mazmun-mohiyat va janr jihatidan «Ming bir kecha»ning materiali nihoyatda har xil: bu yerda fantastik va maishiy novellalar, didaktik hikoyalar, kichikroq hajviyalar, maishiy va tarixiy latifalar, afsona va rivoyatlar, risarlik qissalari, sayohatlar haqidagi hikoyalar va boshqalar uchraydi.

Fantastik novellalar sirasiga Hindistonda kelib chiqqan «Savdogar va ruh», «Baliqchi», «Hammol va uch qiz», «Shahzoda Badr va Malika Javhar», «Hasan al-Basriy», «Kamar uz-Zamon va Budur» haqidagi ertaklar hamda Misrda yaratilgan ertaklar («Olovuddin va sehrli chiroq») kiradi. Hind ertaklari syujet jihatidan o'zlarining hind manbalariga yaqindir, holbuki ularni muayyan tarixiy zamin bilan bog'lash qiyin. Zero, ular ko'p asrlar mobaynida mavjud bo'lish davomida etnik xususiyatlarini deyarli batamom yo'qotgan. Hind ertaklari o'zining badiiylagi, tuzilishining go'zalligi hamda qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Ularning tipologik xususiyatlarini ertaklar qahramoni bo'lgan va ular bila turib ertak qahramonlariga o'zlari xush ko'rgan odamlarga ongli ravishda yordam beradigan hamda yaxshi ko'rmagan odamlariga zarar yetkazadigan g'ayritabiiy mavjudotlar, yaxshi va yomon ruhlar tashkil qiladi.

Hindistonda kelib chiqqan fantastik novellaning namunasi deb «Baliqchi haqidagi ertak»ni hisoblash mumkin. Uning mazmuni quyidagicha.

Bir kun baliqchi chol to‘r bilan dengizdan shoh Sulaymonning muhri bosilgan qo‘rg‘oshin tiqinli ko‘za tutib oladi. Qiziquvchan chol tiqinni olib tashlaydi – shunda undan tutun chiqib quyuqlashadi va nihoyatda katta jinga (yovuz ruhga) aylanadi. Bu jinni qachonlardir shoh Sulaymon dindan qaytgani uchun idishga qamab qo‘ygan bo‘ladi. Jin cholni o‘ldirmoqchi bo‘ladi, chunki ko‘zada o‘tirib butun dunyodan nafratlangan va kim uni ozod qilsa, jazolashini aytib qasam ichgan bo‘ladi. Ayyor chol jinga shunday ulkan jin kichkina ko‘zaga sig‘ishi mumkinligidan shubhalanishini aytadi. Sodda jin tutunga aylanib, asta ko‘zani to‘ldiradi. Shunda baliqchi ko‘za tiqinini tiqib, uni dengizga uloqtirmoqchi bo‘ladi. Shu payt jin kechirim so‘rab, yalinishni boshlaydi, cholga har xil ne‘matlar va’da qiladi. Chol shunday deydi: «Yolg‘on gapiryapsan, la’nati! Men bilan sen podsho yunon va shifokor Dubanga o‘xshab ketamiz». Shunda jin o‘tirgan joyida so‘raydi: «Ular kimlar va ularning tarixi nimadan iborat?» Baliqchi ushbu hikoyani aytib beradi... va ertaklarning sehrli tasmasi asta-sekin ochila boshlaydi.

«Ertak» nomi Shahrizoda hikoyalarining juda kam qismiga to‘liq to‘g‘ri keladi. Hikoyalarning aksariyati yorqin ifodalangan maishiy xususiyatga ega bo‘lib, ularning fantastik tarkibiy qismi borligiga qaramay, mazmuni va ruhi bo‘yicha ular sehrli ertakka qaraganda ko‘proq maishiy hikoyaga yaqin turadi. Ushbu hikoyalarda har xil aholisi va keskin ijtimoiy nizolari bo‘lgan katta o‘rta asr arab shahrining murakkab, ko‘pincha notinch hayoti aks ettirilgan.

Tadqiqotchilar odatda shahar hayotiga oid hikoyalarni Bag‘dod va Qohira hikoyalariga ajratadilar. Bag‘dod hikoyalariga muhabbat mazmuniga ega bo‘lgan kichikroq qissa va hikoyalar kiritiladi. Ulardagi voqealar Bag‘dodda shaharning o‘zida yoki xalifa saroyida yuz beradi. Ushbu hikoyalarning baxtli yakuni «rahmdil» xalifa Xorun ar-Rashid aralashgani tufaylidir. Masalan, Nima va Numa haqidagi hikoya ana shunga misol bo‘la oladi.

Bag‘dod hikoyalariga, shuningdek, «Soxta xalifa to‘g‘risidagi hikoya», «Unsal-Vujud to‘g‘risidagi hikoya», «Nuriddin va uning birodari to‘g‘risidagi qissa» va boshqalar ham kiradi.

Bag‘dod hikoyalari ancha nafis, tili adabiy tilga yaqin va puxta sayqal berish izlari mavjudligi sababli ular Qohira hikoyalaridan avval, ehtimol Bag‘dodning o‘zida shakllangan deb taxmin qilish mumkin.

«Xurosonlik Abul Hasan haqida hikoya» Bag‘dod hikoyalarining yaxshi misoli bo‘lishi mumkin.

Kunlardan bir kun Bag‘dod xalifasi al-Mu’tadid fuqarolarining hayoti bilan yaqinroq tanishish uchun savdogar kiyimini kiyib, vaziri bilan birga shahar aylangani chiqadi. Go‘zal me’moriy uy uning e’tiborini tortadi. Vazir o‘zini musofir sifatida tanitib, uy egasidan bir kecha tunashga ijozat so‘raydi. Uy egasi Abul Hasan xalifani yaxshi kutib oladi va sahiylik bilan mehmon qiladi. Uyning ichki boyligidan hayratlangan xalifa atrofdagi narsalarni diqqat bilan kuzata boshlaydi va kutilmaganda gilamlar, idishlar va kiyimlarda o‘z bobosi xalifa al-Mutavakkilning tamg‘asini ko‘rib qoladi. O‘shanda u uy egasiga o‘zini tanitadi va buni izohlashni talab qiladi. Abul Hasan boy savdogarning o‘g‘li ekanligini, yoshligida yengiltak turmush tarzini kechirganligini, va hatto otasinig butun boyligini aysh-ishratga sarflab yuborganini aytib beradi. Keyinchalik u esini yig‘ib, savdo orqali yana boylik to‘plagan bo‘ladi. Kunlardan bir kun Abul Hasanning do‘koniga nihoyatda go‘zal qiz kelib, biroz pul berishini so‘raydi. Uni bir qarashda sevib qolgan Abul Hasan nima so‘rasa hammasini beradi.

Qiz Abul Hasanning do‘koniga yana ko‘p bora keladi. Bir kuni u qizga bildirmay ortidan borib, xalifa al-Mutavakkilning kanizak qo‘shiqchisi ekanligini va xalifa saroyida yashashini bilib qoladi. Abul Hasan u bilan uchrashish yo‘lini izlay boshlaydi. U xaram og‘asini pulga sotib olib, xalifa kiyimida saroyga kiradi va mahbubasining xonasiga kirib boradi. Kutilmaganda xonaga xalifa kirib keladi. Qiz Abul Hasanni zo‘rg‘a yerto‘laga yashirishga ulguradi. Xalifa g‘amgin kirib keladi va qo‘shiqchiga Banja ismli kanizakni sevishini va u bilan janjallashib qolganligini, endi usiz siqilayotganligini aytadi. Abul Hasanning mahbubasi

hukmdorni ovutish uchun muhabbat haqida qo'shiqlar aytadi. Ko'ngli taskin topgan xalifa uni ozod qiladi, o'zi esa Banjaning oldiga jo'naydi va u bilan yarashadi. Abul Hasan saroydan ayollar kiyimida chiqishga urinayotganida uni soqchilar ushlab oladilar. O'shanda u xalifaga o'z tarixini samimiy aytib beradi. Xalifa Abul Hasanga o'zining sobiq kanizagiga uylanishi va saroydan uning barcha mulkini sep hisobida olib ketishiga ruxsat beradi. Abul Hasanning hikoyasidan ta'sirlangan al-Mu'tadid uy egasini yigirma yilga soliقدan ozod qiluvchi qog'oz yozib beradi.

Abul Hasan haqidagi hikoyada Bag'dod turkumidagi boshqa novellalar va Hindistondan kelib chiqqan hikoyalarda bo'lgani kabi ijtimoiy jihat juda kam ko'rsatilgan. Shu bilan birga, Bag'dod hikoyalarida, Hindistonda va keyinchalik Misrda kelib chiqqanlaridan farqli o'laroq, g'ayritabiiy kuchlar hech qanday rol o'ynamaydi. Ayrim tadqiqotchilar Bag'dod hikoyalarida sog'lom fikri fantastikaga qarshi bo'lgan arablarning milliy jihatlari, ayniqsa, yorqin namoyon bo'lgan deb hisoblaydilar.

Qohira hikoyalari boshqacha xususiyatga ega. Bag'dod hikoyalaridan farqli o'laroq ular ko'pincha biroz behayo mazmunga ega. Ularda ijtimoiy muhabbatlar ancha kuchli ifodalangan. Ularda Qohira savdogarlari va hunarmandlarining har xil qiziqarli sarguzashtlari va hiylalari haqida hikoya qilinadi. Qohira novellalarining qahramonlari mayda savdogarlar yoki kambag'al hunarmandlar. Maqomalar qahramonlaridan farqli o'laroq, ular unchalik ma'lumotli emas, ammo sog'lom fikr va katta aqlga egadirlar. Vaziyat ularni ayyorlik ko'rsatishga, ustalik qilishga majbur qiladi. Ammo oxir-oqibatda ular yuqori mavqega erishadilar (malikaga uylanadilar yoki o'zlari podsho bo'ladilar). Qohira novellasining tipik misoli bo'lib «Kosib Ma'ruf haqidagi hikoya» xizmat qilishi mumkin.

Qohira shahrida Ma'ruf ismli qashshoq kosib yashaydi. Uni badjahl va injiq xotini qiynaydi va uradi. Xotinidan qutulish uchun u boshqa shaharga qochib ketadi. Yo'lda u jinga duch keladi va o'zining achchiq qismati haqida unga hikoya qilib beradi. Ma'rufning achchiq tarixini eshitgan va unga rahmi kelgan jin kosibni yelkasida uzoq bir shaharga olib boradi.

Yangi shaharda Ma'ruf bolalikdagi do'sti Alini uchratadi. Ali unga o'zini boy savdogar qilib ko'rsatishni maslahat beradi va uni pul bilan ta'minlaydi. Ma'ruf olgan pullarini sahiylik qilib tarqatadi va shaharliklar uni nihoyatda boy ekanligiga ishona boshlaydilar. Hatto, xasis podsho ham unga ishonadi, saroyga taklif qilib, qizini unga xotinlikka beradi. Faqat ayyor vazirgina Ma'rufga ishonmaydi va raqibiga nafrat bilan qaraydi.

To'y kuni Ma'ruf kambag'allar va xizmatkorlarga podshoning butun xazinasini tarqatib yuboradi. Vazirning so'ziga ko'ra podsho Ma'rufning boyliklar haqidagi so'zlarini tekshirishga qaror qiladi va bu ishni o'z qiziga topshiradi. Ma'ruf xotiniga o'z sirini chin ko'ngildan ochiqchasiga aytib beradi Xotini eriga xizmatkor kiyimini kiydirib, pul beradi va qochib ketishiga ko'maklashadi, otasiga esa Ma'ruf mol ortilgan karvonni kutib olish uchun ketgan deb aytadi.

Yo'lda Ma'ruf dehqonga duch keladi. U o'z ovqatini Ma'ruf bilan baham ko'radi. Buning evaziga Ma'ruf dehqonning yerini haydab beradi va tasodifan xazinaga duch keladi. U yerda juda ko'p oltin va qimmatbaho toshlar orasida egasiga shaxsan «jinlar» hukmdorining o'ziga har qanday buyruqlar bera olish huquqini beradigan uzuk bo'ladi. Jin yordamida Ma'ruf karvon tuzib, shaharga g'alaba bilan qaytib keladi. Bu yerda o'z boyliklarini sahiylik bilan tarqatadi.

Ma'rufning savdogarga xos bo'lmagan sahiyligi vazir va podshoda shubha uyg'otadi hamda ular hiyla bilan uning sirini aniqlashga qaror qiladilar. Vazir Ma'rufga may ichirib, sirini bilib oladi. Uning uzugini ayyorlik bilan qo'lga kiritadi va jinga Ma'ruf va podshoni sahroga tashlab kelishni buyuradi. U taxtni egallab oladi va podshoning qiziga uylanmoqchi bo'ladi. Ammo malika ayyorlik bilan vazirning uzugini olib, otasi va erini qaytaradi. Podsho o'limidan so'ng Ma'ruf taxtga o'tiradi.

Shu bilan novella tugaydi. Malikaning vafotidan keyin shaharga Ma'rufning birinchi xotini keladi. U ham uzukni o'g'irlashga harakat qiladi, ammo Ma'rufning o'g'li uni o'ldiradi. Shundan so'ng Ma'ruf mehmonnavozligi bilan uzukli bo'lishga yordam bergan dehqonning qiziga uylanadi.

«Kosib Ma'ruf haqidagi hikoya» misolida ko'rib turganimizdek, Misrda yaratilgan fantastik hikoyalar Hindistondan kelgan ertaklarga o'xshamaydi. Ular hind sehrli ertaklariga qaraganda ko'proq darajada muayyan tarixiy muhit, katta musulmon shahrining hayoti bilan bog'liqdir. Hind turkumidagi ertaklardan farqli o'laroq, bularda g'ayritabiiy kuchlar mustaqil emas. Bular odatda yovuz ham, yaxshi ham bo'lmagan, egasiga – tumorga ko'r-ko'rona bo'ysunadigan bo'lib, tumor egasi ularni hatto ularning istagiga qarshi boshqaradi. Masalan, «Kosib Ma'ruf haqidagi hikoya»dagi «uzuk quli» Abu Saodat ana shunday jinga misol bo'la oladi. G'ayritabiiy mavjudotning tabiiy insonga bunday bo'ysunishi sehrli va haqiqiy dunyolarning uzviy birligini tashkil qiladi. Odamlar va sehrgar ruhlarning ishlari shu darajada tabiiy qo'shilib keladiki, ular o'rtasida hech qanday chegara sezilmaydi hamda hikoyaning fantastik yoki yarimfantastik qobig'i orqali o'rta asr musulmon shahrining haqiqiy hayoti doimo namoyon bo'ladi.

Aftidan, qadimgi Misr ertaklaridan olingan (bu esa mahalliy folklor an'analarining juda mustahkam ekanidan dalolat beradi) ba'zi an'anaviy ertak motivlari mavjudligiga qaramay, Qohira turkumidagi makkorlik haqidagi hikoyalar «Ming bir kechada» Misr shahrining mamluk sultonlari va turklar hukmronlik qilgan davrdagi hayotini ko'plab tarixiy hujjatlardan ko'ra yorqinroq aks ettiradi. Masalan, Ali az-Zaybak va uning do'sti Ahmad ad-Danafa haqidagi hikoya qadimgi Misrning jasur firibgari Amasis haqidagi hikoyalarini eslatadi hamda shu bilan birga mamluklar urf-odatlarining g'aroyib va nihoyatda go'zal manzarasiga ega.

Podshoga nisbatan istehzoli, odatda razil va ayyor bo'lgan, axmoqroq va baxil podshoning o'rniga barcha ishlarni yuritadigan vazirga nisbatan ochiqchasiga dushmanlik xususiyatiga ega bo'lgan, kambag'al, ammo sahiy, mehnatkashlarga xayrixoh Qohira novellalarining umumiy ruhi shaharliklarning amaldorlarga nisbatan nafratini aks ettiradi hamda ushbu hikoyalar yozilgan muhitni qiyinchiliksiz tasavvur qilishga imkon beradi.

Maishiy novellalarga materiali jihatidan arablar xush ko'radigan janrdagi qisqa hikoyalar – maishiy va tarixiy latifalar yaqin turadi. Odatda bu kulgili yoki noodatiy hikoya haqidagi qisqa, qiziqarli va ayni vaqtda hajviy hikoyadir. Ba'zan unda shaxsiy hayot tafsilotlari yoki xiyonat bilan bog'liq tarix aks etadi, ba'zan esa u kulgili holat yoritilgan, hozirjavob dialog yoki biror personajning (odatda xalqdan chiqqan) oddiy topqir javobi aks etgan qisqa hajviya bo'ladi. Ushbu janrdagi hikoyalar orasida shaharning tungi hayoti, xalifaning turli ishlari, tungi sarguzashtlari kabilar katta o'rin tutadi («Xorun ar-Rashid va kanizaklar», «Ayol va ayiq haqidagi hikoya», «Qiz va maymun haqidagi hikoya» va boshqalar kiradi).

Maishiy novellalarda bo'lgani kabi, qisqa hikoyalarda ham shahar aholisining turli qatlamlariga mansub kishilarning butun boshli galereyasi ko'rsatilgan. Boy savdogarlar va kambag'al hunarmandlar, badjahl kampirlar – afsungarlar va sevishganlarga yordam beruvchilar; xaram qo'riqchilari bo'lgan xaram og'alari; katta yoshli, tajribali dono qariyalar va nodon murabbiylar; poraxo'r amaldorlar va dono qozilar; erkatoy yoshlar – «oltin yoshlar»ning vakillari, otasining merosi uchun tug'ishgan aka-ukalaridan har qanday yo'l bilan qutulishga harakat qiladigan surbet va dangasa yoshlar; erlariga xiyonat qiluvchi yosh xotinlar, – bular ushbu hikoyalar qahramonlarining to'liq bo'lmagan ro'yxati.

Tarixiy xususiyatga ega bo'lgan latifalarni xattotlar o'rta asr arab tarixchilarining asarlari va antologiyalaridan olganlar. Odatda ular mashhur shaxslar – Aleksandr Makedonskiy, mamluk sultonlari, fors podsholariga bag'ishlangan. Ularda keyingi avlodlar uchun ideal hukmdor tuyulgan Xorun ar-Rashid ayniqsa ko'p uchraydi. Albatta, Xorun ar-Rashid haqidagi tarixiy latifalar faqat Bag'dodda emas, balki Qohirada ham yozilgan bo'lishi mumkin. Al-Jaxiz an'alarini davom ettiruvchi latifalarning alohida guruhini sahiy odamlar haqidagi hikoyalar tashkil qiladi.

«Ming bir kecha»da pand-nasihat xususiyatiga ega bo'lgan hikoya va rivoyatlar katta o'rin egallagan. Ularning asosiy qismi Hindistondan kelib chiqqan

bo‘lib, «Ming bir kecha» to‘plamiga turli davrlarda hikoya va ertaklarning boshqa to‘plamlaridan kirgan. Pandnomalarga hayvonlar haqidagi ko‘plab ertaklar, «Jilliad va Shimad» nomli katta turkum (asosan «Kalila va Dimna»ning qayta hikoya qilinishidir), o‘z bilimlari bilan Xorun ar-Rashid saroyida yashagan taniqli olimlarni ham uyaltirgan aqlli kanizak Tavaddud haqidagi uzun qissa, dono Sindbod haqidagi turkum va ba’zi bir boshqa hikoyalar kiradi. Bu «Ming bir kecha» asarinig eng zerikarli va badiiy jihatdan ojiz qismidir.

«Ming bir kecha»da ikkita katta roman – «Umar ibn an-Nu‘mon haqidagi roman» hamda «Ajib va G‘arib haqidagi qissa» alohida o‘rin tutadi. Ular to‘plamga eng asosiy qismlari shakllanib bo‘lganidan keyin, kechalar sonini ko‘rsatilgan raqamga yetkazish uchun kiritilgan. Antara haqidagi risarlik romani singari ularning syujetlari salib yurishi bilan bog‘liq va o‘zining oxirgi ko‘rinishiga ular, aftidan, XIII asrda kelgan. Romanlar markazida, «Ming bir kecha» novellalarining aksariyatidan farqli ravishda, savdogar yoki hunarmand emas, balki jasur jangchi turadi. Ularning qahramonlari («Umar ibn an-Nu‘mon haqidagi roman»da berilgan Sharkan hamda «Ajib va G‘arib haqidagi qissa» qahramoni G‘arib) barcha risarlik fazilatlariga ega bo‘lib, shahar novellalaridagi ojiz va ahmoqroq podsholarni aslo eslatmaydi. Risarlik romanlarining qahramonlari – G‘arib va Sharkan – musulmon bahodirlari, ehtirosli, jasur va oliyjanob insonlar. Ular kofirlarga qarshi kurash olib boradilar va islomni yoyadilar. Qohira turkumidagi novellalardan farqli ravishda, u romanlarda g‘ayritabiilik elementi umuman yo‘q. Romanlarda ifodalangan ijtimoiy muhabbat, shahar novellalaridan farqli o‘laroq, bu asarlar feodallar muhitida, yana ham aniqrog‘i, mamluklar zodagonlari muhitida, salibchilarga qarshi kurash sharoitida yuzaga kelganidan hamda Antara to‘g‘risidagi roman singari uzoq vaqt mobaynida mustaqil asar sifatida mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

«Ming bir kecha»ning oxirgi tahririga kiritilgan asarlar sirasiga, shuningdek «Sindbod haqidagi qissa» kiradi. U, aftidan, X asr o‘rtalarida yashagan hamda dengiz kapitanlarining Hindiston, Sharqiy Afrika va Tinch okeani orollariga sayohatlari haqidagi hikoyalarini to‘plagan fors kapitani Buzruk ibn

Shahriyorning «Hindiston ajoyibotlari» kitobiga asoslangan. «Sindbod haqidagi qissa»da, «Hindiston ajoyibotlari» novellalarida bo'lgani kabi, fantastik sarguzashtlar va manzaralar ortida o'rta asrlardagi Iroqning dengiz bo'yidagi shaharlarida dengizchilar va savdogarlarning haqiqiy hayotini, ularning boylik to'plash maqsadida uzoq, hali ochilmagan mamlakatlarga qilgan xavfli sayohatlarini ko'rish qiyin emas.

«Ming bir kecha», umuman olganda, o'z mazmuni bilan kech o'rta asr arab jamiyatidagi hayotning deyarli barcha tomonlarini qamrab oladi.

Bu to'plamning badiiy usuli hali juda sodda. Qahramonlarining tavsifi umumiy, sxematik tusda. Hikoyalardagi qahramonlar odamlar yoki shaxslar emas, balki shartli tiplardir (podsho, vazir, savdogar, qozi, hunarmand, qashshoq va h.k.). Buning ustiga qahramonlarning u yoki bu xislatlari ularning harakatlarida ko'rinmaydi, balki ular haqida kitobxonga xuddi qahramonning ismi va u haqidagi boshqa ma'lumotlar kabi aytib qo'yiladi, xolos.

Personajlarning bunday minimal o'ziga xosligida shaxs hali tabaqadan ajralmagan o'rta asr jamiyatining ongi o'z aksini topgan. Aniq qiyofasi u yoki bu darajadagi ishonchlilik bilan xalq an'analarida shakllangan tarixiy shaxslar shu ma'noda bundan mustasno ekanligi tasodifiy emas. Masalan, Xorun ar-Rashid, uning xotini Zubayda hamda vaziri Ja'far bilan birga, garchi haqiqiy Abbosiylar xalifaga o'xshamasa-da, kitobxon ko'z o'ngida jonli, yorqin ifodalangan o'ziga xoslik sifatida gavdalanadilar.

«Ming bir kecha» novellalari ba'zan qo'polroq, ba'zan esa nihoyatda nozik, arablar va boshqa xalqlarning ko'plab folklor asarlarini o'z ichiga olgan jonli yumorga boy.

To'plamga mingdan ortiq she'riy parchalar kiritilgan. Bir qator belgilariga ko'ra ular taxminan XII–XIV asrlarda, ya'ni to'plam tarixining Misr davridayoq yozilgan deb hisoblash mumkin. Ushbu kichikroq qasidalar va mayda she'rlar, aftidan, tayyor matnga o'sha davrdagi adabiy urf uchun kiritilgan hamda, ba'zi badiiy qimmatiga qaramay, badiiy yaxlitlikka ziyon yetkazmagan holda tashlab ketilishi ham mumkin.

«Ming bir kecha»ning tili bir xil emas. Bu tabiiy, albatta, chunki to'plamning yaratilish tarixi murakkab va uzoq davom etgan. Aksariyat hikoyalar adabiy tilda yozilgan, boshqalarida esa Misr va Suriya shevalarining kuchli ta'siri seziladi.

10.2. XALQ ROMANI

Darsning maqsadi: mazkur qismda kech o'rta asrda yaratilgan qator xalq romanlari haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *xalq romani*, "*Sirat Abu Zayd*", "*Qissat bani Hilal*", "*Sirat az-Zaxir Beybars*", *az-Zaxlan qabilasi*, "*Sirat zil-Himma*".

Xalq romani janrining dastlabki asarlari qatoriga «Antaraning hayoti» bilan birga Abu Zayd haqidagi 38 jildli «Abu Zaydning hayoti» («*Sirat Abu Zayd*») romani kiradi. Bu romanning boshqa bir nomi, unda ifodlangan qabilaning nomidan kelib chiqib, «Hilol qabilasi haqidagi qissa» («*Qissat bani Hilal*».)– deb nomlanadi.

Romanning bosh qahramoni – Hilol qabilasining afsonaviy qahramoni – Sarv hukmdori Rizq hamda Makka hokimining qizi Xadraning o'g'li Abu Zayd (Barakot). Romanda aytilishicha, Xadra Abu Zayd tug'ilishidan sal avval sayr chog'ida boshqa qushlarga g'azab bilan hujum qilayotgan va ularni o'ldirayotgan qora qushni ko'radi hamda xudodan unga xuddi shunday kuchli va qo'rqmas o'g'il ato etishini so'raydi. Uning iltijosi qabul bo'lib, qop-qora farzand ko'radi.

Xadra qora tanli farzandni dunyoga keltirib, qabilani sharmanda qildi deb hisoblagan. Qabila boshliqlarining gapiga kirib, Rizq xotinini yangi tug'ilgan o'g'li bilan uyidan quvib, amaldorlar bilan birga Makkadagi otasining uyiga yuboradi. Yo'lda Xadra va uning yo'ldoshlari az-Zaxlan qabilasining boshlig'ini uchratadilar. U Xadraga rahmi kelib, uni o'z homiyligiga oladi hamda Abu Zaydni o'g'il qilib oladi. Bola o'sib-ulg'ayib, kuchli va jasur jangchiga ayanganidan keyin onasi unga az-Zaxlan qabilasining boshlig'i uning amakisi ekanligi, haqiqiy otasini esa Rizq o'ldirganini aytadi. Abu Zayd otasining o'limi uchun qasos olishga qasam ichadi. Asta-sekin u qahramonliklar ko'rsatib, nafaqat

uni boqib olgan az-Zaxlan qabilasi, balki qo'shni qabilalar ko'z o'ngida ham obro' orttiradi va az-Zaxlan qabilasiga boshliq etib tayinlanadi.

Ayni vaqtda xotini va o'g'lini quvib yuborganidan keyin qattiq tushkunlikka tushgan Rizq qabilani tashlab ketadi va Xadra bir vaqtlar qushlar jangini ko'rgan joydagi buloq yoniga joylashadi.

Bir qancha vaqt o'tib, Hilol qabilasi ustiga ofat kelib qurg'oqchilik yopiriladi. Yaylovlar izlab qabilaning katta qismi az-Zaxlan mulkiga hujum qiladi. Barakot kelgindilarni yengadi, ammo ularga rahm qilib, shu yerda qolishlariga ijozat beradi. Hilol qabilasining boshliqlari bir vaqtlar o'lpon to'lagan az-Zaxlan qabilasiga dushmanlik kayfiyatida bo'lishda davom etadilar. Ular Rizq huzuriga elchi yuborib, Barakotning tazirini berishda ko'maklashishini talab qiladilar. Rizq qabila boshliqlarining amriga bo'ysunib, qabilaga qo'shiladi. Elchi bilan suhbatdan az-Zaxlan qabilasining boshlig'i uning o'g'li ekanligini anglay boshlaydi, lekin qabila boshlig'ining ismi Abu Zayd (Barakot) ekanligi unda ba'zi shubhalar uyg'otadi. Rizq Barokatni yakkama-yakka kurashga chaqiradi. Otasining qotilidan qasos olish orzusida yurgan Barakot chaqiriqni jon deb qabul qiladi. Boshlangan olishuvda u Rizqni egardan urib tushiradi va endi o'ldirmoqchi bo'lganida onasi o'g'lini padarkushlikdan saqlab qoladi. U o'g'liga tug'ilish holatlari haqida aytib beradi, Hilol qabilasining boshliqlari esa Abu Zaydni Rizqning qonuniy va munosib o'g'li deb tan oladilar hamda unga va onasiga ko'rsatgan adolatsizliklari uchun kechirishini so'raydilar.

Romanning keyingi qismlarida Abu Zayd (Barakot) va Hilol qabilasining qahramonliklari, xususan Abu Zayd uch nafar jiyani bilan yaylov qidirib Shimoliy Afrikaga qilgan safari hikoya qilinadi. Birin-ketin forslar, Amir Temur bilan fantastik kurashlar epizodlari, Tanjer va Marokash shaharlarini qamal qilish voqealari, Nilning yuqori qismlariga uyushtirilgan harbiy yurishlar va bir qator boshqa epizodlar ketma-ket tasvirlanadi.

Abu Zayd haqidagi romanning mazmunini yuzaki hikoya qilishdan ko'rinib turibdiki, u ancha xilma-xil va murakkab romandir. Unda eski urug'-qabilachilik ongining elementlari kuchli bo'lib, bu asarning o'zagi ancha ilgari, ya'ni arablar

xotirasida hali Arabistonni buzib kirgan islomgacha bo‘lgan davrdagi yaylovlar va suv havzalari uchun olib borilgan qabilalararo urushlar haqidagi xotiralar bo‘lgan IX asrni kiritish imkonini beradi. Abu Zaydning Shimoliy Afrikadagi sarguzashtlarida arablarning Shimoliy Afrika va Ispaniyaga qilgan yurishlari, salibchilar bilan bo‘lgan urushlar va boshqa keyingi voqealar aks etgan.

Misrda mashhur bo‘lgan boshqa bir roman – «Az-Zahir Beybarsning hayoti» («Sirat az-Zaxir Beybars»)da oxirgi ayubiylar va mamluklar hukmronlik qilgan davrdagi fojiali voqealar hikoya qilinadi. Bu asar Abu Zayd haqidagi romandan syujet jihatdan biroz murakkabroqdir.

Romanning asosiy qahramonlari – mashhur mamluk sultoni **az-Zaxir Beybars** (1260–1277) va uning ba’zi zamondoshlari. Romanda tarixan ishonchli materiallar nisbatan kam, fabulaning barcha asosiy tarkibiy qismlari sof badiiy to‘qima tashkil etadi. Romanning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Misr sultoni **as-Solih Ayubiy** (1240–1249)ning mamluk qo‘shini uchun o‘smirlarni sotib oluvchi qulfurush boshqa yoshlar orasida Mahmud ismli yigitni (keyinchalik u Xorazm shohining o‘g‘li ekanligi aniqlanadi) sotib oladi. Savdogar Mahmudni o‘zining Damashqdagi sudxo‘rlaridan biriga qarz evaziga berib yuboradi, u esa, o‘z navbatida, Mahmudni xotiniga qul sifatida sovg‘a qiladi. Xotini qulga o‘zining esi pastroq o‘g‘liga qarab yurishni topshiradi. Kunlardan bir kun xo‘jayinning singlisi Fotima akasinikiga mehmonga kelib, kelinoyisini nihoyatda g‘azablangan holatda uchratadi: Mahmud bebaxt ovsarga yaxshi qarab turmaganligi uchun u kursidan yiqilib tushgan bo‘ladi. O‘smirning o‘lgan o‘g‘liga nihoyatda o‘xshashidan hayratlangan va uning ahvoliga achingan Fotima qulni akasidan sotib oladi, o‘ziga o‘g‘il qilib olib unga vafot etgan o‘g‘lining Beybars ismini qo‘yadi va uni o‘z mulking egasi qilib tayinlaydi.

Bir kun Damashqqa as-Solihning vaziri, Fotimaning kuyovi (opasining eri) Najmiddin sultonning topshirig‘i bo‘yicha keladi. U Misrga qaytayotganida Beybarsni o‘zi bilan olib ketadi. Qohirada o‘smir tez ko‘tariladi va tez orada sultonning yaqinlaridan biriga aylanadi. As-Solih vafotidan keyin hokimiyat uchun kurash boshlanadi va nihoyat Beybars sulton bo‘lib qoladi. Romanning

keyingi qismi Beybarsning harbiy yurishlari, jumladan Suriyada vizantiyaliklar, salibchilar va mo'g'ullarga qarshi urushlari, shuningdek qahramonning romantik sarguzashtlari hikoya qilinadi.

Beybars haqidagi xalq romanning syujeti, shubhasiz, u «Abu Zaydning hayoti»ga nisbatan ancha kech yozilganidan dalolat beradi. U haqidagi dastlabki ma'lumotlar XVI asr boshida misrlik tarixchi ibn Iyas (1448–1522) asarlarida uchraydi. Biroq Beybars haqidagi xalq romani ilgariroq XIV asrda, ya'ni sulton Beybarsning aniq shaxsi haqidagi xotiralar fantastika bilan qoplanishidan avval uning ideallashtirilgan obrazi, «Ming bir kecha»dagi Xorun ar-Rashid obrazi kabi, xalq ichida keng tarqalmagunicha yuzaga kelishi mumkin emas edi. Misrliklar ongida Beybars o'zining taqvodorligi va insonparvarligi bilan mamluk jangchilarining boshqa vakillaridan ajralib turardi.

Beybars obrazida va tarixiy voqealar talqinida shahar tabaqalarining qiziqishlari va muhabbatlari yorqin seziladi. Qahramon, garchi xalq ichidan chiqmagan bo'lsa ham, qashshoq ahvolga solingan savdogarlar va hunarmandlarga hamdardlik bilan munosabatda bo'ladi hamda ularni yovvoyi va makkor amaldorlarning xonavayron qilishiga yo'l qo'ymaydi. Shaharliklarning yaxshi va odil hukmdor haqidagi ko'p asrlik orzusi ana shunda namoyon bo'ldi.

O'rta asr arab xalq romanlarining bosh qahramoni sifatida odatda arablar himoyachisi va ashaddiy musulmon, arab qabilalari ideallarining ifodachisi namoyon bo'ladi. Bunda an'anaviy fazilatlar (kuch, jasorat, sahovat, donishmandlik, qabilaga va islomga sadoqat) haddan tashqari ko'pirtiriladi. Barcha romanlarda ideal arab jangchisi gavdalanadi, ammo u har qanday o'ziga xoslik jihatlardan mahrum bo'ladi. Qahramonni atrofdagi odamlardan yuksaklikka ko'tarish uchun unga odatda, an'anaviy fazilatlardan tashqari, yana aslzodalik xislati qo'shiladi. Deyarli har doim qahramon – adolatsizliklar, ko'rolmaydigan va ayyor odamlar fitnalarining qurbonidir. Biroq u quroli va donoligi bilan dushmanlarni yengadi, o'zining halol nomini tiklaydi, aybsiz jabrlanganlarni himoya qiladi va tug'ilganidan o'ziga tegishli bo'lgan jamiyatdagi yuksak mavqeini qaytarib oladi.

«Abu Zaydning hayoti» asarida ham, Beybars haqidagi romanda ham islomning kuchli ta'siri seziladi. Biroq agar ilgariroq chiqqan Abu Zayd haqidagi xalq romanida hali eski urug'-qabilachilik mafkurasi elementlari kuchli bo'lsa, kechroq yozilgan Beybars haqidagi romanda kech o'rta asr uchun xos bo'lgan mutaassib musulmon dunyoqarashi birinchi o'ringa qo'yiladi. «Antaraning hayoti» qahramonlarining diniy bag'rikengligidan bu yerda iz ham qolmagan. Beybars haqidagi roman nasroniylarga qarshi pafos bilan yo'g'rilgan: islomni qabul qilishni istamayotgan nasroniylar va boshqa personajlar unda eng qora bo'yoqlarda tasvirlangan.

Beybars har narsada Allohga tavakkal qiladi. U sulton as-Solihni faqat Qur'onni buzgan holda may ichgani uchun qoralaydi, ammo u chin ko'ngildan tavba qilgan zahoti uni kechirib yuboradi. Beybars kamtarin va adolatli, masalan, u do'stlari unga maslahat berganidek, Ayubiylar hukmdorlarini taxtdan ag'darish va Misr taxtini egallashga qaror qilmaydi, balki taxt unga «qonuniy» asoslarda topshirilishini kutadi va hokazo.

Boshqa bir xalq xalq roman– «Zul-Himmaning hayoti» («Sirat zil-Himma») yanada islomiy xususiyatga ega. Uning nomi qahramonning nomidan kelib chiqqan. Asarda IX asrdan boshlab nasroniylarga qarshi olib borilgan urushlar haqida hikoya qilinadi. Bunda asar qahramoni Zul-Himma ismli ayol bu urushlarda kofirlarni yakson qiluvchi islom armiyasining yo'l boshchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Xalq romanlarining tuzilishi ancha bir xil tusga ega. Asarlarning asosiy mazmunini odatda haqiqiy tarixiy shaxsning hayoti tashkil qiladi. Unga turli epizodlar va chekinishlar kiritiladi. Ammo xalq romanlarida tasvirlangan voqealar odatda tarixiy haqiqatdan yiroqdir. Hattoki qahramoni nisbatan kechki davrda yashagan «Beybarsning hayoti» asarida ham eng umumiy faktlarnigina ishonchli deb hisoblash mumkin. Syujet rivojlangani sayin Beybars haqidagi hikoya borgan sari fantastik tus ola boshlaydi. Romanda boshqa asarlarda, masalan, «Ming bir kecha»da yoki fors romanlarida uchraydigan har xil folklor motivlar paydo bo'ladi. Biroq to'qimalarning ko'pligi o'rta asrdagi Qohiraning hayotini jonli va

haqqoniy aks ettiruvchi romanning madaniy-tarixiy ahamiyatini aslo kamaytirmaydi.

Qadimgi afsonaviy yoki yarim afsonaviy qahramonlarga bag'ishlangan xalq romanlarida folklor motivlar muhim o'rin egallaydi. Masalan, «Sayf ibn zi-Yazanning hayoti» romanining qahramoni, islomgacha bo'lgan Janubiy Arabiston himyariy hukmdorlaridan biri, g'aroyib sarguzashtlarda ishtirok etadi; bu yerda sehrgarlar va afsungarlar uchraydi, yuqorida keltirilgan Abu Zayd fantastik yurishlarda ishtirok etadi va hokazo.

Xalq romanlaridagi hikoyalar dialogli jonli sahnalarga to'la. Bu esa tadqiqotchilarga ularda drama kurtaklarini ko'rish imkonini bergan. Ayni vaqtda dialoglar so'z o'yinlarga to'liq bo'lib, hajviy xususiyatga ega. Nasriy matn she'riy kiritmalar bilan bo'linadi. Ularda odatda arab mumtoz she'riyatining o'lchamlariga amal qilinmaydi. Dastlab ular mumtoz vazn qoidalariga rioya etilgan holda yozilgan, ammo vaqt o'tishi bilan o'quvchilar yoki xattotlar shu she'rlarning tuzilishini ularga og'zaki nutq elementlarini qo'shib o'zgartirib yuborgan deb hisoblanadi. Bu she'riy kiritmalar tuzilishiga ko'ra yakunlangan qandaydir voqeani tavsiflaydi. Xalq romanlaridagi qo'polroq so'z o'yinlar va sodda hazil-mutoyibalar shaharliklarga ma'qul kelgan. Romanlarning xalqchil tili, ularda Misr shevasi va so'zlashuv shakllaridan foydalanilganligi ushbu asarlarni aholining keng qatlamlari uchun tushunarli qilgan. Bu esa syujetning qiziqarliligi bilan bir qatorda, ularga xalq ichidagi keng mashhurlik bag'ishlagan.

Turklar hukmronligi davri arab xalqlari tarixida eng qorong'u davrlardan bo'lgan. Usmon imperiyasi davrida arab viloyatlarining madaniyati shunchalik tanazzulga uchragan ediki, misrlik tarixchi al-Jabartiy (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi) so'zlariga qaraganda, arab mamlakatlarida hatto musulmon ruhoniylarining eng yuqori tabaqasi hisoblangan al-Azhar orasida ham ma'lumotli odamni topish qiyin bo'lgan. Shunga qaramay, arab adabiy an'anasi hech qachon batamom uzilmagan. Bu esa XIX asrda arab adabiyoti tug'ilishi davriga yaxshi ta'sir ko'rsatgan. Arablarning siyosiy va madaniy jihatdan yuksala boshlashi XIX asrning dastlabki yillariga to'g'ri keladi va misrliklar Bonapart armiyasining

hujumi davrida kurashishiga to'g'ri kelgan jang bilan bog'laydilar. Shu paytdan boshlab arab mamlakatlarida mustaqillik uchun olib borilgan uzoq muddatli kurash boshlanadi. Bu davrda shakllangan yangi adabiyot esa zamon bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayni vaqtda ko'p asrlik adabiy an'analarga tayandi.

Seminar mashg'ulotlari uchun savol va topshiriqlar

1. Kech o'rta asr adabiyoti.
2. Kech o'rta asrning eng mashhur adiblari.
3. Al-Qalqashandiy asarlari.
4. Og'zaki hikoya qilish an'anasi.
5. «Ming bir kecha» ertaklari.
6. Xalq romanlari.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. «Ming bir kecha»ning yaratilishi.
2. «Sirat Abu Zayd» – xalq romani.
3. Sirat az-Zohir Beybars haqida.

GLOSSARIY

- “Adudiyot” – al-Mutanabbiyning Fors amiri Adud ad-Davla saroyida yozgan asarlari
- “Ayyam al-arab” – Islomdan ilgarigi badaviy arablar hayoti haqida yozilgan nasriy asar
- al-Axtal – Umaviylar davri saroy shoiri
- Badaviylar – ko‘chmanchi arab qabilalari
- Da‘vat – Islom dini mohiyatini tushuntirib yozilgan chaqiruv
- “Devon al-Xamosa” – IX asrda Johiliya davri shoirlarining asarlari to‘plangan asar
- Faris – chavandoz
- Faxr – qasidada shoir o‘zining janglarda ko‘rsatgan qahramonliklari, uchqur tuyasi yoki otini maqtab yozgan qism
- Hadis – Rasululloh (SAV) so‘zlari, fe‘llari, qarorlari – sunnatlari deb ham ataladi
- Hamriyot – may to‘g‘risidagi qism
- Hijo – hajviy janr
- “Hijoziyot” – Sharif ar-Rodiyning Hijozda yozgan she‘rlari to‘plami
- Ibn al-Muqaffa – “Kalila va Dimna” asarini qadimgi paxlaviy tilidan arab tiliga o‘giran adib va tarjimon
- Ihvoniyat –birodarlik risolalari va she‘rlari
- Johiliya davri – islomdan avvalgi V-VII asrlarga oid davr
- “al-Jome‘ as-Sahih” – ishonchli hadislar to‘plami
- Ka‘ab ibn Zuhayr – “Qasidat al-Burda” asarining muallaifi
- “Kitab al-Ag‘oniy” (“Qo‘shiqalar kitobi”) – qadimgi arab shoirlari, bastakorlari hayoti va ijodi haqidagi to‘plam
- “Kitab al-badi‘” – Ibn al-Mu‘tazzning badiiyat istilohlariga oid birinchi asari
- “Kofuriyot” – shoir al-Mutanabbiyning Misr amiri Kofur saroyida yozgan asarlari to‘plami

“Kutub as-Sitta” - ishonchli hadislar to‘plangan oltita kitob
 Madh – shoir qabilasi, uning mashxur kishilarini maqtab yozgan qism
 “Malik ash-Shuaro” – shoir Imru-l-Qaysga berilgan sifat
 Maqoma – X asrda yozilgan qiziqarli latifalarga o‘xshash kichik nasriy asar
 Maxofa – tuya ustiga o‘rnatilgan ayvoncha
 “al-Mu’allaqot” – VIII asrda johiliya shoirlari sara qasidolari to‘plangan asar
 “al-Mufaddaliyot” – olim Mufaddal ad-Dabbiy to‘plagan to‘plam
 Muhaddis – hadis ilmi bilimdoni
 al-Muhalhil – Johiliya davri ilk shoirlaridan
 Muqattam – Qohira shahri tashqarisidagi tepalik nomi
 Muvashshax – VIII asr oxirida arab-islom adabiyotida yuzaga kelgan yangi she’riy janr
 Nabiz – badaviy arablar xurmodan tayyorlaydigan salqin ichimlik
 “Nahj al-balag’a” – “Balog’at yo’li” - Sharif ar-Rodiy tomonidan Xazrati Ali so’zlari, hikmatlari to‘plangan asar
 Naqoid – umaviylar davriga xos janr bo’lib, unda shoirlar bir-birlarini tanqid qilib asar yozganlar
 “Naqd ash-She’r” – “She’r tanqidi”
 Nasib – qasidaning kirish – rubobiy qismi
 Nuniya – “nun” harfiga qofiyalangan qasida
 Qasida – 50-100 baytdan iborat bo’lib, bir necha mustaqil qismdan tashkil topgan she’riy asar
 “Qasidat al-Burda” – Ka’ab ibn Zuxayrning Rasuli akram oldilarida o’qigan qasidolari
 Qasida “lomiya” – “lom” harfiga tugaydigan baytlardan tashkil topgan asar
 Qudoma ibn Ja’far – “She’r tanqidi” asari muallifi
 Rihla – safarnoma
 Riso – marsiya (biror kishi vafoti munosabati bilan yozilgan she’riy asar)
 Roviyy – johiliya davri shoirlari asarlarini yodida saqlab yuruvchi shaxs
 Sahobalar – Muhammad (SAV) safdoshlari

Sahih - ishonchli

Saroy she'riyati – saroylarda ijod qilgan shoirlar asarlari

Saxro kemasi – arablar tuyani shunday atashgan

“Sayfiyot” – al-Mutanabbiyning Sayf ad-Davla saroyida yozgan asarlari to'plami

“as-Sunan” – Imom at-Termiziyni ishonchli hadislar to'plami nomi

“Shomiyot” – al-Mutanabbiyning Suriyada yozgan qasidalar to'plami

Tafsir – Qur'onga yozilgan sharh

“Taqlid davri” she'riyati – Andaluziya shoirlarining sharqiy viloyat shoirlariga o'xshatib yozgan asarlari

Tarafa, Antara – johiliya davri shoirlari

Tarassul – rasmiy va shaxsiy maktublar

Tardiyot – ov haqidagi qism

Tashtir – g'azal baytlariga ikkita yangi misra qo'shiladi, shu tariqa asar ikki barobar ko'payadi

Taxmis – she'rda har bir baytga uchta misra qo'shiladi, shunda she'rning har bir bandi besh misradan iborat bo'ladi

Urjuza –rajaz bahrida yozilgan she'riy asar

Vasf – o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi qism

Xitobot – notiqlik san'ati

“Yangilanish davri” – Andaluziya shoirlari Ispaniya tabiatini tarannum etgan davr

Zajal – XI asr oxirida paydo bo'lgan, ikki-uch lahjada yozilgan sayyor shoirlar ijodidagi yangi she'riy janr

Zohidlik – tarkidunyochilik, nafsni tiyish

Zuhayr – “al-Mu'allaqat” to'plamiga kiritilgan shoir

Zuhdiyot – qasidaning tarkidunyochilik haqidagi bir qismi

“Zu-s-Salib” – shoir al-Axtalga qo'yilgan laqab

ToshDSHI Xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti kafedrası tomonidan 2 kursda o'qitiladigan mumtoz arab adabiyoti fani bo'yicha test savollari

“MUMTOZ ARAB ADABIYOTI”

- 1. Johiliya davri shoirlarining asarlari to'plangan birinchi manba' qaysi?**
 - A). al-Muallaqot;
 - B). al-Mufaddaliyot;
 - V). Ayyom al-Arab;
 - G). Kitob al-ag'oniy;
 - D). Kitob ash-she'r va shu'aro.

- 2. Johiliya davri shoirlarining asarlari to'plangan ikkinchi manba' muallifi kim?**
 - A). Raviy Hammad;
 - B). al-Isfaxoniy;
 - V). Mufaddal ad-Dabbiy;
 - G). Abu Tammom;
 - D). Abu Nuvos.

- 3. IX-asrda yaratilgan johiliya davri shoirlarining asarlari to'plangan ikkita bir xil nomli manba'ning nomi nima?**
 - A). Ayyom al-Arab;
 - B). Kitob al-Ag'oniy;
 - V). Jamharatu-l-amsol;
 - G). Devon al-Hamosa;
 - D). al-Muallaqot.

- 4. Abu-l-Faraj al-Isfahoniy asarining nomi nima?**
 - A). Kitob ash-she'r va shu'aro
 - B). Kitob al-Ag'oniy;
 - V). Al-Mufaddaliyot;

- G). Kitob al-adab;
- D). Kitob al-bade'.

5. Johiliya davri haqida yozilgan nasriy asar qaysi?

- A). Devon al-Hamosa;
- B). Al-Muallaqot;
- V). Al-Mufaddaliyot;
- G). Ayyom al-Arab;
- D). Kitob al-adab.

6. “Al-Muallaqot” to‘plamiga kiritilgan shoirlarni ko‘rsating?

- A).Al-Mutanabbiy, Ibn Zaydun, Abu Nuvas, Abu Tammam, Al-Buxtoriy;
- B).Imru-l-Qays, Antara, Tarafa, Labid, Zuhayr, Haris, Amr ibn Kulsum;
- V).Shaqiy, Hamisiy, Yazijiy, Musafiy, Zahaviy;
- G).Al-Ma'arriy, Al-Axtal, Al-Jarir, al-Farazdaq,, Bashshar ibn Burd;
- D).Ibn Zaydun, ibn Haldun, ibn Shuhaba, ibn Darrojj, ibn Hamdis.

7. Qasida qanday qisimlardan tashkil topgan?

- A). Muqaddima, gʻazal, ruboiy, qitʻa, tuyuq;
- B). Murabbaʼ, muxammas, musaddas, musamman;
- V). Nasib, vassf, madh, faxr, hikmat, tardiyot, hamriyot;
- G). Muammo, muhabbatnoma, soqiynoma;
- D). Hijo,riso, naqoid, muvashshah,zajal.

8. Birov ustidan kulib yozilgan janrning nomi nima?

- A).Qasida;
- B). Zajal;
- V). Qitaʼ;
- G). Riso;
- D). Hijo.

9. Biror kishi vafoti munosabati bilan yozilgan she'riy janr nomi nima?

- A). Riso;
- B). G'azal;
- V). Muammo;
- G). Muvashshah;
- D). Naqoid.

10. Johiliya davri shariyati kimlar og'zidan yozib olingan?

- A). Baxshilar;
- B). Xovizlar;
- V). Shoirilar;
- G). Roviylar;
- D). Olimlar.

11. "Qasidai Burda" asarining muallifi kim?

- A). Hassan ibn Sobit;
- B). Ka'ab ibn Zuhayr;
- V). Imru-l-Qays;
- G). Antara;
- D). Tarafa.

12. Ilk Islom davrida ko'proq qaysi janrlarda asarlar yozishgan?

- A). G'azal, ruboyi, qita', muammo;
- B). Murabba', muvashshah, zajal;
- V). Madh, riso, hijo, da'vat, pand-nasihah;
- G). Maqoma, navodir, sira;
- D). Masnaviy, muhammas, musaddas.

13. Umaviy davri shoirilari qatorini belgilang.

- A). Al-Axtal, al-Jarir, al-Farazdaq;
- B). Antara, Tarafa, Labid;
- V). Zuhayr, Xarris, Shanfara;

- G). Abu Tammom, Abu Nuvo's, Abu Abdulloh;
- D). Nabig'a, Ta'abata Sharran, Muhalhil.

14. Umaviylar davrida yaratilgan she'riy janrni ko'rsating.

- A). Qasida;
- B). Naqoid;
- V). Riso;
- G). Zajal;
- D). Hijo.

15. Qaysi qadimiy madaniyatlar Abbosiylar davriga ta'sir qqrstadi?

- A). Qadimgi ispan madaniyati, kadimgi yapon madaniyati, qadimgi xitoy madaniyati;
- B). Qadimgi yunon madaniyati, qadimgi sharq madaniyati, asl arab madaniyati;
- V). Qadimgi baqtriya madaniyati, qadimgi arman madaniyati, qadimgi sug'd madaniyati;
- G). Qadimgi hind madaniyati, qadimgi misr madaniyati, qadimgi rus madaniyati;
- D). Qadimgi eron madaniyati, qadimgi turk madaniyati, qadimgi ovrupa madaniyati.

16. Abbosiylar davri adabiyoti qanday davrlarga bo'linadi?

- A). Johiliya davri, Umaviylar davri, Sosoniylar davri adabiyoti;
- B). Antik davr, Yangi davr, G'aznaviylar davri adabiyoti;
- V). Yangilanish davri: qadimiyatga qaytish davri adabiyoti, taraqqiyot va tanazzul davri;
- G). Ilk Islom davri, umaviylar davri, johiliya davri;
- D). Antik davr, Johiliya davri, Yangi davr.

17. "Yangilanish" davrida qaysi janr rivojlandi?

- A). Tardiyot;
- B). Hamriyot;
- V). Hikma;
- G). Vashf;
- D). Madh.

18. “Zuhdiyot” janriga kim asos soldi?

- A). Abu Nuvo;
- B). Abu Nasr;
- V). Abu-l-Atahiya;
- G). Bashshor ibn Burd;
- D). Abu Tammom.

19. “Kalila v Dimna” asarini arab tiliga kim tarjima qilgan?

- A). Xunayn ibn Is’hoq;
- B). Kosta ibn Luka;
- V). Abd-al-Hamid;
- G). Ibn al-Muqaffa;
- D). Al-Mumanabbiy.

20. Birinchi “Devon al-Hamosa” to‘plami muallifi kim?

- A). Isfaxoniy;
- B). Mutanabbiy;
- V). Abu Tammom;
- G). Al-Kindiy;
- D). Abd-al-Hamid.

21. Ikkinchi “Devon al-Hamosa” to‘plami muallifi kim?

- A). Ibn Qutayba;
- B). Al-Buxturiy;
- V). Ibn al-Mu’tazz;

- G). Al-Kindiy;
- D). Abd-al-Hamid.

22. V asf janrini qaysi shoir mustaqil janr darajasiga ko'tardi?

- A).Abu-l-Ataxiya;
- B). Al-Ma'arriy;
- V). Abu Tammom;
- G). Abu Bakr;
- D). Abd-al-Hamid.

23. "Uch zindon maxbusi" nomini olgan failasuf shoir kim?

- A).Abu Nuvos;
- B). Ibn Zaydun;
- V). Al- Ma'arriy;
- G). Tarafa;
- D). Zuhayr.

24. Jasorat, qaxramonlik an'analarini kuylagan shoir nomi nima?

- A). Ibn Darroj;
- B). Ibn Zaydun;
- V). Ibn Hamdis;
- G). Al-Mutanabbiy;
- D). Ibn al-Haniy.

25. Arab adabiyotida kichik hajmdagi nasriy janr qaysi?

- A). Navodir;
- B). Asotir;
- V). Rivoyat;
- G). Maqoma;
- D). Qasida.

26. Abu-l-Fath al-Iskandariy qaysi janrida yozilgan asar qahramoni?

- A). Xalq romani;
- B). Maqoma;
- V). Navodir;
- G). Qasida;
- D). Muvashshah.

27. Badiu-z-Zamon al-Hamadniy maqomalari asosiy qaxramonlari kim?

- A). Abu Zayd;
- B). Abu Abdulloh;
- V). Abu Bakr;
- G). Abu Nuvos;
- D). Abu Fath.

28. Badiyat ilmiga kim asos soldi?

- A). Ibn Qutayba;
- B). Ibn al-Mu'tazz;
- V). Ibn ar-Rumiy;
- G). Ibn Ishoq;
- D). Ibn al-Muqaffa'.

29. Badiyatga doir birinchi asar qaysi?

- A). Kitob as-Sinoatayni;
- B). Kitob al-Bayon;
- V). Kitob al-Badi';
- G). Kitob al-Adab;
- D). Kitob al-Nasr.

30. "Naqd ash-she'r" ("She'r tanqidi") asarining muallifi kim?

- A). Qudoma ibn Ja'far;
- B). Abu Hilol al-Askariy;
- V). Johiz;

- G). Ibn al-Mu'jazz;
- D). Ibn Rushdiy.

31. Kata hajmdagi nasriy asar-“Sira” o‘zbek tilida qanday nomlangan?

- A). Qasida;
- B). Qissa;
- V). Risola;
- G). Xalq romani;
- D). Rivoyat.

32. Andalus adabiyoti qanday davrlarga bo‘linadi?

- A). Taqlid davri, o‘tish davri, yangilanish davri;
- B). Johiliya davri, ilk Islom davri, xalifalar davri;
- V). Umaviylar davri, badaviylar davri, sosoniylar davri;
- G). Abbosiylar davri, qadim misr davri, g‘aznavilar davri;
- D). Yangilanish davri, taraqqiyot davri, tanazzul davri.

33. Taqlid davrida ijod qilgan shoirlarni ko‘rsating

- A). Abu Zayd, Abu Nuvos, Abu Tammom, Abu-l-Atahiya;
- B). Ibn Darroj, ibn al-Haniy, ibn Abdu Rabbihi;
- V). Abu Bakr, ibn Qutayba, Bashshor ibn Burd;
- G). Abu Fath, al-Ma’ariy, al-Mutanabbiy;
- D). Abu Nuvos, ibn al-Farid, Ibn Ja’far.

34. Andalus shariyatidagi Yangi janrni ko‘rsating.

- A). Marsiya;
- B). Hajviya;
- V). Muvashshah;
- G). Qasida;
- D). Musaddas.

35. Ispaniya tabiatini vasf qilgan shoirlar kimlar?

- A). Abu Zayd, Imru-l-Qays, Zuhayr;
- B). Abu Abdulloh, Abu Tammom, al-Buxturiy;
- V). Abu Bakr, al-Axtal, al-Jarir;
- G). Ibn Hamdis, Ibn Xafaji, Lisan ad-din al-Xatib
- D). Abu Nuvos, Labid, Bashshor.

36. “Al-Iqd al-Farid” asari muallifi kim?

- A). Ibn Darroj;
- B). Ibn Zaydun;
- V). Abu Nuvos;
- G). Ibn Kuzma;
- D)..Ibn Abd Rabbihi.

37. Kesh o’rta asr qaysi davrlarni o’z ichiga oladi?

- A). XIII-XIV
- B). XIII-XVI
- V). XIII-XV
- G). XIII-XVII
- D). XII asr oxiri-XVIII

38. Kech o’rta asr shoirlari she’riyatini ko’rsating.

- A). Imru-l-Qays, Antara, Shanfara
- B). Qays ibn Zarix, Jamil ibn Ma’mar, Qays al-Amiriy
- V). Al-Farazdaq, al-Jarir, al-Axtal
- G). Abu Nuvos, Bashshar ibn Burd, Abu-l-Ataxiya
- D). Bahauddin Zuhayr, al-Busiriy, Safiaddin al-Xilliy

39. Sufiylik she’riyati vakillarini ko’rsating.

- A). Umar ibn al-Farid, Ibn al-Arabiy, an-Nabulusiy
- B). Al-Mutanabbiy, Abu Ala al-Ma’arriy
- V). Abu Tammom, al-Buxturiy

- G). Ibn al-Muqaffa, Is'hoq ibn Xunayn**
- D). Ibn Zaydun, Ibn Darroj, Ibn Hamdis**

40. O'rta asr arab adabiyoti yodgorliklarini ko'rsating

- A). "Iliada", "Odisseya"**
- B). "Ramayana", "Mahabxarata"**
- V). "Ming bir kecha", xalq romanlari**
- G). "Hazar afsone", "Kalila va Dimna"**
- D). Kultegin yodnomasi, O'rxon-Yenisey bitiklari**

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr. Tadqiq qiluvchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I. Abdullaev – Toshkent: Fan, 1976
3. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2005.
4. Ibrohimov N.I. O'rta asr arab xalq adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1994.
5. Kalila va Dimna S. G'anieva tarjiması. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1966.
6. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
7. Xayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan (X-XV asrlar). –Toshkent: Fan, 1970.
8. Zamaxshariy M. Oltin shodalar. – Toshkent, 2010.
9. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asarida poetika. – Toshkent, 2001.
- 10.Абдуллаев И. Поэзия на арабском языке в Среднеазии и Хорасане X начало XII вв. – Ташкент: Фан, 1984.
- 11.Адам Мец. Мусульманский ренессанс. Перевод с немецкого. Предисловие, библиография и указатель Д.Е. Бертельса. – Москва: Наука, 1966.
- 12.Ал-Джахиз. Книга о скупых. Перевод с арабского, предисловие и примечания Х.К. Баранова. – Москва, 1965.
- 13.Ал-Фахури Х. История арабской литературы. - Т. 1-2. 1959, 1961.
- 14.Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1977.
- 15.Беляев Е.А. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековья. – Москва, 1960.
- 16.Гибб Х.А.Р. Арабская литература перевод с английского А.Б. Халидова. – Москва: 1960.

17. Гиргас В. Словарь к арабской хрестоматии и Корану. – Казан: Типография императорского университета, 1881.
18. Грюнебаум Г.Е. Основные черты арабо-мусульманской культуры. Статьи разных материалов. – Москва, 1961.
19. Иброҳимов Н.И. Арабский народный роман. – Москва: Наука, 1984.
20. Каххаров А.С. “Масал” в книге “Китаб ал-Хаяван” ал-Джахиза. Автореферат. – Тошкент, 1993.
21. Крачковский И.Ю. “Реторика” Кудами ибн Джаъфара. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 373-387.
22. Крачковский И.Ю. Ал-Мутанабби и Абу-л-Ала. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 63-114.
23. Крачковский И.Ю. Арабская поэзия в Испании. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 470-525.
24. Крачковский И.Ю. Арабская поэзия. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 246-265.
25. Крачковский И.Ю. Арабская поэтика в IX в. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 360-372.
26. Крачковский И.Ю. Аш-Шанфара, Песни пустыни. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 238-245.
27. Крачковский И.Ю. Китаб ал-бадеъ. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1960.
28. Крачковский И.Ю. Поэзия по определению арабских критиков. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 52-62.
29. Крачковский И.Ю. Поэтическое творчество Абул-Атахи. изб.соч. - Москва-Ленинград, 1956. - Т.2 с. 15-51.
30. Крымский А.С. История арабов и литературы. – Москва, 1914.
31. Куделин А.В. Классическая арабо-испанская поэзия. – Москва: Наука, 1973.
32. Куделин А.В. Средневековая арабская поэтика. – Москва, 1973-83.
33. Мухтаров Т.А. Сказки 101 ночи. – Ташкент, 1999. с. 120.

34. Мухтаров Т.А. Средневековая арабская новелла. – Ташкент, 1992. с. 118.
35. Мухтаров Т.А. Очерки средневековой арабской прозы. – Ташкент, 1991, Раздел Т.2. – Ташкент, 1992. с. 220.
36. Образцы доисламской поэзии арабов (V-VII в). – ТашГИВ, 1993.
37. Розен В.Р. Древнеарабская поэзия и ее критика. Спб. 1872.
38. Филштинский И.М. Арабская классическая литература. – Москва, 1985.
39. Филштинский И.М. Арабская литература в среднее века. Главная редакция восточной литературы. – Москва, 1977.
40. Шидфар Б.Я. Образная система классической арабской литературы. (VI-XII вв). – Москва, 1974.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
Kirish.....	5
I BOB. Qadimgi arab adabiyoti (V–VII asrlar)	9
1.1. Qadimgi arab sheʼriyati.....	9
1.2. Badaviy shoirlar sheʼriyati.....	19
1.3. Saroy sheʼriyati.....	35
II BOB. Qurʼonu Karim va ahodisi nabaviya	40
2.1. Hadis va muhaddislar.....	40
2.2. Imom al-Buxoriy.....	43
2.3. Imom at-Termiziy va uning “as-Sunan” asari.....	44
2.4. Ilk islom shoirlari.....	46
III BOB. Oʻrta asr arab adabiyoti (VII asr oxiri – XVIII asr).....	49
3.1. Ilk oʻrta asr adabiyoti (661-750 yillar).....	49
3.2. Umaviy saroy shoirlari.....	52
3.3. Hijozning muhabbat sheʼriyati.....	60
3.4. Ilk oʻrta asr arab nasri.....	66
IV BOB. Arab mumtoz adabiyotining gullab-yashnagan davri (VIII asr oʻrtalari – XII asr).....	69
4.1. Yangilanish davri adabiyoti (VIII-IX).....	69
4.2. Yangilanish davri sheʼriyati.....	71
4.3. Yangilanish davri nasri.....	77
V BOB. Qadimiyatga qaytish davri.....	87
5.1. Abu Tammom va al-Buxuriy ijodi.....	87
5.2. Adabiy jarayon.....	95

VI BOB. Adabiy taraqqiyot davri.....	102
6.1. she'riyat – al-Mutanabbiy ijodi.....	102
6.2. Abu Firas va Abu Ala al-Ma'arriy ijodi	109
VII BOB. Taraqqiyot davri nasri.....	120
7.1. Maqoma. Al-Hamadoniyy va al-Haririyy ijodi.....	120
7.2. Siratul-Antara.....	129
VIII BOB. VIII–XV Asrlardagi arab-islom (Andaluziya) adabiyoti.....	135
8.1. Taqlid davri adabiyoti.....	135
8.2. Yangilanish davri adabiyoti.....	141
IX BOB. Kech o'rta asr arab adabiyoti (XIII–XVIII asrlar)	149
9.1. She'riyat.....	149
9.2. Sufiylik she'riyati.....	154
X BOB. Kech o'rta asr nasri	158
10.1. «Ming bir kecha» («Alf leyla va leyla»).....	158
10.2. Xalq romani.....	171
Glossariy.....	178
Test savollari.....	181
Adabiyotlar.....	191